

SADRIDDIN AYNIY

ESKI
MAKTAB

YOSH KITOBXON



SADRIDDIN AYNIY

ESKI
MAKTAB


YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2020

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(5Toj)

A-39

Ayniy, Sadriddin

Eski maktab: qissalar / Sadriddin Ayniy. – Toshkent:
Yangi asr avlodi, 2020. – 240 b.

ISBN 978-9943-27-562-1

Atrofimizda turlicha tabiat egalari bor. Kimdir ochiq-ko'ngil – kimdir g'azabnok, kimdir shafqatli – kimdir mehrsiz, kimdir samimi – kimdir xushomadni yaxshi ko'radi. Ammo shunday tabiatli insonlar toifasi borki, ular nafaqat og'zaki gurunglarning, balki butun boshli asarlarning qahramonlari ga aylanganlar. Shunday qahramonlardan biri, shubhasiz, Sadriddin Ayniyning xasislikda, sudxo'rlikda dong'i ketgan Qori Ishkambasidir.

Boylik, mol-dunyo nafaqat ko'zini, balki butun ong-u shuurini egallab olgan Ishkamba obrazi, uning qarashlari, atrofdagi odamlar va yashayotgan muhitiga munosabati kitobxonning kulgidan ko'ra, g'azabini, ko'pchilik holatlarda esa chin dildan rahm-shafqat tuyg'usini uyg'otadi.

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84(5Toj)

ISBN 978-9943-27-562-1

© Sadriddin Ayniy, «Eski maktab», «Yangi asr avlodi»,
2020-yil.

NAVQIRON AVLOD XIZMATIDA

*Bugun kitob o'qigan bitta bola
ertaga televizor ko'rib o'tirgan
o'nta bolani boshqarishi mumkin.*

Sh.M.Mirziyoyev

Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish ayni paytda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Va tabiiyki, nashriyotlar zimmasiga bugungi kun o'quvchisiga tanlangan, bola tafakkurini yuksaltiradigan adabiyotlarni nashr etish vazifasini qo'ydi. Ushbu ma'rifiy jarayonlarda faol ishtirok etish va yosh kitobxonlarga yuksak saviyadagi adabiyotlarni taqdim etish maqsadida «Yangi asr avlod» nashriyoti navbatdagi loyihaga qo'l urdi. Loyiha maqsadi – avvalo maktab o'quvchilarini qamrab olish, bu borada ularning badiiy adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish, maktab darsliklariga qisman kiritilgan yoki faqat nomlari zikr etilgan asarlarni to'liq holda taqdim etish, shuning barobarida maktab o'quvchisi mutolaa etishi lozim deb topilgan, mutaxassislar tomonidan «o'qish shart» deya tavsiya etiladigan eng sara o'zbek va jahon adabiyoti namunalarini o'quvchilarga tanishtirishdan iborat.

Loyiha doirasidagi kitoblar yuz nomni tashkil etadi va o'quvchi ushbu kitoblarni o'n yillik maktab davrida to'liq mutolaa qilishi lozim, va bu bilan umid qilamizki, bir yilda o'nta, o'n yilda yuzta kitob o'qigan o'quvchi katta hayotga qadam qo'yar ekan, uning intellekti, dunyoqarashi, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, televizor ko'rgan o'nta boladan ancha yuqori bo'ladı.

Farzandlarimizni keng fikrli, salohiyatli, zakovatli bo'lib voyaga yetishida hissa qo'shadigan yuz nomdagi kitobni kutib oling, unutmang, «Yangi asr avlod» doimo navqiron avlod va ma'naviyat xizmatida!

Tahririyatdan

SUDXO'RNING O'LIMI



1895-yilda Buxoro madrasalaridan o'zim-ga bir turar joy axtarar edim. Qancha yugur-sam-yelsam ham tezlikda biron hujra qo'lga kirmadi. O'sha paytlarda bir do'stim menga maslahat yo'li bilan:

– «Qori Ishkamba» degan bir odam bor, u bir necha zarxarid hujraga egadir. Agar undan so'rasang, vaqtincha turmoq uchun o'z huj-ralaridan birini senga berar, – dedi.

Do'stimning bu maslahati mening diqqa-timni u odamning menga hujra berishi yo ber-masligidan ko'ra ko'proq uning nomi tomoniga tortdi:

– Qori Ishkamba?!

Haqiqatan, qiziq bir nom, hayvonlarning oshqozonini «ishkamba» deydilar. Qanday mu-nosabat bilan odamga «Ishkamba» nomini ber-ganlar?

Bu taajjubimni u do'stimga aytib, undan izoh so'radim. Do'stim tushuntirib berdi:

– U odamning nomi Qori Ismat. Ammo ba'zi-lar «Qori Ismati Ishkam», ba'zilar «Qori Ismati Ishkamba» va ba'zi birlar qisqartirib «Qori Ish-kamba» deydilar. Buning sababini bilmayman.

Lekin ajab emaski, u odamning qorni juda katta bo'lganligidan shu laqabni uning nomiga qo'shgan bo'salar-u, bora-bora laqab nom o'rniga o'tib qolgan bo'lsa.

– Xalq «Ishkamba» laqabiga loyiq ko'rgan odamdan biror yaxshilik umid qilib bo'lmasa ham, – dedim do'stimga, – siz meni u bilan tanishtiring, men undan «bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» qabilida bir hujra so'rab ko'raman. Bersa-ku, juda yaxshi, bermasa ham zarari yo'q, ammo «Ishkamba-odam»ning qanday maxluq ekanini bir ko'rib qolay.

– O'zim u bilan shaxsan tanish emasmanki, seni tanishtirsam, – dedi do'stim, – faqat duch kelgan vaqtida ko'cha-ko'yda senga ko'rsata olaman, undan keyin o'zing yo'lini topib tanishib olasan.

Men rozi bo'ldim.

II

Kunlardan bir kuni do'stim bilan Buxoroning Labi hovuzi Devonbegisida sayohat qilib yurib edik, do'stim sartaroshxonaga kirayotgan bir odamni menga ko'rsatib:

– Ana shu odam Qori Ishkamba, – dedi.

Men uning faqat orqasidan ko'rib qoldim, afti basharasiga ko'zim tushmadi.

– Unday bo'lsa men shu yerda qolaman, agar o'nqovi kelsa tanishib, hujra so'rayman, bo'lmasa aftini tanib olib, kelajak uchun yo'l hozirlayman, – deb do'stimdan ajraldim.

Men Qori Ishkamba kirgan sartaroshxona-ning oldiga borib, supachada o'tirdim va o'ziga bildirmasdan uni kuzata boshladim.

U o'rta bo'yli, qorni katta, semiz, bo'yni kalta va yo'g'on, boshi ham katta va sergo'sht bir odam edi, bo'ynining yo'g'onligi va yuzining sergo'shtligi shu darajada ediki, uning gavdasi suv to'ldirilgan meshday tekis ko'rinar edi. Agar uning qalin soqoli va sochi olinib, kiyimlari ham yechilib tashlansa, nortuyaning oshqozoniga o'xshab qolar edi, faqat farqi shundaki, bu tuyaning oshqozonidan kattaroq va tusi ham qizg'ishroq bo'lib, oy-u kuni to'lgan semiz, tullagan keksa bo'g'oz hayvonning xuddi o'zi bo'lib qolar edi.

Bunday qiyofani ko'rgan hamon mening ko'nglimga, «Ajab emaski, xalq bu odamning qorni kattaligi uchun emas, balki gavdasining yum-yumaloqligi uchun unga «Ishkamba» laqabini munosib ko'rgan bo'lsa», degan fikr keldi.

Durust, bu odamning qorni boshqa odamlar-ning qorinlaridan ko'ra juda katta edi, lekin gavdasining boshqa joylari, hatto bo'yni va yuzlari ham shunday yo'g'on va semiz ediki, uning a'zoyi badani shu katta qorin bilan tep-tekis bo'lib ketgan edi. Soch oldirish navbatni Qori Ishkambaga yetdi. Sartarosh ustarasini qayrab turib:

– Qani, bu yerga marhamat qiling, – deb unga oynaning oldidagi kursini ko'rsatdi.

Qori Ishkamba gavdasining og'irligidanmi yo biron kasalligi sababidanmi, zo'rg'a o'rnidan

turdi. Lekin yuzining yaltirab, qizarib turganidan uning semizlikdan boshqa kasali yo'qligi bilinar edi.

U o'rnidan turib, uzoq esnagandan keyin ikki qo'llab sallasini boshidan oldi va sartaroshxonaning devoridagi lungilar osilgan qoziqqa ilib qo'ymoqchi bo'ldi.

Lekin sartarosh bunga yo'l qo'ymadni va chaqqonlik bilan qo'lidagi ustara va qayroqni oyna oldidagi javon ustiga qo'ydi-da, sallani ikki qo'llab Qori Ishkambanining qo'lidan olaturib:

– Sallangiz shunday katta va og'irki, agar u yerga ilsangiz, qoziq sinib, lungilar yerga tuшиб, tuproqqa belangan bo'lur edi, – dedi va sallani supacha ustiga qo'ydi.

– Xayriyatki, – dedi Qori Ishkamba, – lungilaringiz tufayli mening sallamni ham tuproqqa belanishdan qutqardingiz, bo'lmasa besh misqol sovunga kuygan bo'lar edim.

– Sizning sallangiz tuproqqa tushsa hech bir zararlanmas edi, – dedi sartarosh, – ko'pdan beri jomashov yuzini ko'rmagan bo'lsa kerakki, tuproqdan ham farqsizroq holga kelgan.

Haqiqatan ham Qori Ishkambanining sallasi pechlariga qozon sochiq qistirib o'ragandek, parcha-parcha qora dog'lar ko'rinar edi.

Men o'ylardim: «Bir salsa qancha katta va qanday og'ir bo'lsa ham qoziqni sindirolmasisligi aniq». Buni sartarosh ham yaxshi bilar edi, ammo uning sallani qoziqqa ildirmaslikdan maqsadi uning kirini lungilarga yuqtirmaslik edi.

– Bunday katta sallani haftada bir joma-shovga solish mumkin emas, – dedi Qori Ishkamba, – u holda sovunning uyi kuyadi.

– Nega bo'lmasa kichikroq qilmaysiz? Kichik-roq bo'sa-ku, doka ham ozroq ketadi, sovun ham ko'p sarf bo'lmaydi, – dedi sartarosh.

– Bu sallam – yirtish oluvchi salla, – dedi Qori Ishkamba javobida, – buni boshimga o'rab mozorboshida, o'liklarni ko'mayotgan chog'da hozir bo'sam boshqa odamlarga bir gazdan yirtish berayotgan bo'salar, menga ikki gaz beradilar.

Sartarosh gapira-gapira ustaranı qayrab oldi. Ustara bilan o'z bilagidagi junlarni taroshlab, o'tkirligini sinab ko'rgandan keyin Qori Ishkambaning bo'yniga lungini o'rab yana ga-pira boshladи:

– Sizni tanimaganlar albatta janozalariga xabar qilmaydilar, taniydigانlar bo'sa xoh sallangiz katta bo'sin, xoh kichik bo'sin, sizga munosib ko'rilgan o'lchamda yirtish beradilar. Buning uchun sallani katta qilib, dokani nobud qilish nega kerak?

– Siz sodda ekansiz, – dedi Qori Ishkamba, – agar meni janozalariga xabar qiladigan o'liklarning yirtishlariga qarab tursam, soch oldirish pulini qayerdan topaman? Men kunda peshin namozi vaqtida Devonbegi xonaqohining sahnida hozir bo'laman. Janoza o'qish uchun u yerga keltirilgan har bir o'likning (tanish bo'sin, bo'masin) «xudoyi» janozasini o'qib, uning orqasidan qabristongacha boraman va nasi-

baga yarasha yirtish olib qaytaman. Agar o'lik egalari meni tanimasalar yana ham yaxshiroq, u vaqtida sallamning kattaligiga qarab kattaroq yirtish beradilar.

– Siz soch oldirish uchun ortiqcha pul ham to'lamaysiz-ku, uning tashvishini chekib nima qilasiz? – dedi sartarosh bir kaft suvni Qori Ishkambaning boshiga quyib, sochlarini ishqalab turgani holda, – boshqa odamlar haf-ta-o'n kunda soch oldirib tursalar, siz ikki oyda bir marta soch oldirasiz, ustara haqini ham boshqalar beradiganning yarmisicha berib qochasiz.

Qori Ishkamba biroz zarda qilib, boshini sartaroshning qo'li ostidan tortdi va bo'yini cho'zib, boshini ko'tarib, ko'zini sartaroshning yuziga tikib, dedi:

– Men xoh haftada bir marta soch oldiray, xoh ikki oyda bir, buning sizga hech bir aloqasi yo'q. Mening sochim xoh o'sib ketgan bo'lsin, xoh o'smagan bo'lsin, siz bir marta ustara urasiz, uzun soch uchun ikki marta ustara ishlatmaysizki, mehnatingiz ortiq sarf bo'lsa. Agar men soch oldirish haqini boshqalardan ko'ra kamroq bersam, bu to'g'rida shikoyat qilishga haqingiz yo'q, chunki o'zingiz ko'rib turibsizki, boshimning yarmisi sochsizdir va siz u yerga hech bir ustara urmaysiz.

Men Qori Ishkambaning keyingi so'zlaridan ogohlanib, uning boshiga qaradim, darhaqiqat, boshining tepasi sochsiz va terisi burma-burma bo'lib, qotib qolgan ekan.

Sartarosh Qori Ishkambanining buzilgan kayfini tarqatish uchun bo'lsa kerak uzr ohangi bilan:

– Men hazil qildim, Qori amaki, – dedi, – xoh ko'p haq bering, xoh oz, sizning pulingiz tabarruk. Ikki boshdan men boy bo'lmayman, qaysi sartarosh yo kosib boy bo'lganki, men boy bo'lar edim.

– Boylik, qashshoqlik Xudodan, – dedi Qori Ishkamba ishontiruvchi bir ohang bilan, lekin uning masxaralab, iljayib turishidan o'zining haligi so'ziga ishonmaganligi bilinib turardi.

Sartarosh Qori Ishkambanining sochini olib bo'ldi, lungini uning bo'ynidan olib, bir chekkada turgan quti ustiga olib borib qoqdi. Lungini sochlardan tozalab, qayta boshdan Qorining bo'yniga o'rabi, uning boshiga suv quymoqchi bo'lganida:

– Kerakmas, – dedi Qori Ishkamba, – mo'ylovimni qaychilasangiz bas, boshning kirini tozalattirishga fursatim yo'q.

– Nega? Biron janozaning vaqt vaqinlashdimiki, muncha shoshilasiz?

– Janoza uchrasha soat o'n ikkilarda xonaqoh sahnida uchraydi, – dedi Qori va sartaroshxonaning devorida osilgan soatga qarab, yana dedi:

– Hali soat o'n, boshqa zarur ishim bor.

– Yana qanday zarur ish ekan u? – deb so'radi sartarosh.

– Shu vaqt bank xodimlarining choy ichish vaqlari, agar biroz kechiksam choydan qolaman.

– Xo'p, unday bo'lsa... – dedi sartarosh salmoqlab va Qorining labini ikki barmog'i bilan burib ushlab, mo'ylovini qaychilashga kиrishdi.

Men bu so'z va bu hollarning hech biridan Qori Ishkambaning qanday odam ekanligini aniqlay olmay qoldim. Men «Agar bu odam bir necha zarxarid hujraning egasi bo'lsa, nega o'zining tirikchiliginu, hatto soch oldirish pulini tanimagan o'liklarning yirtishi ustiga qo'ygan, holbuki bunday ish uysiz-joysiz, qo'lidan hech bir ish kelmaydigan gadoylarning ishi. Agar haqiqatan bu odam uysiz-joysiz gadoyday bo'lsa, nega o'zini bank xodimlari bilan oshna ko'r-satadi, hatto ularning tushlik payti ustiga yetib borishni zarur sanaydi? Har holda bu qiziq maxluq ko'rindi. Buni ta'qib qilib yaxshigina tanishib olishim kerak. Hujra so'rash masalasi bunga bir bahona bo'ladi...» derdim o'z-o'zimga. Sartarosh Qori Ishkambaning mo'ylovini qaychilab bo'lgan hamon u o'rnidan irg'ib turdi va sallasini supachadan olib, boshiga qo'ndirdi-da, sartaroshxonadan chiqdi.

– Qori amaki, soch oldirish puli nima bo'ldi?
– deb sartarosh uning orqasidan tovush ber-ganda u qayrilib qaramasdan va qadamini se-kinlatmasdan:

– Maydam yo'q, yana soch oldirganda ikkisi-ni bir qo'shib beraman, – deb tezroq yurib ketdi va bir nafasda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

III

Ikkinchı kuni men yana Qori Ishkambaga duch kelib, iloji bo'lsa u bilan tanishish niyatida ko'chaga chiqdim. Labi hovuzi Devonbegini aylanib xonaqohning janub tomonidan boshlanadigan bazzozlik rastasiga tushdim. Bazzozlik do'konlari oldida o'tirgan odamlarni bir-bir ko'zdan kechirib, bu rastaning g'arb tomondagi adog'ida bo'lgan Sesuvga¹ chiqdim-da, u yerdan shimal tomonga qarab boradigan rastaga burildim. Bu rasta chinni bozori bo'lib, o'rta belida sandiq saroyi va sandiq sotiladigan do'konlar bor edi.

Rastada hali o'n qadam ham bosmagan edim, ko'zim Qori Ishkambaga tushdi. U bir chinnifurushning do'koni supachasida oyog'i-ni osiltirib o'tirar edi. Men ham uning ro'parasiga yaqinroq borib, eshigi yopiq bir do'konning supachasiga o'tirdim va sichqon poylagan mushukday ikki ko'zimni uning tomoniga tikdim. Chinnifurushning oldida bir choynak choy bo'lib, u choydan piyolaga quyib, navbat bilan bir daf'a o'zi, bir daf'a Qori ichishar edilar. Shu vaqtda bir novvoy boshida bir savat, qo'lida bir savat non bilan «suvi moy, uni shakar, issiq non. Ehtiyot bo'l, qo'ling kuyadi!» deb rastadan o'ta berdi...

Qori Ishkamba novvoyni chaqirdi, novvoy uning oldiga borib, qo'lidagi savatni pastlat-

¹ Yo'lning uch tomonga avrilegan jovi.

ganda u ikki dona qip-qizil nonni tanlab oldi. Nonlarni sindirib chinnifurushning yelpig'ichi ustiga tashladi va bir burdani og'ziga tiqqandan keyin qo'lini yon cho'ntagiga soldi.

Men uning bu ishidan juda taajjubda qoldim, uning bu ishi tunov kun sartaroshxonada ko'r-ganim odamning ishlariga o'xshamas edi: tunov kun u o'zini, tirikchiligi o'liklarning yirtishi ustiga qolgan isqirt bir odam qilib ko'rsatgan edi, soch oldirishda boshining sochsiz joylariga hisoblab, oxiri haq bermasdan qochib ketgan edi: bugun bo'lsa savdolashmasdan ikki nonni oldi, uni boshqa bir odamning do'koni oldida sindirib, birgalashib yeyishi bilan bu kun u mening ko'zimda «Hotami Toyi» bo'lib ko'rindi.

Qori Ishkamba cho'ntagiga tiqqan qo'lini olib boshqa cho'ntagiga tiqdi. Bu orada tag'in bir burda non olib lunjiga joyladi. Novvoy: «Tez bo'ling, Qori amaki, menga pulini uzating, men ketay, nonim sovib, bozordan qolmasin», – deb qistar edi.

Qori Ishkamba hamma cho'ntaklarini axtarib bo'lgandan keyin chinnifurushga qarab:

– Uka, shu nonlarning pulini siz berib turing, cho'ntagimda pulim yo'q ekan, agar pulim yo'qligini boshdan bilsaydim, nonlarni sindirmas edim, – dedi va o'zi xotirjam bo'lib, ikki qo'llab non yeyishga kirishdi.

Chinnifurush manglayini burishtirib, bir nonga qaradi, bir Qoriga, oxiri novvoydan nonning narxini so'ragandan keyin g'aladonidan pul chiqarib, to'lab yubordi.

Ammo Qori Ishkamba novvoyga ham, chin-nifurushga ham qaramay ikki ko'zini nonga tikanicha lunjiga non burdalarini tiqmoqda edi. Faqat chinnifurush novvoyni uzatib, o'z oldiga quyib qo'yilgan choyni ichayotganida Qori Ishkamba unga qaramagani holda qo'li bilan uni non yeishga taklif qildi.

Chinnifurush nondan bir burda olib yeb, qo'lidagi piyolani bo'shatguncha, Qori Ishkamba sindirilgan nonlarni yeb tugatayozgan va yelpig'ich ustidagi sindirilgan non kamaygan sari Qori Ishkambaning ishtahasi orta borardi. Oxiri shu darajaga yetdiki, chaynalmagan non bilan to'lgan lunjini qimirlata olmaydigan, tomog'idan non o'tmaydigan va og'zi gapirishga imkon topolmaydigan bo'ldi. Qo'li bilan chin-nifurushga choynakni ko'rsatib, ishorat bilan bir piyola choy quyib berishni so'radi. Chinnifurush iljaygani holda piyolaga choy quyib, unga uzatdi. Qori Ishkamba bir qo'lini yelpig'ich ustida qolgan eng oxirgi bir burda non ustiga qo'ygani holda ikkinchi qo'li bilan piyolani olib, bir ho'plam choy ichdi. Shu bilan og'zidagi nonlar yumshab, lunji biroz bo'shagan bo'lsa kerakki, eng oxirgi non burdasini ham og'ziga tiqdi va piyoladagi choyni xo'rillatib ichgandan keyin og'zidagi nonlarni chaynay-chaynay o'nidan turib ketdi. Men ham uning orqasiga tushdim...

Qori Ishkamba yo'l yurishda uncha shoshilmas edi, asta-asta qadam tashlab, ikki tomon-dagi do'kon va do'kondorlarni bir-bir ko'zdan

kechirar, ko'zi ko'ziga tushgan odamlar bilan «salom-alik» ham qilar edi.

U bir necha qadam yurgandan keyin sandiq-saroyi oldida bir sandiqfurush do'konining supachasiga o'tirdi. Sandiqfurushning o'zi do'konining ichkarirog'ida o'tirardi, oldiga hisob cho'ti tik qo'yilgan bo'lib, labi pichirlar edi.

Qori Ishkamba o'tirgani hamon yonboshlab, qo'lini cho'tning orqasiga uzatdi-da, u yerdan bir narsani olib og'ziga tiqdi.

Men sandiqfurush do'konining yonida o'tirarga joy topmadim, noiloj qolib uzoqroqda bir bo'sh joy topib o'tirdim. Lekin u yerdan turib Qori Ishkambaning ishlarini payqay olmas edim. Faqat sandiqfurush do'konining oldidan o'tayotganimda shuni sezzdimki, u (o'tgan-ketganlarning ko'zidan yashirmoqchi bo'lib) hisob cho'ti panasiga bir narsani qo'yib yemoqda ekan, shunday bolsa ham Qori Ishkambaning «o'tkir ko'zi» uni ko'rgan va ola solib u yerga o'tirib, u narsani yeishda sandiqfurushga yordamlasha boshlaganini payqadim, u narsanining nima ekanligini aniqlay olmadim.

Qori Ishkamba sandiqfurush do'konida ko'p o'tirdi, yeydigan narsani yeb bo'lganidan keyin o'rnidan turib do'ppi va shohi bozori bo'lgan «timcha»ga kirdi. Bu «timcha» deb atalgan bozor chinnifurushlik rastasi bilan attorlik rastasi orasida ko'ndalang bo'lib, ikki rastani bir-biroviga tutashtiradigan usti yopiq torgina bir yo'lakcha edi.

Men timchadan ancha uzoqlikda o'tirgan joyimdan turib, Qori Ishkambaning orqasidan yetishmoq uchun darrov yo'lga tushdim va timchaga kirib, unga yetib oldim. U ham bu gal biroz tez yurar, ikki tomondagi do'kon va do'kon-dorlarga ko'p qaramas edi. Faqat bora turib bir do'ppifurushning do'koni oldida to'xtab qoldi.

Tevarakda munosib o'tirar joy bo'limganidan men ham o'zimni xaridor ko'rsatib, do'ppifurush do'konining oldida turdim.

Qori Ishkamba do'ppifurush bilan salomlashgandan keyin undan:

– Mening do'ppilarimni sotdingizmi? – deb so'radi.

– Yo'q, hali sotganim yo'q, – dedi do'kondor.

– Sotgansizku-ya, lekin pulini bir necha kun ishlatmoqchisiz? – deb Qori Ishkamba do'kon-dorning gapiga ishonmaganligini bildirdi.

– Qori amaki, siz odamga ishonmaydigan bir kishisiz, – shunday degani holda do'konlar orqasiga qayrilib qo'lini rafchalarning biriga uzatdi va ustma-ust qo'yilgan bir dasta do'ppini olib, Qori Ishkambaga ko'rsatdi:

– Shular sizning do'ppilaringiz emasmi?

– Shular mening do'ppilarim, – dedi va qo'shimcha qildi, – boshda ham men sizning gapingizga ishongandim, faqat bir hazil qilgan edim-da, darrov achchig'ingiz kelmasin.

– Nega achchig'im kelsin? Sizning munaqa «hazil» laringizni endi eshitayotganim yo'q-ku.

– Xo'p, hazilni bir yoqqa qo'yaylik, – dedi Qori Ishkamba, – men bu kun pulga juda muhto-

man. Bir ish qilib shu do'ppilarning pulini, hech bo'limganda yarmisini berib tursangiz, meni juda minnatdor qilgan bo'lar edingiz. Shunday qiling, jon uka! Illohim bolalaringizning to'yini ko'ring!

– Bu gapingiz hazil bo'lsa ham yaxshi emas, chin bo'lsa ham, – dedi do'ppifurush jiddiy ohang bilan.

– Nega?

– Shuning uchunki, – dedi do'ppifurush, – siz mendan o'z do'ppilaringizni chakana narx bilan sotib berishni so'ragan edingiz, agar men o'z dastmoyamdan sizga bularning pulini avvaldan berib qo'yib, keyin bitta-bitta sotib, u pulning o'rnini to'ldirsam, menga foyda bo'lmaydigina emas, balki zarar bo'ladi. Chunki sizning o'zingiz har yuz tangangiz uchun mening o'zimdan har oyda ikki yarim tanga foya olasiz. Shunday bo'la turib, «o'z pulingdan menga berib tur», deysiz.

Qori Ishkamba do'ppifurushning bu gapiga javob topolmaganidan bo'lsa kerak, o'ylab qoldi va do'ppifurush yana so'zga kirishdi:

– Bo'lmasa bir ish qilaylik – na six kuysin, na kabob.

– Qanday ish? – deb so'radi Qori Ishkamba.

– Siz o'z do'ppilaringizni ko'tara narx bilan baholab menga soting, men ham bularning pulini sizga naqd to'lay, undan keyin chakana narx bilan o'z hisobimga bitta-bitta sotay, u holda menga ham bir narsa qoladi, siz ham pulingizni hozirdan olasiz, nima deysiz?

Men timchadan ancha uzoqlikda o'tirgan joyimdan turib, Qori Ishkambaning orqasidan yetishmoq uchun darrov yo'nga tushdim va timchaga kirib, unga yetib oldim. U ham bu gal biroz tez yurar, ikki tomondagi do'kon va do'kon-dorlarga ko'p qaramas edi. Faqat bora turib bir do'ppifurushning do'koni oldida to'xtab qoldi.

Tevarakda munosib o'tirar joy bo'lmaganidan men ham o'zimni xaridor ko'rsatib, do'ppifurush do'konining oldida turdim.

Qori Ishkamba do'ppifurush bilan salomlashgandan keyin undan:

- Mening do'ppilarimni sotdingizmi? – deb so'radi.
- Yo'q, hali sotganim yo'q, – dedi do'kondor.
- Sotgansizku-ya, lekin pulini bir necha kun ishlatmoqchisiz? – deb Qori Ishkamba do'kon-dorning gapiga ishonmaganligini bildirdi.
- Qori amaki, siz odamga ishonmaydigan bir kishisiz, – shunday degani holda do'konlar orqasiga qayrilib qo'lini rafchalarning biriga uzatdi va ustma-ust qo'yilgan bir dasta do'ppini olib, Qori Ishkambaga ko'rsatdi:
 - Shular sizning do'ppilaringiz emasmi?
 - Shular mening do'ppilarim, – dedi va qo'shimcha qildi, – boshda ham men sizning gapingizga ishongandim, faqat bir hazil qilgan edim-da, darrov achchig'ingiz kelmasin.
 - Nega achchig'im kelsin? Sizning munaqa «hazil» laringizni endi eshitayotganim yo'q-ku.
 - Xo'p, hazilni bir yoqqa qo'yaylik, – dedi Qori Ishkamba, – men bu kun pulga juda muhtoj-

man. Bir ish qilib shu do'ppilarning pulini, hech bo'limganda yarmisini berib tursangiz, meni juda minnatdor qilgan bo'lar edingiz. Shunday qiling, jon uka! Ilohim bolalaringizning to'yini ko'ring!

– Bu gapingiz hazil bo'lsa ham yaxshi emas, chin bo'lsa ham, – dedi do'ppifurush jiddiy ohang bilan.

– Nega?

– Shuning uchunki, – dedi do'ppifurush, – siz mendan o'z do'ppilaringizni chakana narx bilan sotib berishni so'ragan edingiz, agar men o'z dastmoyamdan sizga bularning pulini avvaldan berib qo'yib, keyin bitta-bitta sotib, u pulning o'rnini to'dirsam, menga foyda bo'lmaydigina emas, balki zarar bo'ladi. Chunki sizning o'zingiz har yuz tangangiz uchun mening o'zimdan har oyda ikki yarim tanga foyda olasiz. Shunday bo'la turib, «o'z pulingdan menga berib tur», deysiz.

Qori Ishkamba do'ppifurushning bu gapiga javob topolmaganidan bo'lsa kerak, o'ylab qoldi va do'ppifurush yana so'zga kirishdi:

– Bo'lmasa bir ish qilaylik – na six kuysin, na kabob.

– Qanday ish? – deb so'radi Qori Ishkamba.

– Siz o'z do'ppilaringizni ko'tara narx bilan baholab menga soting, men ham bularning pulini sizga naqd to'lay, undan keyin chakana narx bilan o'z hisobimga bitta-bitta sotay, u holda menga ham bir narsa qoladi, siz ham pulingizni hozirdan olasiz, nima deysiz?

– Bunday savdo menga to‘g‘ri kelmaydi, u vaqtda do‘ppilar pulining qariyb to‘rtadan biri qo‘limdan ketadi, – dedi Qori Ishkamba va ketmoqchi bo‘ldi.

– O‘tiring! Do‘ppilaringiz puli ustidan bitta choy damlay, – dedi do‘ppifurush hazillashib.

– Rahmat, men hozir bankga borib choy ichaman, – dedi Qori va kulib qo‘srimcha qildi, – mening do‘ppilarim pulidan bo‘ladigan choyga na sizning tishingiz o‘tadi, na o‘zimniki.

Do‘ppifurush Qori Ishkambaning bu gapiga kularkan, mendan:

– Sizga nima kerak? – deb so‘radi.
– Do‘ppi!

Ketarmon bo‘lib qadamini olg‘a bosgan Qori Ishkamba mening bu gapimni eshitib, yo‘ldan qaytib to‘xtab qoldi va do‘ppifurushga qarab:

– Bu kishiga mening do‘ppilarimdan ko‘rsating! – dedi.

Do‘ppifurush Qori Ishkambaning do‘ppilari ni dastasi bilan mening qo‘limga berib:

– Mana bulardan birortasini tanlang! – dedi. Men ham ularning orasidan bittasini ajratib:
– Mana shunisi qancha turadi? – deb so‘radim.
– Besh tanga, – dedi do‘ppifurush.
– Ikki tanga! – dedim men do‘ppilarni dastasi bilan uning qo‘liga qaytarib berib.

– Insof qiling, uka, – dedi Qori Ishkamba menga qarab, – bularning har biriga to‘rt tangalik mahsulot sarf bo‘lgan, aqalli o‘sha mahsulotning pulini bering, tikish haqini sizga bag‘ishlasinlar.

– Bu kishi do'ppi olmaydilar, – dedi do'kondor do'ppilarni rafchaga qo'ya turib; – bekorga xomtama bo'lman.

Qori yo'nga tushdi, men ham...

Qori Ishkamba timchaning attorlik rastasiga o'tiladigan tomondan chiqib, bir attorning do'koni oldida to'xtadi. Men ham do'ppi-furush do'koni yonidagi tajribamni ishlatib; o'zimni xaridor ko'rsatib uning yoniga borib turdim.

Qori Ishkamba attor bilan salomlashgandan keyin unga:

– «Avarasi» hisobidan bir tishlam gulqand bering, ishtahadan qolibman, – dedi.

Attor kulimsirab, oldidagi mis tosning qopqog'ini ochdi va uning ichidan temir belcha bilan yong'oqday gulqand uzib, Qoriga uzata turib dedi:

– Xayriyatki, ishtahadan qolgan ekansiz, Qori aka, bo'lmasa butun dunyoni yeb qo'yari edingiz.

Qori Ishkamba belchani attorning qo'lidan olib, uning uchidagi gulqandni tishi bilan oldi va belchani attorga uzatib:

– «Avarasi» juda ham kichik bo'lipti, tishlarimning kovagida yo'qolib ketdi, – dedi.

– Do'konim kichkina, mollarimning bori bobo olib nabira sotadigan mollar, bu holda «avarasi» bundan katta bo'lmaydi.

– Xo'p, «avarasi» uchun bo'lmasa Xudo uchun yana bir tishlam bering, duo qilaman, – dedi Qori Ishkamba.

Attor yana bir tishlam gulqand uzib, belcha bilan Qoriga uzatdi, Qori bu dafa belchani attorning qo'lidan ola turib, menga qarab:

– Uka, menda biron ishingiz bormi? – dedi to'satdan.

Men uning bu savolidan shoshib qoldim, chunki bunday savolni undan kutmagan va javobiga hozirlanmagan edim. Men: «Ha, sizda ishim bor, ovloq yerda aytaman» deb, uni bir chekkaga tortib, hujra masalasini uning oldiga qo'yish o'rniga boshqacha harakat qildim: attor agar: «Ha, uka, sizga nima kerak» desa, uning javobi uchun hozirlab qo'ygan so'zimni telbalanib, Qori Ishkambaga aytib yubordim:

– Ha, menga murch kerak! – dedim.

Albatta bu javob Qori Ishkambaning: «Uka, menda biron ishingiz bormi?» degan savoliga tamoman aloqasiz bo'lib tushdi. Buni darhol o'zim ham sezdim, shuning uchun tezlik bilan qo'limga yon cho'ntagimga tiqdim, darrov biroz murch olib, u yerdan qochmoqchi bo'ldim. Baxtga qarshi, cho'ntagimda biron pul ham yo'q ekan, qizarib-bo'zarib attorga qarab:

– Hozir yonimda pulim yo'q ekan, borib pul keltirib, so'ngra olaman, – dedim-da, tura solib u yerdan qochdim.

Attorning do'konini oldidan uzoqlashayotganimda ko'zimning qiri tushdi: Qori Ishkamba quyi labini yuqori labi ustiga tortib, mening haqimda nimanidir ishorat bilan attorga anglatmoqda edi.

* * *

Bugun ham mening «ovim» yurmadi. Yurmadigina emas, tuzoq oldiga kelgan «ov» hurkib qochgan edi, bundan buyon uning orqasidan tushish yo'li men uchun to'silgan edi; Qori Ishkamba oldida sharmanda bo'lgan edim. «Murch olishim»ning yolg'onligi uning oldida kun kabi oydin edi. Men murch olmasdan «murch yegan»¹ edim, hatto u «murch olishim»ga qiyos qilib «do'ppi olishim»ning ham yolg'onligini bilib olgan edi.

Endi pushaymon qilish o'rinsiz, «afsus» foya da bermas, ov tuzoqdan qochgan, qush qo'ldan uchgan edi.

Shuningdek, men u bilan tanishish va uning ahvolini o'rganishdan umidimni uzmagan, faqat bu maqsadga yetishish uchun boshqa yo'llar, boshqa tadbirlar izlamoqda edim. Oxir xayolimga mana shunday bir fikr keldi: uning uyi manzilini topaman, to'ppa-to'g'ri uyiga boraman, uning oldida «do'ppi olishim» va «murch olishim»ning yolg'onligiga iqror bo'laman, «sizning orqangizga tushishdan maqsa dim, siz bilan tanishib, sizdan hujra so'ramoq edi», deyman. Shu bilan ham sharmandalik dan qutulaman, ham u bilan tanishib ola man. Shundan keyin uning ahvolini o'rganish uchun menga yo'l ochiq bo'ladi.

¹ Buxoro istilohicha, firib yemoq, aldanmoqdir.

Se ixtisariy. Hovuzi o'stida.

Qori Ishkamba uyining manzilini izlab yurgan kunlarimdan birida Labi hovuzi Devonbegining shimolida bo'lgan choyfurushlik rastasidan o'tar edim. Bu rastaning o'rta belida, Ko'mir bozori ko'chasining ro'parasida «Jannatmokoniy» atalgan bir saroy bor. Bu saroy darvozasining ikki yoniga ikki supacha qurilgan edi. Bu supachalarning birida Rahimi Qand degan bir kishi qand, konfet va boshqa shirinliklar solingan la'lisiini¹ oldiga qo'yib, sotib o'tirardi. Men ham ba'zi vaqt u supachalarning boshqa birida o'tirib, Rahimi Qandni gapga solardim. Bugun ham o'sha supachaga borib o'tirdim.

Rahimi Qand uzun bo'yli, oriq, chuvak yuzli, bug'doy tusli, soqoli to'la darajada ko'sa bo'lib, o'zi juda qiziq odam edi. Men uning gaplarini zavq bilan tinglar edim. Bu odamning tug'ilgan yeri Shofirkonning «Istamziy» qishlog'i bo'lib, Buxoroda tanburchilik qilar edi.

U juda kambag'al, ayolmand va bechora bir kishi bo'lib, o'z kasbi – tanbur chalishda ham uncha mahorati yo'q edi. Buning ustiga u sho'rpeshana, qayg'uli va juda kamgap edi. Agar gapirsa ham jiddiynamo so'zlar gapirar, o'z zamondoshi bo'lgan kasbdoshlariday hazilkashlik, sho'xlik, qiziqchilik va xushomadgo'ylik, laganbardorlik kabi ishlarni bilmas yoki qilmas edi. Shuning uchun uni boylar o'z to'y

¹ Barkash, patnus.

va bazmlariga olib bormas, olib borsalar ham bunga uncha mablag' bermas edi. Xaridori oz bo'lganligi sababli, agar uni biron odam o'z to'yi va bazmiga olib borsa, o'ttiz tiyinga baravar keladigan Buxoroning ikki tangasiga rozi bo'lar edi.

Uning ish haqi boshqa xonanda va sozanda-larga ko'ra ko'p arzon bo'lgani uchun mullavachchalar o'z «ijtimoana»lariga¹ ko'pincha uni olib borar edilar. Men u bilan shunaqa «ijtimoana»lardan birida tanishgan edim.

Ba'zi vaqt mullavachchalar o'z bazm majlislarida unga ko'p azob berardilar. Bir kecha mana shunday bir voqea yuz bergen edi.

Bir yil hamsaboqlarimiz har yildagiday domla mudarris oldida kelajak yilning darsini boshlab qo'ymoqchi bo'ldilar. Yangi dars boshlash uchun albatta domlaga sulukat² qilish kerak edi. Buning uchun o'zaro pul to'pladilar. Yuz nafarcha bo'lgan bu madrasa ahlidan bir ming besh yuz tanga pul yig'ildi. Bu mablag'ning bir ming to'rt yuz tangasini «xolvayi»ga sarf qildilar. Non, mayiz, turli holvalar, domla uchun choynon oldilar hamda domlaga naqd pul berdilar.

Darsni boshlab, domla oldidan o'tgandan keyin qolgan yuz tangani «ijtimoana»ga sarf qildilar. Yuz nafar mullavachcha va yigirma nafarcha mehmon uchun palov, misholda, murabbo va non tayyorladilar.

¹ O'tirishlariga, harifonalariga.

² Madrasa talabalarining mudarrislarni ziyofat qilib fotiha olishlari.

Bu majlisning sozandasasi shu Rahimi Qand edi. Uni ikki tangaga savdolab olib kelgan edilar. U tanbur chalar va mullavachchalarining o'z oralaridan yetishgan xushxonlari ashula aytar edi.

Xushxon mullavachchalar bir necha nafar edilar-u, ular navbat bilan ashula aytardilar, ammo Rahimi Qand yolg'iz o'zi dam olmasdan tanbur chalishga majbur edi. Vaqt yarim kecha bo'lganda u tamoman holdan toyib qoldi. Barmoqlari madorsizlanib, tanbur toriday titramoqqa boshladi. Lekin mullavachchalar uning holiga qaramasdan, «Yana chal!» deb qistardilar.

Oxiri u ham o'zining uzil-kesil gapini aytdi:

– Agar o'ldirsangizlar ham endi chalolmayman! – dedi.

– Hali gap shumi, – dedi xushxon mullavachchalardan Amini Mush¹ degan birovi do'q urib.

– Gap shu! – dedi Rahimi Qand qat'iyat bilan.

– Sheriklar, turinglar, «xar murd»², – dedi Amini Mush majlis ahliga qarab va o'zi hammandan birinchi turib Rahimi Qandni yerga yumatib bosdi. Boshqa bir necha mullavachchalar turib, uni ura boshladilar.

Rahimi Qand avval «dod» dedi, «voy» dedi, so'ngra urayotganlarga yalindi, yig'ladi-siqtadi, ammo bu yalinish-yolvorishlarning hech biri foyda bermadi. Ular uni kuchlari boricha urmoqda edilar.

¹ Amin Sichqon.

² «Eshak o'ldi».

Oxiri Rahimi Qand bo'g'ilgan ovoz, qisilgan nafas bilan hiqillab:

– Xo'p, qo'yvoringlar «taqsirchalar», yana biroz chalib beraman, – dedi.

«Xar murd»chilar undan qo'l tortdilar. U zo'rg'a o'rindan turib, devorga suyanib o'tirdi, titroq barmoqlari bilan tanbur torini biroz titratdi...

Shu vaqtida osh tayyor bo'ldi, palov suzilgan tovoqlarni keltirib, majlis ahllarining oldilari ga qo'ya berdilar. So'zlar uzildi, qo'llar tovoqqa cho'zildi, boshlar egildi, ko'zlar oshga tikildi. Rahimi Qand ham tanburini devorga suyab qo'yib, butun gavdasi bilan tovoqqa tashlandi.

Birpasda tovoqlar bo'shalib, yalandi, das-turxonlar ham yig'ishtirildi. Endi tarqalish vaqt-i yetishgan edi, majlis ahli to'rttalab, beshtalab uydan chiqa boshladilar.

Rahimi Qandga xizmat haqi uchun ikki tang-a berdilar. Buning ustiga bitta non va bir kosa osh ham berib, «buni bolalaringga olib bor», dedilar.

Rahimi Qand sira kutmagani bu «in'om»dan benihoya quvondi.

– Iloli hammalarining mudarris bo'linglar, mufti bo'linglar, oxund bo'linglar, rais bo'linglar, qozi bo'linglar, qozi kalon bo'linglar! – deb mullavachchalarning haqlariga duo ham qildi.

– Bizning hammamizning bu mansablarga yetishmog'imiz uchun bu kungi bu mansablar-da turganlarning o'tmoqlari yoki bu mansab-

lardan tushmoqlari kerak, – dedi bir mullava-chcha va qo'shimcha qildi, – sizning bu duoyingiz haligi mansab egalari uchun bir qarg'ishdir, agar ular eshitib qolsalar, sizni «xar murd» qilib o'diradilar.

– Mayli, – dedi Rahimi Qand biroz iljayib, – agar «xar murd»dan keyin bitta non bilan bir kosa osh bersalar zarari yo'q.

Men Rahimi Qandni umrimda ikki marta il-jaygan holda ko'rganman. Biri o'sha majlisda, yana birini quyiroqda hikoya qilaman.

* * *

Ikki tanga daromad (u ham kunda muyasar bo'lmaydi), bitta non va bir kosa osh bilan (u ham o'n besh kunda, bir oyda «xar murd» bo'lgandan keyin qo'lga kiradi) albatta Rahimi Qand kabi ayolmand bir odamning kuni o'tmas edi. Agar u boshqa biron kasbga kirishmoqchi bo'lsa, tanburchilikdan o'zga hunari yo'q. Agar qishloqqa chiqsa, yeri yo'q, agar savdo-sotiqqa kirishmoqchi bo'lsa, sarmoyasi yo'q edi.

Shuning uchun u yordamchi «kasb» yo'sinda la'liga qand va boshqa shirinliklar solib, ko'chada sotib o'tirar edi. Bu ishda uning sarmoyasi bir-ikki qadoq qand va konfetdan iborat edi. Qandni anburcha bilan ushatib, kattaroq bo'laklarini ikki pul, kichikrog'ini bir puldan baholab, la'liga solar, la'lining bir burchagida arzonbaho konfet va obakidandonlar turar edi. Rahimi Qand kunda mana shu «tijorat molini» ko'tarib, qo'llig'iga bir kigizcha qistirib «Jannat

makoniy» saroyi oldiga kelar, kigizchasini saroyning darvozasi oldidagi supachalardan biringa yoyer, o'zi uning ustida cho'kkalab o'tirib, la'lisini oldiga qo'yari edi.

Uning ko'pincha xaridori bosh yalang, oyoq yalang, boqimsiz qolgan ko'cha bolalari edi. Ular goho «xo'jayin»ning ko'zini chalg'itib, bu «mollar»ning bir qismini changallab olib qochar ham edilar.

Uning mana shu «kasbi» munosabati bilan Buxoro xalqi uning nomiga «qand» so'zini qo'shib Rahimi Qand der edilar.

* * *

Men goho Rahimi Qandning qand yoki konfetidan bir donasini ikki pulga olib, saroyning boshqa supachasida shimib o'tirar edim. Lekin menga qand va konfetdan ko'proq uning kam uchraydigan gaplari, hikoyalari huzur baxsh etar edi.

Rahimi Qandning menga aytib bergen hikoya va sarguzashtlaridan ikitasi esimda qolgan.

Bir kuni u zamona ahlining betamizligidan, qadr bilmasligidan shikoyat qilib dedi:

«Agar zamona ahlining tamizi bo'saydi, hunarmandni hunarsizdan farq qila olsaydi, hunarmandning qadrini bilsaydi, boshqa sozandalarga unday va menga bunday muomala qilmasdilar.

Bu tanburchilarning, bu dutorchilarning, bu hofizlarning ko'plari «usta ko'rmagan shogird»-

lardir. Lekin betamiz odamlarni ahmoq qilib, pul topish yo'lini juda yaxshi biladilar. Men bo'ssam, bu ilmning bir necha mohir ustalarida necha yillar xizmat qilib, bu hunarni orttirganim holda yemoqqa non topolmayman.

Rahimi Qand bu so'zdan keyin o'zining hurnarmandligini va ustozlarining zabardastliklarining isboti uchun quyidagi «sarguzasht»ini hikoya qilib berdi:

Men qozonfurush Nasrulloboyga (odamlar uning nomini qisqartirib «Nasrulloyi Deg» der edilar) o'n yil xizmat qildim.

Nasrulloyi Deg shashmaqomda yagona edi. Tanbur va dutorlarni sayratib yuborar, childirmasining tovushi bilan osmon tabaqalari yorar edi.

Shogirdlimning oxirlarida shashmaqomni suv qilib ichgan edim, u meni bazmlarga o'zi bilan birga olib boradigan bo'ldi. Bir kuni u meni qozi kalon kuyovining Xitoyon qishlog'i-dagi chorborg'iga olib bordi. U yerda shaharning manman degan sozanda va xonandalari to'plangan edilar. To yarim kechagacha ham-mamiz jo'r bo'lib, bazm qildik, yaxshigina char-chadik. Ovqatdan keyin sozandalar yotib uxladilar. Sahar yaqinlashgan edi. Shu vaqt ustazim Nasrulloyi Deg bog' egasi – qozi kalonning kuyoviga:

– Agar ruxsat bersangiz shogirdim bilan birga bir maxsus bazm qilib beray, – dedi.

Albatta, bog' egasi taklifni xursandlik bilan qarshi oldi. Nasrulloyi Deg menga qarab:

– Tanburni «Navo»ga sozla! – dedi.

Men tanburni sozladim, u childirmani olovda qizdirib, qo'liga oldi. Men tanbur chalishga kirishdim, u childirma bilan navoning «usulini» saqlab ashula ayta boshladi...

Bir vaqt qayerdandir bulbullar uchib kelib, biz tagida bazm qilayotgan daraxtning shoxiga qo'ndilar...

Bulbullar bizning chalish va xonishimizga qulqoq solib, biroz jim turdilar, biz chalayotgan maqomning «usulini» bilib olganlaridan keyin ular ham bizga jo'rlab «chaxchaxlasha» boshladilar.

Bulbullarning bu ishlaridan ustozim shavqlanib go'yoki ular bilan musobaqaga kirishgandek «falak pech» nolalar qilar edi. Men ham tanbur torini har bir chertganimda go'yoki eshitguvchilar ning jon tomirlariga tirnoq urgan kabi ularni dod-faryod qilishga majbur etardim...

Oxirida bulbullar «musobaqada» yutqizib, jim bo'lib qoldilar. Ular bir nafas jim turganlaridan keyin hush-u ixtiyorlarini qo'ldan berib, daraxt shoxidan ajralib, parvonalar kabi o'zlarini biz tomonga tashladilar va parvona sham atrofida qanday aylansa, ular ham bizning boshimiz ustida shunday aylanar edilar.

Biron daqiqadan keyin bulbullar tamom holsizlanib, ulardan birisi mening tanburimning qulqoq cho'piga va boshqa birisi ustozim childirmasining gardishiga qo'ndi...

Rahimi Qand naql qiladigan bunaqa sarguzashtlarning yolg'onligi o'z so'zidan ravshan

bo'lsa ham men unga qarshi biron narsa demas edim. Chunki u o'zi gapirib berayotgan hikoya va sarguzashtlariga qarshi eshitguvchidan oz bo'lsa-da ishonmaslik sezsa, u odamga boshqa unaqa gaplarni gapirmas va u bilan oshnolik aloqasini uzar edi.

Holbuki, uning hikoyalari eshitish menga zavq berar edi, ayniqsa, men bundan ko'p zavqlanardimki, u afsonaga o'xshagan o'z hikoyalarini jiddiylik bilan gapirar va mening «tamoman ishonib» eshitayotganimga imoni komil edi.

* * *

U bir kun menga o'sha zamonning «qahramonlari» – amir navkarlari to'g'risida gap ochdi. Gap Amir Muzaffarning hisorliklar bilan urushi ustida to'xtadi. U Amir Muzaffarning Denov qo'rg'oni oldida hisorliklarning boshlaridan kalla minora yasaganini, bir soatda to'rt yuz asirning boshini kestirganini hikoya qilgandan keyin gapini Azizullo degan bir «qahramon» ustiga keltirdi:

– Azizullo, – dedi Rahimi Qand, – asli Balxdan bo'lib, Buxoroga tahsili ilm uchun kelgan, Amir Muzaffarning hisorliklarga qarshi urushiga ko'ngilli bo'lib qatnashgan va bu ishiga mu-kofot yuzasidan G'ijduvon tumaniga rais qilin-gan edi.

Azizullo Hisor urushida Amirning «galabotur»¹ navkarlari qatorida hisorliklar safida ot

¹ Xalqdan yig'ib, urushga jo'natilgan sarboz.

minib hujum qilgan, har bir qilich urishida o'n-o'n ikki nafarni daraxt novdasiday qalam qilib chopib tashlagan bir qahramon edi. Urushning ayni qizib turgan chog'ida oti shoxlari bir-biroviga o'ralashib ketgan ikki tut daraxti orasidan shaxt bilan o'tayotganida Azizulloning kallasi shoxlarga ilinib uzilgan. U ham tezlik bilan otning boshini orqaga qaytarib, hali qoni sovumagan o'z kallasini shox orasidan ajratib olib, kiftiga o'rnatgan-da, yana ot choptirib jangga kirib ketgan...

Men hikoyaning bu yerini eshitganimda Rahimi Qandga dedim:

– Xayriyatki, Azizullo o'z kallasini kiftiga o'rnatganda teskari qo'yampti, bo'lmasa ko'zlari orqa tomonida bo'lib, hayotda qiynalib yurgan bolardi.

Rahimi Qand mening bu so'zimdan uning hikoyasiga ishonmaganligimni sezib, qizishib ketdi va zardalanib dedi:

– U ko'r emas edi, aqlsiz ham emas ediki, kallani tanaga qanday va qaysi tartibda o'rnatishni bilmasin.

Men unga uzr aytib, uning hikoyasiga tamoman ishonganimni isbot qilishga urindim. Shunday bo'lsa ham u menga bir necha vaqtgacha sarguzasht va hikoyalardan gapirmadi.

Rahimi Qand umrining oxirlarida shayxga murid, eshonlarning jar va suhbatlariga yuradigan bo'ldi. Shundan keyin hech yerda va hech bir kishiga munaqa hikoyalardan ga-

pirmas edi. Lekin bularning o'rniga shayxlarning «karomatlari»dan gapirar, Azizulloning «qahramonligi»ni qanday bezatib, ishonib va ishontirib gapirsa, firibgar shayxlarning «karomatlari»ni ham o'shanday bezatib, ishonib va ishontirib gapirar edi. Shayxlarga va ularning «karomatlari»ga ishonmaydigan odamlar bilan «shakkok», «kofir» deb oshnalik qilmas edi.

V

Men saroy darvozasi oldidagi supachada o'tirib, Rahimi Qanddan ikki pulga olgan konfetni shimmoqda va «qanday qilib unga biron hikoya so'zlataman», deb o'ylamoqda edimki, uzoqdan Qori Ishkamba ko'rindi. Men ikki ko'zimni unga tikdim. U ham nazari menga tushgandan keyin ko'zini mendan uzmadni. Uning o'tkir va ma'nodor qarashlaridan «ana u kungi yolg'onchi» de gan tovushni eshitayotganday bo'lar edim. Shuning uchun uyalib undan ko'zimni uzdim...

U tikka Rahimi Qand o'tirgan supacha oldiga keldi, u bilan salomlashgandan keyin la'lidan bir-ikki dona qand-qursni olib, og'ziga soldi va bir dona konfetdan ham olib, uning qog'ozini ochayotib o'z yo'liga keta berdi va ketayotganda mening tomonimga yana bir qaradi. Undan yuzimni o'girdim.

Rahimi Qand uning qand-qurs va konfetni yeb, ularning pulini bermasdan ketayotganini ko'rib, orqasidan tovush berdi:

– Qori amaki, hazil qilmang, men kambag'al va ayolmand bir odamman, yegan narsalarin-gizning pulini berib keting!

Qori Ishkamba orqasiga qayrilib ham qaramay:

– Yuzsizlik qilma, ko'rnamak bo'lma, tunov kun yegan oshingni esingdan chiqarma! Yana biron vaqt senga manfaatim tegadi, men yegan narsalarning puli «bolasi, nabirasi va chevara-si» bilan senga qaytadi, – dedi va o'z yo'liga qarab ketdi.

Rahimi Qand o'z-o'zicha g'udunglab:

– Isqirt, o'laksaxo'r!.. – deb uni so'kdi.

– Buning o'zi kim? – deb so'radim Rahimi Qanddan.

– Salla o'ragan hindi, o'taketgan sudxo'r, isqirt, mumsik bir odam, – dedi.

– Siz uning tuzini qanday yegan edingizki, u sizga «...ko'rnamaklik qilma!» deydi.

– Uning tuzini men tugul o'zi ham totgan emas, – dedi Rahimi Qand va minnat qilgan «tuz» va «osh» to'g'risida gapirib ketdi: – Tunov kun meni bir meshkobchi o'z to'yiga chaqirib edi, men hovli yuzida so'ri ustida o'tirib, tanbur chalmoqda edim. Bu isqirt mehmonlar qatorida mehmonxonaga kirib, osh yeb chiq-di va boshqa mehmonlar kabi to'yxonadan chiqib ketmay, mening yonimga kelib o'tirdi. Shu orada yana bir necha mehmonlar kirib, osh yeb chiqdilar, u hali ham o'rnidan qimir-lamas edi. Oxiri mehmonlarning keti uzildi. U to'y egasini chaqirib:

- Rahim aka uchun ham osh buyuring axir, qo'li bilan birga «qorni ham tanbur chalayotir»,
- dedi va qo'shimcha qildi, - Rahim akaning oshi seryog'gina, sergo'shtgina bo'lsin.

...Oshni keltirdilar, haqiqatan ham sergo'shtgina, seryog'gina suzgan ekanlar. Lekin oshning to'rtadan biri ham menga nasib bo'lmasdi. Mehmonlar qatorida mehmonxonada osh yeb chiqqan holda men uchun keltirilgan oshdan ham har osham oshga ikki bo'lak go'sht qo'shib olar, chaynamasdan yutar-yutmas yana oshga qo'l uzatar edi.

Oshdan keyin yana men tanbur chalmoqchi bo'lib, tanburning qulqlarini burab sozlayotganimda u qulog'imga pichirlab:

- Agar shu to'ydan senga bir tovoq osh olib bersam, yarmisini menga berasanmi? - deb so'radi.

- Beraman! - dedim men.

Yana bir payt tanbur chalganimdan keyin yana og'zini qulog'im tagiga keltirib:

- Endi bas qilsang ham bo'ladi, - dedi.

Men ham tanbur chalishni to'xtatib, tanburni jildiga tiqa berdim va to'y egasini chaqirib:

- Xayr endi, menga javob bering! - dedim.

To'y egasi ikki tangani qo'limga qistirib, oldimga bir non bilan bir hovuch qandolat keltirib qo'ydi.

Men pulni cho'ntagimga solib, non bilan qandolatni ro'molchamga tuga berdim. U to'y egasiga qarab:

- Rahim aka ayolmand odam, unga sergo'sht va seryog'gina qilib bir tovoq osh bering. Osh-

ning ustiga bitta non ham qo'ysinlar, bu kishi-ga har narsa bersangiz kuymaydi, vaqtি kelsa yana xizmat qiladi, – dedi.

To'y egasi uning so'zini ikki qilmadi. Bir to-voq palovga bir dona non qo'yib keltirib, menga berdi va:

– Tovoqni qaytarib berishni unutmang! – dedi.

– Xo'p! – deb men non, magiz tugilgan ro'mol-chamni qo'ynimiga soldim, tanbur va tovoqdagi oshni ko'tarib to'yxonadan chiqdim. Bu odam mendan oldin yurmoqda edi.

To'yxonadan bir necha qadam uzoqlashga-nimdan keyin u yonimga yondashib:

– Mening hovlim yo'l ustida, – dedi, – avval u yerga yuramiz, men oshdan o'z «haqim»ni ola-man, so'ngra sen o'z haqingni olib, uyingga ke-tasan.

Men rozi bo'ldim. Biz ko'pgina ko'cha va tor ko'chalarni aylanib, uning hovlisiga yetdik. Ma'lum bo'ldiki, uning hovlisi mening hovlimga ko'ra to'yxonadan uzoqroqda ekan...

Men bu fursatdan foydalanib uy manzilini bilib olmoqchi bo'lib, Rahimi Qandning so'zimi bo'lib, undan so'radim:

– Uning hovlisi qaysi mahallada ekan?

– Kemuxtgaron mahallasida, poyabzal saroyi-ning orqasidagi boshi berk tor ko'chaning eng oxirida ekan, – dedi Rahimi Qand va so'zini da-vom ettirdi: – Biz borib uning hovlisiga kirgani-mizda u menga:

– Tovoqni menga ber! Men ichkari hovliga kir-gizib, boshqa bir tovoqqa o'z «haqim»ni ag'darib

olaman, qolganini senga chiqarib beraman, – deb tovoqni mening qo'limdan olib, ichkari hovlisiga kirib ketdi.

– Bir necha daqiqadan keyin tovoqni chiqarib qo'limga berdi. Tovoq bo'shayozgan edi: undagi oshning sakkizdan biri ham qolmabdi, go'shtini bolsa butunlay olibdi, yog'ini bir tomchi qoldirmay sirqitib olipti, nondan bolsa bir burda ham qoldirmabdi, – deb Rahimi Qand o'z hikoyasini tugatdi va qo'shimcha qildi: – Uning menga minnat qilgan «tuzi» va «oshi» shu.

Menga u kun shunchalik hikoya yetarli edi. Men uchun hikoya eshitishga qaraganda zarurroq ish chiqqan edi – men Qori Ishkambaning uy manzilini bilib olgan edim. Endi uning hovlisiga borib, uni topib, u bilan ko'rishish kerak edi. Men jadallik bilan o'rnimdan turdim.

VI

Men ko'chalarda ancha mahalgacha kezib yurdim. Kun oqshomga yaqinlashdi, do'konlar va savdogarlar o'z do'konlarini berkitib uylariga jo'nay berdilar. Men Qori Ishkamba ham bu vaqt o'z uyiga qaytgan bolsa kerak deb o'yladim-da, uning hovlisiga bormoqchi bo'lib yo'lga tushdim.

Kemuxtgaron guzaridagi poyabzal rastasi orqasida bo'lgan tor ko'chaga kirdim. Ko'chaning oxirida bir eshikka duch keldim, undan

u yoqqa boshqa eshik yo'q va tor ko'chaning boshi ham shu yerda tugar edi.

Rahimi Qandning bergan daragiga ko'ra, Qori Ishkambanining hovlisi shu bo'ssa kerak deb haligi eshikni taqillata boshladim. Men biroz kutgandan keyin eshikni yana taqillatdim. Ichkaridan xotin kishining:

– Kimsiz? – degan tovushi eshitildi.

– Men bir mullavachcha, Qori amakimda ishim bor, uyda bo'ssalar aytib qo'ying.

– Qori amakingiz uyda yo'qlar, qanday ishingiz bor edi? – deb takrorlandi haligi tovush.

– Ishimni o'zlariga aytaman! Qachon keladilar?

– U kishi kech keladilar, oshnalarinikida bo'ladi. Hech bir vaqt uyda bo'lmaydilar, erta bilan tong qorong'isida chiqib ketadilar, ba'zi vaqtarda yarim kechada uyga qaytadilar.

– Kechga kelsam u kishini uchrata olamanmi?

– Yo'q! – degan tovush takror eshitildi. Bu boshqa bir xotinning tovushi edi, u xotin qo'shimcha qildi:

– U kishi kechalari hovlilariga hech kimni kiritmaydilar. Bizga ham «Hech kimga darvozani ochmanglar!» deb tayinlab qo'yganlar. Yana shu kun uydan chiqayotganlarida «Agar biron tanish kelib qolsa ham darchani ochmanglar!» dedilar. Behuda ovora bo'lman!

– Sizlar u kishining kimlari bo'lasiz? – deb so'radim.

– Xotinlari! – javob berdi birinchi xotin.

– Ho', kunduzlari qaysi vaqtarda uyda bo'ladi?

Men o'z-o'zimga «Bu ham bo'ljadi», deb orqamga qaytdim va poyabzal saroyi oldi bilan rastaga chiqib, u yerdan Labi hovuzi Devonbegi tomoniga qarab yo'naldim...

* * *

Rastada deyarli hech kim qolmagan edi, eng kechgacha o'tiradigan haris do'kondorlar ham o'z do'konlarini yig'ishtirmoqda edilar. Kun yangi botgan bo'lsa ham usti yopiq chiroqsiz rasta butun qorong'ilashgan edi, shu vaqtida oldimdan bir odam chiqdi. Menga bir tikilib qaraqandan keyin tez o'tib ketdi. Men uning Qori Ishkamba ekanligini zo'rg'a payqadim.

Men «Jannatmakoniy» saroyi oldiga yetganimda Rahimi Qand ham kigizchasini qo'lltig'i-ga qistirib, la'lisini qo'lliga olgan ekan. U meni ko'rghan hamon kulimsirab, imlab chaqirdi.

– Nima deysiz? – dedim unga yaqinlashib.

U erinibgina la'lisini supacha ustiga qo'ydi, qo'lltig'idagi kigizchan ni supachaning labiga tashlab, unga yoni bilan suyangani holda mendan so'radi:

– Siz Qori Ismat masalasini nima qildingiz?

– Sizga «tuz» va «osh» yegizgan isqirtnimi?

– Ha!

– Hech narsa qilganim yo'q. Qani, gapiring, o'zi nima gap?

Rahimi Qand hamon kulimsirab so'zga kishidi.

– Shu kun siz bu yerdan turib ketgandan keyin qayerdandir u bu yerda paydo bo'lib,

mendan: «U kim edi?» deb so'radi. Men «g'ijduvonlik bir mullavachcha», deb javob berdim. U boshini qimirlata-qimirlata: «Shubham to'g'ri chiqdi!» – dedi. «Qanday shubhangiz bor edi?» – deb so'radim. U biroz o'ylab turgandan keyin: «Odamlar meni puldor deb gumon qiladilar, shuning uchun bundan bir qancha vaqt burun ba'zi o'g'ri va chayqovchilar mening orqamga tushgan edilar. Ular mening uyimda bir sariq chaqa ham topilmasligini bilganlaridan keyin ko'ngillari sovib mendan qo'l yuvdilar. Sizning bu oshnangiz, yomon bir g'araz bilan bo'lsa kerak, mening orqamga tushipti», – dedi.

Men undan: «Qani, u qanday qilib sizning orqangizga tushdi, va nimalar qildi?» – deb so'radim.

U menga javob berdi: «Necha kundan beri shu odam mening orqamdan yuradi, bir kun ertadan kechgacha mendan ayrylmadi. Ma'lumki, u mening qayerlardan qancha pul olganimni va pullarni qayerga qo'yganimni kuzatmoqda, agar bir miqdor pulni uyimga qo'yganimni bilib qolsa, kechlab borib mening ishimni bitkazib, u pulni olmoqchi», – dedi.

– Bu kishi unaqa odam emas, shubhangiz o'rinsiz! – dedim.

– Ehtimol o'zi to'g'ri odamdir, lek ajab emas-ki, uni tumandoshlari yoldan ozdirib, mening orqamga qo'ygan bolsalar. Har holda g'ijduvonliklardan qo'rqqulik, – dedi u va biroz jim turgandan keyin yana davom qilib: – Sen u bilan oshna ekansan, unga anglatib qo'y, avvali

shuki, mening pulim yo'q, agar biroz pul topsam ham uni uyimga olib borib qo'ymayman, uyimda hatto biron tuzukroq narsa ham yo'q, eshakning to'qimiga o'xshagan bir-ikki ko'rpa-yostig'im bor, xolos, – dedi.

Rahimi Qand o'zining Qori Ishkamba bilan mening to'g'rimda gapirgan gaplarini aytib bo'l-gandan keyin menga nasihat qilganday bo'lib:

– Bunday odamga yaqinlasha ko'rmangki, uning yuzidan tuhmat yog'ilib turadi! – dedi.

Endi men Rahimi Qandning nima uchun kulimsiragani sababini anglagan edim. Bu uni iljaygan, kulgan holda ko'rganimning ikkinchi-si edi. Lekin o'zim ich-ichimdan Qori Ishkambaning bunday shubha va qo'rqishiga Rahimi Qanddan ortiqroq kuldim va bunday odam bilan tanishmoq fikrini butunlay ko'nglimdan chiqardim...

VII

Oradan ko'p vaqt o'tib, men Qori Ishkamba bilan tanishishni xayolimdan chiqardim. Bu orada uni hech qayerda uchratmadim.

Kunlardan bir kun Buxorodagi Ko'kaldosh madrasasi sahnida tuzfurushlik do'konining tomida o'tirib allaqanday xayollarga cho'mib ketgan mahalimda boshimda bir odamning soyasi paydo bo'ldi. Men xayol yuki ostida qolganidan soya egasi tomonga qayrilib ham qaramadim.

Boshim ustidan bir kishining:

– Assalomu alaykum, – deb qarilarga xos tovushda qiroat bilan salom bergani eshitildi.

Boshimni ko'tarib qarasam Qori Ishkamba ekan, u kulimsirab tishini kovlamoqda edi.

Har qanday vajdan asossiz shubhalangani uchun undan qattiq ranjiganim sababli yoqtirmas bir ohang bilan salomiga javob qaytarib, yana o'z xayolimga sho'ng'ib ketdim.

– Ko'kaldosh madrasasining sahni ajab xus-havo joy-da, – deya mening yonimga o'tirdi u.

Men uning bu so'ziga hech bir javob qaytarmadim.

– Uka, – dedi u yumshoqlik bilan, – menda biron ishingiz bormidiki, bir-ikki kun mening orqamdan yurdingiz, hovlimga ham borgan ekansiz?

«Hovlisiga borganimni bu shayton qanday bilib olgan ekan?» deb ajabsindim. Lekin o'zimning avvalgi vaziyatimni buzmayin javob berdim:

– Men, sizning qancha pulingiz borligini va u pullarni qayerga qo'yaningizni bilib olmoqchi, undan keyin g'ijduvonlik qaroqchilar bilan borib, ularni o'g'irlamoqchi edim.

– Tanimaganim bir odamning kutilmagan harakatlaridan shubhalanib, uning haqida badgumon bo'lismaytayb emas. Lekin men tekshirib ko'rdim, siz to'g'ri odam ekansiz. Shuning uchun sizga uzr aytib ko'nglingizdan chiqaray deb, yoqtirmasangiz ham yoningizga o'tirdim, – dedi, keyin yanada yumshoqroq ohang bilan

qo'shimcha qildi: – Sizga anglatib qo'ysam zarar qilmas, men odamlar o'ylaganday puldor emasman. Agar «bola-chaqalarning nafaqasi uchun» deb to'rt pul-besh pul topsam haq, uni o'z uyimga olib bormayman, balki biron odamning qo'liga «omonat» topshirib qo'yib, kerak vaqtida undan olib xarajat qilaman.

Men uning bu keyingi so'zidan mening haqimdagи avvalgi shubhasi hali ham borligini sezdim. Shuning uchun bu o'jar odam bilan pachakilashib o'tirishni munosib ko'rmay, uni shubhadan butunlay chiqarish yo'liga tushdim. Undan hujra so'rash fikridan qachonlar qaytgan bo'l sam ham uni shubhadan chiqarish uchun yana o'sha hujra so'rash masalasini o'rtaga soldim:

– Men biror turar joy axtarmoqda edim, – deb gap boshladim, – eshitishimga ko'ra, sizning bir necha zarxarid hujrangiz bor ekan. Shuning uchun sizni tanimasam ham sizni uchratib biron hujra so'rab ko'ray deb, orqangizdan yurgan edim.

– Mening zarxarid hujram yo'q, bir-ikkita hujram bor, ular otamdan meros qolgan, o'zim pul berib, hujra sotib oladigan boylikka ega emasman, – degandan keyin mendan so'radi: – Hujra topdingizmi yoki hali ham turar joy izlab yuribsizmi?

– Hali ham hujra topganim yo'q!

– Agar hujra topsangiz kunda qozon qaynatasizmi? – deb so'radi u quvonch bilan.

Men uning bu savoldidan «o'choqsiz, mo'risiz biror hujrasi borga o'xshaydi, agarda men qo-

zon qaynatmaydigan bo'ssam, o'shani menga bermoqchi» deb o'yladim-da, javob berdim:

– Men uchun o'choqsiz, mo'risiz hujra bo'ssa ham bo'laveradi: men qozon qaynatmasdan ham kun kechira beraman.

– Lekin menda shunday bir hujra borki, uning o'chog'i kunda ikki kishilik sergo'sht va seryog' palov damlashni talab qiladi, – dedi hazillashgansimon va so'ngra jiddiy bir vaziyat olib izoh berdi: – Mening ikki hujram bor, ularning har birisini bir mullavachchaga bergaman, shu shart bilanki, ularning har ikkalasi kunda ikki kishilik osh damlaydilar, biri tush vaqtida va birisi peshindan keyin. Men ma'lum vaqtarda borib, ularning har qaysisi bilan palovlarini baham ko'raman.

U biroz jim turib, tishlarini yana bir karra kovlagandan keyin davom etdi:

– U mullavachchalardan biri qabul qilingan shartimizga muvofiq, kunda o'z vaqtida palovni tayyorlaydi, ammo birisi goho g'irromlik qiladi, hujrani qulflab qochadi. Ertasi kuni unga uchrab, bu «yaramas qiliq»ning sababini so'rasm, «kecha osh xarajatini topolmadim» yoki «kecha o'zim bir yerda mehmonda edim», deb sariq chaqaga arzimaydigan uzrlarni oldimga qo'yadi. Shu yil to'rt bor shunday hodisa yuz berdi...

Qori Ishkamba yana bir marta tishini kavlab, tishlarining orasidan chiqqan osh qoldiqlarini ko'cha tomonga tuflagandan keyin so'zini yana davom ettirdi:

– Men hozir shu va'dasiz mullavachchaning oshini yeb chiqdim. Tunov kun hujrani qulflab qochgan edi, bugun bo'lsa oshni kamgo'sht va kamyog' qilib pishiribdi. Shu bugun unga «bundan buyon shunday qilsang seni hujradan quvib chiqaraman», deb do'q urdim. Agar siz kunda sermasalliq palov pishirib, meni ziyofat qilishni bo'yningizga olsangiz, mayli, qadrdon bo'lsa ham uni quvib yuborib, hujrani sizga beraman.

Men bunday mumsik odamning oldida o'z qashshoqligimni izhor qilishni va «bu shartni ado etishga qurbim yetmaydi» deyishni or sanab, unga bunday javob berdim:

– Tunov kun menga bir odam o'z hujrasini tekin bermoqchi bo'ldi. Agar o'sha hujrani olmasam sizning hujrangizni olsam bo'ladi. Har kuni osh damlab, bir odamni ziyofat qilish uncha qiyin emas, lekin tekin hujra topilsa yana ham yaxshiroq.

– Albatta, har kim o'z manfaatini ko'zlaydi. Lekin mening hujram juda yaxshi, derazasiga oyna solish o'rniliga qog'oz yopishtirilgan bo'lsa ham ustunlari tut yog'ochdan, o'ymakor qilib ishlangan, juda chiroyli, – dedi u va qo'shimcha qildi: – Xo'p, xoh o'zingiz uchun, xoh biron oshnangiz uchun turar joy kerak bo'lib qolsa, mening hujram haligi shart bilan tayyor. Hujra bergenim ustiga duo ham qilaman. Men bechora bir odamman, odamlar o'ylagancha puldor emasman...

Mening Qori Ishkamba bilan tanishligim mana shundan boshlanib, birinchi o'tirishimiz

shu musohaba bilan tugadi. Undan keyin u ba'zi vaqt ko'chada menga duch kelar va har bir duch kelganida mendan:

- Turar joyingiz bormi? – deb so'rardi.
- Bor! – deb javob berardim men.
- Hujrasiz biron oshnangiz yo'qmi?
- Yo'q.

Yo'l ustidagi suhbatimiz shu bilan bitar edi...

VIII

Ilgarigi zamonalarda Buxoroda har yili hamal oyi boshida Navro'z sayli bo'lib, bu shaharga yaqin Shirbadan degan qishloqda bo'lar edi. U saylda osh damlab sotadigan oshxonalar qatorida qozon-tovoq va o'choq tayyorlab ijara qo'yadigan «oshxonachilar» ham bo'lar edi. Bunday oshxonachilar usti ochiq bir yerda qator o'choq qazib, qozon qurib, o'tin tayyorlab, xaridor kutilib o'tirardilar. Ba'zi odamlar masalliqni keltirib, shunday oshxonalardan bir qozonni olib, o'zlari osh pishirardilar. Oshxonachiga qozon-tovoq va o'tin uchun haq to'lardilar.

Saylga borgan oshnalarimizdan bir nechasi shunday oshxonalarning birida osh qilmoqchi bo'ldi, ular orasida men ham bor edim. Bunday vaqtarda oshpazlik vazifasi mening bo'yninga tushar edi, o'rtoqlar bu xizmatim muqobilida meni «xarifona» puli to'lashdan ozod qilar edilar.

O'rtoqlar osh masallig'ini sotib olib, men bilan birga haligi oshxonalarning birisiga bordi-

— Men hozir shu va'dasiz mullavachchaning oshini yeb chiqdim. Tunov kun hujrani qulflab qochgan edi, bugun bo'lsa oshni kamgo'sht va kamyog' qilib pishiribdi. Shu bugun unga «bundan buyon shunday qilsang seni hujradan quvib chiqaraman», deb do'q urdim. Agar siz kunda sermasalliq palov pishirib, meni ziyofat qilishni bo'yningizga olsangiz, mayli, qadrdon bo'lsa ham uni quvib yuborib, hujrani sizga beraman.

Men bunday mumsik odamning oldida o'z qashshoqligimni izhor qilishni va «bu shartni ado etishga qurbim yetmaydi» deyishni or sanab, unga bunday javob berdim:

— Tunov kun menga bir odam o'z hujrasini tekin bermoqchi bo'ldi. Agar o'sha hujrani olmasam sizning hujrangizni olsam bo'ladi. Har kuni osh damlab, bir odamni ziyofat qilish uncha qiyin emas, lekin tekin hujra topilsa yana ham yaxshiroq.

— Albatta, har kim o'z manfaatini ko'zlaydi. Lekin mening hujram juda yaxshi, derazasiga oyna solish o'rniliga qog'oz yopishtirilgan bo'lsa ham ustunlari tut yog'ochdan, o'ymakor qilib ishlangan, juda chiroyli, — dedi u va qo'shimcha qildi: — Xo'p, xoh o'zingiz uchun, xoh biron oshnangiz uchun turar joy kerak bo'lib qolsa, mening hujram haligi shart bilan tayyor. Hujra bergenim ustiga duo ham qilaman. Men bechora bir odamman, odamlar o'ylagancha puldor emasman...

Mening Qori Ishkamba bilan tanishligim mana shundan boshlanib, birinchi o'tirishimiz

shu musohaba bilan tugadi. Undan keyin u ba'zi vaqt ko'chada menga duch kelar va har bir duch kelganida mendan:

- Turar joyingiz bormi? – deb so'rardi.
- Bor! – deb javob berardim men.
- Hujrasiz biron oshnangiz yo'qmi?
- Yo'q.

Yo'l ustidagi suhbatimiz shu bilan bitar edi...

VIII

Ilgarigi zamonalarda Buxoroda har yili hamal oyi boshida Navro'z sayli bo'lib, bu shaharga yaqin Shirbadan degan qishloqda bo'lar edi. U saylda osh damlab sotadigan oshxonalar qatorida qozon-tovoq va o'choq tayyorlab ijara qo'yadigan «oshxonachilar» ham bo'lar edi. Bunday oshxonachilar usti ochiq bir yerda qator o'choq qazib, qozon qurib, o'tin tayyorlab, xaridor kutilib o'tirardilar. Ba'zi odamlar masalliqni keltirib, shunday oshxonalardan bir qozonni olib, o'zlarini osh pishirardilar. Oshxonachiga qozon-tovoq va o'tin uchun haq to'lardilar.

Saylga borgan oshnalarimizdan bir nechasi shunday oshxonalarning birida osh qilmoqchi boldi, ular orasida men ham bor edim. Bunday vaqtarda oshpazlik vazifasi mening bo'yning ga tushar edi, o'rtoqlar bu xizmatim muqobilida meni «xarifona» puli to'lashdan ozod qilar edilar.

O'rtoqlar osh masallig'ini sotib olib, men bilan birga haligi oshxonalarning birisiga bordi-

lar, ular go'sht, yog', piyoz, sabzini to'g'rab ber-gandan keyin tomoshaga chiqib ketdilar. Men osh pishirish uchun u yerda qoldim.

Men yog'ni eritib, dog'lab, piyoz, go'shtni solib qovurdim, keyin sabzini bosib, biroz suv quyib qaynatib, go'shtining pishishini kutib o'tirdim...

Hali oshga guruch solmasimdanoq qayer-dandir Qori Ishkamba paydo bo'ldi. U men bilan salomlashib, odati bo'yicha, «hujra kerak-mi?» deb so'rab, mendan «yo'q!» javobini olgan-dan keyin sheriklik osh qilayotgan yo'ldoshla-rimning kimlar ekanligini so'radi.

Men bir necha kishining nomini aytdim.

- Ha, hammalari o'zimizni ekanlar-ku, - deb u mening oldimdan ketdi va qo'shnidagi oshxonaga kirib, oshlarning tayyor bo'lishi-ni kutib o'tirgan bir to'da odamlar davrasiga joylashdi. Men guruch solib, oshni damladim. Biznikilar ham yetib kelib, davra olib o'tirdilar. Bu orada Qori Ishkamba joylashgan davraning oshi suzildi. Ular yemoqqa kirishdilar.

Qori Ishkamba har bir osham oshni lunjiga tiqqandan keyin bo'ynini cho'zib, bizning qozo-nimiz tomon ko'z tashlar edi.

Men ham oshni suzib, o'z davramizga kelti-rib qo'ydim. Qori Ishkamba bizning davraga osh kelganini ko'rgani hamon o'rnidan turdi. Lekin u davradagi tovoqning tagida bir osham-chaga qolgan bo'lib, allakim hazillashib, «Qori amaki, shuni ham yeng, uvol bo'lmasin», degan bo'lsa kerakki, u egilib tovoqdagi oshni sidi-

rib oldi-da, yog'ini tomiza-tomiza oshni og'ziga tiqqani holda bizning davraga yugurdi.

Bizning davrada otasi o'rtacha boylardan bo'lgan bir kishi bor edi, shu kishi Qori Ishkamba bilan oshna va hazilkash ekan. U kelib bizning davraga o'tirgandan keyin haligi boyvachcha unga:

– Qori amaki, sizning qo'lingizdan qutulish kuni yo'q ekan-da, – dedi.

– Mashaqda, boshingizdan aylanay boyvachcha, mashaq. Bechora odamning ishi mashaq terishdir.

– Hovliga borib-ku, «navirasi» deb oshni yeysiz, endi bu oshni nima deb eysiz?

– Bu «avirasi», boshingizdan aylanay! – dedi Qori Ishkamba kulib.

Suyaklar tozalanib bo'lganidan keyin oshdan «oling-oling» boshlandi. Ammo Qori Ishkamba hech bir kishining «oling» deyishini va oshdan olishini kutib turmay, tovoq ustiga engashdi. Undan keyin na biron kishiga gapirar va na biron kishining gapiga javob qaytarar edi, besh barmog'ini yozib oshni go'sht va yog'i bilan chaqaloqning kallasiday qilib olib og'ziga tiqqani hamon yana oshga panjasini uzatar edi.

Qori Ishkambaning cho'zilib tovoqning tagigacha suqilayotgan barmoqlarini ko'rib, biznikilardan biri uning qo'liga ishorat qilib:

– Qori amaki, bu panjami, panskha? – deb so'radi.

– Panskha-da, – dedi boshqa birisi. – Qori amakim mashaqchi bo'lganlardan keyin to'g'ri

kelganda xirmonnisovura beradilar, shuning uchun o'zlaribilan birga panja o'rniga pashaxa olib yuradilar.

Ammo Qori Ishkambaning o'zi bu so'zlarga kulimsirashdan boshqa javob bermas va boshi-mi tovoq ustidan ko'tarmas edi. Yolg'iz ora-sira o'ng qo'lini tovoqqa bosib turgani holda, chap qo'li bilan kosani olib suv ichar edi.

Qori Ishkamba og'ziga oshni shu qadar ko'p joylardiki, chaynayotgan vaqtida guruch donalari og'zidan tovoq ustiga sochilar edi. Men bu holni ko'rib, osh yemoqdan qo'l tortdim, boshqa o'rtoqlar ham oshning tagidan uning og'zidan sochilgan guruchlar tushmagan joyida oz-oz olmoqda edilar...

Kosadagi suv tugadi, Qori Ishkambaning ustma-ust og'ziga joylashgan oshi tomog'iga tiqilib qoldi. Men oshxonachiga qarab:

- Sunba keltiring, sunba! – dedim.
- Oshxonachi taajjublanib:
- Menda sunba yo'q! Sunbani nima qilasiz?
- dedi.
- Axir birovning tomog'iga osh tiqilib qolsa, nima bilan qorniga joylash kerak?

Oshxonachi tovoq tevaragida o'tirganlarga qarar ekan, og'zi to'la osh bo'lib, uni yutolmay turgan Qori Ishkambani ko'rib, birdan tushundi va kosani olib borib, suv to'dirib keltirib uning oldiga qo'yib:

- Tomog'iga osh tiqilganlarning sunbasi suv bo'lsa kerak, – dedi.

Qori Ishkambaning yana biron joyda «iskab» topgan oshi bo'lsa kerakki, bizning tovoqni

bo'shatganidan keyin tovoqni olishni va das-turxonni yig'ishtirishni ham kutmasdanoq o'r-nidan irg'ib turdi-da, qo'lining moyini mahsisi-ga artib, oshxonadan chiqib ketdi.

Bizning davradagilarning bu chaqirilmagan jirkanch «mehmon»ning qiliqlaridan ta'blari tir-riq bo'lgan va dimog'lari kuygan, men bo'sam tamom asabiylashib ketgan edim, o'zim mehnat qilib pishirgan oshdan mahrum bo'lganim ustiga, uning osh yeyishidan ko'nglim shunday aynidiki, och bo'sam-da, ko'nglim osh tusa-may qo'ydi.

Men Musoning alamini Isodan olmoqchi bo'lib, boyvachchadan so'radim:

– Bu itning sen bilan qanday aloqasi bor edi-ki, sening isingni iskab kelib, bizning davrani bulg'atib ketdi?

– Bu odamning men bilan qanday aloqasi borligining hikoyasi uzun, uni boshqa vaqt ay-tib beraman! – dedi u.

– Men u bilan sening orangda gapirilgan «navirasi», «avirasi» degan so'zlarning ma'nosi ni anglamadim. Agar sen shu ilmoqli so'zlarni menga ochib bersang, hammasini bag'ishlay-man! – dedim.

– Bu odam sudxo'r, – dedi boyvachcha, – pul-ni orttirib olish sharti bilan qarzga beradi, pul-ning tagidan orttirib olgan foydasini pulning «bolasisi» deydi: pulning foydasining foydasini «navirasi», foydasining foydasining foydasini «avirasi» deydi.

Boywachcha sudxo'r larga xos bu iboralarni aytib bergenidan keyin izohga kirishdi:

— Har kim bu odamdan qarzdor bo'lsa, al-batta, bu odamdan pulning tanini shart qilin-gan foydasi bilan birga birato'la oladi, bundan boshqa u odamning qarzdorlik muddati orasi-da kunda yoki kun ora oqshomda uning uyiga borib, ovqat qiladi. Mana shu ovqatini «navira-si» deb ataydi.

Bovvachcha u bilan o'z aloqasining hikoyasi-ni boshqa vaqtga qoldirgan bo'lsa ham o'zi sezmasdan u hikoyaning bir qismini aytib yubordi:

— Mening ham undan bir mablag' qarzim bor, shu munosabat bilan u tunov kun oqshom biz-ning uyga kelib, «navirasi» deb osh yegan edi. Ammo bugungi oshni «avirasi» deb atadi, ya'ni menga qarz bergen pulining foydasining foyda-si deb hisobladi.

Shirbadan sayli voqeasidan taxminan to'qqiz oy o'tgan edi. Bir kecha shomdan keyin boyvachcha mening hujramga keldi. U salomla-shib so'rashgandan keyin dedi:

— Bu kecha mening Qori Ishkambada bir ishim bor. U menga soat o'nлarda uyimga bor-sangiz, meni ko'ra olasiz, deb va'da bergen edi.

— Eshitishimcha, u hech bir kishini kechqu-run uyiga yo'latmas ekan-ku, — deb uning so'zi-ni bo'ldim.

— Avvali shuki, bu ish mendan ko'ra unga foydaliroq, shuning uchun kechqurun ham meni uyiga qabul qilishga majbur; ikkinchidan, uning mendan ko'ngli to'q, mendan hayiqmay-di, — degandan keyin boyvachcha o'z so'zini da-

vom ettirdi: – Kechqurun soat o'nda, ayniqsa, havo bulutli bu kechada ko'chada yolg'iz yurish qo'rqinchli. Agar bemalol bolsa, siz menga hamroh bo'sangiz!

– Men u odamning shum betidan bezorman va unga duch kelishni o'lim bilan baravar bila-man. Lekin modomiki, sizga hamroh bo'lmoq uchun bir odam kerak ekan, mayli, boraman, «do'stlar bilan birga o'lmoq to'y-tomoshadir», deganlar.

– Unga duch kelish, ayniqsa, uning uyiga borish o'limdan battarroq bo'lsa ham u yerda qiziqtiradigan ishlar bo'lishi ham mumkin, tomosha qilasiz, – deb boyvachcha menda havas uyg'otib qo'ydi.

* * *

Biz ikkovlashib va'da vaqtı yaqinlashgan chog'da ko'chaga chiqdik. Havo bulut, oysiz bir tun edi. Bunday kechada Buxoroning chiroq-siz, egri-bugri, tor ko'chalarida yurish juda qiyin bo'ladi, xayriyatki, qor yog'moqda va hamma joyni oqartirib, ko'chaga ko'r oydin kabi g'ira-shira yorug'lik bergen edi. Bo'lmasa bunday kechada yo'lni ko'rolmay peshanamizni biron devorga urub, boshimizni yorib olishimiz ham hech gap emas edi.

Biz Ko'kaldosh madrasasi sahnining g'arb tomonidagi zinasidan tushib, o'ng qo'lga bуilib madrasa bilan Shayxshona machitining orasidagi ko'cha bilan shimol tomonga qarab yo'naldik.

Madrasaning g'arbi-shimoliy burchagiga kel-ganimizda chap qo'lga burilib, somon yo'li bilan g'arb tomonga qarab bora berdik.

Ko'chada hech bir jon asari, hech qanday tovush va harakat yo'q, qorning shivirlashidan ovoz eshitilmas edi. Faqat shu orada g'arb tomondan kelayotgan mirshabning dovil sasi eshitildi. Biz «u usti yopiq rasta bilan o'tib o'z postiga borar» deb yo'llimizda qaytmay keta-verdik. Lekin biz Kemo'xtgaron ko'liga yaqinlashganimizda mirshab ham o'z dastasi bilan poyabzalfurushlik rastasidan chiqib bizga qarshi kela berdi. Mirshabning o'zi otliq, odamlari piyoda edilar. Buxoro mirshablarining odati – o'g'ridan qochmoq, o'g'rini tutmoq edi. Agar qochsak, bizning to'g'riliqimizni bilib, albatta, quvib tatarlar, agar qochmasak mirshab bilan yuzma-yuz kelib, o'z-o'zimizdan qo'lga tushar edik.

Boywachcha bu holdan juda qattiq qo'rqli, uning qo'rqliishi shu jihatdan ediki, mirshab qo'liga tushib qolsa, Qori Ishkambaga to'lash uchun tayyorlangan pulidan bir qismini berishi, shu bilan bu kecha uning hisobini baravar qilolmay qolishi yoki mirshabxonada ertagacha yotishi, erta baribir yo o'zi, yo otasi pul to'lab qutulishi kerak edi. U yalingan ohang bilan:

- Endi nima qilamiz? – deb so'radi mendan.
- Qo'rqlama, hech narsa bo'lmaydi, – deb men unga dadillik bergandan keyin aytdim: – Orqa-ga qaytamiz, siz mening orqamdan devorning osti bilan shoshmasdan og'ir qadam bosib

kelavering va orqangizga – mirshab kelayotgan tomonga sira qaramang!

Biz orqaga qaytib sekin-sekin yura bordik, mirshab ham bizning o'g'rimi, to'g'rimi – kimligimizni aniqlay olmay, orqamizdan qora olib kelmoqda edi. Biz Poyi ostona guzariga bora-digan ranguborfurushlik rastasining burchagiga kelganimizda, mirshab yaqinlashayozgan edi.

Biz chap qo'lдаги timli rastaga burildik va rastaning boshidagi birinchi do'kon supacha-siga chiqib, rastaning tomini ko'tarib turgan yo'g'on ustunning orqasiga yashirindik.

Bizning chap qo'lga burilganimizni ko'рган mirshab va uning odamlari bizning qanday odam ekanimizni bilmasdan, qoldan qochirmaslik uchun bo'lsa kerak, ulardan birisi:

– Kim u! – deb tovush berdi.

Men uning javobiga do'kon supachasidan parcha g'ishtni qo'porib olib, ustun orqasiga chiqdim-da, u g'ishtni ularga tomon otdim va yana o'zimni ustun panasiga oldim.

Shu bilan mirshab bizning «o'g'riliгimizni» aniqlagan bo'lsa kerak, biz turgan tomon kelishni «xatarli» bilib, orqaga qaytdi va dovilini chalmasdan kelgan yo'li bilan ketaverdi.

Mirshab borib poyabzalfurushlik rastasi-ga kirib ketgandan keyin biz ustun orqasidan chiqib, tag'in qaytgan tomonimizga qarab yo'l soldik va bir necha daqiqada Qori Ishkamba hovlisiga borib yetdik.

* * *

Boywachcha Qori Ishkambanining eshigini taqillatdi. Biroz fursatdan keyin darvoza orqasidan:

– Kim u? – degan ovoz eshitildi, bu Qori Ishkambanining tovushi edi.

– Men, oshna, Qori amaki, eshikni oching! – dedi boyvachcha unga.

Qori Ishkamba darvozani ochdi, ammo boyvachchaning yonida boshqa bir odamning qorasimi ko'rgan hamon qaytadan darvozani yopmoqchi bo'ldi.

Ammo boyvachcha bunga yo'l qo'ymadidi: kifti bilan darvozaning bir tabaqasiga tiralib bir oyog'ini bo'sag'adan ichkari qo'ygan holda:

– Qo'rwmang, Qori amaki, bu kishi o'zimizni-ki, – degandan keyin menga qarab:

– Marhamat qiling, kiring! – dedi.

Biz darvozadan ichkari kirishga muvaffaq bo'ldik.

Yo'lakcha qorong'i va tor edi. Ichkari hovlining kirish yo'li bolsa kerak, ochiq turardi, eshikka o'ng tomonim bilan turtindim, Qori Ishkamba ro'paramizdagi bir zinaga oyoq bosib:

– Kelinglar, yuqori chiqinglar, – dedi.

Biz uning orqasidan qo'limiz bilan devor paypaslay-paypaslay yuqori chiqqa boshladik, torgina bir sahncha va uning narigi boshida bir tabaqali eshik bor edi. Eshik oldida bir metrcha keladigan bir ayvoncha, ayvonchaning osti boloxonanining qor-yomg'irdan saqlaniladigan yo'lagi sanalardi.

Qori Ishkamba oldin borib boloxonaning eshigini ochdi, biz ham uning orqasidan bordik. U boloxonaga kira turib: «Marhamat qiling-lar!» dedi. Biz ham boloxonaga kirdik, ammo qorong'ilikda qayerga o'tirishimizni bilmay, tika turdik. U bo'lsa boloxonaning tepasida g'i-virlab yurmoqda edi.

– Qori amaki, nima qilyapsiz? – deb so'radi boyvachcha undan.

– Lampani axtarib topdim, qani, gugurtlarin-giz bormi?

– Menda gugurt yo'q ekan, – dedi boyvach-cha cho'ntaklarini axtarib ko'rgandan keyin.

– Menda ham gugurt yo'q, – dedim men.

Qori Ishkamba oyoq o'yini qilayotganday boloxonani gumburlatib tepe boshladи.

– Boloxonaning osti – ichkari hovlidagi uyim, ular «gum-gum»ni eshitib ichkaridan chiqadi, – dedi.

Haqiqatan ham ko'p vaqt o'tmasdan zina to-monidan oyoq sharpasi eshitildi.

– Lampani chiqar, undan bu lampani yondiray! – dedi Qori Ishkamba zina boshiga chiqqan kishiga.

– Lampani yondirish uchun gugurt so'ramay, nega lampa so'radingiz? – dedi bola Qoriga.

– Hisob yuzasidan, – dedi Qori Ishkamba, – har kecha uyimda bir dona gugurtdan ortig'i sarf bo'lmasligi kerak, xoh o'choq bo'lsin, xoh chiroq, bir-birovlaridan yondirishlari lozim, har holda mening qo'llimdagи besh-o'n tanga pulni odamlar «foydaxo'rlik»dan top-

gan deb o'ylaydilar. Holbuki, men har bir narsamni tejashdan, xarajatda isrof qilmasdan topganman.

- To'g'risi, «chiqim qilmaslik»dan deng! - dedi boyvachcha.

- Agar lampani chiqarib tushirishda uning shishasi sinsa, «mumsikning xarji baravar» de gan maqol to'g'ri bo'lib qoladi, - dedim men.

- Singan shishaning zarari menga emas, u lampaning egasi bo'yniga tushadi, - dedi Ishkamba, - uning uchun bu lampani yondirisha ichkariga berib yurmay, u lampani bu yerga olib chiqishini buyurdim.

- Ichkari hovlingizdagи lampa sizniki bo'lmay, kimniki bo'ladi? - deb taajjub bilan so'radim.

- Xotinlarimniki, - dedi Qori Ishkamba va izoh berishga kirishdi, - xotinlarim do'ppi tikadilar, bu ishdan tushgan foydaning barisi o'zlariniki. Bu ishga bo'lgan xarajat, shu jumladan, lampa, uning shishasi va kerosin ham o'zlari hisobidan bo'ladi, ichkari hovlida lampa ham kerakmas, uning yorug'i ham.

- Unday bolsa do'ppilarning narxi uchun shuncha tortishuvningiz xotinlaringiz manfaati uchun ekan-da, - deb men do'ppi bozoridagi voqeani eslatdim.

- Yo'q, u tortishuvlar o'z manfaatim uchun edi, - dedi-da, izoh berdi. - Xotinlarim tikkan do'ppilarni men ulardan ko'tarasiga baholab olaman. So'ngra bozorga olib borib oshnalarim orqali chakana narxda sotaman, ko'tara narx bilan chakana narx orasida bo'lgan farq mening chontagimga kiradi.

Bu orada birov yongan bir lampani keltirib zina ustiga qo'ydi. Qori Ishkamba men bo'labyotgan gapini tugatgandan keyin qo'lidagi lampani olib borib eshik oldiga qo'ydi, borib zina boshidagi lampani olib keldi. Yonayotgan lampaning piligini pastlatib, yengi bilan shishasini olib, yerga qo'ydi.

So'ngra boloxona palosi ostidagi bo'yradan bir cho'p sug'urib olib uni boyagi lampadan yondirdi va lampasini yoqib olgandan keyin hovlidan chiqqan lampaning shishasini qo'yib, uni eltib zina yoniga qo'ygach, qaytib kelib, boloxona lampasini olib keltirib sandalga qo'ydi.

Bu lampa mozorlarda yoqiladigan piliklar-day xiragina yorug'lik beradigan «uchinchis» lampa edi; shunday bo'lsa ham, biz uning yorug'ida boloxonadagi «mebellar»ni ko'ra oldik: u terilarni oshlaganda chiqadigan jun qirindilardan bosilgan va Buxoro istilohicha «ohoki» deb ataladigan bir kigiz to'shalgan, sandalning ustiga, o'zi aytgancha, eshak terisiga o'xshagan bir ko'rpa yopilgan edi, ammo sandal tevaragidagi ko'rpa chalar undan ham isqirt, ya'ni eshak to'qimiga yoki qo'tir tuyaning juna o'xshar edi.

— Marhamat qilinglar, sandalga o'tiringlar, — dedi u.

Biz ust kiyimizga yaxshilab o'ralganimizdan keyin sandalning ikki tomoniga sezgir oyoqlarimizni sandalga uzatgan hamon qaytib tortib olishga majbur bo'ldik.

— Bu sandalmi yoki muzxonami, Qori amaki?
 — deb so'radi boyvachcha undan.

— Hali shu havoda ham oyog'ingizsovqot-dimi? — dedi Qori Ishkamba, — boyvachchalar oyog'i shunaqa nozik bo'lar ekan-da.

— Qishloqi mullavachchaning oyog'i ham ishdan chiqadi, — dedim men, — bir qarich qor kavushga kiradigan bo'lganda fil ham ko'chaga chiqsa sovqotadi. O'zingiz shu vaqt ko'chaga chiqib bir kezib kelsangiz-chi!

— Men hozir ko'chadan keldim, — dedi u, — necha mahalla-ko'ylarni kezdim, necha joyda choy ichdim, bir necha hovlida osh yedim. Agar boyvachchaga va'dalik bo'lmasaydim tag'in ikki kun ko'chalarda yurar, oshlari juda kech tayyor bo'ladigan oshnalarimning ham ovqatlarini yeb kelardim.

— Siz o'z uyingizda ham osh yeganmisiz? — deb so'radim.

Qori Ishkamba sira o'yamasdan hozirjavoblik bilan:

— Sira yemaganman. Modomiki, oshnalar uyida tayyor osh topilar ekan, nega o'z uyimda qozon-tovoq qilib o'tiray? Nega yuz ming mas-haqqat bilan topgan pulimni bekorga isrof qilaman, — deb biroz jim turgandan keyin, yana davom etdi. — Gapim yolg'on bo'lmasin, yilda ikki marta o'z uyimda osh yeyman.

— Ishonmayman, — dedi boyvachcha, — sira aqlim bovar qilmaydiki, sizday odam xarjlab uyida osh pishirtirib yesin!

— Men pul xarjlab osh pishirtib yemayan-n-n, — dedi u cho'zib va izoh berib: — xo-

tinlarim yilda ikki marta – muharram va rajab oylarida osh qilib uchta qori chaqirtirib, otalarining arvohiga qur'on xatm qildiradilar. O'sha vaqtida oshni qorilarning oldiga olib chiqaman va ular bilan birga o'tirib yeypman.

– O'zingiz-ku, qori, – dedim men unga, – nega xotinlaringizning pulini begona kishiga berasiz, shuning o'rniqa o'zingiz qur'on xatm qilib, pullarini olsangiz bo'lmaydimi?

– Xotinlar unamaydi, «siz Xudoni ham aldaysiz, qur'on o'qimasdan pulni olasiz» deyishadi, – dedi Qori Ishkamba, – lekin men hisobini topdim: xotinlar har bir qoriga yetti tangadan qog'ozga o'rab, uch qoriga yigirma bir tangani menga topshirib, «qorilarga chiqarib bering», deydilar. Men yo'lakda turib har bir qog'ozdan ikki tangasini cho'ntagimga uraman-da, qolganini qorilarga chiqarib beraman. Natijada har bir qoriga besh tangadan tegib, menga bo'lsa olti tanga o'lja boladi.

– Ya'ni olti tangani o'g'irlayman deng, – dedi boyvachcha.

– Nega bu ish o'g'irlilik bo'lsin? – dedi Qori Ishkamba biroz zardalanib, – men chetdan chaqirilgan qorilardan ko'proq va yaxshiroq Qur'on o'qib qaynatalarim arvohiga bag'ishlayman. Buni ahmoq xotinlarim bilmasalar ham xudo biladi.

– Qori amaki, – dedi boyvachcha, – agar puldan umidingiz bo'lsa, darrov bir bog' olov keltingki, oyoqlarim muzlab ketdi, qo'llarim ham tarasha bo'lib qoldi.

Qori Ishkamba o'rnidan turib, yana yern gumburlatib tepdi. Bir daqiqadan keyin ikkinci hovlidan uning oldiga bir odam chiqdi.

– Ichkaridagi sandaldan bir xokandoz olov olib chiq! – dedi Qori u odamga.

Bir daqiqadan keyin u odam «olv»ni chiqarib, zina boshiga qo'ydi. Qori Ishkamba xokandozni olib keldi. Xokandoz ichida ozgina qo'r aralash kul bor edi. U o'sha qo'r kulni xokandozi bilan sandal ichiga qo'ydi.

– Nega xokandozni bo'shatmasdan u bilan qo'ydingiz? – deb so'radim.

– Buning hikmati bor! – dedi u.

– Qanday hikmati?

– So'ngra anglaysiz!

Biz oyoqlarimizni qo'r aralash kul ustiga uzatdik, issiqligi juda oz bolsa ham saldan keyin maxsilarimizga yopishib qolgan muzlarni erita boshladi.

– Sandalingiz burun «yaxdan» bolsa, endi «yaxodan» bo'ldi, – dedim unga.

– Zarari yo'q, mening uyimda ko'nglingizga sovuq suv o'rniga «yaxob» urib ketasiz, – deb u hali ham mening haqimda shubhasi borligini anglatdi.

– Qani, bo'ling, daftaringizni tezroq keltiring, hisobingizni to'g'rilab, tezroq jo'naylik, bo'lmasa bu yerda muzlab qolib, ajalimizdan besh kun burun o'lamic, – dedi boyvachcha.

Qori Ishkamba o'rnidan turib, boyvachchani buruti¹ bilan imlagani holda eshikdan chiqdi.

¹ Mo'ylov.

Boyvachcha ham bir ko'zini qisib menga qaragandan keyin uning ketidan chiqdi. Ular boloxonaning sahnida bir-birovlari bilan biroz pi-chirlashganlaridan keyin Qori Ishkamba zina-dan tushib ketdi va boyvachcha iljayib mening oldimga kirdi.

– Qanday gap ekan? – deb so'radim boyvach-chadan.

– Hech bir gap yo'q, sudxo'rlarning odati shu, – dedi. – U aytadiki, «Men pulni qo'lingizdan kechasi olib, bir begona odamning oldida uyimga kirg'izib qo'ymayman, borib bir kishi-ni o'zim bilan birga boshlab kelaman. Undan keyin sizning qo'lingizdan olib, bиргалашиб ко'чага чиқамиз. Сиз ўлдoshingiz bilan о'з томонлaringizga ketasizlar, men u odam bilan birga pulni olib borib, о'zimga ma'lum bir joyga qo'yaman. Toki siz, ўлдoshingiz, «Qori pulni о'з uyida saqlar ekan», deb gumon qilmanglar.

Bir odamning ko'nglidagi shubha, ishon-movchilikning bu darajasi, albatta, jinniga o'xshagan bir kasallikdir. Jinnidan hech kim ranjimagandek, men ham undan ranjimadim va uning mening haqimdagи shubhasining bu darajaga yetgani va uyalmasdan uni boyvach-chaga ma'lum qilgani boshida menga qattiq ta'sir qilgan bolsa ham tezda ko'nglimdan chiqardim.

Qori Ishkamba ikki daqiqadan keyin qaytib keldi. Uning yolg'iz kelganini ko'rib, boyvach-chcha undan:

— Aytgan odamingizni topmadingiz shekilli?
— deb so'radi.

— Hali u odamniig oldiga borganim yo'q, bir zarur ishni eslab yo'lidan qaytdim, — Qori Ishkamba va izoh yo'li bilan so'zini davom et-tirdi: — Siz ikkovingiz-ku birovlariningizni yaxshi taniysizlar, qorong'ida bo'lsa ham bir-birovlariningizni tovushlaringizni eshitasizlar. Hozir gaplashib o'tirishdan boshqa ishlaringiz ham yo'q. Buning uchun chiroq kerak bo'lmasa kerak. Men lampani zina boshiga eltib qo'yib, o'chirib ketaman. Kelganimdan keyin uni yoqib hisob-kitobimizni qilamiz. Tuzukmi?

— Biz kuldik. Ammo u bizning «tuzuk» yoki «tuzuk emas» deyishimizni kutmasdanoq lampani ko'tarib chiqarib, zina boshiga qo'ydi va puflab o'chirganidan keyin zinadan tushib ketdi.

— Xo'p! — dedim men boyvachchaga, biroz jim turganimizdan keyin, — modomiki, ikkalamiz bir-birovlarimizni yaxshi tanir ekanmiz, qorong'ida bo'lsa ham bir-birovimizni tovushimizni eshitar ekanmiz va gapirishib o'tirish uchun chiroq ham kerakmas ekan, bas nega jim o'tiramiz?

— Unday bo'lsa gapiring! — dedi u.

— Men shuni sizdan so'ramoqchi edimki, otangiz tirik chog'da va hamma oldi-berdilari uning nomidan bo'lib turgani holda, siz nega qarzdor bo'ldingiz va sudxo'rlar bilan murosa qilishgacha borib yetdingiz?

— Sizga ma'lumki, men otam bilan bir do'kon-da o'tiraman, otam xat-savodsiz bo'lganligi sa-

babli, uning butun hisob-kitobi mening qo'llimda. Lekin men ba'zan otamdan yashirib pulidan o'z orzu-havasimga xarjlayman, bu xarj ba'zida besh yuz, hatto ba'zan ming tangaga borib yetadi. Ba'zan shunday xarjimdan keyin bankka yoki boshqa biron kishiga kattaroq mablag' to'lash kerak bo'lib qoladi. Shu vaqtida men qarz ko'tarib unday muomalani to'g'rilayman, bo'lmasa otam oldida sir ochilib qoladi. Shundan saqlanish uchun yo'l topib pul olaman, buni esa do'kondan kam-kam pul to'plab kishi bilmas uzaman.

— Xo'p, bunday ishlar boyvachchalar hayotida uchraydigan narsa. Ammo siz shunday vaqtida nega boshqa biron sudxo'r yoki sudxo'r hindilardan pul ko'tarmay, shu isqirtdan qarzdor bo'lasiz? Bu odam bilan bir nafas bir joyda o'tirishning o'zi odamning bir yillik umrini qisqartiradi.

— Isqirtlikda va boshqa xususiyatlarda hamma sudxo'rlar va sudxo'r hindilar baravardirlar. Ammo bu odamning boshqa sudxo'rlardan farqi shundaki, foyda uchun bir tanga ortiq bersam yoki biron yog'lik palov damlab yegizsam, sirimni o'lguncha yashirin saqlaydi.

Boyvachcha bilan bizning gapimiz shu yerga yetganda Qori Ishkamba e'tiqodli odamini boshlab keldi. U zina boshida turib u odamdan gugurt so'radi. Xayriyatki, u odamning gugurti bor ekan, o'sha bilan lampani yoqib, boloxonaga olib chiqdi. U odam ham uning orqasidan biz bilan salomlashdi. Biz lampaning yorug'ida

Qori Ishkamba u odamni Mag'oq machitga nazr atagan va o'zini machitning nazrxo'r guman qilgan bir dehqon deb o'yladi va undan ko'proq nazr undirish uchun bir necha daqiqa yana ham balandroq ovoz bilan duo o'qib, tasbeh donalarini hisob cho'tiday shaqirlatib o'tirgandan keyin qo'lini yuziga surtib, uning salomiga javob qaytardi va unga:

– Xo'sh, nazr-niyozingiz bolsa chiqaring, uka! – dedi.

– Mening nazr-pazirim-ku yo'q, lekin sizdan qarz so'ramoqchiman, – dedi u dehqon.

– Qancha qarz olib, qancha foyda bermoqc-hisiz va zarkafilingiz kim? – so'radi dehqondan.

Qori Ishkamba bilan dehqon gaplashayotgan chog'da Mag'oq machiti oldida do'konlardan attorlar kela boshladilar, ular o'z do'konlarini ochishdan burun bularning nimalar to'g'risida gaplashayotganlariga qiziqib, gaplashuv-chilarning oldilarida to'plana berdilar.

Pul muomalasini va umuman pul to'g'risidagi ishni hammadan yashirishni istagan Ishkamba odamlar oldida o'zining boyagi so'roqlariga javob olishni o'zicha munosib ko'rib dehqonga:

– Turing, men bilan yuring, boshqa biron xilvatroq joyga borib gaplashamiz, – o'rnidan turdi va dehqonni ergashtirib shonataroshlik tor ko'chasidagi tahoratxonaga kirgizdi.

Namoz vaqtি bo'lмаганидан у yer tahorat oluvchilardan xoli va biron odamning kelib-ke-tish ehtimoli ham yo'q edi. Shunday bolsa ham Qori Ishkamba ehtiyyot yuzasidan tahorat eshi-

gini ichkaridan zanjirladi va dehqon bilan birga supachaga o'tirib, unga savollarni qayta boshdan berdi.

– Qancha pul qarz olib, qancha foyda bermoqchisiz va zarkafilingiz kim?

– Qori amaki! – dedi dehqon, – avval siz mening dardimni eshiting, u vaqtida men qancha pulga niuhtojligim o'z-o'zidan ma'lum bo'lib qoladi va qancha foyda berish kerakligim ham o'shanda aniqlanadi.

– Xayr, gapiring!

– Men Galaosiyoga qarashli Bo'lmaxo'ron qishloqlik, yer-suvli, uy-joyli dehqonman. Sangsabz qishlog'ining oqsoqoli Arbob Ro'zi o'z yeri yonidagi yerlarimni qo'iga kirgizish uchun ustimdan bir janjal chiqardi. Qishlog'imizning oqsoqoli Arbob Hamid ham unga yon bosdi. O'n besh kunga qamalib chiqib, keyin qozixonana eshigiga qatnay-qatnay bu janjal tugagan bo'lsa ham shu o'n besh kunda qozixonada bo'lgan besh yuz tanga xarajatni qozikalon mening bo'yningma yukladi. Janjal ustida turgan qozikalon odami bu pulni har kunda besh tanga foyda bilan qozixona samovarchisidan qarz ko'tartirib, xarajatni to'lattirdi. Mana shu namozi bomdodda besh yuz tanga qarzim – besh yuz yigirma besh tanga bo'ldi, agar peshin namozigacha topib berolmasam, besh yuz o'ttiz tanga, xuftongacha bera olmasam, besh yuz qirq tanga, ertaga qolsa besh yuz ellik tanga bo'ladi va shunday bora bersa o'n besh kun o'tmasdan butun yer-suvim va uy-joyimdan

ajralaman. Shuning uchun arzonroq foyda va uzoqroq muddat bilan hojatimni chiqararmi-kansiz deb, oldingizga bo'yin egib keldim.

Qori Ishkamba «Bunday yog'liq o'lja qanday bo'lib qishloq o'limsaxo'rлари changaliga tush-may menga kelibdi, bu orada biron tuzoq yo'qmikin», deb shubhalanib dehqondan so'radi:

— Qishlog'ingizda holingizni biladigan, halol-lilingizga ko'ngli to'ladigan biron savdoyi boy yo'qmidiki, siz ularga bormay, menga keldingiz?

— Bor! — dedi dehqon, — mening boshimda o'sha janjalni qo'zg'agan Arbob Ro'zi va unga yon bosgan Arbob Hamid, qishloqning sudxo'r boylari, lekin ular qarzga bergan pullarining foydasiga qanoat qilmaydilar, balki yer-suvni garovga olib, foyda ustiga foyda zamlab, oz vaqtda meni yerdan mahrum qiladilar. Boya sizga aytganimday, ularning bu janjaldan maqsadlari yerimni qo'limdan tortib olishdir.

— Men ham, — dedi Qori Ishkamba, — yerin-gizni garovga olmasdan turib, sizga pul bera olmayman.

— Tuzuk, — dedi dehqon, — siz ham yerimni garovga olib qarz bersangiz, lekin eshitishimcha, siz qishloqqa chiqib yer-suv egallab, dehqon-chilik qiladigan odam emas ekansiz. Shuning uchun qishlog'imizdan bir kishi: «Agar shu kishidan qarz olsang, yering o'z qo'lingda qoladi», deb meni sizga yubordi.

— Xo'p, — dedi Qori Ishkamba rozilik ohangi bilan, — har yuz tanga uchun oyda qancha foyda berasiz?

– Besh tanga?!

Halgacha har yuz tanga uchun oyda ikki yarim tangadan ortiq foyda yuzini ko'rmagan Ishkamba «besh tanga»ni eshitib, yuragi yorilar darajada shodlangan bo'lsa ham yana pul orttirish umidi bilan:

– Yo'q, – dedi, – har yuz tanga uchun oyda o'n tanga bersangiz, bu ishni qilaman, bo'lmasa yeringizga ko'z tikkan o'sha qishloq sudxo'r-lari oldiga bora bering!

– Qishloq sudxo'rлари, – dedi dehqон, – jumladan, Arbob Ro'зining o'zi ham mening yerlarimni garovga olish sharti bilan har yuz tanga uchun oyda o'n tanga taklif qildilar. Yerim qo'ldan ketadi deb, bu taklifni qabul qilmadim. Sizni menga insofli sudxo'r, besh tanga uchun oyiga ikki yarim tangaga rozi bo'ladigan sudxo'r, deb darak berdilar. Shunday bo'lsa ham men insof qilib, qishloq boylari taklif qilgan bahosining yarmisini, ammo o'sha shahar xalqidan olib turgan foydaning ikki baravarini taklif qildim. Agar bunga unamay, o'sha qishloq sudxo'rлари talab qilganday oyda o'n tanga talab qilsangiz, siz bilan ular orasida qanday farq qoladi? Natijada baribir mening yerim oz vaqtda qo'limdan ketadi. Chunki bu og'ir foydani to'lay olmayman, siz darrov mening yerlarimni o'sha boylarga sottirib olasiz, lekin o'shanda ham shart qilingan hamma foya unmaydi. Bir ish qilingki, na six kuysin, na kabob, na mening yerlarim qo'ldan ketsin, na siz shahar xalqidan oladiganingiz foya-na siz shahar xalqidan oladiganingiz foya-

ning ikki baravari bo'lgan foydadan mahrum qoling!

Qori Ishkamba o'zining manfaatiga muvofiq bo'lgan bu so'zga qarshi ayta oladigan javobi bo'lmasa ham boshqa yo'l bilan foydani yana biroz orttirmoqchi bo'ldi.

– Xayr mayli, boring, baraka toping, faqat mening namozxon pokiza odamligimni nazarga olib, duolarimdan umid qilib, yuz tanga uchun oyda olti tanga foyda bering, bir oyda bir tanga qayerga ketmaydi! O'shanda ham siz uchun besh yuz tanga, har oyda qozixona samovarchisiga beradiganingizga ko'ra yetti yuz yigirma tanga arzon tushadi.

– Xayr mayli, boring, siz ham baraka toping!
– dedi peshin vaqt vaqinlashib qozi samovarchisiga beriladigan pulning yana besh tangaga orttishidan qo'rqqan dehqon, – unday bo'lsa, pulni darrov bering, men olib samovarchiga to'lay.

– Ey, qiziq gapirasiz-ku, – dedi Qori Ishkamba, – men sizni tanimasdan qanday sizga pul beraman? Avval borib yer-suvingizni aniqlashim, uni xatlashim kerak, bundan siz biror inobatli, yerli-suvli zarkafil topishingiz kerak. Undan keyin men pul bera olaman.

– Xo'p, – dedi dehqon, – boring, o'z ko'zingiz bilan yerlirimni ko'ring, qo'shnillardan mening qanday odamligimni tekshiring. Lekin zarkafil top deb o'tirmang, birinchidan, zarkafil – qarzdor pul bera olmagan vaqtda naqd pul chiqarib berish uchun kerak. Mening do'stlarim orasida unaqangi puldor odam topilmaydi, ularning

hammalari qo'l mehnatlari bilan kun ko'rib yurgan odamlar, ikkinchidan, zarkafil pul ega-sining ko'nglini to'ldirish uchun kerak, men o'z yerlarimni sizga xat qilib berganimdan keyin agar men bu pulingizni bera olmasam, siz darrov yerlarimni sottirasiz. Bu orada zarkafilning nima keragi bor?

– Xo'p, – deb Qori Ishkamba bu shartga ham rozi bo'ldi.

– Endi yerlarimni tekshirish va vasiqa qilish uchun qachon borasiz?

– Shu ikki-uch kun orasida.

– Jon Qori aka, erta-indin boring, samovarchining gardanimdagi qarzi og'irlashib ketmasin, – deb dehqon o'rnidan qo'zg'aldi.

– Tez borish uchun harakat qilib ko'raman, – deb Qori Ishkamba ham o'rnidan turdi va taho-ratxonadan chiqqa turib, dehqondan so'radi:

– Bo'lmaxo'ranga borsam sizni kim deb so'roqlay?

– Hamrohrafiq, – dedi dehqon va Qori Ishkambadan tezroq borishini yana bir bor yalinib so'ragandan keyin taroqchilik ko'chasidan o'tib rastadan chiqib ketdi. Qori Ishkamba bo'lsa katta rastaga chiqib, kundalik ishlari orqasi-dan tushdi.

* * *

Qori Ishkamba Hamrohrafiq bilan qil-gan suhbatining ertasiga erta bilan shaharga chiqib, Galaosiyoniga tomoniga qarab piyoda yo'lga tushdi.

Piyoda yurishda semizligi, qornining kattaligi azob bersa ham u iloji boricha yugurmoqda va terga botib, nafasi qisilsa ham yo'rtib lo'killamoqda edi. Uning bu shoshilishidan maqsadi Galaosiyodagi qozikalon noibi qishloqlarga chiqib ketmasidan burun borib noibxonadan topmoq va uning vositasi bilan Hamrohrafiqning ahvolini tekshirmoq edi. Qori Ishkamba Galaosiyoga yetishib, noibxonaga kirayotgani-da noibni ot ustida uchratdi. Qori Ishkamba kutganday qishloqlarga chiqayotir edi.

Qori Ishkambanining kirib kelishini ko'rgan noib otdan tushdi-da, u bilan quchoqlashib ko'rishdi.

Qori Ishkamba bilan noib ko'rishayotgan chog'da noibxonadagi mulozimlar, sayislar va otboqarlar qiqirlashib kulishdan o'zlarini tiya olmadilar, chunki bularning ko'rishishi ikki odamning quchoqlashib ko'rishishidan ko'ra ko'proq yonma-yon qo'yilgan ikki xumga o'xshar edi – noib ham Qori Ishkambaday qorni katta va semiz bir odam edi. Noibning Ishkambadan farqi faqat boshi va yuzining kichikligida, kam-soqolligida edi, boshi shu darajada kichkina ediki, uzoqroqdan uni ko'rganlar «g'alla to'ldirib og'zi bog'lanib qo'yilgan qanor bo'ssa kerak», deb o'ylar edilar. Haqiqatan ham uning yo'g'on gav-dasi ustidagi kiyim-bosh tutamlab bog'langan to'la qanorning og'ziga o'xshar edi. Bir-birovlari-ga yopishganlari holda qo'llari bir-birovlarining qo'lтиqlariga yetmagan bu beso'naqay ikki do'st o'z ahvollaridan o'zlarining ham kulgilari qis-

tab, ko'rishib bo'lgach, qo'l ushlashib kula-kula mehmonxonaga kirdilar.

Noib ovqat yeishda ham Qori Ishkambaning o'zginasi edi, bu to'g'rida uning farqi yolg'iz shu ediki, Qori Ishkamba qornini o'z hujranishinlari va qarzdorlar dasturxonlariidan «to'ldirsa», noib o'ziga ishi tushgan qishloq boylarining yog'liq ziyofatlarini yeish bilan birga kambag'al dehqonlarni talab, to'plagan qo'y, qo'zi va so'qimlarini so'yib, o'z uyida ham yer, kambag'alroq odamlarni o'z dasturxoni boshiga yo'latmas ham, o'zi va Qori Ishkambaga o'xshagan qorni kattalardan ziyofatini ayamasdi ham.

Mehmonxonaga kirib o'tirishlari bilanoq noib o'z mahramini chaqirib, dasturxon buyurdi.

– Hozircha dasturxon bilan birga bir tovoq yaxna go'sht keltir va darrov ikki tovuqni qovurishga buyur, – dedi-da, Qori Ishkambaga qarab so'radi:

– Qanday sabab bilan shahardagi javob muomalalarингизни ташлаб qishloqqa chiqdingiz?

– Choy buyuring, bir-ikki piyola choy ichib, ham hordig'imni chiqaray, ham qorinni siz dasturxonga qo'yadigan taomlarni shipirish uchun tayyorlay, biroz dam olganimdan keyin qishloqqa chiqishimning sababini aytib beraman. Bir tosh yo'lni piyoda bosib, jonim halqumimga kelayozdi.

– E, hali piyoda keldingizmi? Shunday vaqtarda foydalanish uchun nega biron ulov saqlamaysiz?

— Men tishi bor arrani uyimga yo'latmaymanu, ot yoki eshak saqlaymanmi? — dedi Ishkamba va mahram olib kirgan choy bilan dasturxonga ko'zi tushgan hamon gapdan to'xtadi.

Dasturxon yozildi, yaxna to'g'ralib o'rta ga qo'yildi va choy quyildi.

Qori Ishkamba ovqatdan burun choy ichmoq-chi bo'lsa ham yaxna go'shtni ko'rdi-yu, choydan kechib yaxna solingan tovoqning ustiga butun gavdasi bilan egildi.

Uy egasi ham yog'liq parchalarni olib og'ziga tiqishda o'z mehmonidan qolishmasdi.

Qori Ishkamba ovqat vaqtida gapirishga odat qilgan bo'lmasa ham uy egasining ovqat yeyish-dan kunlashib bo'lsa kerak:

— Siz ham haligacha ovqat yemagan edingizmi? — deb so'radi.

— Yegan edim, — dedi noib, — lekin yolg'iz yeyilgan ovqatning mazasi bo'lmaydi va ishtaha ham yaxshi ochilmaydi.

— Ishtahangizni ochish uchun sizga hamtovoq kerak ekan, nega o'z odamlaringizdan birtasini dasturxonga chaqirmadingiz.

— Doimiy hamtovog'im bor — u mahramim, u har mahal dasturxon boshida men bilan o'tiradi. Lekin u ovqatni juda oz yeydi, «chimxo'r ho'kiz ochlikdan o'ladi» deganlariday, «chilp-chilp» qilib ovqatlanishi mening ishtahamni battarroq bo'g'ib qo'yadi, — dedi noib izoh berishga kiridi. — Chunonchi shu bugun erta bir dona qovurilgan tovuq bilan bir bo'lak to'g'ralgan yaxna ni dasturxonga keltirib qo'ydilar, hamtovog'im

bo'lgan mahramim bilan bir burda non bilan bir-ikki parcha yaxna go'shtdan ortiq yeya olmadi. Buni ko'rib mening ishtaham bo'gildi. Ko'ngil tilar-tilamas zo'rqa tovuqni yeb tugatdim, ammo yaxnadan bir parchadan ortiq yeya olmadim.

Qori Ishkamba o'z odatining aksi o'laroq, ovqat vaqtida bir-ikki og'iz gapirib, u tovoqdan ovqat olishi birmuncha keyinga qolgan bo'lsa ham bunda ziyon ko'rmadi, ovqat yeyishda dunyoda birdan-bir raqib bo'lgan hamtovog'ini gapga solib qo'yib, o'zi go'shtlarini chaynamay berdi, noib o'z chimxo'rligini gapirib bo'lguncha yaxna tovog'i bo'shadi va uning o'rniga qip-qizil qilib qovurilgan ikkita tovuq keltirildi, bir oxurdan kunjara yeyayotgan bir juft ho'kizday ikki do'st tovuq go'shti ustiga engashdilar. Endi uy egasi ham indamasdan yeyishga kirishdi, u «oling-oling» deydigan manziratga ham o'rin qoldirmay, tovoqdan parchalarni ko'tarayotgan hamtovog'ini mehmon dorlik nazokati uchun ora-sira boshi va qo'li bilan «oling» degan ma'noda imlab qo'ysa ham, biron og'iz gapirmsadi.

Tovuqlar ham yeyilib bo'lib, dasturxon yig'ish-tirilib olingandan keyin choy ichish navbatি keldi va choy vaqtida Qori Ishkamba o'zining qishloq-qa chiqish sababini aytib berib, noib uning qo'l ostida bo'lgan Bo'lmaxo'ron qishlog'idagi Ham-rohrafiqning ahvolini so'radi va:

– U bilan oldi-berdi qilsam kuyib qolmasmi-kanman? – dedi.

– Yo'q, kuymaysiz, – dedi noib, – birinchidan, o'ziga tinch bir dehqon, besh tanob milk yeri¹, bir toqa² ho'kizi va bir sigiri bor og'a-inisi yoki qo'ldan ish keladigan katta o'g'li bo'lmasa ham, o'zi ishchan odam bo'lganidan yerlarini gulbog'chaday obod qilgan va betanob o'n tanob, balki undan ham ko'proq yerning hosili ni oladi, ikkinchidan, u to'g'ri va kishi haqidan qo'rqedigan odam, uchinchidan, juda sodda, sofdil va ishonuvchan bir kishi, shuning uchun yomg'irdan qochib, qorga tutilgan odamday qishloq sudxo'rlaridan qochib, sizning tuzog'ingizga ilinibdi.

Qori Ishkamba noibning bu gapidan zavqlanib kuldi va noib o'z so'zini davom ettirib dedi:

– Mana shunday mulkli, asbob-uskunali, o'ziga tinch, to'g'ri va soddadil dehqonda sizday odamning puli kuymaydigina emas, balki u sizga govmish sigiday bir necha yil sut, qaymoq bera oladi.

– Birov uni yo'ldan ozdirib, niyatidan qaytar sa nima qilaman?

– U vaqtida, – dedi noib, – qozi kalon muhri bilan muhrlatib sizga beriladigan parcha xat sizning qo'lingizda «o'tkir pichoq» vazifasini bajaradi va u pichoqni ish uning terisini shilib, sizga topshiradigan «qassob» men bo'lamani.

– Demak, Hamrohrafiqqa pul qarz berishim maslahat?

¹ Amir zamonidagi Buxoro istilohi bo'yicha «milk yerb deb podshohlikka soliq bermaydigan yerni aytar edilar.

² Toqa – dona.

- Maslahat, - dedi noib, - lekin u qishloqqa borib, u yerning katta-kichiklari orasida gaplashib, vasiqa tayyorlashimiz kerak.
- Unday bo'lsa o'sha yerga boraylik.
- Boramiz! - deb noib otlarni tayyorlashga buyurdi.

* * *

Noib bilan Qori Ishkamba Bo'lmaxo'ron qishlog'iga yetib bordilar. Umrida biror marta bo'l sin ot minmagan Qori Ishkamba ot ustida qiziq ko'rinar edi: uning qavatma-qavat kiyingan chophonlarining barlari ot ustiga yoyilib ketgan, sallasi oldin tushib, qosh-ko'zini bosgan, pechlari ochilib har tomonga osilgan, o'zi ikki qo'llab egar qoshini mahkam tutgan, noibning mulozimlaridan bo'lgan bir otliq u mingan otning yuganidan yetaklab borardi.

Kulgi uchun bo'lsa kerak noib uning umrida ot minmaganligini bila turib, jo'rttaga sovutilmagan, yosh, chars va asov bir otga mingizgan edi, u mingan ot o'z yonida, o'zini yetaklab borayotgan otliqning otini tishlamoqchi bo'lib, har zamonda bir unga og'iz solardi, biror otning kishnashini eshitganida - ikki-uch kishnab unga javob berardi yoki sal narsadan hurkkan bo'lib, bir tomonga olib qochmoqchi bo'lardi yoki chiroqpoya¹ bo'lib olib oyoqlarini osmonga ko'tarardi...

¹ Chiroqpoya - chiroq yog'i, bu yerda tippa-tik turish ma'nosida.

Otning bunday harakatlarining har birida sho'ring qurg'ur Qori Ishkamba o'n marta o'lib, o'n marta tirildi, «voy, o'laman» deb dod dedi, ammo noib va uning odamlaridan kulgidan boshqa «yordam» ola olmadi, o'zini otdan tashlamoqchi bo'ldi, ammo tashlay olmadi. Agar otini yetaklab borayotgan yigitning chaqqonligi, ustaligi bo'lmasaydi, haqiqatan ham u yiqilib o'lar, hech bo'lmaganda boshi yorilib va qo'loyog'i singan bolardi.

Bo'lmaxo'ron qishlog'ining aholisi noibi ni hech vaqt shu kungiday kulgi va qiyg'os bilan qarshi olmagan edi, ular har vaqt noib qishloqlariga kirib kelganda «boshimizga yana ne balolar keltirdi ekan?» deb qayg'uga tu-shardilar. Bu safar ham ularning yuraklari shu qayg'udan xoli bo'lmasa-da, Qori Ishkambani otga mindirib kelish manzarasi ularni kuldirmay qo'ymadni. Qishloqning katta-kichi-gi, keksa chollarigacha ko'chaga chopib chiqdi! Qishloqqa kirib kelgan «maymunboz»ning tevaragiga yig'ilganday uning atrofini o'rabi oldilar.

Bu tasodify qarshi oluvchilarning oldilarida haqiqatni shodlik bilan qarshi oluvchi bo'lib qishloq oqsoqoli Arbob Hamid turar edi. Arbob Hamid otda kelgan noib bilan va uning ishora-si bo'yicha Qori Ishkamba bilan ko'rishgandan keyin otdan tushib, ularni boshlab borib, o'z hovlisiga tushirdi.

Noib va uning yo'ldoshlari shohsupa ustiga chiqib o'tirishlari hamon oqsoqolning odamlari

bir semiz qo'zini keltirib, supa oldida – noibning ko'zi tushadigan joyda so'ydilar.

Bu endi oqsoqolning noibini qanday shodlik bilan qarshi olganining amaliy alomati edi.

* * *

Dasturxon yozildi, meva-cheva tortildi, qishloq kattalari ham noib o'tirgan supaga kelib, dasturxon boshiga o'tirdilar. Eski to'n faqirlar bo'lsa daraxtlarning tubiga, devorning tagiga o'tirib, «noib boshimizga yana qanday baloni olib keldi ekan?» deb bir-birovlari bilan pichirlashmoqda edilar. Qori Ishkambanining ko'rinishidan paydo bo'lgan kulgi va shodlikdan endi asar qolmagan edi.

Xalq orasida Hamrohrafiqni ko'rmagan noib uning qayerdaligini oqsoqoldan so'radi.

– U yavonda¹ bug'doy o'rayotgan bo'lsa kerak, – deb javob berdi oqsoqol.

– Biron odam yuborib, uni chaqirtirib keltiring! – dedi noib.

Oqsoqol pastda o'tirgan bir bolani chaqirib, Hamrohrafiqni aytib kelishga buyurgandan keyin:

– Unda nima ishingiz bor? – deb so'radi noibdan.

Noib oqsoqolning javobiga Ishkamba bilan Hamrohrafiq oralaridagi bo'lajak oldi-berdining xomcho'tini hikoya qilib bergandan keyin:

– Bugun sizlarning huzuringizda mana shu ishni uzil-kesil hal qilib, vasiqa tayyorlash uchun keldik, – dedi.

¹ Qirda, dalada.

– Ko‘p yaxshi, xush kelibsizlar! – dedi oq-soqol, noib va Qori Ishkamba tomonga qarab qo‘lini ko‘kragiga qo‘ydi-da, boshini hurmat bilan eggandan keyin gapini davom ettirdi:

– Lekin biror yer, bog‘ yo hovli sotiladigan yoki garovga qo‘yiladigan va qanday yo‘l bilan bolsa bolsin, boshqa biror odamning qo‘liga o‘tkaziladigan bolsa, shariat yuzasidan hammadan burun u mulkni qo‘snnisida bo‘lgan mulklarning egalariga taklif qilish kerak, agar «bizga kerakmas» desalar, undan keyin chetdan kelgan odam mulkka qadam bosa oladi. Ammo yer oluvchi Qori akam bolsalar, bu savdoning ustida oqsoqollik qilib, bizning vazifamizni yengillashtiradigan siz bo‘lsangiz, biz hech bir so‘zsiz bunday ishni qutlaymiz.

– Qori akam bolsin, yo boshqa shaharlik boy bolsin, shahardan uzoq bo‘lgan bu qishloqqa kelib dehqonchilik va mulkdorlik qila olmaydi. O‘zining hamqishloqlarini, o‘z ko‘zi oldida, o‘z yeriga ega qilib qo‘yish alamiga chidayolmasligini chamalagan Hamrohrafiqning o‘zi bu ishni topgan. Hozircha uning yerini Qori akamning nomlariga xatlaymiz, bu qish beradigan qarzlari foyda tug‘ib, yerning arziydigan narxiga yaqinlashgandan keyin al-batta uni sottirib, o‘z pullarini undiradilar. U vaqtida bu yerni qo‘snni bo‘lgan mulk egasiga o‘tkazasizlarmi, boshqa biron kishiga berasizlarmi, ixtiyor sizlarda. Har holda Qori akam-

ning qadamlari o'z qishlog'ingizga tegishidan siz va qishloqning boshqa kattalari ziyon ko'r-maysizlar. Bu kishi qo'llari uzun, barakali odam, – dedi noib va oqsoqoldan so'radi:

– Hamrohrafiq yerlarining yonidagi yerlar egasi kim?

– Sangsabz qishlog'ining oqsoqoli Arbob Ro'zi, – deb javob berdi oqsoqol, – ana o'zlari ham kelib qoldilar!

* * *

Supaning oldiga kelgan Arbob Ro'zining hurmatiga supadagilar o'rinalidan turdilar. U supaga chiqib, noib, Qori Ishkamba va noibning odamlari bilan ko'rishgandan keyin uy egasi Arbob Hamiddan yuqoriga o'tirdi-da, Bo'lmaxo'ron qishlog'ining kattalariga qarab:

– Ko'rganimiz – ko'rishganimiz, – dedi.

Arbob Hamidning odamlari Arbob Ro'zi noibga tortiq qilib keltirgan bir qop qovunni hovuz bo'yiga terib qo'ydilar, ustiga to'rtta qovurilgan tovuq qo'yilgan bir dasta moyli issiq patirni bo'lsa har joy-har joyga tashlab va ikkita patir bilan tovuq noibning oldiga eltib qo'ydilar.

Noib tovuqlardan ikkitasini dasturxonning quyi tomoniga itarib, qolgan ikkitasini o'zi bilan Qori Ishkambaga yaqinroq joyga qo'ydi.

Noibning tovuqlarning ikkitasini o'z oldidan uzoqlashtirganidan jahli chiqqan Ishkamba achchig'langan bir vaziyatda unga qaradi va shu qarash bilan go'yo undan bu «yaramas» ishning sababini so'raganday bo'ldi.

Qori Ishkambaning bu qarashi ma'nosini tamoman tushungan noib yuzini burishtirgani holda uning ko'ziga bir tikilib oldi. Go'yo shu tilish bilan shahar xalqiga ko'ra to'qroq bo'lgan qishloq aholisi oldida bunday ochko'zlik ko'rsatish yaramasligini tushuntirmoqchi bo'ldi.

Lekin Qori Ishkamba parchalab supadagilarning oldiga qo'yilgan ikki tovuqni qo'lga kiritishdan umidini uzgan bo'sha ham ko'zini undan uzmas va qo'li o'z oldidagi tovuq go'shtini olib, og'ziga solayotgani holda, nazarini boshqa odamlar og'ziga kirayotgan tovuqlarning go'shtidan uzmasdi.

Noib va Qori Ishkamba oldilaridagi tovuq qovurmasi yeyilib tugatilmasdanoq dasturxonga qo'zi qovurmasi keltirildi. Qo'zi qovurmasi tovoqlari bo'shayotgan chog'da tovoqdagi palovlarni keltirdilar.

Supadagilar qorinlari yorilar darajasiga yet-guncha ovqatlanib turganda, supadan naridagi daraxt va devor tublarida o'tirgan faqir-fuqaroni hech bir kishi esga olmas edi, noibning maxsus chaqirig'i bilan kelgan va bu moyli ziyofatlar uning ustidan va uni talash munosabati bilan bo'layotgan Hamrohrafiqqa ham hech kim qaramasdi. U ham eski to'nlar qatorida bir daraxt tubida pisib o'tirar edi.

Nihoyat bo'shagan tovoqlarni yig'ishtirdilar, sarqit ovqatlar haligi faqirlarga berilib, dasturxon tovuqlar oldiga qoqildi, chaynalgan suyaklar itga tashlandi, qovunlar to'latilgan bar-kashlar qator qo'yildi.

Qovun yejilib bo'lgandan keyin uning qirilgan, qirilmagan po'choqlari ham «sadaqa» qilindi.

Oxiri Qori Ishkamba tomonidan o'qilgan bir duo bilan dasturxonga fotiha berildi.

* * *

Noib Qori Ishkamba bilan Hamrohrafiq oralarida bo'lgan kelishuvni hikoya qildi. Hamrohrafiq yerlariga shafilik¹ da'vosida bo'lgan Arbob Ro'zining ruxsatini olgandan keyin Arbob Hamidga qarab:

– Hamrohrafiqni bu yerga chaqiring, oqsoqol!
– dedi.

Oqsoqolning imlab chaqirishi bilan Hamrohrafiq supaga chiqib, kattalarga salom bergandan keyin bir burchakda pisib o'tirdi. Noib unga qarab Qori Ishkamba muhtojlikka tushgan odamlarga «xayrixohligi»dan, lekin uni tanimagani uchun uning bu ishidan shubhada bo'lganidan, bu to'g'rida o'zi uning ko'nglini to'ldirib «Hamrohrafiq yaxshi odam» deb ta'rif qilib o'zi boshlab uni bu yerga olib kelganini gapirganidan keyin:

– Shu ishni bitkazsak menga yaxshigina xizmatona berasan-da, – dedi.

Hamrohrafiq uning bu «xizmatlari» muqobiliga «qulluq» deganday qilib, qo'llini ko'ksiga qo'yib boshini egdi.

¹ Shariat bo'yicha birovning yeri yoki uy-joyi sotiladigan bolsa, birinchi xaridorlik huquqi qo'shniga berilar, qo'shni olmasa, boshqalar olaberadilar.

— Bular o'zaro kelishganlari juda yaxshi, — dedi Arbob Hamid. — Biz-ku bu savdo ustida yo'q edik, siz aytib bering, noib eshon, qishloqning katta-kichigi bularning orasida qanday muomala bo'layotganini eshitsinlar.

Noib Hamrohrafiq huzurida u bilan Qori Ishkamba oralarida bo'lgan kelishuv shartlarini — foydaning miqdorini va besh tanob yerni xat qilib berishni yana bir hikoya qilgandan keyin:

— Bizning vazifamiz mana shu shartlarga binoan, shar'iy vasiqa qilib, muhrona, kotibona, xizmatona va shirinkoma olishdir, — dedi va o'z juzgiridan¹ qog'oz va qalamdonidan qalam chiqarib, Hamrohrafiqqa qarab so'radi:

— Qancha pul qarz olmoqchisan?

— Bilmasam... — dedi Hamrohrafiq, — samovarchidan besh yuz tanga qarzim bor, kunlik foydasi bilan besh yuz ellik tanga bo'ladi.

— Ya'ni besh yuz ellik tanga qarz olmoqchimsan? — deb so'radi noib.

— Ha!

— Xatni muhrlatib, qori akaga berib, u kishidan pul olganingga samovarchining foydasi yana yigirma besh tanga ortib, undan qarzing besh yuz yetmish besh tanga bo'ladi. Shu mablag'ni olsang bo'ladimi?

— Bo'ladi!

— Boshqa xarajatlar uchun naqd puling bormi?

Hamrohrafiq «yana qanday xarajatlar ekan?» deb biroz o'ylab turib:

¹ Charmdan tikilgan papka.

– Yo'q, biron qora pulim ham yo'q! – degandan keyin: – Yana qanday xarajat bo'ladi? – deb so'radi.

– Ey, sen dunyodan butunlay xabarsiz ekan-san-ku, – degandan keyin noib unga xarajatlarni sanay boshladi.

– Axir sening ishing ustiga qadam ranjida qilib, la'lida to'qqiz non olib kelgan oqsoqol – Arbob Ro'ziga yigirma besh tanga qadam haqi bermaysanmi? Bu bilan senga bo'lgan pul – tappa-taxt olti yuz tanga bo'ladi, shuncha ziyo-fatlar qilgan va o'lik-tiricingni bajaradigan o'z qishlog'ingning oqsoqoli Arbob Hamidga qirq tanga bermaysanmi? Janobi shariatpanoh qozi kalonga muhrona, menga kotibona va mulo-zimlariga xizmatona – hammasi ichida qilib ellik tanga bermaysanmi?

Arbob Hamid noibning so'zini bo'lib:

– Bu oz, hech bo'limganda qozixona xarajati uchun yuz tanga berishi kerak, – dedi.

– Yuz tanga berish kerak, lekin biz shu ellik tangaga qanoat qilamiz, qolgani uchun duo qilsin, – dedi noib va o'z gapini davom qildirdi: – Mana shu oz-oz hisoblangan xarajatlarni samovarchiga to'laydigan pulga zam qilsang, hammasi bo'lib senga yetti yuz tanga kerak bo'ladi.

Noib Hamrohrafiqqa kerak bo'ladiqan pulning miqdorini aniqlagandan keyin Ishkamba-ga qarab dedi:

– Siz mana shu yetti yuz tangani naqd berasiz, buning bir yillik foydasini hisobi ustiga zam

qilib o'sha mablag'ga Hamrohrafiqning besh tanob yerini sizning nomingizga sha'riy xat qilamiz, bir yil o'tgandan keyin agar Hamrohrafiq foyda bilan tani pulini sizga taxlab to'lasa, sizlarning oralaringiz ochiq bo'ladi, agar yolg'iz foydasimi to'lasa, shu xatning hukmi ikki yilda ham cho'ziladi va uchinchi yilida ham gap shunday: qachonki Hamrohrafiq foydani vaqtida to'lamasa yoki umuman to'lovdan bosh tortsa, uni quvib yuborib, yerni butunlay egalab yoki yerni sotib, o'z pulingizni undirishga haqingiz bor.

— Xo'p, — dedi Qori Ishkamba, — yetti yuz tanganing bir yillik foydasi jamlangandan keyin qancha bo'ladi?

— Qancha bo'lishini siz mendan yaxshiroq bilasiz, — degan holda noib yozish-chizishga kiringdi va hisoblab bolgandan keyin: — Yetti yuz tanga, har yuz tanga oyida olti tangadan, bir yilda besh yuz to'rt tanga tug'ar va agar buni tani pulga zam qilsak, bir ming ikki yuz to'rt tanga bo'lar ekan, — dedi.

— Bu hisobingizda men ko'p zarar tortaman, — dedi Qori Ishkamba.

— Qanday zarar? — deb so'radi ajablanib noib va davom etdi: — Axir kelishuvlar har yuz tangaga oyda olti tangadan emasmi?

— To'g'ri, olti tangadan, — deb javob berdi Qori Ishkamba.

— Shu hisob yuzasidan yetti yuz tanganing foydasi oyda qirq ikki tanga bo'lmaydimi?

— Shunday.

– Axir, o'n ikki qirq ikki – besh yuz to'rt tanga bo'lmaydimi?

– Bo'ladi!

– Unday bo'lsa, bu hisobda qanday zarar yoki aldov bor? – dedi noib g'olibona bir qarash bilan.

– Bu yerda boshqa bir nozik nuqta borki, uni bu kabi kunda shunday hisoblar bilan boshini qotirib yurganlardan boshqa odamlarning tushunishlari qiyin, – dedi Qori Ishkamba kulisirab.

– Unday bo'lsa bizga ham o'sha «nozik nuqta»ni tushuntiring! – dedi noib avvalgi jiddiy ohang va o'z qilgan hisobiga butunlay ishongan vaziyatda.

– Mana bunday, – deb izoh berishga kirishi di Qori Ishkamba, – men shahar xalqiga qarz bersam foydasini oyma-oy olaman va har oy foydadan undirgan pullarimni birovning «hajatini» chiqarish uchun qarzga berib, undan ham foyda olaman. Ammo Hamrohrafq ukanga beradigan pulimning foydasini bir yil o'tgandan keyin oladigan bo'ssam, mening foydadan unadigan pullarim uning qo'lida bekor yotgan bo'ladi. Bu men uchun katta zarar.

– Xo'p, foydalarining foydasi bir yilda qancha bo'ladi? – deb so'radi noib bo'shashib.

– Masalan, – dedi Qori Ishkamba bir necha daqiqa barmoqlarini bukib-ochib turgandan keyin, – kasrlarni hisobga olmay dehqonlar tushunadiganday qilib aytsak, bir oyda unadigan qirq ikki tanga o'n bir oyda yil oxirigacha (har

yuz tanga oyda olti yuzasidan) yigirma yetti yarim tanga foyda tug'adi. Ikkinchchi oydag'i qirq ikki tanga o'n oyda yigirma besh tanga foyda tug'adi va hokazo; agar bularning hammasini yil oxirida hisoblasak bir etak pul bo'ladi.

– Xo'p, endi tushundim, – dedi noib tamoman qanoatlangan holda, – lekin buning umumiy xulosasini men chiqara olmayman, o'zingiz hisoblab bering!

– Jonim bilan, – degan holda Qori Ishkamba noibning oldidagi qalam-qog'ozni hisoblay boshladi va biroz yozib-chizgandan keyin: – Bir yilda yetti yuz tanga foydasining foydasi (o'zimcha aytganda «navirasi») bir yuz oltmis besh tanga bo'ladi, – dedi.

– Demak, bu mablag'ni avvalgi bir ming ikki yuz to'rt tangaga zam qilsak, – dedi noib, – Hamrohrafiqning Qori akamdan bir ming uch yuz oltmis to'qqiz tanga qarzdor bo'lishi kerak bo'ladi. Shunday emasmi, Qori aka?

– Shundayku-ya, – dedi Qori Ishkamba, – lekin bunaqa hisoblarda kasrlarni ko'p hisobga olib o'tirmaydilar, shuning uchun dehqonlar tushunadigan qilib to'ppa-to'g'ri bir ming to'rt yuz tanga yozing-qo'ying!

Hалигача натијасини кутиб Jim турган Hamrohrafiq бу гапни ешишиби билан тутун чиқаруб куйиб турган о'тнинг бирдан аллангanganiday о'rnidan irg'ib turib:

– Uyimni kuydirmoqchi bo'sanglar, o't qo'yib birdan yondiringlar, yerimni ham sotib bo'lib olinglar, o'zimni qishloqdan quvib yuboring-

lar, bular bilan ham ko'ngillaringiz tinchimasa o'zimni tutib olib, amir zindoniga qamating-lar yoki dorga ostiringlar, ammo o'z ixtiyorim bilan bunday savdoga rozi bo'la olmayman, - dedi.

Majlisdagilar Hamrohrafiqning bu qilig'iga piqirlashib kulib bolgandan keyin Hamid unga qarab:

- Hamro uka, rozi bo'lmasang, mayli, - dedi,
- yuking qoningni buzmasdan joyingga o'tir va
mening gaplarimga javob ber!

Hamrohrafiq o'tirdi, oqsoqol undan so'radi:

- Shu balolarni sening boshingga men keltir-dimmi?

Hamrohrafiq bu savolga javob bermagach, oqsoqol so'zini davom ettirdi:

- Sen Arbob Ro'zi akamning yetimlari - To'ramurod bilan Bahovuddingami, boshqa joygami boarding, ikki kundan keyin sen sog'-salomat kelding, ammo undan darak bo'lindi. Arbob sendan so'raganlarida, sen «Men ishlamayman, unga nima bo'lgan, mendan ajralib, allaqaysi tomonga ketdi», deb mujmal javob berding. Lekin do'st-dushman orqa-oldingda To'ramurod ni Hamrohrafiq o'dirgan deb gap tarqatdilar. Buni eshitgan hokimlar javobgarlikka tortdilar. Shukrki, tekshirishdan sen oqlanib chiqding, bo'lmasa seni o'dirardilar yoki o'n ming tanga xun pulni berarding. Lekin sening boshingga tushgan janjalga bo'lgan xarajatni men yoki Arbob Ro'zi akam, yo bo'lmasa boshqa birov berarmidi? Mana o'shanday katta balodan sen

besh yuz tanga bilan qutulding. Bu yergacha loaqal boshqa biron kishini bu ishda gunohkor qila olmaysan. Bundan buyoni bo'lsa, o'zing qilgan ish.

Hamrohrafiq bu gaplarni eshitmaganday bo'lib yerga qarab o'tirar edi. Arbob Ro'zidan keyin noib gapga kirishdi:

– Hamro, menga qara, Qori akani senga men topib berdimmi? – deb so'radi.

Hamrohrafiq javob bermagach, noib do'q urib:

– Menga qarab gapimga javob ber deyman,
– dedi.

– Yo'q! – dedi ko'zini yerdan uzmasdan Hamrohrafiq.

– Kim topib berdi?

– O'zim.

– Qori akaning oshnalari bo'lgan domla imomim darak bergen va buning o'zi borib topgan,
– dedi Arbob Hamid.

– Domla imom qayerda? – deb so'radi Qori Ishkamba oqsoqoldan.

– Bu ishga aralashgani uchun koyib edik, achchig'lanibmi, uyalibmi machitni tashlab qayqqadir ketgan.

– Domla imomingizning ham aqli yo'q ekan-da, shunday tuhmatchining ishiga aralashibdi,
– degandan keyin noib yana Hamrohrafiqdan so'radi:

– «Har yuz tangaga oyda olti tanga foyda ber», deb men senga dalolat qildimmi?

– Yo'q.

- Bu kungi majlisda bo'lsa men senga yon bosdim, Qori aka bilan talashdim, shunday bo'lsa ham sen meni o'zingga zulm qilganlar qatorida sanaysan.

Noibdan keyin Qori Ishkamba gap boshladi:

- Hamro uka, - dedi u yumshoq ohang va kulimsirab turgan vaziyatda, - men seni kelib topmadim, sen meni axtarib bording, boshqalar sendan talab qilgan o'n tanga o'rniga men olti tangaga rozi bo'ldim, «tezroq borib ishni bitkazing», deb o'zing yalinding-yolvording, keyin men keldim. Xo'sh, shu ishda mening qanday gunohim bor?

Hamrohrafid dan hech bir sado chiqmagach, Qori Ishkamba yana davom qildi:

- Ehtimol senga mening foydaga foyda zam qilganim yoqmagandir. Agar shunday bo'lsa yetti yuz tanga uchun har oy boshida qirq ikki tanga naqd pul olib borib menga beraverganing bilan sen yilda yana bir yuz oltmish besh tanga to'lashdan qutulasan.

- Mehnatkash dehqon har oy boshida naqd pul topolmaydi, - dedi Hamrohrafiq, - dehqoning qo'liga pul har yil yig'im-terimdan keyin kiradi.

- Unday bo'lsa bu savdoning bahridan o't, mendan xafa bo'lma, men jo'nayman, - deb Ishkamba joyidan qo'zg'ala boshladi.

Lekin Hamrohrafiq bu savdoning bahridan o'tolmasdi, kunda yigirma besh tanga tug'ayotgan samovarchining besh yuz tangasi tegirmon toshiday uning boshida aylanmoqda, shuning

uchun u Qori Ishkamba bilan kelishuv fikriga tushib:

– Kechirasiz, Qori amaki, – deb yumshashib, so'zga kirishdi.

Ketish uchun o'rnidan qo'zg'algan Qori Ishkamba go'yo uning so'zini eshitmoqchi bo'lib o'rniga o'tirdi. Hamroh davom qildi:

– Men boshimga tushgan bu og'ir kunlarning hammasini taqdirimdan ko'raman, lekin u qadar og'ir yukning ustiga sizning tomonidan hech bir sababsiz, bahonasiz qo'shilgan o'ttiz bir tangani men dard ustiga chipqon deyman, hech bo'lmasa shu o'ttiz bir tanga siz uchun arzimas bir narsadir, ammo men kabi botqoqqa botgan odam uchun juda og'ir bir yuk.

– U o'ttiz bir tanga ham sababsiz emas edi, – dedi Qori Ishkamba biroz jiddiyat bilan, – faqat uning sababini bu yerda aytishni munosib ko'rмаган edim.

– Qanday sababi bor ekan? – deb so'radi Hamrohrafiq ajablanib.

– Men, – dedi Qori Ishkamba, – shahar xalqining birisiga agar yetti yuz yoki ming qarz bersam, qarzdor pulimning foydasini oyma-oy, o'z vaqtida to'lash bilan birga kunda, kun oralab meni ziyofat ham qilib turadi. Sen menden bir ming yuz tanga qarzdor bo'la turib, hech bo'maganda bir yilda o'ttiz bir tanga ziyofat puli bermaysanmi?

– Ammo siz bu gapni menga bir-birovimiz bilan kelishgan vaqtimizda aytmagan edingiz.

Hamrohrafqning bu gapiga javob topolmay shoshib qolgan Qori Ishkambaning yordamiga Arbob Hamid yetib kelib, so'zga kirishdi:

– Xayr, Qori aka, gap ziyofat ustida qolgan bo'lsa oson, dehqon odamning ziyofati non-choy, qovun-tarvuz, meva-cheva bo'ladi. Siz Hamro ukamning hojatini chiqaring, u har safar shaharga borganida qovun, tarvuz yoki boshqa xil mevalardan olib borib sizni yo'qlab turadi.

Oqsoqolning bu bitimiga Hamrohrafq bosh qimirlatish bilan rozilik alomatini ko'rsatgani-dek, Qori Ishkamba ham rozilik o'rnida iljayib qo'ydi.

Bu holni ko'rgan noib qalam-qog'ozni qo'lga olib:

– Aftidan, kelishdingizlar chog'i, endi qarzdorlik mablag'ini bir ming uch yuz oltmishto'qqiz tanga yozaymi? – deb Qori Ishkambaga qaradi.

– Mayliku-ya, – dedi Qori Ishkamba, – lekin bir ming uch yuz oltmishto'qqiz tanga degan gapni aytish juda qiyin – odamning tiliga og'ir keladi. Bir ming uch yuz yetmish tanga yoz-sangiz, aytishga bir oson bo'lardi, Hamro ukam ham bir tanganing sarbozoriga bormasin? Agar ko'zi qiymasa, men uchun olib boradigan qovundan to'rtga kamroq olib borsin.

Majlisdagilar Qori Ishkambaning bu gapiga piqillashib kulib yubordilar, kutmagan vaqt-da bunday og'ir qarz ostida qolgan Hamrohrafq qayg'u tog'i ostida qolganday ezilgan bo'l-

sa-da, u ham Qori Ishkambanining bu darajaga yetgan ochko'zligiga iljayishdan o'zini to'xtata olmadi.

Noib vasiqani yozib bo'lganidan keyin Hamrohrafidjan so'radi:

– Besh tanob mulk yeringni Qori Ismatilla janoblariga bir ming uch yuz yetmish tanga badaliga shar'iy bay bilan sotdingmi?

– Sotdim.

– Puli tegdimi?

– Hali pulini olganim yo'q-ku!

– Hozir sen oldim deb iqror qil, shar'iy tomoni to'g'ri bo'ssin. Vasiqani shariat janoblariga muhrlatib, Qori akaga topshirgan vaqtida u kishi pulini oqsoqol huzurida senga beradilar.

– Xo'p, oldim! – dedi Hamrohrafiq.

Shu bilan Hamrohrafiq qo'liga biror pul kirmay va bundan buyon ham kirmasligi aniq bo'lgan holda Qori Ishkambadan bir ming uch yuz yetmish tanga qarzdor bo'lib, yerdan ajraldi va o'zi shu kundan boshlab unga qul bo'lib qoldi.

Majlisdagilar tarqalishga hozirlandilar, supadagi kattalar joylaridan turib, hovliga chiqdilar va «mehmonlar»ni uzatish uchun yo'lning bir tomonida qatorlandilar. Daraxt va devorlar ostida o'tirganlar ham ko'chaning boshqa bir tomonida saf tortdilar.

Noib supadan tushib, otga mindi, uning ko'rsatishi bilan Qori Ishkambani ham kelisha mingani chars otga ko'tarib mindirdilar, bir otliq u otning yuganidan tutdi. Ot o'yna-

moqda, Qori Ishkamba «voy, o'ldim» deb dod-lamoqda edi.

Noib to'dasi shunday «tantana» bilan darvozadan chiqayotganda omma orasidan bir kishi yugurib kelib noibga:

– Hamroh akamning shuncha xonavayron bo'lishiga sabab bo'lgan yo'qolgan To'ramurod keldi, – dedi.

Noib bu gapga uncha e'tibor bermagan bo'lsa ham hamma: «Keldi-keldi, Hamroh qutuldi» deb vag'irlashib shodlik ko'rsata boshladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay To'ramurod hammaning ko'ziga ko'rindi, u odamlar bilan bir-bir ko'rishib-so'rashib kelmoqda edi.

Ammo Hamrohrafiq uning bunday sekin yurishiga yo'l bermadi:

– Tez bo'l, men bilan birga yur, noib eshon-ga o'zingning o'ldirilmaganligingni, seni yo'qolishindan mening xabarsizligimni ayt! – deb uning qo'lidan tutib, ot ustidagi noib oldiga olib keldi va unga qarab:

– Ana, bundan o'zingiz gap so'rab ko'ring! – dedi.

Noib istar-istamas To'ramuroddan:

– Sen qayoqqa yo'qolib ketgan eding? – deb so'radi.

– Men, – dedi To'ramurod, – amakim Arbob Ro'zining eshiklarida besh yil ishladim, eski kiyim va mog'orlagan nondan boshqa narsani ko'rmadim. Bundan uch hafta burun Azizobod qishlog'iga tushgan singlimning betob bo'lib yotganini eshitdim, unga issiqliqina bir-ikki bo-

sa-da, u ham Qori Ishkambanining bu darajaga yetgan ochko'zligiga iljayishdan o'zini to'xtata olmadi.

Noib vasiqani yozib bo'lganidan keyin Hamrohrafidjan so'radi:

- Besh tanob mulk yeringni Qori Ismatilla janoblariga bir ming uch yuz yetmish tanga badaliga shar'iy bay bilan sotdingmi?

- Sotdim.

- Puli tegdimi?

- Hali pulini olganim yo'q-ku!

- Hozir sen oldim deb iqror qil, shar'iy tomoni to'g'ri bo'ssin. Vasiqani shariat janoblari ga muhrlatib, Qori akaga topshirgan vaqtida u kishi pulini oqsoqol huzurida senga beradilar.

- Xo'p, oldim! – dedi Hamrohrafiq.

Shu bilan Hamrohrafiq qo'liga biror pul kirmay va bundan buyon ham kirmasligi aniq bo'lgan holda Qori Ishkambadan bir ming uch yuz yetmish tanga qarzdor bo'lib, yerdan ajraldi va o'zi shu kundan boshlab unga qul bo'lib qoldi.

Majlisdagilar tarqalishga hozirlandilar, supadagi kattalar joylaridan turib, hovliga chiqdilar va «mehmonlar»ni uzatish uchun yo'ning bir tomonida qatorlandilar. Daraxt va devorlar ostida o'tirganlar ham ko'chaning boshqa bir tomonida saf tortdilar.

Noib supadan tushib, otga mindi, uning ko'rsatishi bilan Qori Ishkambani ham kelisha mingani chars otga ko'tarib mindirdilar, bir otliq u otning yuganidan tutdi. Ot o'yana-

moqda, Qori Ishkamba «voy, o'ldim» deb dod-lamoqda edi.

Noib to'dasi shunday «tantana» bilan darvozadan chiqayotganda omma orasidan bir kishi yugurib kelib noibga:

– Hamroh akamning shuncha xonavayron bo'lishiga sabab bo'lgan yo'qolgan To'ramurod keldi, – dedi.

Noib bu gapga uncha e'tibor bermagan bo'lsa ham hamma: «Keldi-keldi, Hamroh qutuldi» deb vag'irlashib shodlik ko'rsata boshladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay To'ramurod hammaning ko'ziga ko'rindi, u odamlar bilan bir-bir ko'rishib-so'rashib kelmoqda edi.

Ammo Hamrohrafiq uning bunday sekin yurishiga yo'l bermadi:

– Tez bo'l, men bilan birga yur, noib eshon-ga o'zingning o'ldirilmaganligingni, seni yo'qolishindan mening xabarsizligimni ayt! – deb uning qo'lidan tutib, ot ustidagi noib oldiga olib keldi va unga qarab:

– Ana, bundan o'zingiz gap so'rab ko'ring! – dedi.

Noib istar-istamas To'ramuroddan:

– Sen qayoqqa yo'qolib ketgan eding? – deb so'radi.

– Men, – dedi To'ramurod, – amakim Arbob Ro'zining eshiklarida besh yil ishladim, eski kiyim va mog'orlagan nondan boshqa narsani ko'rmadim. Bundan uch hafta burun Azizobod qishlog'iga tushgan singlimning betob bo'lib yotganini eshitdim, unga issiqliqina bir-ikki bo-

zori non olib borish va agar kerak bo'lib qolsa eshon, tabib va folbinga berish uchun og'a amakimdan besh tanga so'radim, bermadilar, u kishining bu ishlari nafsimga juda ham tegdi. «Bundan buyon u kishining eshigiga oyoq bosmayman», deb chiqib ketdim. Hamroqrafiq Bahovuddinga borayotgan ekanlar, u kishi bilan yo'nga tushdim. Lekin Bahovuddinga borganimizdan keyin Oqsoqol eshitib qolib orqamdan odam yubormasinlar deb, borishimni Hamroh akamga ham aytmay, sekingina qochdim. Singlimning qishlog'ida Hamroh akamni «To'ramurodni o'dirgan» deb qamoqqa tiqqanlarini eshitgan bo'ssam ham singlimning kasali og'irlashganidan o'z vaqtida kelolmadim. Axir bechora singlim o'ldi.

To'ramurod keyingi jumlanı aytganida ko'zidan mildirab oqa boshlagan yosh tomchilari ni yengi bilan artganidan keyin yana o'z gapini davom ettirdi:

- Uning o'ligini ko'mib, xudoyi-mudoyini o'tkazganidan keyin bu tomonga shoshildim.

To'ramurod o'z so'zini tugatgani hamon Arbob Ro'zi noibga yaqinlashib:

- Arzim bor, taqsir! - dedi.

- Gapiring.

- Bu bolaning (To'ramurodni ko'rsatib) otonasini men ko'mdim, bunga ikki yuz tanga sarf bo'ldi, o'zini boqib o'stirdim, bunga ham taxminan ikki yuz tanga xarj bo'lgandir. Qo'llidan ish keladigan bo'lib menga ishlab, o'z qarzini to'laydigan vaqtি kelganda mendan qochdi

va bu gunohini sizning oldingizda o'z tili bilan iqror qildi. Shariatpanoh janoblarining, noiblari bo'lgan siz janobdan bu bolani qamoqqa olib, boshqa yetim-yesirlarga ibrat bo'lar darajada tanbeh berishingizni, boshi devorga tegib, yalinib-yolvorganidan keyin mening qo'limga topshirishingizni so'rayman.

Noib Arbob Ro'zining gapiga:

– Durust, – deb javob berganidan keyin o'z odamlaridan biriga qarab:

– Bu bolani bog'la, – dedi.

Noibning odami qo'lini orqasiga bog'layotganda To'ramurod pisand qilmay kular edi.

– Tanida joni bor har bir kishini yig'latadigan bu ahvolga nega kulasan? – Hamrohrafiq To'ramuroddan so'radi.

– Men bu kun o'ttiz yashar bir odam bolganimda Arbob Ro'zining eshigiga kelganimda yigirma yashar yigit edim. Lekin taqdir meni soqol-mo'ylovsiz – ko'sa yaratgan – Arbob «bola» deganday noib eshon ham «bola» deyayotirlar. Boylar, zo'ravonlar bechora odamning molini, yerini tortib olib, kuch-quvvati mehnatidan foydalanish bilan qanoatlanmay, lozim ko'rsalar uning yoshini ham o'g'irlab oladilar. Men ana shu ahvolga kulaman, – dedi To'ramurod.

– Ona suting og'zingdan ketgan emas-ku, sen o'zingni qanday o'ttiz yashar deyayotirsan,

– dedi Qori Ishkamba.

– «Ikki odam guvohlik bersa, shariat bo'yicha, bu odamni o'ldirtira oladi», deydilar. Sening bolaligingga ikki odamgina emas, uch «mo'tabar»

zot guvohlik berdi. Sen jimgina o'zingni bola deb keta ber, – dedi oyoq yalanglardan biri pi-ching qilib, u odamning gapiga xalq piqirlab kulib yubordi.

– Ko'p vaysama, ahmoq! – degach, noib haligi oyoq yalangga qarab otini sura boshladi.

Noibni kuzatish uni qarshi olishday shov-qin-suron bo'lindi. Bu gal Qori Ishkambaning ustidagi vaziyati ham odamlarni kuldirmadi, xalq qo'li orqasiga bog'lanib noib to'dasining oldida olib borilayotgan To'ramurodning ahvolidan qattiq qayg'uga tushgan edi va odatiy o'zaro gurunglashib Arbob Ro'zini qarg'ab, noibni so'kmoqda edilar.

XI

Bir kuni Qori Ishkamba Buxoroning choyfuru-shlik rastasidan o'tib hovlisiga ketayotganda ko'mir bozorining tor ko'chasiga kirganda ot, eshak bog'lanadigan sayisdan «Qori amaki, amaki» degan tovush eshittdi. Avval «Biron kishi, boshqa biron qorini chaqirayotgandir», deb unga e'tibor bermasdan o'tib ketmoqchi boldi, lekin sokin takrorlangan bu chaqiriq tovushi qulog'iga tanish eshtilganidan yo'lidan qaytib, darvozasi oldiga kelib saroyning ichiga qaradi.

Chaqiruvchi otini saroybonga topshirayotgan Arbob Ro'zi edi.

Arbob Ro'zi saroybonga «Otni boshqa otlar-dan uzoqroq bog'la, urishib bir balo qilmasin»

deb tayinlashdan keyin kelib saroy darvozasi oldida turgan Qori Ishkamba bilan salomlashib ko'rishdi.

Arbob Ro'zi Qori Ishkambadan hol-ahvol so'ragandan keyin:

– Mening sizga bir zarur ishim bor edi, shu kun qishloqdan siz bilan uchrashish uchun kelgan edim, u kishini «qayerdan toparkanman» deb o'ylab turganimda, o'zingizga ko'zim tushib xudo ishimni o'ng keltirdi, – dedi.

– Ko'p yaxshi, – dedi Qori Ishkamba, – Xizrni yo'qlagan uni ko'rар, deganlar.

– «Ayiqni yo'qlasang, tayoqni qo'lingga ol!» ham deganlar, – dedi Arbob Ro'zi kulib, – har holda ko'p ovora bo'lib yurmasdan sizni uchratdim.

– Lekin mening hovlimda ot bog'larlik va mehmon tunarlik joy yo'q, – dedi Ishkamba Arbob Ro'zi aytgan maqoldan kulgisini to'xtatgandan keyin.

– Mayli, – dedi Arbob Ro'zi, – agar kechga qolsam, otinga joy topib bergen saroybon o'zimga ham joy topib berar.

– Xo'p, ishingizni gapiring!

– Men sizdan besh-olti tanga qarz so'ramoq-chiman.

– Jim, – dedi Qori Ishkamba Arbobning og'zidan «tanga qarz» degan gapni eshitgach, – bunday joyda bunaqa gapni gapirish munosib emas.

– Unday bo'sa biror samovarxonaga boraylik, – dedi.

– Samovarxonada ham gapirib bo'lmaydi, unda do'st bor, dushman bor, odamlarni tanib va ularga ishonib bo'lmaydi.

– Xo'p, qayerda o'tirishib gaplashamiz?

– Men bilan birga yuring, biror xilvat joy topaman, – deb Qori Ishkamba oldin tushdi va orqasidan ergashgan Arbob Ro'zini boshlab borib, yanada torroq bir ko'chaga kirdi.

Qori Ishkamba borayotib o'z ko'nglida «bu odamni men ko'p katta boy deb o'ylagan edim, qanday bo'lib qarz olishga muhtoj bo'ldi? Yoki meni biror tuzoqqa tushirmoqchimi?...» deb o'y-lardi.

Ikki yo'ldosh jim borayotib bir dolon – usti yopuq yo'lakka yetishdi. U yo'lakning oxirida birgina xona bo'lib, uning ham eshigi tashqi tomonidan qulflangan edi. Undan narida ko'-chaning boshi berk bo'lib, biron o'tkinching kelish-ketish ehtimoli yo'q edi.

– Ana shu yer juda soz, – deb Qori Ishkamba yo'lakning tag sinchiga o'tirdi-da, Arbob Ro'zini ham yoniga o'tqazib:

– Xo'p, endi gapiring! – dedi.

– Men sizdan besh-olti tanga qarz so'rab kel-gan edim.

– Ko'p yaxshi, qancha kerak?

– Ming tanga.

– Bu pul kimga kerak?

– O'zinga.

– Siz Hamrohrafiqqa pul qarz berib, uning dardini o'z nomingizga xat qildirgan edingiz, qanday voqeа yuz berdiki, o'zingiz pulga muh-toj bo'lib qoldingiz?

– U yoqlarini tekshirib o'tirmang, Qori aka! Agar menga ishonsangiz, men so'ragan pulni berasiz, men olib borib, u pulni xoh o'zimning biror dardimga darmon qilay, xoh biror hovuz yoki ko'lga tashlay, u meni ishim. Siz mendan oy boshida foyda olishni va va'da boshidagi tani pulingizni to'latishni biling! – dedi Arbob biroz achchig'i kelganday bo'lib.

– Durustku-ya, – dedi Qori Ishkamba yum-shoqlik bilan, – mening qishloqqa qadam bosishimni yoqtirmagan bir odam o'zi kelib, meni qishloqqa qarab tortsa, men shubhalanib tekshirishga haqliman.

– Bu gapingiz to'g'ri, – dedi Arbob avvalgi shashtidan tushib, – haqiqatan ham sizning Hamrohrafiqqa qarz berganiningizni yoqtirmagan edim. Chunki mening og'zimga tushgan yog'liq luqmani tortib olgan edingiz, so'ngra bir voqea yuz berdiki, men siz bilan kelishib birlashmoqchi bo'ldim.

– Qanday voqea yuz berdi?

– Bir kun bozordan saroyda qoldirib kelganim haligi otni olib keldim. Uyda boshqa uloqchi yaxshi bir otim ham bor edi. Lekin u chimxo'r edi – yemni yaxshi yemas edi, yemning yarmisini qoldirardi. Men bu ikki ot qiziqib yemni yaxshiroq yesin deb, ikkalasini bir-biroviga yaqin yerga bog'ladim. Lekin ular bir-biroviga qiziqib yemni yaxshiroq yeyish o'rniga, bir-birovi bilan tepishib, tishlasha boshladi. Natijada har ikkalasining ham yemi yeyilmay qoldi yoki juda oz yeyildi.

– Bag'ishlang, Arbob, – dedi Qori Ishkamba, – men sizning bu uzun hikoyangizning ma'nosi ni tushuna olmadim, boshim og'riy boshladi, qisqa qilib, biz ikkalamizning oramizdagi mu-nosabatga daxldor joyni aytib bering!

– Hammasi ham bizga daxldor, shoshilmang, hozir tugataman, – degandan keyin Arbob hikoyasini davom ettirdi: – Otlar ikki kunni mana shunaqa tepishish, urishish bilan o'tkazdilar, yemdan har ikkisi ham go'yoki butunlay mahrum bo'lib qoldilar. Lekin uchinchi kun kelishibdilar, oxurni yalaganday qilib yemni yebdilar, undan keyin har qancha ko'p yem bersam ham to'ymaganday tugata berdilar.

– Xo'p, bu hikoyaning bizga daxlli yeri qaya-da? – deb Qori Ishkamba o'z suhbatdoshining so'zini yana bo'ldi.

– Mana shunday, – deb Arbob yana gapira boshladi, – bizning qishloqlarda pulga muhtoj dehqonlar juda ko'p, mening o'zim, yolg'iz o'z sarmoyam bilan ularni qanoatlantirib, ularning hammasidan foydalana olmayman! Ya'ni chimxo'rlik qilaman, oldimdagи «taom» ortib qoladi. Siz kabi shahar kishisi ham qishloq bilan ko'p oldi-berdi qila olmaydi, chunki qishloq past-balandini bilmaydi. Qishloqqa chiqib sudxo'rlik havosiga tushib, o'z pulini ko'mib qaytgan bir necha shaharlikni ko'rganman, qishloq xalqidan foydalanish uchun qishloqi bo'lish kerak, «tuya go'shti uchun it tishi kerak», deydilar. Agar it tishiga bo'rining tishi

ham qo'shilsa, tuya go'shti juda ham pokiza qilib osonlik bilan yeylimadi.

– Demak, siz mendan pul qarz olib boshqalarga tarqatasiz, shundaymi?

– Albatta shunday.

– Xat sizning nomingizdan bo'ladimi, yo o'sha haqiqiy qarzdorning nomidan?

– Sizga beriladigan xat, albatta, mening nomimdan bo'ladi va siz bergen pul uchun sizga men vaj aytaman.

– Xo'p, har yuz tangaga oyda necha tanga foyda berasiz?

– Uch tanga!

– Yo'q, – dedi Qori Ishkamba, – men o'zingizning ko'zingiz oldida Hamrohrafiqqa har yuz tangaga oyda olti tangadan qo'ydim, siz undan ozroq bering, ha, yuz tanga uchun oyda besh tanga bering!

– Bunaqa gaplaringizni borib Hamrohrafiqday odamlarga ayting, mening ikki oyog'im hali bir etikka tiqilgan emas, – dedi Arbob Ro'zi, – siz shahar xalqiga har yuz tangani oyda ikki yarim tangadan foydaga qo'yayotirsiz, men buni juda yaxshi bilaman, shunday bo'lsa ham sizga har yuz tanga uchun oyda uch tanga bermoqchiman, – deb o'rnidan turdi va o'zini ketib bo'lganday qilib ko'rsatib: – Bu «qatiqli osh», tilasangiz ichasiz, tilamasangiz qaytarasiz, – dedi.

Bunday ishtahani keltiruvchi «qatiqli osh» dan mahrum qolish qo'rqinchi bilan Ishkamba Arbobga:

– Qayoqqa ketyapsiz? O‘tiring, axir, ishni bit-kazaylik, – dedi.

– Bilmasam, siz unamaganday bo‘lib ko‘rindingiz. Kech bo‘masdan qishloqqa qaytay deb turgan edim, – dedi Arbob va istamaganday bo‘lib, qaytib o‘z o‘rniga o‘tirdi.

– Xo‘p, xatni qachon berasiz?

– Siz rozi bo‘lsangiz, ertaning o‘zidayoq xatni tayyorlab muhrlatib olib kelaman.

– Qancha yerni xat qilasiz?

– Ikki tanob.

– To‘rt tanob yerni xatga solsangiz yaxshiroq bolardi.

– Agar mendan ko‘nglingiz to‘lgan bo‘lsa, shu ikki tanob yerni xat qilganim bilan pulni bering, gapni ko‘p cho‘zib o‘tirmang, mening bir tanob yerimni ikki ming tangaga oladilar. Men Hamrohrafiq emasman, – deb Arbob arazlanib o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi.

Qori Ishkamba uning tizzasidan bosib o‘t-qazdi:

– Xayr, mayli, boring, xatni tayyorlang, – dedi, – lekin ziyofat to‘g‘risida ham bir o‘ylab ko‘rishingiz kerak.

– Ziyofat men uchun juda yengil narsa, – dedi Arbob, – shahar xalqi sizni bir tovoq bilan ziyofat qilsa, men borganingizda qo‘y so‘yaman.

– Men bunday uzoq yo‘lga qanday qilib piyo-da boraman.

– Ot yuboraman.

– Ot minishga qo‘rqaman.

– Arava yuboraman.

– Bu durust! – dedi Qori Ishkamba.

– Endi bir-birimiz bilan butunlay kelishdik shekilli, xo'p kech botmasdan men jo'nay, – deb Arbob o'rnidan turdi.

Qori Ishkamba ham o'rnidan turdi, o'z «do'sti»ni saroy oldigacha kuzatib bormoqchi bo'ldi. U bilan birga yo'lga tushgach tayinladi:

– Biz kelishdik, ish bitdi. Endi aytib bering-chi, bu pulni kimga berasiz?

– Bu to'g'rida sizning ishingiz bo'lmasin, boyta aytganimday, siz har oy boshida ming tanga uchun o'ttiz tanga foyda olishingizni biling! «Uzumini yegin-u, bog'ini surishtirma», deganlar.

– Xo'p, kimga berishingizni so'ramayman, ammo o'sha odamni har yuz tanga uchun oyda necha tangadan foyda berishga unatdingiz?

– Hali bu to'g'rida biror kishi bilan uzil-kesil bir qarorga kelgan emasman, har holda siz uchun quruq xizmat qilmayman, har yuz tanga uchun oyda to'rt tanga berarlar, besh tanga berarlar.

– O'n tanga, hech bo'lmaganda, sakkiz tanga olarsiz, – dedi Qori Ishkamba.

– Qori aka! – dedi Arbob jiddiy ohangda, – muomalada ot bo'ling, it bo'lman! Otlar o'zaro kelishgandan – hingillashgandan keyin «u ko'p yedi, men oz yedim» deb qayg'urib o'tirmaydi. Birisi yem eya bersa, ikkinchisi uning bo'ynini o'pib, qashib turadi, ammo itlar qancha inoq bo'lalar ham ko'zlariga biror suyak ko'ringan hamon darrov do'stlikni unutib, bir-birlari bilan olishadilar-talashadilar va urishadilar.

- Men shundaygina so'rab edim-da, bo'lmasa qancha foyda olganingiz bilan mening nima ishim bor, har qancha foyda olsangiz o'zingizga nasib qilsin! - dedi vaziyatni noziklashtirmay Qori Ishkamba.

Ikki «do'st» jim keta berdilar va saroy oldiga yetganlarida xayr-xo'shlashib ajraldilar.

* * *

Kuz fasli... Qishloqlarda yig'im-terim ishi qizg'in ketayotgan edi, har bir dehqon qor yog'ish va qirov tushishdan burun o'z hosili ni yig'ib-terib olishga harakat qilmoqda, hatto qishloqlarda yig'im-terim ishini tugatib tuyoqli mollarni dalaga haydamoqda edilar.

Faqat Sangsabz bilan Bo'lmaxo'ron qishloqlari yavon dala to'la hosil bo'lgani holda, yig'im-terim ishida oz kishi ishlar edi, xalqning ko'pchiligi bo'lsa Arbob Ro'zi darvozasi oldida birovning janozasiga kelganday qayg'uli bir vaziyatda o'tirar edi.

Ammo Arbob Ro'zi hovlisida biror kishi o'lgan emas - u yerda yig'i-sig'i ovozi ham eshitilmas edi, aksincha, u yerdan odatda to'yxonalarda bo'ladiganday shodlik, kulgi-ashula, qiziq tovushlari eshitilar edi.

Haqiqatda Arbob Ro'zi hovlisida to'y bo'layotgan bo'lmasa ham, «to'y» deyishga arzidigan bir katta ziyofat barpo bo'lgan edi, bu ziyofatdagi mehmonlarning ulug'i Qori Ishkamba bilan qozi kalonning Galaosiyodagi noibi bo'lib, ularning atrofida to'planganlar ularning «sha-

rofati» bilan ziyofatga chaqirilganlar va Sang-sabz va Bo'lmaxo'ron qishloqlarining «kattalari» edilar.

Mehmonlar yejishib-ichishib, o'ynashib-kulishib bo'lgandan keyin noib uy egasiga qarab:

– Kech bo'lib qoldi, endi ishni boshlaymizmi?
– deb so'radi.

– Ixtiyor sizda, boshlasangiz boshlang, – deb Arbob Ro'zi o'rnidan turdi va mehmonxonaning tokchasida turgan sandiqchani ochib, undan bir kichkina tugunchani olib noibning oldiga qo'ydi. Noib tugunchadan bir qog'oz olib, ko'zdan kechirdi-da:

– Bu vasiqalarga daxldor ishlarning hammasini shu kun ko'ramizmi? – deb Arbobdan so'radi.

– Hammasini shu kun bir yoqlik qilish kerak, bo'lmasa ertagacha bularning ham bu yerda qolish ehtimoli bor, lekin Muhsin bilan Nazar-ning nomlaridan yozilgan vasiqalarni anavi bir chekkaga qo'ying. Boshqalarning ishlarini bit-kazgandan keyin ularni chaqirib so'raysiz, bo'lmasa ular murofaa¹ vaqtida past-baland gapi-rib, boshqalarning ham buzilishlariga sababchi boladilar.

Noib vasiqalarni bir-bir ko'zdan kechirayot-ganda qishloq kattalaridan biri Arbob Hamidga qarab:

– Muhsin-ku ko'p vaqtidan beri «Men Arbobning pulini foydasi bilan to'laganman» deb, ochiqdan-ochiq muttahamlik qilib yuribdi. Na-

¹ Sud majlisi.

zarni nima jin urdi? U-ku yuvoshgina, bechoragina bir odam ko'rinadi, – deb so'radi.

– Odamni odam buzadi, ariqni suv deganlar, uni ham shu Muhsin buzgan, – dedi Hamid va izoh berishga kirishdi. – Muhsin rivoyat-mahzar orqasidan yugurib, o'zi uchun yo'l topgan. Mana shu yo'lni Nazarga ham o'rgatgan. Ammo biz bu ig'vegarliklarni eshitib, ishni tezlatib yubordik. Nazar o'z qo'liga biror dastak kirgizish uchun fursat topolmaydi, shunday ham bo'ssa «men pul topaman, men Arbobga na pul to'layman, na unga yer beraman», deb yuripti.

– O'ta muttahamlik, – dedi ziyofatdan tishida qolgan go'sht maydalarini kovlab chiqarayotgan haligi «katta» odam.

Noib Muhsin bilan Nazarning nomlaridan yozilgan vasiqalarni ajratib qo'ygandan keyin boshqa vasiqalarni qo'lida tutib turib:

– Bulardan qaysilarining ishlarini avval ko'ramiz? – deb so'radi Arbob Ro'zidan.

– Avval Shodmonning ishini ko'ring – dedi va Qori Ishkambaga qarab, – sizdan pul olib qarz bergenlarimning eng avvalgisi shu, – deb go'yoki hammadan burun uning ishini ko'rdishning sababini anglatdi.

Noib o'z qo'lidagi vasiqalardan birini ajratib o'z odamiga:

– Shodmonni olib kel, – dedi va Arbob Ro'ziga qarab: – Keyingi uch yil orasida topgan davlat va hashamatingizning bosh bulog'i bo'lgan Shodmonni hammadan burun quritar ekan-siz-da, – deb kului.

... Noibning odami Arbobning xizmatchilaridan bo'y racha olib kelib, supaning ustiga, mehmonxonaning noib o'tirgan yuqori eshikning ro'parasiga yoydi va Shodmonni chaqirish uchun supadan tushib ketdi.

U ko'chada – Arbob Ro'zining darvozasi oldida o'tirgan odamlar orasida Shodmonni imlab chaqirib «shariat bo'y rasi» ustiga o'tqazayotganida, noib o'z oldida o'tirgan Arbob Ro'ziga qarab:

– Siz ham chiqing, shariat bo'y rasi ustida javobgaringiz bilan baqamti o'tiring! – dedi.

– Hali shundaymi – men ham chiqaymi? – degani holda Arbob o'rnidan turdi.

– Albatta, – dedi noib, – shariat yuzasidan kim bo'lsa bo'ssin, murofaa vaqtida javobgar da'vogar bilan baqamti o'tirishi lozim.

Arbob shariatning bu qoidasini va uni ijro qilayotgan noibni masxara qilganday kulimsirab, mehmonxonadan chiqdi va Shodmonning yoniga borib o'tirdi. Noib qo'lidagi vasiqaga qarab:

– Shodmon Yusuf o'g'li kim? – deb so'radi.

– Men, taqsir! – dedi Shodmon.

– Sen bundan uch yil burun Arbob Ro'zidan ming tanga qarz olib ekansan, to'g'rimi?

– To'g'ri.

– Shu ming tanga badaliga to'rt tanob yerringni shar'iy bay bilan xat qilib bergen ekansan, to'g'rimi?

– To'g'ri.

– Shu to'rt tanob yerni o'zing Arbobdan har oyda sakson tangadan ijaraga olgan ekansan, to'g'rimi?

– To'g'ri.

Noibning keyingi savoli va Shodmonning javobini eshitgan Qori Ishkamba ilonday bir to'lg'anib oldi va o'z ko'nglida, «sen har bir yuz tanga uchun oyda uch tanga olganing holda, bu noinsof Arbob mening pulimning ustidan har yuz tanga uchun besh foyda olgan ekan», dedi va Arbobning o'zining haqida «jar» qilgani ni uning yuziga darhol urmoqchi bo'lib, bo'yini ni eshik tomonga cho'zdi. Lekin Arbobning o'zi bilan kelishganida: «aka, muomalada ot bo'ling, it bo'lman», degan gapi esiga kelib, o'zini kuch bilan to'xtatdi va davom qildi:

– Yana shu vasiqa yozilganida sen, «agar Arbob o'z pulini talab qilsa, darhol to'layman, agar talab qilgan vaqtida yerning ijara pulini yoki tani pulini to'lay olmasam, shu to'rt tanob yerni Arbobga topshirishga majburman», deb iqror qilgan ekansan, to'g'rimi?

– To'g'ri.

– Hozir Arbob o'z pulini yerning keyingi bir yillik ijara puli bilan birga undirib berishni mendan so'rab arz qildi. O'sha pullarni to'la-shing kerak.

– Taqsir, – dedi Shodmon, – men shu uch yillik qarzdorlik muddatimda Arbobning pullarni o'z vaqtida to'lab keldim. Bundan boshqa Arbobning dehqonchilik ishlariga o'z ho'kizim, eshagim va ketmon hamda o'rog'im bilan yordam berib turdim. O'zim ham shu yil qutuladigan yilim deb o'ylagan edim. Lekin pullarni tayyorlab berish uchun Arbob amakimdan o'n

besh kun muhlat so'rayman, hali aytib o'tganim xolis xizmatlarimni nazarga olib, menga besh kun muhlat berarlar deb umid qilaman.

– Nima qilasiz, Arbob, o'n besh kun muhlat berasizmi? – deb Arbob Ro'zidan so'radi.

– Yo'q, – dedi Arbob, – bir kun ham muhlat bermayman, hozir pulimni bersangiz bering, bo'lmasa yerini menga topshirsin.

– Xo'p, – deb noib Shodmonga qarab gapga kirishdi:

– Modomiki, o'n besh kundan keyin pulini to'lamoqchi ekansan, hozir to'la qo'y-da, janjalni cho'zib nima qilasan.

– Hozir naqd pulim yo'q.

– O'n besh kundan keyin qayerdan pul topasani?

– Bundan uch yil burun – Arbobdan qarzdor bo'lgan kunlarimda shu qarzni to'lash niyati bilan o'sha to'rt tanob yerning bir tanobiiga ro'yon¹ ekib edim. Mana shu ro'yonni qazib olaman, agar Xudo bersa, undan bir ming yuz tangalik hosil chiqadi, bundan tashqari, bir tanob terilmagan paxtam bor.

– Sen birovning qarzini to'lash niyatida bol-sang, nega bu kungacha o'sha paxtani terib bermading? – deb noib Shodmonning so'zini bo'ldi.

– Men paxta ochila boshlashi bilanoq terib sotib, Arbobga topshirmoqchi bo'lgan edim, ammo bu kishining o'zlari «paxtani bebaraka o'lqilma, qarab tur, hammasi ochilsa, birdan o'l-

¹ Ildizidan qizil bo'yoq yasaladigan o'simlik.

chab, baholab o'zimga berasan, paxta ko'tarib bozorga borib ovora bo'lib yurishning keragi yo'q» dedilar. Shuning uchun paxta shu kungacha terilmay qoldi.

Murofaachilar ustida tikka turgan Arbob Hamid Arbob Ro'ziga xitob qilib, Shodmonga eshittirib aytdi:

– Keling Arbob aka, o'n besh kunlik gap ekan, muhlat bering, «yuziga chidagan yuz biriga ham chidar», deganlar. Uch yil chidagan odam o'n besh kunga chiday olmaydimi?

– Yo'q, endi bir kun, bir soat, hatto bir daqiqaga ham chidamayman, hozir, shu vaqtning o'zida, shu shariat bo'yrsasi ustida, qozi kalon o'rinalarida o'tirgan noib eshonning huzurida pulimni bir yillik foydasi bilan to'lasin.

– Nima deysan? – deb noib yana so'radi Shodmondan.

– Hozir bera olmayman. O'n besh kundan keyin to'layman.

– Bo'lmasa o'sha to'rt tanob yerni Arbobga topshirishing kerak.

– Yerlarni topshirish uchun ham o'n besh kunlik muhlat kerak, – dedi Shodmon.

– Nega, yerni ham biron narsani sotib tayyorlaganingdan keyin topshirasanmi? – dedi masxaralab.

– Axir yerni topshirish uchun uning ichidagi yetilgan hosillarini yig'ishtirib olish kerak emasmi?

– Siz nima deysiz? – dedi noib Arbobga qarab, Arbob rad alomati bilan bosh chayqaganidan keyin:

– Noib eshon, yana bir marta o'sha qo'lingiz-dagi xatga qarang, qani unda «yer topshirilgan vaqtida uning ichidagi hosillar yig'ishtirilib ol-nadi» degan gap yozilganmi? – dedi.

Noib qo'lidagi vasiqaga ko'z tashlab olib:

– Yo'q, bunday gap yozilmagan... – dedi.

– Unday bo'la, shu soatning o'zidayoq yerni menga ichidagi hosillari bilan topshirishing kerak, – dedi Arbob Shodmonga qarab.

«Arbobning bu talabiga siz nima deysiz?» – deganday qilib Shodmon noibga qaradi.

– Arbobning gaplari shariatga muvofiq, – dedi noib, – agar yerning ichida omoch, tish, ketmon va shular kabi u yoq bu yoqqa ko'chiriladigan asboblaring bo'lsa, yig'ishtirib olasan, ammo yerdan o'sgan va haligacha yerdan ajratib olinmagan paxta, ro'yon va jo'xori kabi ekinlarni yer bilan Arbobga topshirasan.

– Topshirmayman, – dedi Shodmon jiddiy-lashib, – bunday haqsizlik, insofsizlik, talon-chilikka men bo'y sunmayman.

– Nima deding? – dedi noib o'midan bir ko'tarilip o'tirib, jahli chiqqan holatda, – haqsizlik, insofsizlik va talonchilik deb mening hukmimi-ni aytasanmi, shariat hukmiga aytasanmi yoki Arbobning talablarini aytasanmi?

– Kimning hukmi bo'lsa bo'lsin, haqsizlik, insofsizlik va talonchilik, – dedi Shodmon avvalgi gapini ta'kidlab.

– To'g'ri, haqsizlik, insofsizlik va talonchilik, – degan ovoz ko'chadan kirib, devor ustida to-moshabin bo'lib turgan dehqonlarning og'zilari-dan ham chiqdi.

— Bular kim? — deb so'radi noib o'z odamlari dan Shodmonni yo'qlab ovoz bergan odamlar to'dasini ko'rsatib.

— Bular ham Arbobdan qarzdor bo'lib, bugun ishlari ko'rildigan odamlar.

— Urib chiqaringlar bularni, o'z navbatlari yetgandan keyin kelib javob beradilar. Boshqalar ning ishi ustida oqsoqollik qilinglar, deb bular ni hech kim chaqirgan emas, — dedi noib o'z odamlariga.

Noib odamlari u dehqonlarning o'zlariga hu-jum qilishlaridan qo'rqdilar, shuning uchun ularni urmadilar, so'kmadilar va turtmadilar, faqat yumshoq gaplar bilan supadan tushirib, darvozadan chiqarib yubordilar.

Tomoshabin dehqonlar supadan tushirilgan dan keyin noib Shodmonga qarab:

— Sen xoh bo'ysun, xoh bo'ysunma, yerdagi hosillari bilan birga Arbobniki bo'ldi. Ammo sen shariatni, qozi kalon noibi bo'lgan meni va yurtning mo'tabar odamlaridan Arbobni so'kkaning uchun gunohkor sanalib, qamoqqa olinasan, — dedi va o'z odamlariga qarab: — Buni vaqtincha Arbobning otxonalariga qamab qo'yinglar. Kechqurun qaytishda olib borib xat yozib shariatpanoh ixtiyoriga yuboraman, — dedi.

Noibning odamlari Shodmonni shariat bo'y rasidi ustidan tushirib, Arbobning otxonasiga qamadilar va navbat boshqa javobgarlarga keldi.

Shodmonning boshiga kelgan balo va falokatdan «ibrat olgan» boshqa qarzdorlar Arbobning talabi va noibning hukmiga ko'p qarshi

turmadilar va u bilan talashib-tortishib, o'tirishni foydasiz, balki o'zlari uchun zararli bilib, Arbobning nomiga xatlangan yerlardagi terilmagan paxtalari, o'rilmagan tarqo'noqlari, qayirilmagan jo'xorilari, qazib olinmagan sabzi, piyoz, sholg'om, lavlagi va ro'yon kabi hosillari bilan birga topshirdilar.

Endi navbat Muhsin bilan Nazarning ishiga kelgan edi. Noib o'z odamiga:

– Muhsin bilan Nazarni olib kel! – deb buyruq berdi.

Noibning odami Nazar bilan Muhsinni olib kelib Arbobning ishorati bo'yicha Muhsinni shariat bo'yrsasi ustiga o'tqazdi va uning yoniga Arbob Ro'zi ham joylashdi.

Noib vasiqaga qarab Muhsindan:

– Sen bundan ikki yil burun Arbob Ro'zidan bir ming besh yuz tanga olib, shu mablag' badaliga olti tanob yeringni shar'iy bay bilan sotib edingmi? – deb so'radi.

– Bir ming besh yuz tanga badaliga Arbobga olti tanob yerimni shar'iy bay bilan sotib edim va yerni o'z ijaramga olib, ijara pulini to'lab kelgan edim, lekin bundan bir oy burun Arbobning tani pullarini ham berib, yerni butunlay bu kishining qolidan qutqazdim, – javob berdi.

– Tani pulni to'lagan bo'sang, nega yerning vasiqasini Arbobning qollaridan olmading, – deb yana savol berdi noib.

– Pulni kechalab berib edim, Arbob «erta kunduzi kuni vasiqangni topib beraman», deb meni

nishontirgandilar. Men ham bu kishiga ishonib ketdim, ertasiga kelib, bu kishidan vasiqani so'raganimda pulni olganlaridan munkir bo'l-dilar¹ va «sen niyatingni uzding, sendan ko'ng-lim cho'chidi, endi yo pulimni topib ber yoyinki yerni topshir», deb meni qiyinay boshladilar.

– Pulni berganingga guvohing bormi?

– Qorong'i kechada pulni topshirdim, Xudo-dan boshqa guvohim yo'q, – degan holda Mu-hsin o'z qo'yin cho'ntagidan bir xat chiqarib, murofaa ustida tikka turgan noibning odamiga uzatdi, u odam xatni Muhsinning qo'lidan olib, noibga berdi.

Noib u xatni boshidan oxirigacha ko'zdan kechirganidan keyin Arbob Ro'ziga qarab:

– Bu rivoyat-mahzardaf'i mahzari. Bu mah-zari bilan Muhsin sizga qarshi: «Arbobning pu-lini berib edim, ammo vasiqam uning qo'lida qolgan, o'sha vasiqam berilsin», deb qozidan talab qilgan va bu talabning shariatga muvofiq-ligi to'g'rilib mahrning bir chekkasiga rivoyat yozib, Buxoroning bir juda mo'tabar muftilar o'z muhrlarini bosganlar, – dedi va o'z gapini davom qildirib Arbobdan: – Siz buning da've-siga nima deysiz, darvoqe u sizning pulingizni bergenmi, vasiqasi sizning qo'lingizda qolgan-mi? – deb so'radi.

– O'limdan xabarim bor, bunday ishdan xa-barim yo'q, – deb javob berdi Arbob.

Noib Muhsinga qarab:

¹ Tan olmadilar.

– Shu da'voyingni isbot qilish uchun qasam ichasanmi? – deb so'radi.

– Isbotdan ojizman, Arbob Ro'zi qasam ichsin, men uning pulini ikkinchi marta to'lab yoki yerni topshiraman, – dedi.

– Bu janjal kelajak jumagacha mavquf¹ tur-sin, Nazarni o'tqaz, – dedi noib o'z odamiga.

Muhsin bo'yra ustidan turdi va Nazar o'tirdi.
Noib uning vasiqasiga qarab:

– Sen Arbob Ro'zidan bir ming ikki yuz tanga qarz olib, besh tanob yeringni unga shariat bay bilan sotib edingmi? – deb so'radi.

– Ha, – deb iqror bo'ldi Nazar.

– Xo'p, – dedi noib, – hozir Arbob o'z pullarini qaytarib berishingni yoki o'sha tanob yerni topshirishingni talab qiladilar. Sen nima javob berasan?

– Men pul ham bermayman, yerimni ham bermayman, – dedi Nazar uzil-kesil qilib.

– Sababi? – noib so'radi.

– Chunki men Arbobning tani pulini butunlay va foydasini orttirib to'laganman.

– Murofaa ustida «pulning foydasi...» dema, chunki shariat yuzasidan durust bo'lmaydi. «Yerning ijara pulini...» de, – deb noib Nazarga tanbeh qilgandan keyin, – xo'sh, sen Muhsin kabi qorong'i kechada yolg'iz o'zing guvohsiz berdingmi? – deb piching qilib so'radi.

– Yo'q, men qorong'i kechada emas, kunduz kuni, guvohsiz emas, balki Bo'lmaxo'ron qish-

¹ To'xtatib qo'yilgan.

log'ining oqsoqoli – Arbob Hamidning oldida berdim, – dedi Nazar.

– Siz nima deysiz? – deb so'radi noib Arbob Hamiddan.

– Men, – dedi Arbob Hamid, – Nazarning Arbobga bir ming to'rt yuz qirq tangani besh tanob yerni bir yillik ijara puli deb bergenini bila-man, boshqasidan xabarim yo'q, – dedi.

– O'tgan qishda, – dedi Nazar boshi ustida tikka turgan Arbob Hamidga qarab, – bunga bir bog' beda ikki tanga bo'lgan vaqtda mening ikki yuz bog' bedamni Arbobga olib berib, «pulini kuzda hisoblaymiz», demaganmidingiz?..

– Xo'p, bedang ham ikki yuz tanga, bu bilan sen Arbobga bir ming olti yuz qirq tangani to'lagan bo'sang, Arbobning sening bo'yningda yana ming tangalari qoladi, – dedi Hamid.

– Yo'q, mening pulim ortadi, – dedi Nazar kulsirab.

– Qanday qilib? – deb so'radi noib.

– Mening eshitganimga qaraganda, Arbob menga bergen bir ming ikki yuz tangani shaharlik foydaxo'r qorni katta qoridan har yuziga oyda uch tanga foyda bermoqchi bo'lib olgan, bu hisobga bir ming ikki yuz tanganing yillik foydasi uch yuz yetmish ikki tanga bo'ladi. Bu pulni tani pulga qo'shsak, bir ming besh yuz yetmish tanga bo'ladi. Holbuki, men Arbob Ro'ziga Hamidning guvohligi bo'yicha, bir ming olti yuz qirq tanga to'laganman, demak, mening oltmish sakkiz tangam Arbobga ortiq ketgan.

– Hamyoningni kengroq tiktirib qo'y, mendan oltmisht sakkiz tangani qaytarib olasan, – dedi Arbo Ro'zi piching qilib.

– Muttahamlik! – dedi noib o'z-o'ziga va Nazarga qarab: – Gapni cho'zib o'tirma! Hozir shariat bo'yrasi ustida Arbob Ro'ziga ming tanga berasanmi yo besh tanob yerni topshirasanmi? – deb so'radi.

– Arbob Ro'zidan qarzim yo'q, yerimni ham hech bir kishiga bermayman.

– Olib borib qamab qo'y bu muttahamni! – dedi noib o'z odamiga.

– Muttahamsizlar, o'g'risizlar! – degani holda Nazar Arbob Ro'zining otxonasiga sudraldi.

– Sizga ham, shariatingizga ham kishining ko'ngli ishonmay qoldi, – dedi bo'yradan turib mehmonxonaga kirgan Arbob Ro'zi noibga qarab.

– Qani, qani, nega? – deb so'radi noib.

– Siz doim, – dedi Arbob Ro'zi, – menga «shariat bizning qo'llimizda, uni har vaqt sizning foydangizga ishlata man», der edingiz, bugun butunlay Muhsinning foydasiga ishlatib yubordingiz-ku.

– Durust, men shariat bizning qo'llimizda deb edim, ammo «mening qo'llimda» degan emasman, – dedi noib, – mendan boshqa ham shariat peshvolari bor. Ular muftilar, ular Muhsingga yo'l topib bergenlar. Albatta, ular bu «yo'l»ni unga arzonga sotmaganlar, ular ham shariat ustidan non yeishi kerak. Agar men ular yozib bergen rivoyatni yirtib tashlasam, ular meni oldirmasdan qo'ymaydilar.

Demak, juma kuni boladigan murofaada ham men uchun biron yo'l yo'q-da, – dedi umidsizlik bilan.

– Bor, – dedi noib, – agar qasam ichsangiz ishni siz yutasiz.

– Men qasam ichmayman.

– Nega? Holbuki boshqa vaqtarda kerak bol'magan joylarda kunda necha marta qasam ichasiz-ku.

– U boshqa gap, – dedi Arbob, – agar men shariat bo'yrsasi ustida qasam ichsam, qasam urgan deb hamma mendan qochadi.

– Men bir yo'l-yo'riq bilamanki, – dedi Qori Ishkamba, – u yo'lga qarshi na muftilar rivoyat-mahzar qilib bera oladilar va na sizga qasam ichishga to'g'ri keladi.

– O'sha yo'lni menga ko'rsating! – dedi Arbob Ro'zi quvongan holda Qori Ishkambaga, – men bu yo'l bilan borib, bu muttaham Muhsindan o'chimni olay.

– Muhsinning ishini endi yutqazdingiz, lekin agar bundan buyon dehqonlar bilan qiladigan muomalalaringizda meni o'zingizga teng sherik qilsangiz, u yo'lni sizga o'rgataman.

– Mayli, teng sherik qilaman, ayting-chi, u qanday yo'l?

– Qozixona vasiqasi o'rnida «veksel», – dedi Qori Ishkamba va ketmoqchi bo'lib o'rnidan turdi.

Bu kungi majlis shu bilan tugadi.

Murofaa voqeasidan o'n-o'n ikki kun o'tgan-dan keyin Buxoro ko'chalarining birida Ishkamba gangib yurgan Muhsinga duch kelib, bি-ror qalin oshnasini ko'rganday u bilan ko'rish-di va undan Arbob Ro'zi bilan bo'lgan keyingi murofaasining natijasini so'radi.

– Nima bo'lar edi, unga qasam ichishga to'g'ri keldi, u bundan bosh tortdi, noib eshon pulini to'langan deb hisoblab, yerni mening foydamga hukm qildi, – dedi.

– Yaxshi bo'libdi, – dedi Qori Ishkamba qu-vongan ohang bilan va Arbob Ro'zidan istihola qila boshladi.

– U uying kuygur meni ham aldagan ekan, o'zing ham eshitgandirsan, o'sha senga qarz bergen bir ming besh yuz tangani har yuz tan-gasiga oyda uch tangadan mendan ko'targan edi. Eshitishimcha, senga yetti tangadan foy-daga qo'ygan.

– Yetti tangadan qo'ysa go'rga edi, – dedi Muhsin, – menga har yuz tangaga oyda to'qqiz tangadan qo'yib edi.

– Obbo xudo bexabar-ey-y-y! – dedi Qori Ishkamba, – xo'p boplading-da, necha tanga xarjlading? – deb so'radi.

– To'rt muftiga ikki yuz tangadan sakkiz yuz tanga berdim.

– Noibga ham biron narsa...

Albatta, «moylanmagan arava yurmaydi» deganlaridek, ikki yuz tanga bilan u kishining tomog'ini ham moyladim.

– Demak, ming tanga bilan ming besh yuz tangalik da'vodan qutulibsan-da, juda soz.

– Gap pulda emas, gap yerni Arbobning qo'liga o'tishdan saqlab qolishda edi. Bo'lmasa ming tanganing o'zi ham hozir ming besh yuz tangaga yetishayozdi.

– Ey, qanday, qanday? – deb Qori Ishkamba afsuslanganday bo'lib so'radi.

– U ming tangani menga, meni muftilar bilan tanishtirib ishimni to'g'rilab bergen bir kishi bir oyda to'lashim sharti bilan kunda o'n tangadan foydaga topib bergen edi. Tunov kuni bir oy to'ldi, ming tanga ming uch yuz tanga bo'ldi, lekin hali men pul topolmay ovo-ra yuribman.

– Voy noinsof-ey-y-y. Bu odam Arbob Ro'zi dan ham battarroq chiqipti-ku. To'g'ri menga kelsang bo'lmasmidi, men arzon foyda bilan senga qarz berar edim?

– Qaydan bilay, siz Arbob Ro'zi bilan juda inoqlashib ketgan edingiz, unga zaril bo'ladi-gan pulni siz topib bermassiz, deb o'yladim.

– Avvali shuki, sudxo'r sudxo'r bilan inoqlashmaydi, bular bir-biriga it-u mushukdek dushman bo'ladi. Ikkinchisi shuki, Arbobning mendan har yuzi uch tangadan olgan pulni boshqalarga sakkiz tangadan, o'n tangadan foydaga qo'yganini bilib, undan juda ham ranjidim, u xudo bexabar ham mening haqimga,

ham kambag'al dehqonlar haqiga insofsizlik qilgan.

– Menga ko'nglingiz ishonib qarz bermoqchi bo'sangiz, hali ham vaqt o'tgan emas, agarda otalik qilsangiz, men yaqin kunda o'n tanga to'lana digan og'ir foydadan qutular edim.

– Mayli, – dedi Qori Ishkamba, – hozir senga necha tanga kerak?

– Shu kunning o'zida qarzim haligi odamdan bir ming uch yuz o'n tanga bo'ldi, siz pulni necha kundan keyin bersangiz har kun o'n tangadan pulga qo'shiladi.

– Hisobga to'g'ri bo'lsin, bir ming to'rt yuz tanga kerak de, ortganini yana biror dardingga davo qilarsan.

– Xo'p, mayli. Foydasini qanchadan, qanaqa qilasiz?

– Har yuz tangasi sen uchun oyda besh tangadan, Arbobdan olgan narxingdan to'rt barobar arzonroq.

– O'zingiz Arbobga bergen narxingiz bilan – oyda uch tangadan bermaysizmi?

– Yo'q, – dedi Qori Ishkamba, – hali ham shu ishni Arbobni xafa qilish uchun qilayotirman, bo'imsa men Hamrohrafiqqa har yuzi olti tangadan qo'yib edim.

Hamrohrafiqning nomini eshitgan Muhsin uning voqeasini eslab qayg'uga cho'mib qoldi, chunki Qori Ishkambaning necha yillab Hamrohrafiqdan foyda yeganini, u to'lay olmay kasod bo'lgandan keyin uning yerini Arbob Ro'ziga sottirib olganini bilar edi. Shunday bo'lsa

ham uning Qori Ishkambadan qarz olishdan boshqa chorasi yo'q edi. Shuning uchun biroz o'ylanib turgandan keyin:

– Xayr, mayli, qancha yerni qancha muhlatga xat qilib keltiray? – deb so'radi.

– Menga qozixonada yoziladigan vasiqang ham kerakmas, yering ham kerakmas.

Muhsin Qori Ishkambaning bu gapidan, ayniqsa, «yering ham kerakmas» degan gapidan qancha quvongan bolsa, shuncha ajablanib so'radi:

– Yerni xatlash kerak bo'lmasa, bu mening yer to'g'risida qo'rqib bezonglab turgan yuragimni tinchlantiradigan sizning unutilmas bir yaxshilingiz bo'ldi. Ammo xat kerakmas deganingiz boisi nimada, menga pulingizni hech bir hujjatsiz berasizmi?

– Senga rahmim kelganidan hujjatsiz ham beraveraman. Lekin hozir butunlay hujjatsiz emas, qozixona vasiqasi o'rnida, «veksel» degan ruscha hujjat bilan beraman, – dedi Ishkamba va Muhsinning «ruscha hujjat» nomini eshitib shubhalanib, ikkilanib turganini sezgandan, so'zini izohlashga kirishdi: – Yering Arbob Ro'ziday nuqul yerga ko'z tikkan kishiga kerak. Menga yer kerakmas, aksincha, qishloqqa chiqib dehqonchilik qila olmayman, ammo veksel mening uchun kerak.

– Nega? – deb so'radi Muhsin shubhali ohang bilan.

– Chunki men boshqalar bilan oldi-berdi qilmoqdaman agar yuz ming tangalik qog'oz

vasiqasini bankka olib borsam, bir pulga ham olmaydi. Ammo kim bo'lsa-bo'lsin, biror kishi qo'l qo'ygan vekselni olib borsam, uning ustidan menga qarz beradi, – dedi Qori Ishkamba. Muhsin beradigan vekselni misolga olib, so'zini davom qildi:

– Masalan, sen menga ikki ming tangalik veksel bersang, men uni olib borib bankka qo'yib, uning ustidan ming tanga qarz olib, yana biron dardimga davo qila olaman.

– Xo'p, qachon kelay? – deb so'radi Muhsin ko'ngli biroz tinchlangan vaziyatda.

– Ertaga, vaqtliroq kel, – dedi Qori Ishkamba, – vekselga qo'l qo'yish uchun xat-savoding bormi? – deb so'radi.

– Yo'q.

– Mayli, zarari yo'q, notariusning oldiga boramiz, biror xat-savodli odam sening iltimosing bilan qo'l qo'yadi...

* * *

Qori Ishkamba Muhsin bilan gaplashib kelishganining ertasiga uni o'zi bilan Kogonga olib bordi. Kogonda undan:

– Sen mening pulimni qachon to'lamoq-chisan? – deb so'radi.

– Yanagi yig'im-terimda.

– Bir yildan keyin degin.

– Ha, bir yildan keyin bera olaman.

– Unday bo'lsa bir ming to'rt yuz tananing bir yillik foydasini hisoblab, tanini qo'shamiz, qanchaki bo'lsa o'shang a yarasha veksel berasan.

Mayli; hisoblab qo'shing.

Qori Ishkamba bir ming to'rt yuz tanganing foydasini har yuzi bir oyda besh tangadan hisoblab, sakkiz yuz qirq tanga chiqardi va:

- Buni bir ming to'rt yuz tangaga qo'shsak, ikki ming ikki yuz qirq tanga bo'ladi, – dedi.
- Demak, shu mablag'ga yarasha veksel berishim kerak bo'larkan-da.
- Bundan ko'proq mablag'ga veksel berishing kerak bo'ladi.

– Nega?

– Chunki notariusning xarji bor, veksel qog'ozini sotib olish kerak, sening iltimosing bilan qo'l qo'yadigan odamga biror narsa – «choy puli» deb berish kerak.

- Bularga qancha xarj bo'ladi?
- Taxminan bir yuz oltmisht tanga.
- Hammasi qancha bo'ladi?

– Ikki ming to'rt yuz tanga, – dedi Qori Ishkamba va Buxoro tangasini Rusiya so'miga aylantirib, – uch yuz oltmisht so'mlik veksel olishimiz kerak bo'lar ekan, – deb bankka ketdi.

Qori Ishkamba vekselni olib chiqqandan keyin bir xat-savodli odamni topib, Muhsin bilan uchovlashib notariusning oldiga kirdilar. U yerda u odam Muhsinning iltimosi bo'yicha tarixsiz oq vekselga qo'l qo'yib berdi.

Qori Ishkamba notariusxonadan chiqib Muhsinga pul berdi. Muhsinni qishloqqa kuza-tayotib:

- Mana bu veksel degan narsa juda tashvishli hujjat, men bu hujjat sizlarning qishlog'ingiz-

dagi pulga muhtoj bo'lgan hamma dehqonlarni, ularning yeriga ko'z tikkan Arbob Ro'zi kabi odamlarning qo'llaridan qutqazaman, kimki pulga muhtoj bolsa mening oldimga boshlab kela bering, – dedi.

– Xo'p! – dedi Muhsin va o'z qishlog'iga jo'nadi.

* * *

Muhsin Qori Ishkambaga veksel bergenidan ikki oy o'tgandan keyin Sangsabz qishlog'ida, Arbob Ro'zining hovlisida uncha katta bo'lman gan bir yig'in barpo bo'lgan edi; yig'inda ko'p vaqtdan beri bu hovliga kelib-ketib yurganlar dan noib, uning odamlari va Ishkamba bolsa ham Bo'lmaxo'ron va Sangsabz qishloqlarining kattalari yo'q edi. Lekin ularning o'rinalariga bundan burun bu hovlida ko'rilmagan, bu yerga sira kelib-ketmagan ikki kishi ko'rinar edi. Bu odamlardan birisining ust kiyimi va boshi dagi sallasi amaldorlarnikiday bolsa ham kiyimi ruslarnikiday kostyum edi, u birisi bolsa tamoman yevropacha kiyingan edi.

Bu kungi ziyofatda dasturxon usti burungilarday turli ovqatlar – qovurilgan tovuqlar, qaynatilgan qazilar, qobuliy palovlar bilan to'la bolsa ham bu ikki odamning oldida bu dasturxon ustida bundan burun ko'rilmagan ikki tovoq ovqat turar edi, tovoqlardan birida kartoshka bilan qovurilgan kotlet bo'lib, ikkinchisi jarkop bilan to'la edi.

Bu ikki odam ovqatni boshqalarday bir tovonda birgalashib qo'l bilan yemay, oldilari-

ga kichkina tovoqchaga katta tovoqdan suzib olib, pichoq bilan kesib, vilka bilan yemoqda edilar.

Bu ikki odamning oldida ikki ryumka bilan ikki shisha ichkilik ham bor edi. U odamlar- dan salsa-chopon kiygani shishalardan birisini qoliga olib, shishaning qorniga yopishtirilgan qog'ozga qarab, o'z-o'zicha:

- Konyak, - dedi cho'zib.
- Konyak nima? - deb so'radi Qori Ishkamba u odamdan.

- Konyakmi? Dori, - dedi u odam, - ayniqsa, siz kabi keksaygan va ko'proq ovqat yeyishni sevgan odam uchun birdan-bir dori. - U odam shishani ochdi va oldidagi ikki ryumkaga quy- gandan keyin:

- Sizga ham bir piyola quyib beraymi, Qori aka? - deb Qori Ishkambadan so'radi.

- Yo'q, mening ishtaham uchun unaqa do- rilar kerakmas, agar ruxsat bersangiz oldiniga g'alati kaboblarga sherik bo'layin, - dedi Qori Ishkamba. Lekin u odamning «marhamat qiling» deb ruxsat berishini kutmasdan, ikki tovoqdagi jarkop va kotletlarning yarmidan ko'prog'ini olib, o'z oldidagi palov tovog'i ustiga bosdi va undan keyin hech kimga qaramay va hech kimning gapiga javob bermasdan pishil- lab yeya boshladi.

Ovqat va qovun-tarvuzlar yeyilgandan keyin dasturxonni yig'ishtirib olib choy keltirdilar va choy ichilayotganda noib yevropacha kiyangan odamga qarab:

- Ishga kirishmaymizmi? – deb so'radi.
- Kirishamiz, javobgarlarni chaqiringlar! – dedi u odam.

Noib o'z odamiga:

- Muhsin, Safarali, Po'lod va Temirlarni chaqirib kel! – deb buyurdi.

Ichdan yevropacha kiyinib, ustidan chopon kiyib, boshiga salsa o'ragan odam portfelini ochib, uning ichidagi o'nlarcha vekseldan bir nechasini ajratib tizzasiga qo'ydi.

Noibning odami chaqirilganlarni supaga olib chiqib, noib o'tirgan eshikka to'g'ri qilganida portfelli kishi noibning odamiga qarab:

- Buyerqozixona emas, bularni mehmonxonaning ichkarisiga – bizning oldimizga olib kiring!
- dedi.

Javobgarlar mehmonxonaga kirib o'tirganlaridan keyin portfelli odam bir vekselni qo'liga olib:

- Muhsin kim? – deb so'radi.
- Men!

- Sen Qori Ismatillodan uch yuz oltmis so'm qarz olib veksel bergen ekansan. Qori o'z pullarini talab qilganlar. Mana, o'sha pulni to'la-shing kerak.

- Men, – dedi Muhsin, – Qori amakidan bir ming to'rt yuz Buxoro tangasiga teng bo'lgan ikki yuz so'm qog'oz aqchani naqd olganman, qolgan bir yuz elliq so'mi bo'lsa pulning bir yilik foydasi va veksel berish xarajati hisoblangan edi.

- Gapni ko'p cho'zib o'tirma, – dedi portfelli odam, – bu yer qozixona emas. Uch yuz oltmis

so'm pulni hozir berasanmi, yo'qmi? Bitta javob ber! Ha yo yo'q.

– Bir yil va'da bilan olib, ustiga bir yillik foydasi ham qilingan qarzimni qanday qilib ikki oy o'tar-o'tmas to'layman? – dedi Muhsin.

– Vekselga qo'l qo'yib bergen vaqtingda, – dedi portfelli odam, – unga muddat yozilmagan ekan, qarz berib oq veksel olgan odam, veksel qo'l qo'yilgan kundayoq o'z pulini talab qilib undirishga haqi bor, hali ham Qori aka senga rahmdillik qilib ikki oy kutganlar.

– Axir men ikki oyda bir yillik foyda to'laymanmi? – dedi Muhsin.

– Uning bizga daxli yo'q. Biz shu uch yuz oltmish so'mni shu kundayoq undirishimizni bilamiz. Zakon shu.

– Bu qanday bedodlik, qanday insofsizlik...
Noib Muxsinning so'zini bo'lib:

– Og'zingni yum, sen oq podshoh hazratlarining zakonlarini insofsizlik deyotgan bo'layotirsanmi?

– Bu qozixona emaski, pora berib muftilaridan rivoyat olib qarz beruvchiga qasam bersa. Bu oq podshohning zakonlari, bu zakon muftilarning rivoyati u yoqda tursin, toshni kesadi, – dedi Arbob Ro'zi.

– Xo'p, uch yuz oltmish so'm pulni hozir berasanmi yo'qmi? – deb portfelli odam so'radi.

– Men bunday tuhmat bilan bo'ynimga yuklangan pulni bera olmayman.

– Vaqt ni o'tkazmay torgni¹ boshlash kerak, – dedi yevropacha kiyingan odam portfelli odamga qarab.

¹ «Bormi oshuvchi» savdosi.

- Yana biroz sabr qilinglar, men bunga tu-shuntiray, - deb noib Muhsinga qarab gapga kirishdi:

- Sen bergen veksellarni Qori aka bankka qo'yib, ustidan pul olgan, Qori olgan pul va'dasi yetganda, bank veksellarni notariusga yuborgan, notarius undirish uchun Kogondagi sudyaga yuborgan, sudya: «Yo pulni undirib bering yoki qarzdorning mol-mulkini sotib bunga to'lating», deb qozi kalonga o'z ijrochisini yuborgan. Qozi kalon janoblari veksellar va ishlar bo'yicha o'z tilmochlari bo'lgan bu ukamni (portfelli odamni ko'rsatib) bu yerga yuborgan. Endi uch yuz oltmis so'mni naqd qilib berish, agar buning uddasidan chiqmasang, mol-mulking «bormi oshuvchi» savdosi bilan sotilishga ko'nib jim o'tirishdan boshqa ilojing yo'q.

- Men bunday savdoga ko'na olmayman.

- Ko'nsang, ko'nmasang, bo'ladigani shu, - dedi tilmoch va boshqa «qarzdor»larning ishi ustiga o'tdi...

- Saferali, Po'lod va Temirlar bilan ham Muhsin bilan bo'lganiday, ularning ham mulklarini «bormi oshuvchi» savdosi bilan sotib, Qori Ishkambaning «qarzi»ni undirishga qaror berdilar.

Undirish kunidan bir hafta burun bir ming tanga naqd pul qarz olib, u pulning yillik foydasi bilan birga ikki ming yuz tanga qarzdor bo'lib, oq vekselga qo'l qo'yib bergen Temirning shovqin-suroni osmonga o'rлади.

– Sen kabi vahshiylargan zakon bilan emas, vahshiyarcha muomala qilish kerak, – tilmoch Temirni urib, qamashga buyurgandan keyin hammalari «bormi oshuvchi» savdosi uchun dalaga yer boshiga chiqdilar.

«Bormi oshuvchi» savdosi bo'ladigan joyga ko'p odam to'plangan bo'lsa ham, savdoga oz odam qatnashdi va tanobi ikki ming, ikki ming besh yuz tanga turadigan yerlar uch yuz, to'rt yuz tangalik baho bilan Arbob Ro'zi qo'lliga o'tdi.

Savdo tugab, «qarzdorlar»ning yerlari Arbob Ro'zi qo'lliga va u yerlarning pullari Ishkambanning cho'ntagiga kirib bo'lgandan keyin tilmoch noibga qarab:

– Xargo'sh qishlog'iga borib, u yerdagi ishlarimizni saranjom qilganimizdan keyin qaytishda yana Arbobnikiga kiramiz, ungacha sizlar o'zaro hisoblarni aniqlab qo'yinglar! – dedi va o'zi sud ijrochisi bilan birga faytonga minib, Xargo'sh qishlog'iga jo'nadi...

* * *

– Xo'sh, – dedi Qori Ishkamba Arbobga qarab, uning mehmonxonasiga kirib o'tirgandan keyin, – endi o'zaro hisobni aniqlang, men tezroq shaharga qaytay, kun kechikib qoldi.

– Men bilan sizning qanday aniqlanmasdan qolgan o'zaro hisobimiz bor? – dedi ajablanib, – siz o'z pulingizni bir yillik foydasi bilan, Temirdan bo'lsa ikki yillik foydasi bilan to'la undirdingiz, men bo'sam ko'p vaqtidan beri ko'z

tikib yurgan yerkarni qo'lga kirgizdim. «Noma tamom, vassalom», o'rtada bo'lishi lozim bo'lgan boshqa xarajatlarni ham men ko'taray. Yana nima deysiz?

– Yana qanday boshqa xarajatlar bor? – deb so'radi Qori Ishkamba o'zini bilmaslikka solib.

– Xo'p, ziyofatni hisobga olmaylik, lekin o'z odamlari bilan birga necha kundan beri bizning ishimiz ustida ovora bo'lib yurgan noib eshonga tuzukroq hadya matona berishimiz kerak emasmi?

Arbobning bu gapini noib bosh qimirlatib tasdiqladi. Qori Ishkamba ham noibning oldida bu gapga qarshi chiqishga botinolmadi va Arbob o'z gapini davom ettirdi:

– Bundan boshqa tilmoch bilan sud ijrochisiga ham araq puli berish kerak boladi.

– Bu yerda ichgan konyaklari kifoya qilmaydimi? – dedi Qori Ishkamba.

– Yo'q, kifoya qilmaydi, – dedi noib, – shuning uchun... «Biz qaytishda kiramiz», dedi. Bu gapning ma'nosi «biz uchun pul tayyorlab qo'yinglar» deyishdan boshqa narsa emasdir.

– Siz ularning gaplarining ma'nosini yaxshi tushunar ekansiz, – dedi Qori Ishkamba!

– Albatta, – dedi noib, – bo'rilar tilini bo'rilar tushunadi, demaganlarmi?..

– Xo'p, bularga ham ming tanga ketdi deng, qolgani nima bo'ladi? – deb so'radi Qori Ishkamba.

- Yana qanday qolgani bor? - dedi Arbob hech narsani bilmaydigan bo'lib ajablanib:
- Axir siz mening «vekselbozligim» natijasida, - dedi Qori Ishkamba, - o'ttiz ming tangaga arziydigan yerlarni o'n ikki ming tanga sarflab qo'lga kirgizingiz. Mana shu sizning qo'lingizda ortiqcha qolgan o'n sakkiz ming tanga nima bo'ladi, deyman.
- U mening halol haqim, - dedi Arbob.
- Sira unday emas! - dedi Qori Ishkamba.
- Siz vaqtida meni o'zingizga teng sherik qilib, vekseldan ungan foydaning yarmisini menga bermoqchi bo'lgan emasmidingiz?.. O'sha o'zingiz aytgancha, muomalada ot bo'ling, it bo'l mang.
- Qori akaning gaplari to'g'ri, o'n sakkiz ming tangadan xarajatlarni chiqarib, qolganini ikki ga bo'lib ikkalangiz olishlarining kerak, - deb noib bu «it bo'layozgan» ikki «odam» oralarini kelishtirdi.

* * *

Yoz vaqtı - qovun pishig'i chog'lari edi. Sho'rko'llik bir dehqonning o'g'li - bizning hamsaboqlarimizdan bir necha sheriklarini o'z qishlog'iga qovun sayliga chaqirdi. Chaqirilgallardan biri men edim.

Biz chaqirilganlar o'zaro kengashib, Sho'rko'lga piyoda borishni, lekin kunning issig'ida azob tortmaslik uchun tong vaqtı Buxoro shahar darvozasi ochilgan vaqtida yo'lga tushishga ahd qildik.

Lekin va'dalashgan kuniimizdan bir kun burun mening oyog'imga «rishta»¹ chiqib, shishib ketdi, qishloqqa piyoda borolmaydigan bol-dim.

Ammo ular meni qoldirib ketmasliklari va men uchun qayerdan bo'lsa bo'ssin, biror arava topajaklarini aytdilar, ham va'dalashgan kundan bir kun keyin yo'lga chiqishga qaror ber-dilar.

Ammo ot-aravaning topilishi juda qiyin bo'ldi.

Sheriklarim xo'p harakatdan keyin zo'rga bir ot va bir eski arava topdilar, chorabzal topilma-di, shu sababdan tirkish va bo'yinchasiz otning gardaniga bir eski choponni o'rab, aravaga qo'shib, mening turar joyim Ko'kaldosh madrasining oldiga olib keldilar va mening hujram-dan bir ko'rpa-yostiq chiqarib aravaga solgach, o'zimni ham suyab olib chiqib otga mingizdilar. Men kasalxonaga olib borilayotgan bemorday ko'rpa ustiga cho'zilib yotib suyandim. Boshqalar ham aravaga o'tirdilar.

Sheriklarimizdan biri aravakashlik qildi. Le-kin uning ko'cha muyulishlarida va oldindan ot, eshaklar chiqqan vaqtarda ot-aravani eplab boshqara olmaganidan bu ishda sira tajribasi yo'qligi bilinib turardi. Sheriklar unga bu ishni eplay olmagani uchun gap otib tursalar ham hech birisi aravakashlikni uning qo'lidan tortib olishga botina olmas edi.

¹ Buxoroga xos kasallik edi. Bu bilan og'igan odamning badanida – belidan pastda irlsimon qurt paydo bo'lardi. Hozir bu kasallik yo'qolib ketgan.

Biz yuz balo va uqubat bilan shaharning tor ko'chalaridan o'tib, Samarqand darvozasi orqa-li shahardan chiqdik.

Bizning aravakashimiz shahardan chiqqan-dan keyin shahar qal'asi bo'ylab o'ng qo'lga burildi. Chap tomonimiz amir sarbozlari mashq qiladigan keng maydon edi.

Arava maydonning sharqi-janubiy burcha-giga yetganda aravakashimiz otni chap qo'lga burib, Sho'rko'lga boradigan yo'lga tushdi. Endi o'ng tomonimizda amirning «Dilkusho» chorvog'inining devori cho'zilib borar va chap tomonimizda haligi maydon bo'lib, maydonga borayotgan yo'l orasida keng va chuqur zovur bo'lib, ichi suv bilan to'la edi.

Bu bir necha daqiqalik yo'lda tajribasi an-cha oshgan aravakashimiz mutaxassis arava-kashlardi ot ustida ashula aytishga kirishdi va ashula tovushini eshitib «Dilkusho» chor-vog'inining devoridan qarayotgan bir bog'bon qiziga ko'zi tushgach, ashulasini yana avjlantri-di, hatto u qizga xitoban «oh», «voy» ham deya boshladi.

Qiz bu yuzsizlarcha gap otishlardan ach-chig'lanibmi yoki kayfi chog'lanibmi, qo'lidagi olmani aravakashni chog'lab otdi va o'zi devor ortiga yashirindi.

Aravakash otning yuganini egarning qoshi-ga tashlab o'ziga otilgan olmani ilib oldi-da, qiz o'zini yashirgan tomonga qaytarib otib, yana ashula boshladi.

*Olma raxishlab otdim, dod-ey, tegdimi sizga?
 Olma tekkan joyingizni ko'rsating bizga!
 Xoh ko'rsating, xoh ko'rsatmang, ixtiyor sizda,
 Biz hammamiz qul bo'lganmiz olmaday yuzga.*

Bizning aravakash ashulasining ikkinchi bandini hali boshlagancha yo'q ediki, o'z mayliga qo'yilgan ot chap tomonga burilib, aravaning chap gildiragi zovur tomonga og'di. Oyog'im og'riyotgani uchun men o'zimga ehti-yot bo'lib turganimidan gildirak siljigan hamon jon achchig'idan o'rnimdan irg'ib turib, o'zimni zovurning narigi tomoniga otdim: ammo boshqa yo'doshlarim – ot-arava hamda aravakash zovurga ag'anab ketdilar.

Aravaning chap gildiragi bir yoni bilan suvga botdi va gupchakning uchi zovurning yoniga tiralganidan tikka bo'lib qoldi: aravaning shotisi orasida bo'lgan ot chap yoni bilan ag'anagini holda zovurning o'ng qirg'og'ini tepib tirnamoqda, aravakash bo'lsa goh o'zini, goh otni va goh bu ishga sabab bo'lgan qizni so'kmoqda va boshqa yo'doshlar butun kiyimlari bilan suvga sho'ng'ib chiqib, nima qilishlarini bilmay hayron-hayron qarab turar edilar.

Shu vaqtida shahar tomonidan bir sarboz kelib qoldi. Bu sarboz bizga yaqin kelgach, birdaniga etigini yechdi, shim va boshqa sarbozlik kiyimlarini yecharkan: – Pichoqlaringiz bormi? – deb so'radi.

Bizning aravakash mag'rurona ohang bilan:

— Bor! — degan holda qishloqda qovun so'yib yemoq uchun beliga taqib olgan pichog'ini qindan sugurib, sarbozga uzatdi.

Sarboz zovurga tushib, aravakashning qoldan pichoqni oldi, u bilan otning bo'yniga bo'yincha o'rnida o'rabi bog'langan eski choppanni, otni arava qo'shganda tirkish va qorinbog'ga ishlatilgan arqonni kesdi-da, aravaning shotisini ko'tarib turib, otning o'rnidan turishi uchun yo'l ochdi.

Aravadan chiqarilib, uning ostidan qutulgan ot bir-ikki talpingandan keyin o'rnidan turdi va aravakash uni yuganidan yetaklab, zovurdan chiqardi.

Otni qutqazgan sarboz boshqalarning yordamlari bilan aravani sudrab, uni ham yo'nga chiqardi, kesilgan «bo'yincha» va arqonni bir-birligiga tugib va ulab otni aravaga bog'lab berdi.

Yo'doshlar mening ho'l bo'lgan ko'rpa-yostig'imni siqib aravaga tashladilar. Aravakash otga mindi. Sarbozlik kiyimlarini kiyib yo'nga tushayotgan qutqazuvchimizga men:

— Qayoqqa borayotirsiz, uka? — dedim.

U mening bu gapimni masxaralaganday tirjayib:

— Shanbayi qozi kalon qishlog'iga! — dedi va tirjayishda davom etdi.

— Siz yuradigan joyning yo'li biz borayotgan joyning ustidan o'tar ekan — biz ham o'sha yoqqa borayotirmiz: aravaga chiqib oling! — dedim.

U aravaga chiqib joylashib o'tirganidan keyin menga qarab yana tirjaydi. Men uning bunday sababsiz tirjayishidan shubhalanib:

– Nega menga qarab kulayotirsiz, uka? – deb so'radim.

U xaxolab kuldī-da:

– Men sizning ukangiz bo'lарlik yoshda bo'lmasam kerak, necha yoshdasiz? – deb so'radi.

Men uning bu gapidan xushyorlanib, uning turqiga diqqat bilan qaradim. Unda soqol-mo'y-lovdan asar ham yo'q edi, bu ko'rinishiga qarab unga juda ko'pi bilan o'n to'qqiz-yigirma yosh berish mumkin edi. Lekin yuzi burishgan, qovoqlari biroz solqa bo'lgan va ko'zlari yoshlarnikiday uncha charaqlab turmasdi.

– Men qaydan bilay, aftingizga qarab, sizni yosh gumon qildim. O'zim yigirma yoshdaman, – dedim.

– Men qirq yoshimni toldirib, qirq birinchisiga qadam bosdim, – dedi sarboz, o'sha aytish ohangi bilan davom qildi, – albatta, sizning aftingga qarab meni yosh qilishingizdan ajablanshim durust emas edi. Lekin sizning meni uka deganingiz bir vaqtlar – o'ttiz yasharlik vaqtlarimda xo'jayinimning menga xizmat haqi bermaslik uchun «bola» degani va Qori Ishkamba nomli shaharlik bir sudxo'rning menga «hali ona suting og'zingdan ketmagan» deb, uni yoqlagani esimga tushib kulgim qistadi.

Men Qori Ishkamba haqida biron yangi ma'lumot olmoqchi bo'lib:

– Xo'jayiningiz shaharlikmi yoki qishloqlikmi? – deb so'radim.

– Qishloqdan – Sangsabz qishlog'idan, Arbob Ro'zi degan sudxo'r edi.

– Unday bo'lsa, shaharlik bo'lgan Qori Ishkamba bilan uning qanday aloqasi bor edi, – dedim.

– O'g'ri o'g'rini qorong'ida topadi deganlariday, bu ikki sudxo'r bir-birovi bilan topishgan va ikkovlashib Bo'lmaxo'ron va Sangsabz qishloqlaridagi mehnatkash dehqonlarning ularini kuydirgan edilar, – deb u Qori Ishkamba ning haligi qishloqlar bilan qanday aloqa bog'laganini va Arbob Ro'zi bilan qanday topishgani ni birma-bir hikoya qilib berdi. Men undan:

– Qori Ishkamba shu kunlarda ham o'sha qishloqlarda oldi-berdi qiladimi? – deb so'radim.

– Yo'q, – dedi u, – bir voqeа yuz berib, shu sababdan Qori Ishkamba u qishloqlarda oldi-berdi qilish nari tursin, u tomonlarga qadam bosmaydigan bo'lib ketdi, hatto u qishloqlarga bordi-keldi qilishdan ham qo'rqib qoldi.

– Qanday voqeа yuz berdi?

– Veksellar bilan odamlarni qarzdor qilib ularning yerlarini bosib olganlaridan bir oy o'tgandan keyin bir qorong'i kechada Arbob Ro'zining hovlisini o'g'ri bosdi, uni o'ldirib, uyi ni taladilar va xotin-bolalarini ko'chaga haydab chiqarib, hovliga o't qo'ydilar. Mana shu voqeадан keyin odamlar «bu ishni muqarrariy o'g'rilар emas, balki nohaq yo'l bilan yerlari bosib olingan dehqonlar o'ch olish uchun qilganlar» degan ovoza tarqatdilar. Shuning uchun Arbob Ro'zining sherigi bo'lgan Qori Ishkamba ham cho'chib qoldi.

– Arbob Ro'zining hovlisini o'g'ri bosganda siz uning xizmatida edingizmi? – so'radim.

– Yo'q, – dedi u va o'zining Arbob Ro'zida besh yil ishlaganini, oxirida haq bermay ishlashga rozi qilish uchun Arbob uni qamatganini hikoya qilib berdi.

– Qamoqdan qanday qutuldingiz? – deb so'radim men.

– Meni qozi kalonning qamoqxonasida qancha qiynagan bo'salar ham Arbobga ishlashni qabul qilmadim, undan keyin meni mirshab qamoqxonasiga yubordilar, unda ham meni ko'p qiynadilar: lekin men Arbobning xizmatini bo'ynimga olmadim. «Xo'p, agar pul bersang seni qo'yib yuboramiz», dedilar mirshab odamlari. Lekin men pul topib bera olmadim. Oxiri meni qarindoshi sarbozlikdan qochib, uning o'rniga o'zi sarboz bo'lishga yoki odam olib berishga majbur bo'lgan bir kishiga sarbozlik uchun sotdilar va pulni olib yedilar, shu bilan sarboz bo'lib qoldim. Arbob o'g'rilar tomonidan o'ldirilgan vaqtda ham men sarboz edim.

Sarboz bilan suhbatim shu yerga kelganda katta yoldan ajralib, Sho'rkoi tog'ga boradigan yo'lning boshiga yetishdik. Sarboz aravadan tushdi. Men undan:

– Otingiz nima, aka? Bilib qolsak zarar qilmas, – deb so'radim.

– To'ramurod! – dedi u va xayr-xo'shilab Shanbayi qozi kalon tomonga qarab ketdi.

Bizning aravakash otning jilovini Sho'rkoi tomonga qarab burdi.

* * *

Men bora-bora Qori Ishkambanining tarjimayi holidan butunlay xabardor bo'ldim.

U uncha atoqli bo'limgagan bir mullaning oиласида tug'ilib, отаси унга «Ismatullo» деб исм qо'yган екан.

Ismatullo besh yashar bolganda отаси уни avval maktabga bergen, keyin u chalasavod bolgach qorixonaga bergen екан.

Ismatullo necha yillar qorixonaga qatnab, Qur'онни yodlaganidan keyin отаси va qo'shnilar уни «Qori Ismat» deya boshlaydilar...

Bu orada uning ota-onasi o'lib, унга bir hovlicha va Buxoroning servaqf madrasalaridan ikki hujra meros qoldi. Qori Ismat hujralardan keladigan vaqf pulini, ham xatmi qur'onlardan undirgan pullarni o'z mahallasidagi kambag'al-larga va sarmoyaga muhtoj mayda do'kondor-larga foydaga qo'ya boshladi.

Bundan boshqa yana bir daromad yo'lini topdi: mahallasidagi yosh bolalarni to'plab, ularni qimor o'ynashga о'rgatdi, ularga oshiqlar, qartalar topib beradigan bo'ldi. Bolalar bir necha vaqt pulsiz, keyin pul bilan o'ynaydigan bo'ldilar, shu bilan qimorni o'zlariga kasb qilib oldilar.

Qori Ismatning qimordan kirimi ham shu vaqtdan boshlandi: oshiqlarning chikka-pukkasini, olchisini bo'yab keltirib qimorboz bolalarga sotdi, hali ochilmagan qartalarni qо'ynida saqlab, o'yin vaqtida qartalar dog'lanib, taniladigan bo'lib qolsa, qartalarni bolalarga tani xarididan to'rt baravar ortiq pulladi.

Bulardan boshqa uning o'zi qimor o'yiniga qatnashmay, tomoshabin bo'lib o'tirib, yutganlardan cho'tal oldi. Cho'taldan, oshiq va qarta sotishdan to'plangan pullarini yutqizib, pulsiz qolgan bolalarga birga ikki sharti bilan bir-ikki kunga qarz berib, daromaddan tug'dira boshladi.

Qori Ismat bu daromadlardan bir pulini ham yemay, kunduzlar hujrasida turgan mullavachchalarining oshlaridan, kechalari odat bo'yicha «to'qim» bo'ladigan qimorboz bolalarning dasturxonlaridan qornini to'yg'izib yurdi.

Qori Ismatning qimorboz bolalar bilan oshnaligi ko'pga cho'zilmay, tezdan oralari buzildi.

Bir kuni kechasi o'zin juda qizib, avval oqshomdan boshlab, sahargacha davom etgan bolalar oralarida yutish, yutqizish ko'p bo'ldi, ko'p bolalar bir necha bor yutib, bir necha bor yutqizdilar. O'yinning adog'ida bolalar bir-birovlari bilan «sen ko'p yutding, men yutqizdim» deb bahslashib, oxirida bu bahsni yechish uchun har qaysilarining pullarini hisoblab ko'rmoqchi bo'ldilar.

– Sening avval oqshom qancha puling bor edi?

– O'n tanga!

– Hozir-chi?

– Besh tanga.

– Mening avval oqshom besh tangam bor edi, hozir uch tangam qolibdi.

– Mening uch tangam bor edi, uni yutqizdim, undan boshqa Qori akamdan besh tangani olib, uni ham yutqizdim...

Bu umumiy hisobdan ma'lum bo'ldiki, bolalar o'yin oxirida qolgan pullarining hammasini bir joyga to'plaganda, avval oqshom hammalarining cho'ntaklarida bo'lgan pullarning yarmiga baravar keldi. Buning ustiga ba'zi bolalarning Qori Ismatdan qarzdor bo'lib qolganlari ortiqcha.

Bolalar «ajabo, bu pullar osmonga uchdimi, yerga kirdimi?» deb o'ylay boshladilar.

Bunday hisob va tekshirishning natijasidan qo'rqqan Qori Ishkamba (har qimorxonadan hammadan keyin chiqish odatining aksicha) «xayr, bo'lmasa men ketay, sizlarning bahsaringiz cho'zildi» deb o'rnidan turib, hammadan burun ketarmon bo'lganda, cho'ntagidagi tangalar jiringlab, bundan bolalarning birisi «ilhom» olib:

— Ey!.. Qori akam cho'talga olgan pullarni hisobga olmabmiz-ku, — dedi.

— To'g'ri, — dedi boshqa bir bola, keyin Qori Ismatga qarab: — O'tiring, Qori aka, cho'talga olgan pullaringizni chiqarib sanang, qani u bilan bizning hozirgi pulimiz avval oqshomdagい pulimiz bilan baravar keladimi? — dedi.

Qori Ismat bu talabning javobiga chopon etagini mahkam o'rab olib:

— Yo'q! Men pulimni chiqarib sanamayman va biron kishiga ko'rsatmayman ham, — dedi.

— Biz sizning pulingizni olmaymiz, faqat pulimizning cho'g'ini hisoblab ko'raylik, qo'rwmang, chiqaring, sanang! — dedi haligi bola yumshoqlik bilan.

– Yo'q, dedim, yo'q! – dedi Qori zarda qilib ketmoqchi bo'lib o'rnidan turdi.

– Hali shundaymi? – deb haligi bola o'tirgan yeridan uning oyoqlarini tutib o'zi tomonga tortdi.

Qori yiqligan hamon cho'ntagini buti orasi-ga tiqib hadiksiragan tipratikanday qo'l-boshini oyoq ichiga tortib, yum-yumaloq bo'lib yotib oldi.

Bolalar uning ustiga yopirilib cho'ntagidagi pullarini chiqarmoqchi bo'ldilar, lekin u yosh bolalar o'ynayotgan katta to'pday har tomonga yumalab, cho'ntagini qo'yib yubormadi.

– Uringlar! – dedi bolalardan biri va qo'llini baland ko'tarib, uning yalang'och badaniga bir musht urgan edi, Qoriga ta'sir qilmadi-yu, le-kin u bolaning voy-voylab alamidan: – Hali to'xtab tur, seni nima qilaman, – deb yugurgancha borib qimor o'ynaganda kerak bo'ladigan pishiq g'ishtni tokchadan ko'tarib olib, Qorining boshiga urdi.

Bu zarba bilan uning boshi yorilib, obdas-taning jo'mragidan oqayotgan suvday qon oqa boshladi...

Bir fasldan keyin Qori sulayib qolgach, bola-lar uning cho'ntagidagi pullarni olib qochdilar.

Qori yarasining qoni to'xtagandan keyin bi-ron soat yotib hushiga kelgach, o'rnidan turib devorga suyana-suyana uyiga ketdi...

Qori Ismat uchun soch oldirish haqini ozroq berishga bahona bo'lgan boshidagi tiksiz dog' – mana shu qimorboz bolalar majlisidan uning

umrining oxirigacha qolgan bir yodgorlik edi.

Lekin Qori Ishkamba tarjimayi holining shu nuqtasini o'zidan so'rab, tas'hih va tasdiq qil-dirganimdan keyin unga:

— Sizning boshingizda u majlisdan shunday dog' qolganiday o'sha kecha cho'tal pul qo'lningizdan ketgani sababli yuragingizda ham tuzalmas dog' qolgandir! — deb savol bergen edim, u mening savolimga:

— Yo'q! Yuragimdag'i dog' allaqachonlar tuzaldi, qo'ldan ketgan pullar sartaroshdan boshimdag'i dog' uchun saqlab qolganim soch oldirish pulidan «bolalari» bilan undi, — degan edi.

* * *

Qori Ismat cho'tal pulidan va qimor majlisining hissasidan mahrum bo'lganidan keyin butun himmatini ko'cha sudxo'rlikiga, Qur'on sotishga, qarzdorlarning va hujrada turadi-ganlarning oshlarini yeyishga sarf qiladigan bo'ldi.

U biroz ulg'ayib, puli ham ko'paygandan keyin puli ba'zan kuyadigan mayda sudxo'rlikni tashlab, savdogarlar va katta do'kondorlar bilan oldi-berdi qilishga kirishdi.

Katta savdogarlarda uning puli go'yoki sira kuymagan, unday odamlar sinadigan bolganlarida ham boshqa qarzdorlardan yashirin «yana biron kun Qori bizga kerak bo'ladi» deb, uning pulini batamom to'laganlar va undan keyin singanliklarini e'lon qilib, boshqa bolgan

qarzlarini qo'llaridagi narsalarning rasamadiga qarab, so'miga o'n tiyindan yoki yigirma tiyindan berar edilar.

Qori Ismat yoshligida singan ikki katta boyda puli kuydi, lekin u biron narsa xarajat qilmay, to'y bermay, ularning qizlarini xotin qilib oldi va u xotinlarni o'sha kuygan pul badaliga kelgan, deb o'zini yupatar edi. Uning «xush baxtligidan» u xotinlar chevar, hunarmand chiqib, Qori Ismat ularning o'ylariga bir pul xarj qilmaganidek, ularning kiyim va ovqatlariga ham biron pul xarj qilmasdi. Ular do'ppi tikib, o'z tirikchiliklarini o'tkazar edilar.

XIV



Men Qori Ishkamba bilan endigma tanisha boshlaganimda «uning yetmish besh ming tilлага baravar keladigan besh yuz ming Buxoro tangasi bor», deb edilar.

U vaqtarda qarzga pul oladigan savdogarlar dan ortib qolgan pulini banklarga qo'yardi.

Bir hodisa yuz berib, shundan keyin uning banklarga ishonchi yo'qola yozdi.

Buxoroda kontora ochgan banklardan biri Russko-Kitayskiy (Aziatskiy) bank edi. Ishkamba ham o'z pulini o'sha bankka qo'yardi. Bu bankning binosi quyi bazzozlik atalib, Buxoro passajining¹ janub tomonidan o'tadigan rastadan passajga chiqadigan zinaning ro'parasida-

¹ Tomli rasta. Usti yopilgan, ichida bazzozlik, rezavorfuru sh do'konlari bo'lgan bozor.

gi tor ko'chada edi. Bu tor ko'cha yangligi rastadan boshlanib, «Sarrofon» hammomining oldidan o'tib, bir necha egri-bugri tor ko'chalarga bolinib, yahudiylar mahallasi «Pushtizsig'on» atalgan xilvat bir mahalla bilan shaharning «Sallohxona» darvozasidan chiqib ketardi.

Bir kun bankning ichidagi butun muomalachilar chiqib, rasta tomonidan o'n-o'n ikki yevropacha kiyimlar kiygan noma'lum odamlar kelib, devorga orqalarini berib bankning oldida qator turdilar.

Ulardan qator boshidagi odam bankning ichkarisiga kirmoqchi bo'ldi. Soqchi bir necha bor «bank yopiq», deb xabar bersa ham u o'zini eshitmaganlikka solib yana eshikni itara boshladи.

Soqchi bu «kar» odamning qilig'idan zerikib, eshikning bir tavaqasini yarim ochib, unga:

— Soat ikki bo'ldi, bank allaqachon yopildi, — dedi.

Noma'lum odam soqchi so'zi tugashini kutmay, yana eshitmaganday bo'lib, yarim eshikni ochib kirib, bir qo'li bilan soqchining miltig'ini tutdi, ikkinchi qo'li bilan uning ko'kragiga to'pponcha tirab:

— Jim tur, ovozingni chiqarma! — degan buyruq berdi.

Bu buyruq bilan soqchi jim bo'lib, noma'lum odamning kirishiga yo'l bergenidan, haligacha devorga soya berib turgan boshqa noma'lum odamlar ham birinchi noma'lum odamning orqasidan bosib kirdilar.

Noma'lum odamlar bankning eshigini ichkari-dan yopib, soqchini yerga yotqizib, uning oyog'ini mahkam bog'lab, og'ziga latta tiqdilar. Ulardan biri soqchining kiyimini kiyib, miltig'ini qo'liga tutib, uning o'rnila qorovul bo'lib turdi va bosh-qalari to'pponchalarini yalang'ochlab bankning amaliyotxonasiga kirib, u yerdagi xodimlarga:

– Ovozingizni chiqarmay, qo'llaringizni ko'taringlar! – degan buyruq berdilar.

Xodimlar ixtiyorsiz qo'llarini ko'tarib jim turdilar, ba'zi birlarida qo'l ko'tarishga ham mador qolmay, qotib qoldilar.

Noma'lum odamlar bank xodimlarini bir burchakka to'plab, ko'z va og'izlarini, oyoqlarini bog'lagandan keyin yotqizib, ularning ustlariga o'zlaridan bir nechta kishi qorovul qo'yib, qolganlari ishga kirishdilar. Telefon simlarini uzzilar, kassirlardan sandiqlarning kalitlarini olib, ular ichidagi naqd pul va boshqa qimmatli narsalarni oldilar va bankning pul soladigan qopchalari joyladilar va bu qopchalarni bo'z qopchiqqa tiqib ko'tardilar.

Noma'lum odamlar bank xodimlarining ustiga ikki qurolli kishining qopqonga qo'yganlari dan keyin qopchalarni ko'tarib eshik oldiga keldilar. U yerdagi soqchi o'rnila qorovul turgan noma'lum kishi eshikni ochib, o'z yo'ldoshlarini uzatdi, o'tkinchilarni shubhaga solmaslik uchun «qorovul» qo'lda yarog'i bilan o'g'rilarini oldiga solib keta berdi.

Biron soatdan keyin yuqori va quyidagi «qorovullar» bankning eshigini o'z qulfi bilan

gi tor ko'chada edi. Bu tor ko'cha yangligi rastadan boshlanib, «Sarrofon» hammomining oldidan o'tib, bir necha egri-bugri tor ko'chalarga bo'linib, yahudiylar mahallasi «Pushtizsig'on», atalgan xilvat bir mahalla bilan shaharning «Sallohxona» darvozasidan chiqib ketardi.

Bir kun bankning ichidagi butun muomalachilar chiqib, rasta tomonidan o'n-o'n ikki yevropacha kiyimlar kiygan noma'lum odamlar kelib, devorga orqalarini berib bankning oldida qator turdilar.

Ulardan qator boshidagi odam bankning ichkarisiga kirmoqchi bo'ldi. Soqchi bir necha bor «bank yopiq», deb xabar bersa ham u o'zini eshitmaganlikka solib yana eshikni itara boshladи.

Soqchi bu «kar» odamning qilig'idan zerikib, eshikning bir tavaqasini yarim ochib, unga:

— Soat ikki bo'ldi, bank allaqachon yopildi, — dedi.

Noma'lum odam soqchi so'zi tugashini kutmay, yana eshitmaganday bo'lib, yarim eshikni ochib kirib, bir qo'li bilan soqchining miltig'ini tutdi, ikkinchi qo'li bilan uning ko'kragiga to'pponcha tirab:

— Jim tur, ovozingni chiqarma! — degan buyruq berdi.

Bu buyruq bilan soqchi jim bo'lib, noma'lum odamning kirishiga yo'l bergenidan, haligacha devorga soya berib turgan boshqa noma'lum odamlar ham birinchi noma'lum odamning orqasidan bosib kirdilar.

Noma'lum odamlar bankning eshigini ichkardan yopib, soqchini yerga yotqizib, uning oyog'ini mahkam bog'lab, og'ziga latta tiqdilar. Ulardan biri soqchining kiyimini kiyib, miltig'ini qo'liga tutib, uning o'mnida qorovul bo'lib turdi va bosh-qalari to'pponchalarini yalang'ochlab bankning amaliyotxonasiga kirib, u yerdagi xodimlarga:

– Ovozingizni chiqarmay, qo'llaringizni ko'taringlar! – degan buyruq berdilar.

Xodimlar ixtiyorsiz qo'llarini ko'tarib jim turdilar, ba'zi birlarida qo'l ko'tarishga ham mador qolmay, qotib qoldilar.

Noma'lum odamlar bank xodimlarini bir burchakka to'plab, ko'z va og'izlarini, oyoqlarini bog'lagandan keyin yotqizib, ularning ustlariga o'zlaridan bir nechta kishi qorovul qo'yib, qolganlari ishga kirishdilar. Telefon simlarini uzdilar, kassirlardan sandiqlarning kalitlarini olib, ular ichidagi naqd pul va boshqa qimmatli narsalarni oldilar va bankning pul soladigan qopchalariga joyladilar va bu qopchalarni bo'z qopchiqqa tiqib ko'tardilar.

Noma'lum odamlar bank xodimlarining ustiga ikki qurolli kishining qopqonga qo'yganlardan keyin qopchalarni ko'tarib eshik oldiga keldilar. U yerdagi soqchi o'mnida qorovul turgan noma'lum kishi eshikni ochib, o'z yo'ldoshlarini uzatdi, o'tkinchilarni shubhaga solmaslik uchun «qorovul» qo'lda yarog'i bilan o'g'rilarni oldiga solib keta berdi.

Biron soatdan keyin yuqori va quyidagi «qorovullar» bankning eshigini o'z qulfi bilan

tashqaridan qulflab, tor ko'chalarga tushib ketdilar.

Bank xodimlari «qorovullar» bankdan chiqib ketgandan bir muddat yana jim yotgandan keyin o'zlarini yechishga urinib, avval birov-i tishi bilan o'zi bog'langan ipni chaynab so'ngra bir-birlarini yechib, derazadan turib: «O'g'ri bosdi, tutinglar!»... – deb baqira boshladilar...

Ikki daqiqada bank tevaragi odam bilan to'ldi, bu orada qozi kalon va qushbegining odamlari, mirshabning o'zi butun dastasi bilan yetib keldi. Mirshab chilangar usta bank eshigining qulfini sindirib ichkariga kirkach, bank xodimlaridan o'g'rilarning nishonlarini so'rab olgach, keyin ularni tutmoq uchun har tomonni qidirib ko'rgan bo'lsa ham, o'g'rilardan biron darak topolmadilar, lekin ular o'zlariga va mirshabga yangidan dartmand manbayi tayyor qilmoqchi bo'lib, ko'pgina bechora kishilarni «shubhali odam» deb mirshabxonaga qamadilar.

Qushbegi shahar tashqarisini qidirib, o'g'rilarni tutmoq uchun amirning «Kavkaz» deb atalgan bir dasta otliq askarini yubordi. Bu askarlar to'dachalarga bo'linib, har tomonga otchoptirib, miltiq ota berdilar.

Bulardan bir to'dasi shaharning shimali-sharqida – shahardan o'n olti kilometr keladigan Sho'rko'l degan ko'lning bo'yida bankning pul soladigan qopchalarini bo'sh holda topdilar. Uning alomatidan o'g'rilarning o'sha tomonga ketganlarini gumon qilib, askarlarning asosiy

qismi o'sha tomonga yo'nalgan bo'lsa ham biron o'g'rini uchrata olmadi.

Faqat askarlarining kichkina bir to'dasi shaharning janubida «Murg'ak» stansiyasiga yaqin bir yerda shubhali notanish uch kishiga duch kelib, ularni tutmoqchi bolganda, ular askalarga qarab miltiq va to'pponchadan o'q ota boshladilar, bir necha daqiqalik otishuv natijasida askarlardan biri o'lib, qolganlari u shubhali odamlarni qo'nga kirgizishdan voz kechib, qaytib ketdilar.

Qisqasi, ikki kunlik yelib-yugurish natijasida o'g'rildan biron kishi ham tutilmadi, ularning kim ekanliklarini ham biron odam bilmadi.

Bu hodisadan keyin Buxoro shahridagi bank kontoralari markaziy va asosiy klassalar Kogonga ko'chirdilar, kundalik muomalalari uchun kerak boladigan mablag'ni har kun erta Kogondan Buxoroga kazaklar soqchiligi ostida keltiradigan va ish vaqtini tugagandan so'ng kontorada qolgan va to'plangan pulni yana Kogonga olib boradigan boldilar.

Shu hodisadan keyin Qori Ishkambani «endi puling kuydi», deb qo'rqindlari va uning o'zi ham pulining unishiga uncha umid qilmasdi, shuning uchun uning avzoyi buzilib, aqldan ozayozgan edi. Ammo oradan ikki-uch kun o'tib, bank yangidan ochilib, ish boshlaganida Ishkambaning talabi bilan darrov uning pulini qaytardi va foizlarini ham to'ladi. Bu bilan u yana bankka ishonib va o'sha soatning o'zida yoq pulini yana topshirdi. Undan keyin qo'lli-

ga tushgan pullarini tezlik bilan eltib bankka topshiradigan bo'ldi.

Ammo bankda ish tugagandan keyin yoki kechalari qo'liga pul tushsa va pullarni oladigan xususiy talabgorlar bo'lmasa, u tashvishda qolar edi: bir tomondan, u pul bankning kontorasi ochilguncha bekor yotadi, ikkinchi tomondan, pulni o'g'irlatish xavfli. O'g'rilardan qo'rqib, u pulni o'z uyiga eltib qo'yolmasdi, uni shunday bir joyga qo'yishi kerak ediki, uni o'zidan boshqa biron kishi bilmasin.

Qori Ishkambanining «fazilatlari»dan biri shu ediki, u har kimdan shubha qilardi, o'ylovicha, hamma odamlar uning orqasidan poylab yuradilar va fursat topib go'yo pullarini o'marib ketmoq fikrida, shuning uchun u hech kimdan xotirjam emas, hech kimga ishonmas edi.

Uning ko'ngli yolg'iz hikoyamizda bir marta zikr etilib o'tgan «Kavkaz» saroy saroybonidanga xotirjam edi.

Bir kuni «Kavkaz»ning saroyboni darvoza ichkarisidagi supachada o'tirar ekan, Ishkamba oldidan o'tdi.

Uning ahvoldidan yaxshigina xabardor bo'lgan saroybon qiziqchilik qilib cho'ntagidan o'n tiyinlik tanga chiqarib, yo'lakka tashladi va o'tib ketgan Qori Ishkambani chaqirib:

– Amaki, yo'lakda bir tanga ko'rindi, sizdan tushgan bo'lmasin, – dedi.

Qori Ishkamba seskanib yolidan qaytdi va qo'lini yon cho'ntagiga tiqib:

– Voy, sho'rim qursin, cho'ntagim teshilgan ekan, undan tangalar tushib ketibdi, – dedi va

saroybonga yaqinlashdi-da, – qani, qani o'sha sen ko'rgan tanga? – deb so'radi undan.

Saroybon o'zi tashlagan tangani ko'rsatdi. Qori Ishkamba yo'qolgan biron muhim narsasi ni topgan odamdek yugurib borib saroybon ko'rsatgan tangani yerdan ola solib, shoshilgancha tangani teshilgan deb ko'rsatgan haligi cho'ntagiga solib, saroybonga minnatdorchilik bildira ketdi:

– Ilohi baraka topgaysan, uka! Sening sharofating bilan yo'qolgan bir tangam topildi, agar sening o'rningda boshqa biron kishi bo'l saydi, menga xabar bermayin u tangani olib cho'ntagiga solardi. Shu zamonda ham odamning haqidan parhez qiladigan kishi topilar ekan. Ilohi biring o'n, o'ning yuz, yuzing ming bo'lgay!

Shu voqeadan keyin saroybonga Qori Ishkambanining e'tiqodi oshib, kechqurunlari biron joydan pul olib keltirmoqchi bo'lganida u saroybonni o'zi bilan birga olib boradigan bo'ldi. Shu bahonada saroybon ham uning pul yashirib qo'yadigan joyini bilib oldi.

* * *

Qori Ishkamba «Kavkaz» saroyboniga e'timodi oshganidan bir necha yil o'tgandan keyin bir hodisa yuz berdiki, uning u saroybon haqidagi ishonchi kul bo'lib ko'kka sovurildi.

Bir kun men Buxoroning «Sesuv» degan usti yopiq rastasidan o'tib borardim. Rasta orqa-

li «Kavkaz» saroyi tomiga tutashib ketgan bir saroychaning darvozasi oldida bir talay odamlar to‘planib turganini ko‘rdim.

«Nima gap ekan» deb yig‘in orasidan o‘tib, saroycha darvozasiga yaqinlashdim: u saroy saroyboni, qo‘lida bir tayoq tutib turib odamlarni saroychaga kirgizmasdi. Saroychaning mirshabning odamlari daha boshi, qozi kalon va qushbegining bozorlarda yurgan tergovchilari ko‘rinardilar. Ular bir-birlari bilan qizg‘in-qizg‘in gaplashmoqda edilar. Orada Qori Ishkamba bo‘lib, u erining o‘ligi ustida yig‘layotgan xotinday har tomonga tashlanib, «uyim kuydi, uyim kuydi, voy uyginam kuydi-i-i!..» deb baqirib yig‘lamoqda edi.

Surishtirib ko‘rsam, o‘sha kecha Qori Ishkambaning o‘sha saroychadagi hujrasining tagidan teshib, sandig‘ini sindirib, yashirib qo‘ygan pullarini olib ketganlar.

Qori Ishkambaning aytishicha, o‘sha kecha u yerda har o‘n donasi yetti misqol keladigan kumushdan Buxoroyi sharifda zarb qilingan o‘n ming tangani yashirib qo‘ygan ekan. Ammo mablag‘ Peterburgda zarb qilingan imperator oltini bilan hisob qilinsa, bir ming besh yuz so‘m oltinga baravar kelar ekan.

Mirshab odamlari bilan tergovchilar te-shilgan joydan iz olib borganlarida, iz «Yusuf» saroyining tomigacha borib, u yerdagi saroy ichidan tomga chiqadigan zinapoya boshida yo‘qolgan, tekshirganlarida ma‘lum bo‘lganki, u zinapoyaning eshigi doimiy qulf bo‘lib, kaliti saroybonda turar ekan.

Bu dalillar bilan mirshab odamlari, tergovchilar va tomoshabinlar «bu hodisadan «Kavkaz» saroybonining xabari bor, uning o'zi bu ishni qilgan bo'lmasa ham qiladigalarni uyushtrib, boshchilik qilgan» deb hukm qildilar.

Qori Ishkamba mirshab odamlari va tergovchilar topgan dalilga yana bir dalil qo'shib aytar edi:

– Bu hujrada mening pul qo'yishimni «Kavkaz» saroybonidan boshqa odam bilmas edi. Ayniqsa, shu kecha o'n ming tangani men unga ko'tartirib, u bilan birga keltirib yashirgan edim.

Birinchi tekshirish bitgandan keyin Qori Ishkamba sochlarini yulib, yuzlarini tirnab, dod deb borib qozi kalon, qushbegi va mirshabdan mulozim, yasovul va navkarlar olib, «Kavkaz» saroybonining boshiga keltirdi va uni mahkamaga sudramoqchi bo'ldi.

Saroybon hech bir qonunni buzmay kulimsirab turib, hukumat odamlarini saroyda joylashgan «Kavkazskiy merkuriy» shirkatining direktori oldiga olib bordi.

Direktor hukumat odamlarining so'zlarini eshitgandan keyin ularga aytdi:

– Birinchidan shuki, mening saroybonim o'g'ri emas, shuning uchun men bu saroyni shuncha mol bilan uning qo'liga topshirib qo'yganman, ikkinchidan, mening saroybonim Rusiya ta Buxoro hukumatining bir rus tabaasini mahkamaga tortishga haqi yo'q. Sizlar borib qozi kalon va qushbegi janoblariga mendan sa-

lom. aytib, u janoblarga men aytgan gapni tu-shuntiringlar...

Saroybon Buxoroning yerlik xalqidan edi. Bu hodisa ustida ma'lum bo'ldiki, Buxoroning ba'zi bir yerlik xalqidan shunday hodisalarda o'zini himoya qildirish uchun tabaasi bo'lib ol-gan ekan.

Qori Ishkambaning o'n ming tangasi «Kavkaz-skiy merkuriy» derektorining bir «pufi» bilan ko'kka sovurilib ketgandan keyin u ko'chalarda «voy-voy»lab yurar, duch kelgan odamni yo'ldan to'xtatib, yuzinchi marta bo'lsa ham bu hodisani unga hikoya qilar va saroybon, qozi kalon, qushbegi va direktorni qarg'ar, eng oxi-rida o'zini «nega u saroybonga ishondim, nega o'zimga sirdosh qildim», deb so'kardi. «Odam degan pul to'g'risida yotlargagina emas, o'ziga ham ishonmasligi kerak», der edi va «bundan buyon o'zimga ham ishonmayman», deb o'ziga o'zi so'z berardi.

Uning bunday so'zlarini eshitib turgan ba'zi bir kishilar:

- O'g'rini qaroqchi urgan ekan, zarari yo'q! - deb o'rtangan yuragiga tuz sepi b ketardi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay Qori Ishkambaning boshiga yana bir qora kun tushdi, shu saroybon tomonidan yegan zarbaning alamini unutdi.

Buxoroning «Xo'jayevlar» oilasidan bo'lgan bir katta savdogarining o'z xo'jayinidan to'la vakolat bo'lgan mirza Abdulla degan kassiri bor edi. Shu mirza Abdulla qora savdogarlar pulga juda muhtoj bo'lgan bir paytda, ya'ni

qorako'l terisi mavsumida Ishkambani chalqirib, xo'jayinining nomidan o'n besh ming so'm so'radi. Bu mablag'ni ikki oy ishlatib, oyda ikki ming tangadan – ikki oy uchun to'rt ming tanga foyda va'da qilib, mablag'ning o'zi va foydasi uchun ikki oylik muddatli veksel bermoqchi bo'ldi.

Qori Ishkamba bu taklifni eshitib, quvonganidan terisiga sig'maydigan darajada xursand bo'lib ketdi. Tezroq pulni keltirib, bu muomalani amalgalmoq uchun bankka qarab yugurdi, duch kelgan odamlarga qaramadi, ularning salomlariga javob ham qaytarmadi.

Do'kondorlar oldidagi tayyor non-choylarga ham ko'z tashlamadi. Quvonchdan ko'kragi torayib, nafasi qisilgan bo'lsa ham, yugurganicha bankka bordi, u yerdan pulni olib, yana avvalgi tezligi bilan qaytib, mirzaning oldiga keldi va unga nafasi qisila-qisila:

– Pu-pu-pulni sa-sa-sanab o-o-oling, ve-ve-vek-s-selni, yo-yo-yozib bering! – dedi.

Qori Ishkamba bu daraja quvonch va shoshilishga haqli edi. Chunki u bu mablag' uchun besh tangadan ikki oyda oladigan foizini bankdan bir yilda olardi, Mirza Abdulla u pulni ko'rsa to'qson olti ming tanga ekan.

– Bu kam-ku, – dedi.

– Nega? Ikki oylik foydasi bilan yuz ming tanga bo'ladi-da, siz rosa yuz ming tanga besh ming so'mlik veksel bersangiz ish tamom.

– Yo'-o'-o'-q! – dedi mirza Abdulla cho'zib, – siz meni alday olmaysiz. Men sizga yuz tanga

uchun oyda ikki ming tanga foyda va'da qildim, shuning uchun ikki oylik foiz qo'shib, bir yuz to'rt ming tangalik muddatli veksel tayyorlab qo'ydim. – Mirza o'z so'zini isbot qilmoq uchun tayyorlangan veksellarni ko'rsatib, yana davom qildi: – Ammo siz to'qson olti ming tanga uchun oyda ikki ming tanga foyda olmoqchi bo'lsangiz – bu o'yiningiz menga o'tmaydi, siz bunday o'yinni pulga muhtoj bo'lgan biron kambag'alga qiling. Agar men qilgan taklifga rozi bo'lmasangiz pulingizni olib boring, agar rozi bo'lsangiz to'rt ming tanga beringda va vekselni oling!

Qori Ishkamba bu taklifga rozigma emas, balki bunga jondan tolib edi. Shuning uchun avvalgi tezligidan ham tezroq borib, to'rt ming tanga keltirdi va uni ham mirzaning stoliga qo'yib:

- Ana buni ham sanab oling, vekselni bering!
- dedi.

Mirza taajjub bilan Qoriga qarab turib:

- Bu qanday pul, siz qanday veksel talab qilayotirsiz, men tushunmadim-ku, – dedi.
- Hazil qilmang! Hozir qiziqchilik vaqtি emas. Yugurganimdan nafasim og'zimga tiqilib o'la-yozdim, bir choy buyuringki, ichib nafasimni rostlay.

– Hozir ishim ko'p, choy buyurish, choy ichish va sizni laqillatish uchun fursatim yo'q, boring, keting, Qori amaki.

- Unday bo'lsa, vekselimni bering, men ketay.

– Qanday veksel? Bu pulingizni oling, menning xo'jayinim uchun bugun pul kerak emas. Bugun men qarzga pul ham olmayman, veksel ham bermayman.

– Xo'p, unday bo'lsa haligi to'qson olti ming tangani bering, men uni olib borib bank yopilmasdan burun topshiray.

– Qanday to'qson olti ming tanga? Tush ko'rayotirsizmi yoki jinni-minni bo'ldingizmi!

– Axir haligina to'qson olti ming tangani sanab olmadingizmi va «yana to'rt ming keltiring, yuz to'rt ming tangalik veksel beraman», demadingizmi?

– Hazil qilmang, Qori amaki, vaqtim yo'q deyapman-ku. Boring, keting, men o'z ishimni qilay.

– O'zingiz hazil qilayotirsiz. Lekin bu ishingiz hazil ham bo'lsa, yuragimni yorayozdi, tezroq vekselni bering yoki pulimni qaytaring!

– Yetar shu qadar jinnilik, Qori! Tezroq chiqib keting, mening zarur ishim bor. Jinnilarning joyi savdoxonalarda emas, Xosha O'boniy¹ eshonning uyida, – deb o'rnidan turdi va Qori Ishkambani eshik tomonga itardi.

Qori Ishkamba «voy, uyim kuydi», deb dod deganicha o'yinchog'i tortib olingan bolalarday ho'ngrab yig'lay boshladi.

Mirza o'z xizmatchilarini chaqirib, ularga:

– Bu jinnini chiqarib haydanglar! – deb buyurdi.

¹ Buxoroda jinnilarni o'qiydigan eshonning laqabi.

Xizmatchilar Qori Ishkambani chiqarmoqchi bolganda u ovozining boricha dodlab, yerga ag'anab:

— Mening jonim shu yerda, men qanday keta-man? Jonsiz jasad yura oladimi?.. — deya shov-qin-suron soldi.

Xizmatchilar «haqiqatan bu bechora jinni bo'lgan ekan», deb o'likni sudraganday uning oyog'idan tutib sudrab mirza o'tirgan kontoradangina emas, saroyning darvozasidan ham chiqarib, ko'chaga haydagach, saroybonga:

— Bundan buyon uni saroya kirishga qo'y-ma! — dedilar.

Qori Ishkamba egasi uyidan quvib, yuziga eshikni yopgan itday, qayta-qayta saroya kirmoqchi bo'lib eshikka tarmashib dod-faryod solgan bolsa ham har doim saroybon uni mu-shukni otganday qilib irg'itib tashlardi.

Qori Ishkamba saroya qayta kira olishdan umidini uzgandan keyin sallasini bo'yniga soldi.

— Voy dod-ey! Bu qanday zulm? Musulmonlik shu tun yo'qolgan ekan-ey-y-y! — deya amir arkiga, o'rdaga qarab yugurdi. Uni bu holda ko'rganlar jinni bo'lganiga hech shubha qilmasdilar. U orqasidan ko'p tomoshabinlar ergashtirib ark darvozasiga yetdi.

Bu voqeal yuz bergen vaqtida amir Rusiada bo'lib ark darvozaxonasida qozi kalon bilan qushbegi baqamti o'tirib, shahar va mamlakatni idora qilar edilar. Qori Ishkamba ularning oldiga borib, o'zini yerga tashlab, ularga voqe-

ni hikoya qildi, mirza Abdullaga jazo tariqasi-da undan to'qson olti ming tangani undirib berishlarini so'radi.

- Mening bolam va boshqa merosxo'rlarim yo'q, faqat ikki xotinim borki, agar ular men o'lguncha tirik qolsalar mol-u mulkimdan to'rt-dan bir meros oladilar, qolgan narsalarimning hammasi janobi oliylarniki bo'ladi. Hatto agar sizlar munosib ko'rsangizlar xotinlarimni ham darhol taloq qilaman. U holda o'lgandan keyin mol-mulkimning hammasi janobi oliyniki bo'la-di. Shariat hokimlari va janobi oliyning noiblari bo'lgan siz janoblar mana shu hollarni nazarga olib, mening pulimni janobi oliyning o'z pullari hisoblab, mirzadan undirib berib, mening duoyimni olinglar!

Ammo hokimlar Qori Ishkambani bu hol-da ko'rib, uning bunday arzi dodiga kulibgina qo'ydilar. Mirza Abdulla xo'jayinining obro'si amir hukumati oldida Ishkambaning obro'si-dan necha marta ortiq bo'lgani sababli, uning iltimosiga quloq solinmadi.

- Sizning janjalingiz biz so'raydigan oddiy jan-jallardan emas, sizning karvonboshilaringiz bor, oqsoqollarigiz bor va har bir oldi-berdilaringizni ularning huzurlarida veksel bilan qilasizlar. Siz veksel ko'rsatmay, karvonboshi bilan oq-soqol guvohlik bermay turib, biz nega bir obro'li odamni bosh og'tig'i qilamiz, - dedilar, xolos.

Qori Ishkamba yana shovqin solib, jinnilik qilganda uni yasovullar urib-urib ark darvoza-sidan tushirib quvladilar.

Undan keyin Qori Ishkamba butunlay jinni-lashdi. U ko'chalarda yugurib dod solar, bo'l-sa-bo'lmasa o'ziga duch kelgan odamni to'xta-tib, boshidan o'tgan bu voqeani unga hikoya qilar va undan maslahat so'rardi. Ba'zi hazil-vandroq eshituvchilar uni yupatgan bo'lib:

— «Iflos suv botqoqda yaxshi»¹, deganlar, asli-da sizning pulingiz murdor edi, bir murdor joy-ga ketgan ekan, xafa bo'lmanq, — der edilar.

Qori Ishkamba bunday «yupatish» eshitgan-da bir alami o'n bo'lar, jarohatli badani sepil-ganday dod der, unday «yupatuvchi»ni so'kar va boshqa rahmdilroq biron odam bilan dard-lashuv uchun yana yugurardi. Tomoshabinlar undan kulardilar.

O'sha mahalda Qori Ishkamba bir kuni yolda menga duch keldi va yo'limni to'sib, bo-shiga tushgan musibatni menga hikoya qilib berib, mendan maslahat so'radi. Men uning sarguzashti, jumladan, qozi kalon va qushbe-giga borib arz qilganini, ularning qanday mulk bo'lganlarini ipidan ignasigacha bilib olgan bo'lsam ham o'zimni bilmaslikka solib dard-alamini oxirigacha eshitib, ahvoliga afsuslanib, maslahat tariqasida dedim:

— Bunday katta voqeа va «og'ir musibat» to'g'risida menday kichkina odam qanday maslahat bera oladi, siz borib hokimlardan — katta-lardan maslahat va yordam so'rang!

¹ «Obi ganda ba xandaq» degan tojikcha maqolga o'xshatma.

– Ilohi, kattalarning uyi kuysin, kattalarning bolalari o'lsin, kattalar bir burda nonga zor bo'lsinlar! – deb kattalarni so'kib-qarg'ab, qozi kalon bilan qushbegining o'ziga qilgan muomalalarini yana bir bor aytib berdi.

Shu vaqtda Qori Ishkambanining bu holatidan Bibi Dahboshi degan bir jinni xotinning voqeasi esimga tushdi... Registon va Kappon tomonlarga o'tib ketadigan kattagina ko'cha bor, bu ko'chaning shimolida «Shahar Ro'd» bo'lib, uning shimolida Masjidi Xoja jomesi bor. Mana shu jome bilan «Ro'd» orasida bu uning ustidan «misqoliy» deb atalgan qimmatbaho yo'lak bor ediki, amir zamonida unda tilanchilar yurар edilar.

Shu tilanchilar va mayiblar orasida «Bibi Dahboshi» laqabli bir jinni xotin paydo bo'ldi. Bolalar har bir jinniga o'chakishganlariday, Bibi Dahboshiga ham o'chakishib qolgan edilar.

Kunlardan bir kun men haligi jomening g'arbiy-janubiy burchagiga yaqin yerda ustidagi tosh ko'prikda oftobda isinib o'tirardim. Bolalar Bibi Dahboshi tevaragiga to'plandilar. Uning boshidagi ro'molni olib suvga otdilar, paranjisini olib qochdilar. Bolalar hujumi joniga tekkan Bibi Dahboshi bu kattalarni ko'rgach, arz-dodga kirib ularga yalinib-yolvorib dedi:

– Boshlaringizdan o'rgilay, kattalar, bolarlaringizni olinglar, shu shumtakalar qo'lidan qutqaringlar, kattalar!

Sho'rlik Bibi Dahbosh jim turmasdan bolarlarni qarg'ardi, etagini tosh-kesaklar bilan to'l-

dirib ularni urmoqchi bo'lib quvardi, to'g'ri kelganini tutib olib urardilar.

Bolalar ko'paydilar. Bosh yalang, oyoq yalang Bibi Dahboshi ularning orasida qamalda, u bir necha bolani tosh va kesak bilan urmoqchi bo'lib quvsqa, boshqa bir necha bola orqasidan yetib kelib, kiyimidan tutib tortardi, u yiqilardi va o'rnidan turib, yana hujumga o'tardi.

Bu jinnining, ayniqsa, u xotin bo'ssa arz-dodini eshitishgina emas, hatto ularga qayrilib qarashni ham kattalar shafqat va hashamatlariga kelishmasdilar. Shuning uchun jinni xotinning nolishini eshitmaganday bo'lib, avvalgiday viqor bilan gaplasha-gaplasha sekin-sekin qadam bosib o'tib ketaverdilar.

Kattalarning gapga qulq solmaganlari, hatto o'z tomoniga qiyo boqmaganlari uchun Bibi Dahboshi bolalar o'rniغا kattalarni qarg'ay boshladи:

- Ilahi pul va molingiz o'g'rilarga, qaroqchilarga nasib bo'lsin, kattalar.

Bibi Dahboshining o'shancha yalinib-yolvorishlariga qulq solmagan va uning arz-dodini eshitmaganday bo'lgan kattalar uning bu qadar qarg'ashlarini ham eshitmaganday bo'la olmasdilar. Chunki ular o'zlarini eshitmaganlikka solsalar ham boshqa o'tkinchilar eshitayotirlar va ko'rayotirlarki, bu jinni xotin shaharning kattalarini qanday masxara qilmoqda, shohi va ipakli choponlariga qaramasdan ularni tuproqqa bulg'ab, balchiqqa belamoqda.

Shuning ila baravar ular bir jinni xotingga nima qila olardilar? Qo'llaridan kelgan ish yolg'iz shugina bo'ldiki, kattalik va ulug'likni bir tomonga qo'yib, shohi astarli uzun keng ipakli choponlariga o'ralib olib, jinni quvgan bolalarday qocha boshlaydilar va jonlari boricha yugurdilarki, toki tezroq u ko'chadan uzoqlashsinlar, toki jinni xotin so'kayotganini odamlar ko'ra olmasinlar.

Lekin shu hodisadan keyin Bibi Dahboshi kattalarni so'kib-qarg'ashni o'ziga vazifa qilib oldi, Bibi Dahboshi o'lgunicha yolg'iz haligi kattalargina emas, shaharning boshqa kattalari ham bu ko'chadan o'ta olmaydigan bo'ldilar.

XV



Qori Ishkamba mirza Abdulladan yegan zarbidan bir necha oy o'tgandan keyin asliga qayta boshladi, endi ko'chalarda jinnilarcha qiyg'os solmasdi, endi har kimga duch kelsa, mo'tadil vaziyatda mirza Abdulla voqeasini unga hikoya qilib bergenidan keyin sovuqqonlik bilan der edi:

– Har nima bo'ssa ham o'tdi-ketdi. Odam bolasining boshiga har qanday og'ir musibat kelsa ham o'tadi.

U jinnilik holatini o'tkazgan edi, ammo badanining go'sht va yog'i avvalgi holatiga kelmadi; basharasi burishib ketgan, tusi ham kulga o'xshab oqchil bo'lgan va soqoli oqara boshlagan edi.

* * *

Birinchi Jahon urushi boshlandi, boshqa savdogarlar, hannotlar¹ va sudxo'rlar qatorida Qori Ishkambaning ishi ham o'ngidan keldi va pulining bozori qizib ketdi.

Savdogar, jallob va hannotlar bugun bir narsani sotib olsalar, ertasi kuni uni ikki bahosiga sotardilar, shuning uchun ular o'z sarmoyalardan keladigan foydadan qanoatlanmay, sudxo'rlar orqasidan yugurar va qancha foiz to'lab bolsa ham qarzga pul va u pul bilan bozorbop va kamchil narsalarni xarid qilib, omborga tiqardilar.

Bunday vaqtarda hannotlarning cho'ntak va ko'zlarini to'ldira oladigan serpul sudxo'r Qori Ishkamba edi. Albatta, u bunday oldi-berdidan o'zining cho'ntak va kassasini ham yaxshigina to'ldirardi.

Urushning ikkinchi yilida Qori Ishkambaning yuzi mirza Abdulla voqeasidan ilgarigiday qizardi, jussasi to'lishdi, qorni avvalgidan ham katta bo'lib ketdi, puli ikki milliondan oshdi, shunday bo'lsa ham u mirza Abdulla voqeasini hali ham unutmagandi, u kunda necha marta mirza Abdullani so'kar, qarg'ardi.

Urushning uchinchi yili bo'lgan 1916-yilda mehnatkashlar shu darajada talandiki, kundalik ovqat uchun bir burda qotgan non topishlari amri mahol bo'lib qoldi, buning muqobiliga hannotlar shu qadar serpul va sermol bo'lib ketdilarki, mollarini saqlash uchun joy va pul-

¹ Olib sotar, foydaxo'r.

lariga sotib olish uchun mol topolmasdilar. Moskvachi savdogarlar bo'lsa oltin va brilliantlar bilan o'ynardilar. Bunday sharoitda hannot va savdogarlar sudxo'rdan qarz olishga muhtoj bo'lmasdilar. Shuning uchun urushning uchinchi yillari Qori Ishkambaning bozori susaydi, u hamma pullarini banklarga qo'yishga va oz foizga qanoat qilishga majbur bo'ldi.

Ikki million puldan bank hisobida ham katta foiz unardi. Lekin bu Ishkambaning ko'zini to'ydira olmasdi, uning puli qancha ko'paygan bo'lsa, foydaga tikilgan ko'zi ham o'shancha kengaygandi, uning ko'ngli unday katta mablag' uchun ilgarigiday yilda yigirma besh-o'ttiz foiz foyda olishni tilardi, lekin bu unga muyassar bo'lmasdi, uning o'z so'zi bilan aytganda, «u kunlarni sel olib ketgan» edi.

Buning ustiga u 1916-yili o'zining yeydigan ovqatini ham tejay boshlagan edi. Chunki qarz olishga muhtoj bo'limgan boylar va hannotlar uni o'z dasturxonlari boshiga yo'latmasdilar. Uning pulini ishlatadigan banklar bo'lsa, kunda soat o'nda unga to'yanicha choy ichirar va boshqa narsa bermasdi.

Urushning uchinchi yilida u o'z hujrasida turadigan mullabachchalarning oshlariga, ba'zan to'g'ri keladigan to'ylar va xudoyilarga, mozor boshilarda uchraydigan chalpak-bo'g'ir-soqlarga «qanoat qilishga» majbur bo'lgandi. Shuning uchun u etidan tusha berdi, tusi ham biroz sarg'aydi. Oriqlaganining sababini so'raganlarida:

— Men avvallar har kecha-kunduzda necha bor qazi-qo'zi, kabob, palov, chalov, manti-chuchvaralar kabi ovqatlar yerdim. Endi u «mehmondo'st» xonadonlardan baraka uchdi; qo'y, qoramollar ham ovqatlari kamaysa oriqlaydilar, nima, men ulardan kammi? — der edi.

— Pulingiz ko'p, ancha qarib ham qoldingiz, nega o'z pulingizga o'z uyingizda ko'ngil tusay-digan laziz taomlar pishirtirib yemaysiz? — de-ganlarga, o'sha vaqtarda Buxoro shoirlaridan birining sudxo'rlar sha'niga aytgan bir baytini eslatib:

— Agar shisha toshni, atala tishni sindira olsaydi, sudxo'r ham o'z uyida, o'z puliga non sindira olardi, — deb javob berardi.

Keyin bankka minnatdorchilik bildirib ketardi:

— Xudo xayrini bersin, yaxshiyam bank bor ekan, kunda tushlik choy vaqtida yetib borsam u yerdagilar mendan choy bilan qandni aya-maydilar, stakanga istaganimcha qand solib, choy icha beraman. Qancha ko'p ichsam direk-torga malol kelmaydi, hatto uning, vaqtি chog' bo'lib kuladi...

* * *

Buxoro hazilmandlari ham Qori Ishkamban-ning o'z ta'biri, «o'rinsiz hazil»lar bilan uni ishdan chiqarayozdilar.

Bu hazilmandlar Qori Ishkambanining o'z pul-larini qaysi bankka qo'yganini eshitsalar, ular-dan biri jonkuyarlik vaziyatida oldiga kelib, qu-log'iga aytar edi:

– Qori amaki, eshitdingizmi, «Soyedinyonniy bank»ning ishi chappasiga ketibdi, uning mablag'i German askarlarining qo'liga tushgan, «erta-indin sinadi», deydilar. Harqalay o'z ishingizga ehtiyot bo'ling.

Qori Ishkamba bu xabarni eshitib, darrov «Soyedinyonniy bank»ka qarab yugurar, undan pulini olib, «Russo-Kitayskiy (Aziatskiy) bank»-ka topshirardi.

Albatta, Qori Ishkambaning o'z pulini «Soyedinyonniy bank»dan olib, «Russo-Kitayskiy bankka topshirgani hazilmandlardan maxfiy qolmasdi. Ulardan boshqa birisi yana Ishkambaning oldiga kelib, tunov kun yo'ldoshi «Soyedinyonniy bank» haqida aytgan gaplarni «Russo-Kitayskiy bank» haqida ham aytardi. Yana sho'ring qurg'ur Qori Ishkamba o'z pulini u bankdan olib, boshqa biron bankka topshirishga majbur bo'lardi.

Uning do'stlari: «Pulingizni podshohlik bankiga qo'ying, imperator davlati omon ekan, pulingiz ham omonda bo'ladi», deb maslahat bersalar ham unamasdi.

– Podshohlik banki boshqa banklarga qara-ganda foizni oz beradi, – der edi.

Kunda pul qo'yib ertasiga (ba'zi vaqt o'sha kunning o'zidayoq) qaytarib olishdan bank bezor bo'lib, uning pulini qabul qilmaydigan bo'dilar. Undan keyin u o'z pulini podsho bankiga topshirishga majbur bo'ldi.

Oradan ko'p vaqt o'tmayin podshohlik banki to'g'risida ham sinish (bankrot) ovozlarini

chiqara boshladilar, har vaqt gazetalarda imperator askarining mag'lubiyati xabari yozilsa, hazilmandlar u xabarlarni ikki-uch barobar oshirib, Qori Ishkambaga yetkazadi; podshohlik bankidan ko'z-quloq bo'lishga, mabodo sinib qolsa, uning qon yutib topgan pullari kuyib qolishi mumkin deb maslahat berardilar.

Ammo u qanday ehtiyot qila olardi, agar bank sinsa ham uning qanday iloji bor? Pulni bo'lsa o'g'rilar xavfidan uyga yo saroyga qo'yish mumkin emas.

Qori Ishkamba bora-bora hazilmandlarning hazilini, birni o'n qilib orttirib aytishliklarini sezdi. Ilgarilar gazeta o'qiladigan joylardan qochadigan bo'lsa ham endi to'g'ri xabarlarni bilib olish uchun gazetxonlardan urush xabarlarini so'raydigan bo'ldi.

Gazetxonlarning og'zaki aytib beradigan xabarlaridan ham shubhada qoldi. Shuning uchun gazetani birovga o'qittirib, eshitib, o'zi muhokama qiladigan bo'ldi.

Bora-bora gazetalarda mag'lubiyat xabarları shu qadar ko'paydiki, uning vahimaga tushishi uchun hazilmandlarning xabarlarni orttirib aytishlariga va hazillariga hech bir ehtiyoj qolmadi.

Qattiq vahimaga tushgan Qori Ishkamba o'z muhokamasi bilan hech narsa chiqara olmay, podshohlik bankining direktori oldiga borib, maslahat so'radi:

— Gazetalarda juda yomon xabarlar chiqayotir. Xudo ko'rsatmasin, agar imperator hazrat-

lariga yomon ko'z tegib qolsa, bank nima bo'la-di, biz nima qilamiz?

– Turkcha, tatarcha va umuman musulmoncha gazetalar, – dedi direktor, – imperator hazratlariga dushmandirilar, shuning uchun imperator askarlari to'g'risida yolg'on xabar bosib tarqatadilar, ruscha gazetalardan ham ba'zilari inqilobchilarning gazetalari bo'lib, ular ham ul «olijanob» haqlariga til tegizib yo-zadilar. Siz unaqa gazetalarning gapiga ishonmang! Har kun erta bilan mening oldimga keling. Men imperator hazratlariga sodiq bo'lgan gazetalarni o'qib, rost xabarlarni sizga aytib turaman.

– Inqilobchilar kim? – deb so'radi Qori Ishkamba o'ziga notanish odamlarga adovat ohan-gi bilan.

– Inqilobchilar podshoh kerakmas, pod-shohsiz hukumat quramiz, deb yurgan niyatli odamlar.

– Eh! – dedi Qori Ishkamba quti o'chib, – imperator bekor qilinsa mening pulim nima bo'ladi?

– Qo'rqmang! – dedi direktor yupatish ohan-gi bilan, – imperator hazratlariga hech narsa bo'lmaydi.

Qori Ishkamba direktorning keyingi so'zi bi-lan biroz tinchlangan bo'lsa ham bankning salomatligiga va bu vosita bilan o'z pulining salomat qolishiga sabab bo'lgan imperatorni be-kor qilish niyatida yurgan inqilobchilardan bir qo'rqinch his qilmoqqa boshladi.

Bu suhbatdan keyin Qori Ishkamba kunda tushlik choydan ilgariroq direktorning oldiga kirar, direktor «inobatli» gazetalarni o'qib unga eshittirar va rost xabarlarni tarjima qilib berar edi.

Qori Ishkamba bunday «xushxabarlar»ni eshitgach:

— Inshoollo, imperatori a'zam hazratlariga hech bir ziyon-zahmat yo'q. Dushmanlarning ko'zлari ko'r bo'ssin, tillari kesilsin, — deb bankning bufetiga o'tar, stakan sig'dira olganicha qand joylab, choy quyib ichar va tinch ko'n-gil bilan ko'chaga chiqib, direktordan eshitgan gaplarini birini o'n qilib odamlarga aytar edi.

* * *

Fevral inqilobi bo'ldi. Qori Ishkamba qo'rqa-digan hodisa bir haqiqat bo'lib, uning boshiga tushdi — podshoh taxtdan quvildi. U taajjub bilan o'zining imperatori haqida qilgan duolaringning beasar qolganini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Podshohning taxtdan ag'darilganini endi bankning direktori ham inkor qilmasdi. Lekin u endi Qori Ishkambani yupatib turmasdi:

— Imperatori a'zam hazratlari bekor bo'lgan bo'salar ham zarari yo'q. Hukumat boshida o'tirgan odamlarning hammalari bizning banklarning kattalaridir. Ular bankning sinishiga va siz kabi bankirlarning sodiq kishilari bo'lgan odamlarning pullari kuyishiga yo'l qo'y-maydilar. Ajab emas, Nikolay hazratlarining

o'rinalariga u kishining amakilari – Velikiy knyazni podshoh ko'tarsalar... – derdi.

Lekin Qori Ishkamba endi bunday yupatishlar bilan uncha tinchiy olmasdi, chunki u ko'p vaqtdan beri qo'rqitib kelgan inqilobchilar deb atalgan odamlarning bu ishlarni qilayotganlarini kunda necha bor ishonchli odamlardan eshitardi. Oyoq yalang mujiklar yer egalarining yerlarini, hovli va dehqonchilik asboblarini bosib olayotirlar, zavod-fabrikalarda ishchilar o'z qo'mitalarini tashkil qilib, xo'jayinlarini mensimay boshlaganlarini eshitardi.

Ular bir kun «Zavodlar sizniki emas, bizniki», deb xo'jayinlarni quvib yuborsalar-a?!

«Shunday bo'lgandan keyin, – der edi Qori Ishkamba o'z-o'ziga, – naqd pul bilan to'lib-toshgan banklarni puldorlar qo'lida qoldirarmikanlar? Agar banklarni ham bosib ol-salar, boshqa pullar qatorida mening pullarim ham qo'limdan ketadi. Endi nima qilish kerak!»

Qori Ishkamba o'ziga-o'zi bergen bu keyingi savolga javob topolmay qon yutardi. U o'g'rilar xavfidan pullarini uyida yoki saroya saqlay olmasdi. Boshqa odamlar undan qarzga pul so'ramasdilar. Agar pullarini eltib amir hukumatiga omonat topshirsa, u ochiq-dan-ochiq pulini yeb ketar edi. Bunday holatda «bolta kelgunicha kunda dam olar», deb o'z pullarini bankka qo'yishdan boshqa chorasi yo'q edi.



Qori Ishkamba 1917-yilning kuzida «Bolsheviklar hukumatni o'z qo'lliga olgan emish» degan xabarni eshitdi. U bu xabarni eshitgach «bolshheviklar kim?» deb o'yladi. Ilgari u bu nomni eshitmagan edi. U bank direktoridan qandaydir «...knyaz degan kishini ajab emaski podshoh qilib ko'tarsalar», deb eshitgan edi. Lekin bu u nomga o'xshamas edi, yoyinki qariligi sababli u direktor aytgan nomni unutganmi, bu o'sha nomning o'zimi?..

U bu nomning va bu gapning tagi-tubini bilib olmoqchi bo'lib, bankka jo'nadi. Maqsadi - dunyoda «yagona rostgo'y» bo'lgan direktorni ko'rib undan so'rash edi.

Ammo bu bankka yetib borguncha soat uchdan oshgan, bank yopilgan, uning xodimlari direktor bilan birga kassalarini ko'tarib Kogonga jo'nagan edilar.

U bankning eshigi oldida yolg'iz bankning tilmochiga duch keldi, tilmoch ham portfel ko'tarib, o'z uyiga ketayotir edi. Tilmoch Buxoro shutqorilaridan biri edi, shuning uchun Ishkamba undan gap so'rashni istamadi. «Bu shum rost-yolg'on gaplarni gapirib, ko'nglimni qora qilib qo'yar», deb o'yladi. Ammo biroz o'ylab turgandan keyin «yomon aytmaguncha yaxshi kelmas deganlar, - dedi o'z-o'ziga, - u yomon gaplarni aytaversin, zarari yo'q, xudodan u yomonlarni yaxshiga aylantirishni so'rayman».

Qori Ishkamba shu qarorga kelgach, keyin tilmochdan:

– Rusiya hukumatining boshiga bolsheviklar kelgan, deydilar. Bu xabar rostmi yo yolg'on-mi? – deb so'radi.

– Rost! – deb javob berdi tilmoch.

Qori Ishkamba quvonch bilan yana so'radi:

– Bu direktoringiz «ehtimol podshoh bo'ssa» degan o'sha «vel» yoki «vek» yoyinki «velka kn-yaz» (sabil qolgur ismini esimdan chiqaribman) emasmikan?

– Yo'-o'-o'-q! – dedi tilmoch cho'zib, – bolsheviklar knyazlarning oyog'ini osmondan keltirdilar.

Qori Ishkamba bu gapni eshitishi bilan:

– Xo'p, hazilni bir fasl bir tomonga qo'yib turib rostini aytin, bolshevik necha oylardan beri bosh ko'tarib dunyoni bezovta qilgan. Nikolay hazratlariday ulug' va kuchli podshohni taxtdan tushirgan inqilobchilardan yaxshiroq emasmi? Va u bizdek yemay-ichmay, rost aytib, yolg'on aytib, besh pul-o'n pul to'plaganlar ning holiga rahm qilmasmikan, – deb so'radi seskanib ketib.

Tilmoch biroz o'ylab turgach gapga kirishdi:

– Siz bu kungacha qo'rqib yurgan inqilob-chilarning ishlari ishning boshlang'ichi edi, fursatdan foydalangan siz kabi odamlar avval-giday uch million pulni bankka qo'yib, bir yuz ellik-ikki yuz ellik so'm foiz olib, ishlamay-netmay qorinlarini qashib yuradilar. Ba'zi bir tekinxo'rlar bugun bir narsani bir so'mga olib,

ertaga o'n so'mga mehnatkashlarning qonlarini ichishni davom ettiradilar. Endi hukumat bolsheviklarning rahbarligi ostida ishchi-dehqon qo'liga o'tdi, endi siz kabi tekinxo'rlarning kuni bitdi, o'tgan kunlarni tushingizda ko'rasiz.

Qori Ishkambaning rangi-quti o'chdi, a'zoyi badani titray boshladi, o'zini tutolmay orqasi bilan devorga suyanib biroz jim turgach, o'zini yupatish yo'li bilan dedi:

— Xayr, mening pulim kassasida bo'lgan sizning bank hozircha sog', tinch-ku. «Ildizi bo'lgan daraxtdan meva umid qilish mumkin», deganlar. Hali boshimga kelmagan o'limdan bu qadar qo'rqib, kunda necha marta o'lib, nega o'zimni muncha azoblay?

— Sizning «daraxtingizning ildizi suvda emas», — dedi tilmoch, Qori Ishkamba yuragini yorarlik bir ohang bilan, — Petrograd, Moskva va boshqa katta shaharldagi banklarni qo'nga oldilar, fabrika-zavodlarni oldilar, konlarni oldilar, butun mamlakatdagi poyezdlarni oldilar, daryolardagi paroxodlarni oldilar, butun mamlakatdagi dehqonchilik asboblari bilan birga o'zi ishlovchi dehqonlarniki deb dekret chiqardilar. Bu holda sizning «daraxtingizning ildizi» qanday qilib suvda bo'ladi? Ildizingiz suvda emas, o'tda! Ildizingiz yonmoqda, balki yonib kul bo'ldi. Uy poydevoridan buzilayotir, ammo siz «tomi hali tuzuk» deb o'zingizni yu-patmoqchisiz...

Qori Ishkamba o'zicha «tilmoch navbatdagi hazillarini boshladi, u hali kelmagan ajal bilan

meni o'ldirmoqchi. Bo'lmasa «Bolshevik» nomli bir kishining chiqib shu qadar ish qila olishi mumkinmi?» deb o'ylaydi. U shunday mulohazarlar bilan g'azablanib tilmochga dedi:

— Yo'qol ko'zimdan! Ilohi tilginang kesilsin! Qarab tur! Erta seni nima qilaman? Direktor ga aytib seni bank xizmatidan quvlatmasam, odam emasman.

Tilmoch kula-kula o'z yo'liga ketdi. Qori Ishkamba devorga suyab qo'yilgan jonsiz haykal bo'lib qoldi.

Endi bu yerda turish foydasiz, direktor kasasini ko'tarib Kogonga ketgan. Shu mulohazarlar bilan Qori Ishkamba ham o'z uyiga yo'naldi.

U yo'lda shoshilib qadam tashlar edi, yana bir shutqoriga duch kelib undan ham jon oluvchi shum xabarlarni eshitib, hali kelmagan ajal bilan o'lish va jonidan ham azizroq pullaridan ajralishdan qo'rqardi.

* * *

Qori Ishkamba shu kecha hech uxlay olmadidi. Tong qorong'isi bilan turib, tahorat olib, xotinlari xatmi Qur'on qilgan kundan beri qo'liga olmagan Qur'onni tokchadan olib, bir oyat o'qib, «imperatori muazzam» haqiga duo qildi, qaytadan taxtga kelishini tiladi.

Tong ota boshladi. Qori Ishkamba uyidan chiqib, kundalik odati bo'yicha «Mag'oq» masjidiga bordi, unda bomdod namozini jamoat bilan o'qidi. Lekin u kundalik odatini buzib namozdan keyin u yerda bo'ladigan masnaviy-

xonlik majlisiga qolmadi va namozni o'qib bo'l-gach machitdan chiqib, to'g'ri Buxoro passaji-da bo'lgan podshohlik bankining binosi oldiga borib, u yerdagi tosh va sement bilan yasalgan supachada o'tirdi.

Hali bankning ochilishiga ikki soat vaqt bor edi, shunday bolsa ham Qori Ishkamba tezroq direktorni ko'rib, undan xabarlarni aniq ang-lab olmoqchi va imperator davlatiga dushman bo'lgan shum xabar tilmochni chaqib, bankdan quvdirmoqchi bo'lib, kuta boshladi.

Soat sakkiz bo'ldi, ammo Kogondan biron kishi kelmadidi. To'qqiz bo'ldi, hali ham bank xo-dimlaridan darak yo'q. Soat o'n bo'ldi: hech gap yo'q, hatto kunda erta bilan kelib bank ichini supurib-sidiruvchi xizmatchi ham shu vaqtga-cha kelmadidi.

Qori Ishkambaning yuragi siqila boshladi. U qancha vaqtdan beri go'shti qochib, suyak-lariga yopishib qolgan ko'ksini shishib bora-yotganday sezar edi, uning boshiga «ko'kragim shishib yorilar va u yerdan yurak va o'pkalarim chiqib yerga to'kilar», degan xayol kelib yori-lishdan saqlab qolmoqchi bo'lib ikki qo'lli bilan ko'kragini bosdi. Lekin u yerning shishi bosil-mas edi, balki tobora qabarib ko'tarilmoqda edi.

Soat o'n bir bo'ldi, lekin hech kishi kelmadidi. Endi u o'z-o'ziga aytardi: «O'sha shum tilmoch kelsa ham mayli edi. Yolg'on bo'ssin, hazil bo's-sin, har nima bo'lsa bo'ssin, biron gap aytardi. Bunday, ichiga o't tushgan somonday tutagan-

dan ko'ra yong'inda qolgan kerosinday alanganib yonib, yo'q bo'lish yaxshiroq». Baxtga qarshi, tilmoch ham kelmadi.

Qori Ishkambaning yuragi tartibsiz urardi, goho harakatdan qolayozish darajasida susayib ketardi.

Uning nafas olish yo'li tobora torayardi, bir vaqt shu darajaga yetdiki, u yerga yiqildi. U nafas yo'lini biroz kengaytirish umidi bilan tikka turdi, lekin boshi aylanib ko'z oldi qorong'ilashdi, u devorga suyanib o'zini yiqilishdan zo'rg'a saqlab qoldi.

Cho'zib-cho'zib bir-ikki og'ir nafas oldi, nafas yo'li biroz kengaydi. U qo'yni cho'ntagidagi soatini chiqarib qaradi, soat o'n ikkiga yaqinlashgan edi.

U o'z soatiga ishongisi kelmadi, ehtimol, soatim buzilib, ilgari ketgan bo'lsa, deb yupatdi va bu taxminni tasdiqlattirish uchun bir yo'lovchidan so'radi:

– Soat necha bo'ldi ekan?

U odam yurishini sekinlashtirib soatiga qarab:

– Soat o'n ikki! – deb o'z yo'liga keta berdi.

Qori Ishkambaning ko'ngliga o'ziga yoqqan yana bir «ehtimol» keldi: «Direktor balki kasal bo'lgandir yoki otiga biron ofat tekkan yoyinki foytuni singandir. Shuning uchun bank bu kun ochilmagandir».

«Xo'p, – dedi Qori Ishkamba o'z-o'ziga, – mening har bir umidimga qarshi soati ikki bo'lganligi, direktor va bank xodimlarining

shu vaqtgacha kelmaganliklari haqiqat. Pes-hin namozi va Devonbegi xonaqohisi sahniga keltiriladigan janozalarning vaqtি bo'ldi. Endi bu yerda kutib o'tirishning foydasi yo'q, bal-ki zarari bor, chunki bu yerda ortiq qolsam «xudoyi» janozalarning «yirtish»idan mahrum qolaman, foydasiz bir kun turib, foydani qo'l-dan berish aqlsizlarning ishi. Hali ham menga ancha zarar bo'ldi: bu yerda o'tirib, ijarachim-ning palovidan qoldim».

Qori Ishkamba shunday muhokama qilganidan keyin passajning sementlangan devo-ri bilan Devonbegi xonaqohi tomoniga qarab yo'naldi.

U bir necha qadam bosgandan keyin yo'lda to'xtab o'yładi: «Katta yo'ldan borsam yaxshi edi. Chunki u yo'lda Kogondan kelayotgan bank xodimlariga duch kelsam, ajab emas. Ulardan bu xushxabarni eshitib, ko'nglim tinchib xona-qohga boraman, namoz uchun ko'ngil tinchligi shart.

Qori Ishkamba shunday mulohazalar bilan borayotgan yo'lidan qaytdi va passajning janub tomonida bazzozlik rastasiga tushdi, bu ko'cha Kogondan keladiganlarning yo'li edi. U sharq tomonga, Devonbegi hovuzi tomoniga qarab yo'naldi.

U har qadam bosganda qarshisidan kelayot-ganlarni birma-bir ko'zdan kechirardi. Yo'l arava, foytun, eshak va piyodalar bilan to'la edi, lekin ular orasida pul xaltalari yuklanib, ustiga bank xodimlari yaroqli soqchilar mingan uch otliq uzun arava ko'rmasdi.

Qori Ishkamba Devonbegi hovuzi va xona-qohning g'arbi-janubidagi birinchi kirish ro'parasida bo'lgan dorixona binosi oldiga-chaga bordi, u yerda to'xtab yana bir marta (ehtimol, yuzinchi marta bo'lsa) shu tomoniga, Kogon yo'li bo'lgansovun bozor tomoniga qaradi, keluvchilar orasida u istagan kishilar ko'rinnadi.

Bu yerda usti yopiq rasta tugab, undan u yog'ida yo'laksiz, loy yo'l boshlanardi. Qori Ishkamba bu yerdan Labi hovuzi Devonbegining kirish yo'li tomoniga burilmadi, «oxirgi – hovli sharqi-janubidagi kirish yo'ligacha boray, qani maqsadimga yetisha olamanmi?» deb sharq tomoniga yo'naldi.

U har qadamda kavush-mahsisi loyga botar, oyog'ini ko'targanida kavush botqoqda qoldi, u yerga egilib, kavushini qo'li bilan loydan tortar va uni kiyib, yana oldinga qarab qadam bosardi.

Shu hol bilan yiqla-surila Sovun bozori ko'chasi boshigacha bordi. U yerda Labi hovuzi Devonbegiga kiradigan yo'lning so'ngisi bo'lib, beda bozori ko'rinnardi.

Qori Ishkamba u yerda turib yana bir marta Kogon tomonidan kelayotganlarni ko'zdan kechiradi, yana bank xodimlaridan biron kishini ko'rolmadi. Endi umidini butunlay uzib, hovuz tomoniga burilmoqchi bo'lganida uzoqdan bir uzun arava kelayotganini ko'rdi. U kela turib, bir-birovlariga to'qnashib, yo'lni band qilib qolgan aravalarga tiralib qoldi.

Qori Ishkamba u uzun aravani ko'rgach, quvonchidan yuragi yorilayozdi: aravaga qo'shilgan otlar xuddi bankning aravasiga qo'shiladigan otlarday qora va katta edi. Faqat shunisi bor ediki, bank aravasiga uch ot qo'shilardi, ammo bu aravaga esa ikki ot qo'shilgandi. «Ajab emaski, bir otning ostiga yem tushgan yoki boshqa biron narsa bo'lib unga dam bergen va ikki ot qo'shib kelgan bo'lsalar», – dedi o'z-o'ziga.

Ammo aravaning uzunligi, uzoqdan arang ko'rinaridigan ustidagi yuki banknikidan baland edi.

Lekin u arava tezdan yetib kelolmasdi, Qori Ishkamba bo'lsa, uning ustidagi xodimlarini ko'rib va ulardan gap so'rab, ko'nglini tinchlatirishga shoshilardi. «Ko'cha qolib» atalgan Buxoroning ikki g'ildirakli serbar baland yuk aravalari unga yo'l bermasdi; aravalalar bir-birovlari bilan duch kelgan, yo'ning torligidan va aravalarning kengligidan birov arava ro'parasidan kelgan aravaning yonidan o'tib keta olmas, o'jar aravakashlarning hech biri boshqa birisiga yo'l qo'yib, o'z aravasini keyin tislatmasdi. Shuning uchun aravalalar orqasiga tiralgan uzun arava ham to'xtab turishga majbur bo'lgan edi.

Qori Ishkamba piyoda borib uzun aravani ko'rmoqchi va unga minganlardan xushxabarlarni eshitmoqchi bo'lsa ham beda bozorining loyi uni bir qadam oldin borishga qo'ymadni, uzun aravaday «ko'cha qoliblari»ning bir yoqli

bo'lishini kutishga majbur bo'ldi, oldinda bora-yotgan aravakashlar qarshilaridan kelayotgan aravakashlardan mag'lub bo'lib, o'z aravalari ni tislantirishga majbur bo'ldilar va qarshidan kelayotgan aravalar birma-bir kelib, Qori Ishkambaning oldidan o'ta berdilar.

Eng oxirida uzun arava ham keldi. Lekin uning butun orzu va umidlariga qarshi, bu bankning aravasi bo'lib chiqmadi, uning ustidagi yuk ham pul joylangan xaltalar va o'tirgan odamlar ham bank xodimlari va qurolli soqchilar emasdilar, balki bu arava kasalxonaning aravasi bo'lib, uning ustidagi yuk – tibbiy tekshirishlar uchun kasal olib borilayotgan va to'satdan ko'chada o'lib qolgan birovning o'ligi va aravada o'tirganlar kasalxona xodimlari edi.

Bu holni ko'rgan Qori Ishkamba ixtiyorsiz yoshlida yodlab olgan «Mening jonim, mening ko'zimga sen shunday joylashib olgansanki, uzoqdan har bir narsa ko'zimga ko'rinish «sen» deb o'ylayman» degan mazmundagi Jomiyning bir baytini o'qidi va chap tomon burilib, Labi hovuzi Devonbegiga kirib ketdi.

U hovuz oldiga borib loyga belangan qo'lyoq, kavush va mahsisini yuganidan keyin xonaqohning sahniga chiqdi. Xonaqohning ichi-tashi namozxonlar bilan to'lgan edi. Sahnadagilar o'z joynamozlari ustida o'tirardilar, hamma azonni kutmoqda edi.

Xonaqohning janub tomonidagi sahnning to'rida uchta tobut ko'rinaridi, u tobutlardan

biri tevaragi surp, ikkinchisiga aynigan eski va past zarrin va uchinchisiga yangi va a'llo qizil kimxob tortilgan edi.

Qori Ishkamba biroz quvondi va «Illohi bu butlarning hammasini bir qabristonga olib borsinlar, toki men har uchhalasidan uch yirtish olib, bu kun majburan mahrum bo'lib hujramda o'tiradigan mullavachchaning oshi o'rnini qoplab olay», deb ko'nglidan o'tkazdi. So'ng biroz o'ylab: «Agar hech bo'lmaganda ikkalasini bir mozorga olib borsalar ham mayli edi, u vaqtda ikki yirtish olar edim, agar bu tobutlarni boshqa-boshqa qabristonga olib borsalar, nima qilishim va qaysisining orqasidan ergashib borishim kerak?» deb o'z-o'ziga savol berdi va bu so'roqning javobiga «Albatta, tevaragiga qizil kimxob tortilgan tobutning orqasidan borishim kerak!» deb uzil-kesil qarorga keldi va bu qarorga dalil qilib o'z-o'ziga aytdi: tobutdagi o'likning yosh va boy xondondan bo'lganligi uning tevaragiga yopilgan a'llo kimxobdan ma'lum. Yoshlikda o'lgan ki-shining qarindoshlari «Bu dunyoda hech nar-sa ko'rmay ketdi», deb tuzukroq yirtish beradilar, boylar ham o'zlarini kambag'allardan yuqoriroq tutish uchun yirtishlarini kattaroq beradilar, ammo ham yosh va ham boy xondondan bo'lgan o'lik yirtishi juda ham yog'liq boladi.

Qori Ishkamba shunday mulohazalar bilan o'z yo'lini belgilagandan keyin namoz uchun saf tortib o'tirganlar orasiga kirib ketdi va ora-

da birovning joynamozidan bir odam sig'i mi joy topib cho'kkalab o'tirdi.

Ko'p vaqt kutishga to'g'ri kelmadi: so'fi peshin namozi uchun azon aytdi. Odamlar namoz o'qishga kirishdilar. Qori Ishkamba ham o'rnidan turib namozga kirishmoqchi bo'lib qibлага qarab ikki qo'llini ko'tardi. Shu vaqtida pakana gina bir odam orqasidagi safdan bir qadam oldin bosdi, o'ng tomonda unga yaqinlashdi va uning qulog'i tubida pichirladi:

– Qori amaki!

Qori Ishkamba ikki bosh barmog'inining uchi ni qulog'inining yumshoq joyiga yopishtirgan holda ovoz kelgan o'ng tomoniga boshini biroz qayrib, gapiruvchi pakana odamga qaratib, biroz egilib unga qulq soldi. Pakana odam so'zini davom ettirib:

– Eshitdingizmi? – deb so'radi.

– Nimani?

– Bolsheviklar Kogonda qo'zg'olon ko'tarib, bankni, butun qog'oz aqchalarni, oltin, kumush pul va boshqa qimmatli ashyolarni qo'lga olib xalqniki, deb e'lon qilganlar.


Qori Ishkamba bu xabarni eshitgach:

– Oh!.. Bolshevik! – deb bir yoni bilan o'sha gapiruvchiga qulq solib turgan holda yerga yiqildi.

Bu xabarni Qori Ishkambaga yetkazgan kishi bir qadam orqaga bosib, namoz o'qishga kirishdi, boshqa odamlar bu hodisaga e'tibor bermadilar va namozlarini buzmadilar. Ammo namoz o'qilib bo'lgandan keyin Qori Ishkam-

ba tevaragida to'plangan odamlar ko'rdilar-ki, sahnga uning og'zidan qon va yiring oqib, yuzi va chakkasining toshga urilgan joyi biroz ko'kargan, bosh barmog'ining uchi qulog'i-ning yumshoq yeriga yopishgancha qo'li qotib qolgan.

U o'lgan edi!



Eski maktab



Agar unutmagan bo'ssam, olti yasharlik vaqtim edi. Otam meni qishloq machiti oldidagi maktabga eltib berdi, shu vaqt onam: «Seni to'rt yashar-u to'rt oy, to'rt hafta va to'rt kunligingda dasturxon qilib maktabga eltib, saboq boshlatib qo'ygan edik. Lekin bu vaqlarda sen juda yosh eding: shuning uchun ham seni maktabda qiynalarsan deb o'y ladim va hanuzgacha o'ynab yurishga qo'ydik. Endi g'ayrat qilib o'qi! To'rt yasharliklarida borgan tengdoshlaringga yetib ol!» deb edi. Men bo'ssam o'sha vaqlarda menga qattiq ta'siri bo'lgan onamning bu maslahatini bajo keltirish, tezroq saboq o'rjanib, tengdoshlarim bilan baravar bo'lish va hatto ulardan oldinga o'tishni istar edim.

Lekin maktab hayoti va sharoiti mening bu tilagimga yo'l bermadi, harakat va g'ayratlarim bo'shga ketdi.

Men mакtabga bordim, mакtab bizning uyimiz kabi keng, to'rt eshikli, yorug' va tinch bo'lmay, torgina bir xonadan (hujradan) iborat edi. Uning ikki eshigi bor bo'lib, buning biri bir tavaqali va bu eshik ko'pincha yopiq turar edi. Ikkinci eshigi darcha bo'lib, uch gaz bo'yi va yarim gaz eni bor. Bu darchaning oldi domla (maktabdor)ning o'tiradigan joyi edi. Darchalarga esa parda qilingan (derazasi qog'oz bilan qoplangan) va qog'ozga esa qor-yomg'irning

ho'llab yirtib yubormasligi uchun zig'ir moyi surtilgan, bu moyli qog'oz ko'chaning chang va tuprog'ini o'ziga ola berib, qozon chochiq kabi qop-qora kirlanib ketgan edi. Agar yanglishmasam, domlaning tug'ilganidan beri sovun yuzini ko'rмаган, benihoya kirlanib bitgan bashedasiga o'xshар edi. Shuningdek, maktabning haligi aytganim derazasidan darsxonaga hech bir yorug'lik kirmas edi. Hujraning shipi tagidan devorning shipga yaqinlashtirgan joyida ikki tomondan ham bir-biriga ro'para-ma-ro'para qilib ochilgan ikki tuynukcha bo'sa ham bulardan kiradigan yorug'lik pastga tushmasdan, hujraning devorlarida qolar edi.

Bu hujraning kengligi o'n olti gaz murabba (kvadrat) edi, uning ichida bir-birining ustidan o'tkazilib to'rtta sinch tortilgan va bu bilan hujra to'qqiz bo'lakka bo'lingan, go'yo maktabxonaning ichida to'qqiz oxur paydo bo'lgan edi.

Eshik oldidagi oxurchada bolalarning kavushlari turadi, darcha oldidagi oxurchada bo'sa domla va qolgan yetti oxurchada esa bolalar o'tirardilar. Bu vaqtida u maktabxonada qancha bola o'qiganligi aniq esimda yo'q. Faqat shuni eslaymanki, u vaqtarda uch yuz uylik qishlog'imizning to'rt yashardan o'n ikki yasharga qadar bo'lgan butun bolalari shu maktabning shogirdi hisoblanardi, undan tashqari, bizning qishloq xo'jalar qishlog'i bo'lganligi uchun ham «tabarruk» bir qishloq hisoblanganidan, atrof qishloqlardagi ba'zi «ixlosmandlar» ham o'z bolalarini bu maktabga yuborar edilar.

Xayriyatki, bu maktabda o'quvchi bolalarning hammasi har kuni muntazam davom qilmas edi, aks holda o'tirish nari tursin, hujrada tikka turishga ham joy topilmagan bo'lar edi. Shunday bo'lsa ham bolalar amir zindonida qamalgan bandilar kabi bir-birovlarini bosib, tiqilib, qiynalib o'tirar edilar.

Men bu maktabxonaning bizning katakchaga o'xshaganini hanuz unutganim yo'q. Bizning katakchamizda esa onam tovuqqa tuxum bostirgan edi, yangi tuxumdan chiqqan jo'jalalar bir-birovlarini bosib ona tovuqning qanoti ostiga tiqilar edi. Bu maktabxonadagi bolalar ham bir-birovlarini bosib o'tirishda xuddi shu jo'jalarga o'xshardilar, faqat ikki o'rtadagi farq shugina ediki, bizning jo'jalarimizning chug'urashlari qulqoqqa bir turli yoqar, ammo bu maktabxonadagi bolalarning qichqirishlari, dod-bedodlarning zarbidan esa kishining qulog'i portlash darajasiga kelar edi...

II

Meni maktabga otam olib bordi, u holvayi uchun bir la'li kulcha non va mag'izni bir das-turxonga o'rab, o'zi bilan olib borgan edi.

Domla men bilan otamni o'z ro'parasiga o'tirg'izdi. Dasturxonni ochib, kulchalardan birini ushatdi, o'zi bir burda olib, otamni ham non yeishga undadi, otam ham bir burda nonni olib sindirib og'ziga soldi. So'ngra domla ushatilgan kulcha burdalarini tovuqlarga bera-

digandek maydaladi va bu non bo'lakchalarini maktabxonaning har tomoniga – bolalarning ustiga qarab sochdi.

Bu vaqt maktabxona ichida ur-ur, sur-sur, bir-birovining chopon va ko'ylaklarini yirtish, qulqlarini cho'zish, ko'zlarini o'yish va yuzlarini tirmashlar boshlandi. Buning ustiga, bolalarning yig'i-sig'isi, dod-u faryodi go'yo maktab tomini osmonga ko'tarar edi.

Bu non ushoqlari ustida janjal-to'polon bo'lib turganda, domla betaraf turmadi, uning orqasida devorga suyab qo'yilgan uzun-qisqa bir necha tayoq turar edi. U bu tayoqlardan eng uzun tayoqni olib, bir chekkadan bolalarning boshlariga qarab ura boshladi, bolalar o'zaro talashishni qo'yib, hammalari yig'iga tushdilar: «Domlajon, tavba qildim... yedim», sadolari hamma bolalarning og'izlaridan barobar chiqib ko'kka ko'tarilar edi.

Men ham toqat qilolmay, bolalar qatorida yig'lashga kirishdim. Lekin otam meni yupatdi va agar yig'lamasdan maktabda qolsam, men ga bir «kurra»¹ olib bermoqchi bo'ldi, domla ham otam bilan birga meni yupatishga kirishi: «Men ham, – dedi u, – har bozor kuni bir chaqmoq qand olib beraman».

Otamning va'dasi garchi bolalarni azoblash uchun yasalgan va maktabxonada meni qolishga rozi qilolmagan bolsa ham domlaning yupatishi meni biroz tinchlantirdi, chunki u boshqa bolalarni ayamasdan urgani holda,

¹ Xo'tik

menga qand va'da qilmoqda edi. Men uning bu so'zidan «meni urmas», deb o'z-o'zima tasalli berar edim, shunday bolsa ham ikki ko'zimni u tayoqlardan, ayniqsa, maktabning har tomoniga yetib, hatto uzoq burchaklardagi pusgan bolalargacha omon bermaydigan boyagi uzun tayoqdan sira uzmas edim...

Bolalar biroz tinchlandilar. Domla ko'rpa-chasi ostidan bir taxtachani olib, unga ko'p narsalarni yozib, otamga ko'rsatdi. Ammo otam savodli bolgani uchun domlaning yozgan ba'zi narsalariga qarshi chiqdi va: «Buni bunday yozmaydilar», dedi.

Boshda domla janjal chiqardi va otamning gaplarini qabul qilmadi. Lekin otam ham janjal ko'tarib, o'z gapini o'tkazdi va u biroz qizishib: «Unday bolsa, o'zingiz yozing», deb taxtachani otamning oldiga irg'itdi. Otam domla yozgan ba'zi narsalarni o'chirib, ularning o'rniga boshqatdan yozdi.

Shu vaqtadan boshlab otam ko'zimga katta odam bo'lib ko'rindi va u o'sha vaqtgacha qishloqning donosi va zo'ri deb bilganim domladan ham donoroq va kuchli bo'lib ko'rina boshladi. Bu hol menga quvvat berdi. Men o'z ko'nglimda: «Agar maktabdor meni ursa, men otamga undan shikoyat qilaman, otam kelib uni uradi. Agar bolalarni urmoq uchun maktabdorning tayog'i bolsa, otamning ham gavron tayog'i bor. Otamning gavron tayog'iga ho'kiz chidolmaydi. Ammo oriq, yuzi bir burda va o'zi holsizlikdan o'lib borayotgan domla bolsa bir gavron urishi bilan o'lib qoladi...» deb o'ylardim.

Domla meni o'z ro'parasiga o'tqazib, oxurchaning devorchasi hisoblangan sinchi ustiga taxtani qo'ydi va menga «auzu billoh, bismillo»ni ayttirdi.

Otam menga bularni ko'p vaqtidan beri o'rgatar edi, shuning uchun ham tilim tutilmasdan va qo'rmasdan «auzu billoh, bismillo»ni baralla aytib yubordim.

Domla mendan xursand bo'ldi. Bolalar ham menga qarar va domla tayog'idan qo'rqqanlari sababli boshlarini ko'tarmagan holda, barmoqlarini ko'z oldilariga keltirib bir-birovlariga meni ko'rsatar edilar, bu esa mening ko'zimga meni agar biron ovloq, hech kim yo'q yerda yolg'iz topsalar, u barmoqlari bilan mening ko'zimni o'yadiganday bo'lib ko'rinar edilar.

Domla fotiha o'qidi, bolalar ham «omin» deb fotihaga qo'shildilar. Shu bilan mening saboq boshlash marosimim bitdi, otam qaytib, uyga ketdi va men u kunga qadar ko'rмаганим bir uqubatxonada qoldim.

III

Otam ketgandan keyin domla meni o'ziga yaqinroq bir yerga o'tqazdi va yoshi katta-roq bir bolaga menga o'rgatishni buyurdi. U bola meni o'z taxtachamga qaratib: «Alif, be, te, se, degin», dedi. Men ham uning og'zidan olib haligi uch so'zni, ya'ni uch harfning otini aytib berdim. Men bu so'zlarni ayta oladigan bo'lgandan keyin haligi bola boshqa bolalarni

menga qand va'da qilmoqda edi. Men uning bu so'zidan «meni urmas», deb o'z-o'zima tasalli berar edim, shunday bolsa ham ikki ko'zimni u tayoqlardan, ayniqsa, mакtabning har tomoniga yetib, hatto uzoq burchaklardagi pusgan bolalargacha omon bermaydigan boyagi uzun tayoqdan sira uzmas edim...

Bolalar biroz tinchlandilar. Domla ko'rpa-chasi ostidan bir taxtachani olib, unga ko'p narsalarni yozib, otamga ko'rsatdi. Ammo otam savodli bo'lgani uchun domlaning yozgan ba'zi narsalariga qarshi chiqdi va: «Buni bunday yozmaydilar», dedi.

Boshda domla janjal chiqardi va otamning gaplarini qabul qilmadi. Lekin otam ham janjal ko'tarib, o'z gapini o'tkazdi va u biroz qizishib: «Unday bolsa, o'zingiz yozing», deb taxtachani otamning oldiga irg'itdi. Otam domla yozgan ba'zi narsalarni o'chirib, ularning o'rniga boshqatdan yozdi.

Shu vaqtadan boshlab otam ko'zimga katta odam bo'lib ko'rindi va u o'sha vaqtgacha qishloqning donosi va zo'ri deb bilganim domladan ham donoroq va kuchli bo'lib ko'rina boshladi. Bu hol menga quvvat berdi. Men o'z ko'nglimda: «Agar maktabdor meni ursa, men otamga undan shikoyat qilaman, otam kelib uni uradi. Agar bolalarni urmoq uchun maktabdorning tayog'i bolsa, otamning ham gavron tayog'i bor. Otamning gavron tayog'iga ho'kiz chidolmaydi. Ammo oriq, yuzi bir burda va o'zi holsizlikdan o'lib borayotgan domla bolsa bir gavron urishi bilan o'lib qoladi...» deb o'ylardim.

Domla meni o'z ro'parasiga o'tqazib, oxurchaning devorchasi hisoblangan sinchi ustiga taxtani qo'ydi va menga «auzu billoh, bismillo»-ni ayttirdi.

Otam menga bularni ko'p vaqtdan beri o'rgatar edi, shuning uchun ham tilim tutilmasdan va qo'rmasdan «auzu billoh, bismillo»ni baralla aytib yubordim.

Domla mendan xursand bo'ldi. Bolalar ham menga qarar va domla tayog'idan qo'rqqanlari sababli boshlarini ko'tarmagan holda, barmoqlarini ko'z oldilariga keltirib bir-birovlariga meni ko'rsatar edilar, bu esa mening ko'zimga meni agar biron ovloq, hech kim yo'q yerda yolg'iz topsalar, u barmoqlari bilan mening ko'zimni o'yadiganday bo'lib ko'rinar edilar.

Domla fotiha o'qidi, bolalar ham «omin» deb fotihaga qo'shildilar. Shu bilan mening saboq boshlash marosimim bitdi, otam qaytib, uyga ketdi va men u kunga qadar ko'rмаганим bir uqubatxonada qoldim.

III

Otam ketgandan keyin domla meni o'ziga yaqinroq bir yerga o'tqazdi va yoshi katta-roq bir bolaga menga o'rgatishni buyurdi. U bola meni o'z taxtachamga qaratib: «Alif, be, te, se, degin», dedi. Men ham uning og'zidan olib haligi uch so'zni, ya'ni uch harfning otini aytib berdim. Men bu so'zlarni ayta oladigan bo'lgandan keyin haligi bola boshqa bolalarni

o'rgatishga ketdi. Bolalar u bolani xalfa der edilar.

Biroz vaqt o'tgandan keyin domla chiqib ketdi va uning ketgani hamon xalfa bolalarga:

– Turinglar, kurash qilamiz, – dedi.

Bolalar gurillashib o'rnilaridan turdilar va bir-birovlari bilan kurasha, yoqalasha boshladilar, kuchlilar kuchsizlarni yiqitib bosdilar.

Bolalar yarim soatcha bir-birovlari bilan kurashganlaridan keyin xalfa borib maktabdorning o'rnida devorga suyab qo'yilgan uzun tayoqni oldi va bolalarmi bir boshdan ura boshladi. Men qo'rqib maktabxonadan chiqib qochmoqchi boldim, lekin bu muyassar bo'l-madi. Chunki maktab eshigini ichkaridan zanjirlab, zulfiniga cho'p tiqqanlar va chiqish-krish yo'li butunlay berkilgan ekan, men yosh va endigina olti yoshda bo'lganimdan eshikni ochishga bo'yim va kuchim yetmas edi.

Xalfaning tayoqi ostida uyon-buyon qochib yugurishib yurgan bolalar, uning:

– Har kim o'z o'rniga o'tirsin, bo'lmasa yana ham qattiqroq uraman! – deyishi bilan o'z joylari-ga o'tirdilar, men ham o'z o'rnimga borib o'tirdim.

Xalfa qo'lida uzun tayoq, tikka turgani holda:

– Bolalar, endi kamonboziy! – dedi.

– Kamonboziy!

– Kamonboziy!

– Kamonboziy!

Bolalar birdan shovqin ko'tardilar va amaliy ishga ko'chdilar. Bolalar mакtabning birdan-bir palosi bo'lgan o'z ostilaridagi bo'yraning

cho'plarini sug'ura boshladilar va kissalaridan ip chiqarib, o'sha cho'plardan yoy (kamon) yasadilar.

Har bola shu kabi bir bo'yra cho'pdan kamon yasab, bo'yraning ikkinchi bir cho'pini o'q ornida ishlatib, o'z ro'parasidagi bolaga qaratib otar edi...

Yana maktab ichida to'polon boshlandi, har bir bola boshqa bir bolaning ko'zini, yuzini va burnini nishonga olib urar edi...

Biroz shu ravishda intizomsiz turishganlardan keyin xalfa tayoqni olib o'rnidan turdi-da, bolalarni bir boshdan urdi va bolalarga qarab:

- Endi saf tortib urushamiz! – dedi.
- Saf tortamiz, saf tortib urushamiz!.. – deb bolalar ham vag'illashdilar.

Xalfa, katta-kichik bolalarni ikkiga bo'lib, maktabxonaning ikki tomoniga o'tqazdi. Har tomonda ikki qatordan – kattaroq bolalarni oldinga va kichiklarni orqaga qo'ydi va o'zi devor ostida, ikki safning o'ttasida turib farmon berdi:

- Boshlanglar, otinglar!

Oldingi qatorda turgan bolalar «o'q» uza boshladilar, orqa qatordagi kichkina bolalar esa bo'yra cho'p sug'urib, oldindagilarga «o'q» tayyorlab berar edilar...

Bu orada bir «o'q» borib qarshi safdagi bir bolaning ko'ziga sanchildi. U bola: «Voy o'ldim, voy ko'zginam», deya baqirib, o'zini bir tomonga oldi. Bu bolaning safdoshlari birdan qo'zg'alib aslida yirtilib bitgan bo'yra parchalarini yerdan yig'ib olib qarshi safdagi bolalarning boshlari-

ga yomg'irday yog'dirdilar. Qarshi safdagilar ham bu hujumni tinchlik bilan qabul qilmadilar, ular ham o'z oyoq ostilaridagi bo'yralarni ko'tarib ikkinchi tomondagilarning ustlariga ota boshladilar!..

Maktab ichi chang-tuproq va xas-xashak bilan to'ldi. Men bolalarning oyoqlari ostida qolib ezilishdan qo'rqib qochdim va domlaning o'tiradigan o'rniga borib, chizib qo'yilgan surat kabi devorga qapishib turdim...

«Urush» davom qilmoqda edi, birdan maktab eshigi shiddat bilan taqilladi. Taqillatuvchi borgan sayin qizib, eshikni oyog'i bilan tepar edi. Men eshik sinar yoki buzilib ag'anar deb qo'rqar edim.

Bolalar eshik taqillashini eshitishi bilan mushuk tovushini eshitib qochgan sichqon bolalariday qo'rqib qochib o'z oxurlariga kirib yashirindilar, lekin oxurchaning devori bir bolani pana qilguday balandlikda emas edi. Bolalar boshlarini egib, yuz va ko'zlarini yerga yopish-tirib yashirindilar, biroq o'zlari hech bir narsani ko'rolmasalar ham ularning orqalari do'ng'ayib turar va har kimga ko'rinar edi.

Eshik hali ham taqillardি, lekin bu bolalarning hech birovi borib eshikni ochishga botirlik qilolmas edi.

Bolalar o'z o'rinalarida yashirinib o'tirib tinchlanganlaridan keyin xalfa borib eshikni ochdi. G'azab shiddatidan yuz-ko'zi, qosh-qovoq, soqol-mo'ylovleri it ko'rgan mushukning junday hurpaygan bir odam mакtabxonaga kirdi.

Bu kishi domla edi.

Domla maktabxonaga kirgan hamon eshikni ochish uchun borgan xalfanинг qo'lidan uzun tayoqni tortib oldi va avval boshlab xalfanинг boshiga bir necha bor urdi. Xalfa esa domlaning tayog'i ko'tarilishi bilan uzum o'g'irlash uchun bog'ga kirib, bog'bon tayog'iga uchragan it kabi dod solib talvasalanar, har tomonga qochar edi. Ammo domlaning uzun tayog'i hujranning har bir burchagiga yetar va xalfanинг badanini urib qabartirar edi.

Domla xalfani urib o'z g'azab o'tini biroz passaytirgan bo'ldi-da, o'z o'rniغا borib o'tirdi. Men esa hanuz uning oxurchasida devorga qoqilgan surat kabi turar edim. Meni ham o'z o'rningma o'tqazdi. Lekin meni urmadi.

So'ngrá domla yana uzun tayog'ini ko'tardi va hali ham boshlari quyi va orqalari do'ngdek bo'lib ko'tarilib turgan bolalarni ura boshladи. U har bir tayoqni ko'tarib tashlaganda o'n-o'n besh bolani birdan urar va bolalar ham barobar:

– Tavba qildik! – deb baqirar edilar.

Shundan keyin domla:

– O'qinglar! – deb buyruq berdi.

Bolalar tayoq yegan orqalarini silab-silab boshlarini ko'tardilar. Ko'zlarini domladan umaganlari holda, boshlarini kitob va taxtachalarga egib, allanimalar deb vaysab baqirisha boshladilar.

Men ham ularga taqlid qilib ko'zlarimni taxtachamga tikib, «alif, be, te, se», deb qichqirmoqda edim.

Bolalar qichqirishib biroz o'qiganlaridan keyin, domla xalfani o'z oldiga chaqirdi. Yangigina domladan xo'p tayoq yegan xalfa hech bir qo'rmasdan uning oldiga keldi. Men xalfaning dovyurakligiga hayron qoldim va men ham shunaqa qo'rmas bo'lishni orzu qildim. Ammo men o'z ko'nglimda aytar edimki, «agar men ham shu xalfaday qo'rmas bo'saydim, domla meni urmoqchi bo'lganda men xalfa singari undan qochmas, balki qo'lidan tayoqni tortib olib, o'zining boshiga uraverar edim. Esizki hali men kichikman va ko'nglimda qo'rqish ham ko'p».

Domla xalfadan:

– Ayt menga, bu qadar g'alvani kim qo'zg'atdi? – deb so'radi. Xalfa domlaning so'rog'iga javoban bir necha bolaning otini aytib ko'rsatdi.

Bolalar o'qishlarini to'xtatib, quloq soldilar va xalfaning kimlarni chaqqanini bilmoqchi boldilar.

Ammo domla bunga yo'l bermadi.

Uzun tayog'ini ko'tarib bolalarning boshlari ga uraverdi, bolalar ham qayta boshdan qichqirib o'qishga kirishdilar.

Domla «gunohkor» bolalarning otlarini eshitib bo'lganidan keyin:

– Jim bo'linglar! – deb baqirdi.

Bolalarning barisi birdan o'qishdan to'xtadilar.

Domla xalfa chaqqan bolalarning nomlarini bir-bir aytib chaqirar edi. Domla agar yanglishib bir bolaning o'rninga ikkinchi bir bolani chaqirsa, xalfa uning yanglishini tuzatar, «u emas, bu», deb domлага luqma tashlar edi.

Shunday qilib, o'n-o'n ikki bola domlaning oldiga to'plandilar, ularning hammasi ham kataroq bolalardan edi. Domla xalfaga:

– Eshikni yop, – dedi.

Xalfa maktabning eshigini ichkaridan zanjirlab, zulfiniga cho'p tinqib berkitdi.

– Falloqni ol! – deb domla xalfaga buyurdi.

Xalfa domla yoniga o'tdi va uning orqasida devorga osib qo'yilgan bir yog'ochni oldi. Bu yog'och bir yarim gaz uzunlikda bo'lib, biroz egri va ikki boshida bir tizimchaning ikki uchi tugilgan edi.

– Ahmad, yana sho'xlik qilasanmi? – dedi domla bir bolaga qarab baqirib.

– Domlajon, tavba qildim, men sho'xlik qilgan emasman! – deb u bola yalinishga boshladи.

Biroq domla bu bolaning dod-voyiga, yolvorishiga qulq solmadi va uning yonidagi boshqa bolalarga:

– Bosinglar buni! – deb buyruq berdi.

Ahmadning yonida turgan bolalar uni bosdilar, domlaning yana qayta ikkinchi buyrug'ini kutmasdan uning oyoqlarini falloqning tizimchidan o'tkazdilar va ikki bola falloq yog'ochining ikki uchidan tutib uni buray berdilar. Tizimcha falloq yog'ochiga o'rala boshladи, u bolaning oyog'ini qisdi, bolaning oyog'i borgan sari mahkam qisilar edi, bu qisish shu darajaga yetdiki, bola chiday olmay, dod soldi:

– Voy o'ddim, voy oyoqqinam! – deb qichqirdi.

O'qishdan to'xtagan boshqa bolalar esa qo'rqqan va titragan bir vaziyatda uning

dod-faryodini tinglar edilar. Lekin domla bu holga yo'l qo'ymadni, u uzun tayog'ini qo'liga oldi-da, boshqa bolalarni boshlariga urib, ularni o'qishga buyurdi. Ular ham yig'lab-siqtab baland ovoz bilan o'qishga kirishdilar.

Domla o'z orqasida devorga tirab qo'yilgan tayoqlardan bitta ikki gazligini olib xalfaning qo'liga berdi va:

– Ur! – deb buyurdi.

Xalfa falloqqa bog'langan Ahmadning tovonlariiga ura boshladи.

Endi Ahmadning dod-faryodiga hech chidab turib bo'lmas edi. Biroq uning faryodi boshqa bolalarning kitob o'qishlari, baqirishlariga qo'shilar va uning tovushi baqirishlar ichida singib yo'qolar edi. Shuning uchun o'tkinchilar «bolalar o'qiyaptilar», deb o'ylar va bu vahshiylikdan xabarsiz qolar edilar.

Xalfaning kaltaklari zarbidan avvalo Ahmadning tovonlari ko'karib, qorayib ketdi, so'ngra tirqirab qizil qon chiqdi va tayoqni bo'yab yubordi.

Domla tayoqdagi qonni ko'rib qolgan bo'lsa kerak:

– Endi bas! – dedi.

Xalfa urmoqdan to'xtadi, Ahmadning oyog'ini falloqdan bo'shatdilar.

Oyoq uchlarini yerga bosib o'rnidan zo'rg'a turgan Ahmad qo'li bilan o'z iyagini tutib g'azab bilan: «Xap, sanimi?» degandek qilib xalfaga bir qaradi.

– Muhammadni bosinglar! – deya domla yan-gidan buyruq berdi.

Muhammad ham bolalar tomonidan yerga ag'darilib, Ahmad yo'sinida oyog'iga falloq solindi, buni ham domlaning buyrug'i bilan xalfa tayog'i qonga bo'yalguncha urdi...

Shu tartibda domla oldiga to'plangan o'n-o'n ikki bola bir boshdan bosilib urilib chiqildi.

Mening ularga rahmim kelar edi, chunki ularning hech bittasi bu o'yinga rahbarlik qilmagan, hammasini xalfaning o'zi boshlagan bo'lib, yana uning o'zi domлага chaqqan va bolalarni yana o'z qo'llari bilan tayoqlagan ham xalfaning o'zi edi. Men bu holni domлага ochib tashlamoqchi bo'sam-da, xalfadan qo'rqa-nimdan nafasimni chiqarolmadim.

Lekin mening kaltaklangan bolalarga rahmim va xalfaga qarshi g'azabim uzoqqa cho'zil-madi. Domla xalfa tomonidan «aybdor» sanal-gan bolalarning hammalarini urdirib bo'lgan-dan keyin xalfaga qarab:

– Men bilamanki, har bir shumlikni sen o'zing boshlaysan! – dedi va tayoq yegan bolalarga qarab:

– Bosinglar bu shumning o'zini! – dedi.

Oyoqlarini dam-badam yerga bosib javrashib, hanuz tikka turgan boyagi tayoq egan bolalar shu buyruqni kutayotgan kabi birdan xalfani bosib yiqitdilar va oyog'ini falloq tizimchasidan o'tkazdilar. Bir nechalari kuchlarining boricha falloq yog'ochini buray boshladilar.

– Voy, oyoqlarim sindi, astaroq, men bu qadar qattiq buramagan edim, insof qilinglar! – deb xalfaning baqirishiga ular hech qulq solmas edilar.

Domla o‘z oldidagi tayoqlardan eng zo‘rini tanlab, haligi tayoq yegan bolalardan birining qo‘liga berdi va:

– Ur! – dedi.

Bola tayoqni oldi-da, xalfanинг оyoqlariga ura boshladi. Falloq yog‘ochini tutgan bolalar uni yana ham qattiqroq burar edilar. Xalfa bo‘lsa:

– Ko‘nglingiz tilaganicha uring, lekin falloqni muncha qattiq buramang! – deb yalinar edi. Ammo bolalar yana ham qattiqroq burar edilar.

Birinchi bola xalfanинг oyog‘iga bir necha marta urgandan so‘ng domla tayoq yegan ikkinchi bolaga qarab:

– Endi sen ur, qarzingni undir, – dedi.

Bu bola yana ham qattiqroq urishga tutindi... Shu yo‘sinda xalfadan tayoq yegan bolalar o‘z navbatlarida o‘z «qarzlarini oshig‘i» bilan undirdilar.

– Endi bas! – deya domla urayotgan bolani urishdan to‘xtatdi, lekin falloqni burayotgan bolalar hali bo‘shatmas edilar.

– Tag‘in nima deysanlar, hali ham alamlaring chiqmadimi? – deb domla falloqni tutib turgan bolalardan so‘radi.

– Tuz, – dedi ularning littasi.

– Ha, ha, darvoqe, tuz! – deb takrorladi domla va ko‘rpachasining ostini titkilay boshladi.

– Menda tuz yo‘q ekan, qani kimda bor?

Tayoqlangan bolalar o‘z kissalarini qidira boshladilar, ularning bir-ikkitasining kissasi dan lattaga tugilgan mayda tuz chiqdi.

– Seping! – dedi domla.

Bolalar unday mayda tuzni xalfaning yorilgan oyoqlariga sepdilar va qo'llari bilan bosib, bu tuzni yorilgan oyoqning go'shtlari orasiga-chá yubordilar.

Xalfa esa bu holga chiday olmay bo'g'izlanayotgan ho'kiz singari baqirar edi.

— Bo'shatinglar! — dedi domla.

Bolalar falloq yog'ochini teskarisiga burib xalfaning oyog'ini bo'shatdilar. Xalfa ko'z yoshini yengi bilan arta-arta oqsab, o'z joyiga borib o'tirdi. Bolalar hali ham baland ovoz bilan qichqirib o'qimoqda edilar.

Domla uzun tayog'ini ko'tarib bir boshdan bolalarning orqalariga urib chiqdi, shundan so'ng:

— Jim! — deb buyruq berdi.

Bolalar o'qishlarini to'xtatib, domlaga qaradilar.

— Bugun bo'yralarning barisini titibsizlar, erta har birlaringiz sakkiz pul bo'yra puli keltirinqlar! — dedi.

— Keltiramiz, keltiramiz! — deb bolalar ovoz berdilar.

— Ozod! — deb yubordi domla.

Bolalar kalxatdan qochgan chumchuqlar to'dasiday tapirlashib, birdan o'rinalidan turdilar-da, eshikka tomon yugurdilar. Eshik hali ham zanjir edi. Xalfa avaylab o'rnidan turdi va oqsay-oqsay eshikning oldiga keldi-da, eshikni ochdi va hammadan oldin o'zi chiqdi. Uning orqasidan boshqa bolalar bir-birovlarini turtib, bosib hovliqa-hovliqa eshikka otildilar. Hammadan keyin men chiqdim.

Bolalarning barisi mакtabxonanинг ешиги oldida to'planib turdilar, xalfa ularga qarab:

– Salom! – dedi.

– Assalomu alaykum! – deb bolalar bir ovozdan baqirdilar va so'ngra butun bolalar har to-monga qarab qochib tarqalishdilar.

Ammo xalfa bilan tayoq yegan boshqa bolalar mакtabxona orqasidagi tor ko'chaga to'plandilar. Bu mening ketish yo'llim edi. Xalfa ularga:

– Ertaga chillakbozlik va bedanavozlik qila-miz, tayyorlanib kelinglar, – dedi.
– Durust, durust! – degan holda bular ham o'z uylariga tomon tarqalishdilar.

IV

Men uyga bordim va onamni ko'rishim bilan yig'lab yubordim, onam:

– Senga nima bo'ldi, nega yig'laysan? – deb so'rasha ham men javob berolmas edim. Qayer-dandir otam kelib qoldi, u onam kabi yumshoq til bilan emas, balki shiddat bilan yig'imning sababini so'radi:

– Senga nima bo'ldi, tez ayt! Bo'lmasa qulog'ingni kesaman! – dedi.

Men yig'i aralash hiqillab:

– Bolalar bir-birovlari bilan urishdilar, – de-dim.

– Bolalar bir-birovlari bilan urishsalar, senga nima? – deb otam qo'shimcha qilib so'radi:

– Sen-ku, urishmagansan, seni birov ham urgan emas, nega yig'laysan?

- Domla ularni urdi.
- Yaxshi qilibdi, urishqoq bolalarni uradilar.
- Men maktabga bormayman.
- Noma'qul qilbsan, - dedi otam va biroz jim turganidan so'ng yumshoqlik bilan so'radi:
- Nega maktabga bormaysan?
- Domla uradi.
- Urishga haddi yo'q, urolmaydi. Agar domla seni ursa, men uning qulog'ini kesib olaman, - dedi otam va kissasidan pichoqchasini chiqarib menga ko'rsatib takrorladi:
- Agar domlang seni ursa, shu pichoqcha bilan uning qulog'ini kesib olaman.

Men otamning bu so'zidan juda quvondim.

«Mayli, domla meni bir marta urib ko'rsin, men uni otamga aytay-da, otam domlaning qulog'ini kessin, men borib uning kesilgan qulog'i-ni tomosha qilay», - deb ko'nglimdan o'tkazdim.

Lekin bu tilakdan o'zim qo'rqa boshladim. Chunki shu yoshga kirgunimcha men hech qattiq kaltak yemagan edim. Domlaning tayog'i oyog'imga tegayotganini xayolimdan o'tkazganimda, tovonlarim achir, lovillab og'rir va nafasim qisilib, o'pkam orqamga yopishar edi, shuning uchun domlaning qulog'i kesilgan holda ko'rish tomoshasi bahridan o'tmoqchi bo'ldim.

Lekin ko'nglim bunga ham rizolik bermas edi. Chunki qo'shnimizning qulog'i kesilgan bir eshagi bor bo'lib, egasi uni minib chiqqanda, bolalar har qachon:

- Qulog'i yo'q eshak, quloksiz eshak! - deya qiyqirib chapak chalib kulishar edi. Men bo'l-

sam, bolalarga qo'shilib quvongan holda yugu-raverar edim.

Men o'ylar edim: «Agar bolalar domlaning qulog'i kesilganini ko'rsalar, bu kungiday o'y-naymiz deb bir-birovlarini urib yurmaslar, balki quloksiz domlani ko'rish ular uchun rosa maroqli tomosha bo'lar edi-da».

Mening xayolimga bir tadbir keldi, agar u tadbir amalga oshsa edi, o'zim tayoq yemasdan, domlani quloksiz holda ko'rар edim. Shu mulohaza bilan otamga aytdim:

- Agar avval borib domlaning qulog'ini kesmasangiz, men mактабга bormayman.
- Unday bolsa men ham senga kurra olib bermayman, - dedi otam.

«Oh, kurra!! U qanday yaxshi narsa-ya! Agar uning bo'yniga qo'ng'iroq va po'pakli qizil bo'yinbog' bog'lasang... Eh-he... qanday yaxshi bo'ladi-ya!.. Mingan vaqtida u dingillab, quloklarini dikkaytirib va oyoqlarini tipirlatib chop-sa, o'zingni eshakka mingan emas, balki bulut-ga minib havoda kezgan sezasan».

Kurraning shirin xayoli maktabning har bir qiyinchiliklarini menga osonlashtirdi, maktabga bormoqchi bo'ldim, lekin otamdan yana bir narsani undirmoqchi bo'lib:

- Agarda kurrachamga po'pakli qizil bo'yinbog' va qo'ng'iroq olib bersangiz, mayli, maktabga boraman, - dedim.
- Balli, - dedi otam quvonch ohangi bilan,
- sen maktabga yig'lamay borib kelaver, men senga xohlagan narsangni olib beraman.

Men ko'z yoshimni yengim bilan artdim va onamdan bir parcha non oldim-da, bog'chaga chiqdim, u yerda tol novdasidan bir xipchin sindirib oldim va uni xalacho'p o'rnidida ishlatib bog'chaning devoriga minib, uni eshak deb faraz qildim. Nondan ba'zan bir tishlam yeganim holda devorni «xix-xix»lab, xalacho'p bilan urib, haydagan bo'lar edim. Shubhasiz, devor qimir-lamas, boyagiday turaverar edi. Shunday bo'lsa ham xayolimni o'ziga tortgan kurrani orzu qilib, ko'nglimni xushvaqt qilar edim.



Ikkinchchi kun erta bilan maktabga bordim, hujrada domladan boshqa kishi yo'q edi. Men unga salom berib, o'zim uchun muayyan bo'lgan joyimga borib o'tirmoqchi bo'ldim.

– Bo'yra pulini keltirdingmi? – so'radi domla mendan.

– Yo'q, esimdan chiqibdi! – dedim.

– Bo'yra pulini unutibsang, qanday mulla bo'lasan? Tez bor, otangdan sakkiz pul bo'yra puli olib kel!

Men taxtachamni o'z o'rnim oldidagi tag sin-chning ustiga qo'ydim-da, maktab hujrasidan qaytib chiqdim. Hali maktabdan uncha ham uzoqlashmagan edim:

– Sadriddin! – degan tovush eshitildi. Qayrilib qaradim. Meni domla chaqirar edi. Yo'limdan qaytib, domlaning ro'parasida, unga ko'zimni tikkan holda to'xtadim.

— Qo'lingni qovushtir! — dedi domla, bir dara-ja rizosizlik ohang bilan.

Uning buyurishiga ko'ra qo'limni qovushtir-dim, shu bilan shubhalangansimon domladan ko'zimni uzdim-da, uning orqasida devorga qator tirab qo'yilgan katta-katta tayoqlarga ti-kildim. Domla qo'lini haligi tayoqlarga tomon uzatdi, men esam, endi domla uradi, deb qo'r-qdim va ixtiyorsiz ravishda:

— Agar siz meni urar ekansiz, otam sizning qulog'ingizni kesadi! — deb baqirdim.

U kuldi va:

— Yo'q, seni urmayman, sho'xlik qilmasang, hech ham urmayman, — dedi. Men uning bu kulgisidan tinchlandim-da, ikkinchi buyrug'ini kutib turdim. Qisqa tayoqlarni to'plab oldi va menga uzatib:

— Bularni machitning hovuziga eltib tashla, so'ngra borib otangdan bo'yra pulini olib kel! — dedi.

Men bir tomondan, tayoqlarning maktab hujrasidan yo'qolishi, ikkinchi tomondan, domla ning kulganidan quvongan holda, oyoqlarim yerga tegmas darajada yugurdim.

Avval tayoqlarni hovuzga eltib tashladim, so'ngra uyga borib tegirmon charxi yo'nayotgan otamdan bo'yra pulini so'rardim.

— Necha pul kerak ekan? — deb so'radi otam.
— Sakkiz pul.

Otam kissasini kovlab mening qo'limga sak-kiz pul chiqarib berdi. Men otamning do'konxonasidan chiqar ekanman, otamga qarab:

– Ota, domla menga kulib qaradi, «seni urmayman», dedi buning ustiga tayoqlarni ham menga berdi, men ularni hovuzga tashladim,

– dedim.

– Yaxshi bo'pti. Tez bor, sabog'ingni takrorla,

– dedi otam.

Shoshib-pishib maktabga bordim. Bu vaqtda bolalarning bir qismi maktabga kelgan ekan. Domla bo'yra pulini yig'ib olish bilan ovora edi. Men ham otam bergen sakkiz pulni unga bermoqchi bo'lib, qo'llarimni qovushtirdim va kaf-timdagi pullarni barmoqlarim orasidan unga ko'rsatdim.

Maktabdor tag'in kulib:

– Balli, endi odobli bo'libsan, – dedi va yana qo'shimcha qilib:

– Pul berganda qo'lingni qovushtirmasang ham bo'ladi, – dedi.

Men domlaning bu so'zidan botirlanib, chap qo'limni ko'kragimga qo'yganim holda, o'ng qo'lim bilan pulni uzatdim.

Domla mening qo'limdan pulni olib:

– Ilohi katta bo'l, mulla bo'l! – deya duo qildi.

«Domla uncha yomon odam emas ekan, tayoqlarni maktabdan yo'qotdi va maktabning bo'yrsasi uchun olingen pul badaliga mening haqimga duo ham qildi», deb xayolimdan o'tkazdim.

Domla yana o'zining pul toplash ishiga kиrishdi, u pul keltirmagan bolalarni uylariga qaytarib yuborar edi. Ba'zi bolalar esa ikkinchi qayta ham pul keltirmas va:

— Otam, «bozor kuni beraman», dedilar, — de-gan xabar keltirar edi.

Men ham to hammalaringiz pul keltirma-guncha yangi bo'yra olmayman, bu eskirgan bo'yralaryni yoqish uchun yig'ishtirib, tahorat-xonaga topshiraman. Siz esangiz, tuproq us-tiga o'tirishga majbur bo'lasiz va o'yin uchun cho'p ham topolmaysiz, — dedi.

Domlaning bu do'qini eshitgandan keyin pul keltirgan bolalar pul keltirmagan bolalarni turtib:

— Sakkiz pul bersa otang o'ladimi, keltir-gin-da, — deyar edilar.

— Bozor kuni dedim-ku, — deb yig'lab yubordi bola.

Men ham o'z ichimda bu bolalarning otalari-ni xasis va qattiqqo'l deb o'ylar edim. Men ikki tiyinga baravar bo'lgan o'sha vaqtligi sakkiz pulning qancha qurbi va qimmati borligini bil-mas edim. Pul to'plash janjali bilan kun tushga yaqinlashdi va domla:

— Turinglar, nonxo'rak! — deb yubordi.

Bolalar gurillashib turdilar va tunov kungi singari maktabning eshididan chiqib salom be-rib, uyma-uy tarqalishdilar...

Men ham o'z uyimga keldim, ovqatlandim va mushugim bilan biroz o'ynagandan so'ng qay-tib maktabga bordim.

Domla hali ham mактабда о‘тирар, болalar ham birin-sirin qaytishib kelmoqda edi. Birozdan so‘ng bolalar yig‘ilishdilar.

Domla:

– O‘qinglar! – degan holda uzun tayog‘ini ko‘tarib, bolalarning orqalariga ura boshladi. Bolalar qichqirib, o‘qishga kirishdilar. Men ham «alif, be, te, se», deb qichqirar edim. Domla xalfaga qarab:

– Bolalarga saboq, ber! – dedi.

Xalfa kechagi yegan tayoqlarining zarbi ketmaganlikdan oqsay-oqsay, har bir bolaning oldiga navbatma-navbat borib, saboq bera boshladi.

Bukun menga domlaning o‘zi saboq bermoqchi bo‘ldi, meni o‘zining ro‘parasiga o‘tqazdi, oldimga taxtachamni qo‘ydi va:

– Sabog‘ingni o‘qi! – dedi.

Men taxtachaga qaramasdan:

– Alif, be, te, se, – dedim.

– Durust, balli, – dedi domla va o‘zi xat yo-zish bilan ovora bo‘lgani holda:

– Pastdagisini o‘qi, «jim, he, xe» deb, – dedi.

Men domlaning og‘zidan chiqqan bu uch harflarning nomini takrorlay berdim. Men hech taxtachaga qaramasdan ikki ko‘zimni domlaning chirkin va so‘lg‘in yuziga, nursiz ko‘zi va gapirgan chog‘ida iyagi bilan baravar yuqori, quyi chiqib tushadigan echki soqoliga tikkan edim.

Domla bir necha bor o'zi o'qib, meni ham ergashtirib o'qitganidan keyin:

- Endi o'zing o'qi, - dedi.
- Alif, be, te, se, - deb o'qidim men.
- Yo'q, - dedi u, - pastdagisini o'qi!

Ammo men bularning qaysi biri yuqori, qaysi birisi pastda ekanligini bilmas edim. Shuning uchun ham domlaning basharasini tomosha qilganim holda, qo'l qovushtirib jim turaverdim.

- Pastini o'qi deyman! - dedi domla g'azab bilan.

Uning o'zi hamon xat yozish bilan ovora edi. U qo'lidagi yozilgan qog'ozni yerga qo'ygandan keyin menga qarab biroz jim turdi va:

- Sen zehni past bola ekansan-ku, shuncha o'rgatganim bilan hali ham o'rganmagansan, - dedi.
- Nimani o'rgatdingiz? - deb so'radim men.
- «Jim, he, xe»ni, - dedi u.
- Bularni bilaman, - dedim. - Jim, he, xe, - deb takrorladim va yana ilova qildim:
- Bularni bilamanku-ya, ammo pastdagisini bilmayman.
- Pasti shu, bor joyingga, o'qiy ber!

Men o'z joyimga borib o'tirib «Jim, he, xe»ni takrorlashga kirishdim, lekin hali ham ko'zimni domlaning yuzidan, ayniqsa, uning echki soqolidan uzmas edim, ko'zini yarim yumib, jim turib xat yozayotgan paytidagi soqoli mening ko'zimga qiziq ko'rinar edi, bu hol echkimizning soqolini esimga tushirar edi.

Bir vaqtarda bir echkimiz bo'lib, uni men boqib yaxshigina semirtirgan edim. Qish qattiq keldi, ariqlar tamom muzladi, tegirmonlar yotdi, otamning yo'nib qo'ygan tegirmon charxlari ni hech kim sotib olmadi, otam ikki oy badalida go'sht olishga pul topmadni, oxiri u echkini so'ymoqchi boldi. Men unamay dod-u faryod qildim, ammo otam mening dod-u faryodimga qaramasdan, pichoqni qayradi, echkini yotqizib oyoqlarini bog'ladi, onam uning bog'langan oyoqlarini bosib turdi va otam so'ydi.

Men yig'lay-yig'lay echkiga termular edim. Echki jag'ini qimirlatib jon uzayotganida soqolining yuqori, quyi qimirlashi domlaning gapirganidagi silkingan soqoliga o'xshar edi. Echki so'yilib, boshi gavdasidan ajratildi. Shunda men echkining boshini ko'tarib uni erkabal, tomosha qildim, echkining ko'zi yarim yumuq edi, soqoli esa tikkayib ko'tarilib turar edi. Jim turib xat yozayotgan domlaning soqoli ham xuddi shu so'yilgan echkining soqoli singari edi. Men domlaning haligi holini ko'rganimdan keyin darhol echkimni xayolimga keltirdim va uni eslab qayg'ulandim, biroq shunday bolsa ham «jim, he, xe» deb takror qilar edim.

Qandaydir bir kishi tashqaridan domla o'tirgan joydagi darchani taqillatdi. Domla:

— Kimdir u? — degan holda darpardani ko'tardi.

Keluvchi paranji va chachvon yopingan bir xotin edi, u domлага yengiga o'ralgan qo'li bilan bir tanga pul uzatib:

— Bu nazrni oling, bosh og'riq, tish og'riq, ko'z og'riq duolari ham tug'ish vaqtida qiyinchilik chekayotgan xotin uchun kushoyish duosini yozib bering! — dedi va qo'shimcha qilib:

— Bolalarni ham bugun ozod qiling! — dedi.

— Bir tanga uchun to'rtta duo, buning us-tiga bolalarni ham ozod qilay? Bu bo'lmaydi. Hech bo'lmasa yana bir tanga bering! — dedi domla.

— Men uzoq yo'ldan — Obkina qishlog'dan keldim, — dedi xotin, — meni xotini tug'olmay qattiq dard chekayotgan Sharafboy bir tan-ga berib kushoyish duosi olib kelish uchun yuborayotganda, kasal bo'lib qolgan boshqa qo'shni xotinlar ham o'z dardlari uchun duo buyurdilar va «har vaqt pul topsak dom-laning nazrini beramiz, o'shanda eltib bera-san», dedilar. Siz duolarni bering. Ular pul berishlari bilan keltirib beraman. Hozircha xudoning rizosi uchun bolalarni ham ozod qiling.

Domla tangani olib kissasiga soldi, ertadan beri yozib, o'z oldini to'ldirib yuborgan xatlari-dan to'rt donasini oldi va uchburchak shaklida bukib, xotinga uzatdi.

Xotin duolarni olayotib:

— Bu duolarning qaysi-qaysisi qanday dard uchun? — deb so'radi.

— Bular hammabop duolardir, — dedi domla, — qaysisini qanday kasalga bersangiz — agar u ixlos qilar ekan — hech shaksiz tuzaladi.

Xotin «hammabop» duolarni olib ketdi. Domla bukun «Xudoning rizosi uchun» bolalarni ham ozod qildi.

Shunday qilib, biz ham mакtabxona zindondan ozod bo'ldik.

VII

Biz mакtabga bordik, hali nonxo'rak vaqtি bo'lgancha yo'q edi, mакtab oldiga bir otliq keldi:

– Domla, domla! – deb domlamizni chaqirdi.

Domla darchaning darpardasini ochib:

– Ha, nima gap? – deb so'radi:

– Obkinada janоза, Sharafboyning xotini o'лди, – dedi-da, otini bir tomonga qarab surib ketdi.

Domla shoshilib, sallasini boshidan olib qo'ydi va tahorat qilish uchun bo'lsa kerak, mакtabxonadan tashqariga tomon yo'naldi.

– Duoyingiz foyda bermabdi-da, domla, Sharafboyning xotini o'libdi-ku, – dedi xalfa domla ni masxaralagan bo'lib.

– Shakkoklik qilma! – dedi domla va yana qo'shimcha qildi: – Duo, albatta, foyda berar edi, u o'zining ixlossizligidan o'ган, agar ixlosi bo'lsa, qutular edi. «Ixlos – xalos» deganlar.

Domla tashqariga chiqarkan:

– Sizlarga choyxo'rak! – dedi.

Bolalar choyxo'rak uchun tarqaldilar, men ham uyimizga keldim.

Biror soatdan keyin mакtabga qaytdim, bolalar endigina yig'ilisha boshlagan edilar. Butun

bolalar yig'ilib bitganlaridan so'ng xalfa ularga murojaat qilib:

- Bolalar, bir maslahat! – dedi.
- Qanday maslahat? – degan tovush o'nlar-cha og'izdan birdan chiqdi.
- Biz qanday o'yin o'ynasak ham hech kim domlaga xabar bermasin va hech bir bola ik-kinchi bolaning ustidan chaqimchilik qilmasin!
- dedi xalfa.
- Avval o'z og'zingni tiy, – dedi xalfaning chaqishi bilan domladan tayoq yegan bir bola.
- Bundan so'ng men hech ham chaqmayman, sizlar ham shunday qilinglar, «tuya ko'r-dingmi, yo'q», – dedi xalfa katta bolalarga va menga qarab so'zini davom ettirdi:
- Sen ham otangga xabar berib yurma tag'in!
- dedi. – Sening otang ig'vegar, bir kun o'rikla-ringizdan o'g'irlagan edim, otang ko'rib qolib, buni ham otamga, ham domlaga chaqibdi. Ham otamdan, ham domladan kaltaklanib o'la-yozdim, – dedi.

- Xo'p, aytmayman! – dedim men.
- Agar ayta ko'rsang, – dedi u, – seni bolalar-ga buyurib «xar murd» qildiraman.

- Aytmayman, xabar bermayman, – deb ta'kidladim men.

Men birinchi marta «xabar bermayman» deb yuzaki aytgan bo'ssam ham ikkinchi daf'ada astoydil va qat'iy ishonch bilan va'da bergen edim, negaki men «xar murd»dan benihoya qo'rqar edim.

Bir kun bir maddoh bizning qishloqqa ke-lib ma'raka qildi. Qishloq kattalari qo'shni

qishloqqa to'yga ketgan edilar. Maddohning bu ma'rakasida yoshlardan boshqa kishi yo'q edi. Maddoh hikoya boshladi, hikoyasi qiziq bir joyga kelganda u yig'ilganlardan talab qildi:

– Har kim nimaga qudrati yetsa, ya'ni nonmi, pulmi, meva-chevami, o'rik-magizmi keltirib bersin, hikoyaning qolganini so'ngra ayta man, – dedi.

Bolalar va yosh o'smirlar o'z uylariga qarab yugurdilar, har kim maddohga bir narsa keltirib berdi. Men ham uyga borib, onamdan bir hovuch o'rik olib keltirib maddohga berdim.

Maddoh yig'ilgan pullarni kissasiga soldi va narsalarni xurjuniga tiqib:

– Hikoyaning davomini kelajak haftada kelib aytib beraman, – dedi va eshagiga minmoqchi bo'ldi.

– Davomini hozir aytib bering! Agar narsa oz yig'ilgan bo'lsa, yana ozmi-ko'pmi yig'ib berib, sizni xursand qilamiz, – deya yoshlar qancha yalinsalar ham maddoh unamadi va eshagiga minib jo'namoqchi bo'ldi.

Shu vaqtda yoshlardan biri:

– «Xar murd!» – deb tovush chiqardi.

Hamma birdan:

– «Xar murd, xar murd»... – deb maddohga yopishdilar va uni eshakdan ag'darib bosib ura boshladilar.

– Voy o'ldim, qo'yib yuboring, hikoyaning davomini hoziroq aytib beraman! – deb baqirar edi maddoh.

– Sizning hikoyangizdan ham «xar murd» qiziqroq, – deb yoshlar uni yana urar edilar.

Oxirida maddoh holdan ketdi, endi dodlashga ham kuchi yetmas edi.

– Endi buni suvga bosamiz, ko'taringlar! – deb birov ovoz berdi.

Hamma birdan yopishib, joni chiqayozgan maddohni ko'tardilar va uni bizning qishloq o'rtasidan oqadigan «Mazrangan» arig'iga tashladilar.

Maddoh suvga tashlanishi bilan og'irligi sabidan sho'ng'ib ketgan bolsa ham jon talvasasi bilan suzib suvning yuziga chiqdi-da, suza boshladi. Ammo yoshlar uni kurk tovuqni suvga pishganday pishar, sho'ng'itar edilar.

Oxirida maddoh yuvmoq uchun taxtaga olin-gan o'liday bo'ldi, shundan so'ng uni suvdan tortib chiqardilar, maddohning oqib ketgan sal-lasini bolalar tutib keldilar. Sallani maddohning xurjuniga ho'lligicha tiqdilar, maddohning o'zini ham ho'l bo'lgan kiyimlari bilan ko'tarib, eshagini ming'izdilar va eshagini sag'risiga urib:

– Bor, daf bo'l, yo'qol! O'zing oldinda va hikoyang orqangandan jo'nasin, – deyishdi.

Men mana shu voqeadan so'ng «xar murd»-dan benihoya qo'rqrar edim, shuning uchun xal-faning mening «xar murd» bilan qo'rqtishidan so'ng, bularning o'yinlarini otamga aytmaslikka chin ko'ngildan va'da berdim.

Xalfa otamga aytmaslikka mendan qat'iy va'da olgandan keyin:

– Bolalar, endi danakbozlik qilamiz! – dedi.

Bolalar bundan burun ham mакtabda bu o'yinni bir necha martalab o'ynagan bo'salar kerak, darrov o'rинlaridan turib, titilgan bo'yralarni yig'ishtirdilar va danak o'yini uchun chuqurchalar qazidilar.

O'ynadilar, orada ancha danak yutildi va yutqazildi, «hunarli» bolalar sodda bolalarni al-dadilar, kuchli bolalar kuchsiz, bechoraroq bolalarni urib, danaklarini tortib oldilar. Natijada yana urishish, ko'yлak yirtish va yuz tирnashlar boshlandi.

Bolalardan biri menga kelib yopishib:

– Sen ham biz bilan danak o'yna, bo'lmasa o'rтaga solib seni «kallakobak» qilamiz, – dedi.

Mening danagim ham yo'q edi, danakbozlikni ham bilmas edim.

Lekin men «kalla kobak»dan juda qo'rqar edim; chunki bu juda yomon o'yin edi, bir necha bolalar bir bolani o'rтaga olib uning boshini yalang'ochlaydilar-da, tirnoqlarining uchi bilan, qizilishtonning daraxtni cho'qigani singari bolaning yalang'och boshiga uradilar.

Men qanday qilib «kalla kobak» balosidan qutulish yo'llini topolmasdan tang qotdim.

Xayriyat xalfa meni quvvatlab:

– Uni o'z holiga qo'ya beringlar, – dedi, – uning otasi juda yomon odam.

Xalfanинг отамни «yomon odam» degани менинг ко'nglimga naqadar qattiq tekkan bolsa ham uning bu so'zi bilan «kalla kobak» azobidan qutulganim uchun undan minnatdor bo'ldim. Endi men uchun bu kabi balolardan qutulishга yaxshi bir yo'l topilgan edi, qachon bo'lmasin bolalar menga tega ko'rsalar, men xalfaga qarab, dod solib:

— Yo bolalarингни yig'ishtirib ol, yo bo'lmasa o'yinlaringizни otамга аytaman, — der edim.

Xalfa ham meni darhol bolalar changalidan qutqarib qolar edi. Xalfa domlaning uzun ta-yog'ini olib, bolalarni bir boshdan urib o'rinalriga o'tqazdi va danakbozlik janjalini bartaraf qilgandan keyin:

— Bolalar, endi navbat bedanabozlikka! — dedi.

Ammo bu o'yinga bolalarning ko'pchiligi rag'bat ko'rsatishmadi, chunki xalfa va Ahmad-dan boshqa bolalarning bedanalari yo'q edi.

— Bizda bedana bo'lmasa, nima bilan o'ynaymiz? — deyishdi bolalar.

Xalfa bo'lsa buning ham ilojini topdi:

— Bizning ikkalamiz bedanalarimizni urishtiramiz, sizlar «bolagarov» bog'langlar! — dedi.

— Durust, unday bo'lsa, biz uylarimizga borib pul yo danak keltiraylik, — deyishdi bolalar.

— Ma'qul! — dedi xalfa.

Bolalarning ko'pi ketdi, xalfa qolgan bolalar bilan titilgan bo'yralarni qaytadan joy-joyiga yoydilar, faqat hujraning o'rtasidagi katta oxurning o'rta belidan bir parcha yerni to'garak shaklida ochiq qoldirdilar.

Uylariga ketgan bolalar qaytib keldilar, bedanabozlik boshlandi.

Xalfa Ahmad bilan orasi ochiq qoldirilgan davra tevaragida bir-birovlariga qarama-qarshi o'tirdilar, ularning yonlarida boshqa bolalar ham davra qurib o'tirdilar. Davra to'lgandan keyin qolgan bolalar ularning orqalarida tikka turdilar.

Xalfa bilan uning qarshisida o'tirgan Ahmad qo'ynilaridan bedanalarini chiqardilar, bedanalarining tumshuqlarini yaladilar, ularning oyoqlarini cho'zib qanotlariga tufuklarini suv o'rnila surkadilar, qanotlarini taglarigacha ho'lladilar. So'ngra xalfa Ahmadga qarab:

– Mening necham bilan sening nechang? – dedi.

– Mening yigirmam bilan sening yigirmang! – deya Ahmad javob berdi.

– Mening o'ttizim bilan sening o'ttizing! – deb xalfa orttirdi.

Oxirda o'yin «mening yuzim bilan sening yuzing»ga borib taqaldi. Bu shunday bo'ladiki, kimning bedanasi qochsa, qochirgan bedanining egasiga yuz dona danak to'laydi.

– Sizlar ham «bolagarov» bog'langlar! – dedi xalfa boshqa bolalarga qarab.

Boshqa bolalar ba'zilari xalfaning bedanasi ustidan «uning bedanasi zo'r chiqishini bahslashib», ba'zilari «Ahmadning bedanasi zo'rligaga» bahslashib, bir-birovlari bilan garov bog'langalar. Ularning ham har qaysilari o'z hollaricha

Xalfanинг отамни «yomon odam» degани менинг ко'nglimга naqadar qattiq tekkan bo'lsa ham uning bu so'zi bilan «kalla kobak» azobidan qutulganim uchun undan minnatdor bo'ldim. Endi men uchun bu kabi balolardan qutulishga yaxshi bir yo'l topilgan edi, qachon bo'lmasin bolalar menga tega ko'rsalar, men xalfaga qarab, dod solib:

– Yo bolalarингни yig'ishtirib ol, yo bo'lmasa o'yinlaringизни otamга aytaman, – der edim.

Xalfa ham meni darhol bolalar changalidan qutqarib qolar edi. Xalfa domlaning uzun tuyog'ini olib, bolalarni bir boshdan urib o'rinalriga o'tqazdi va danakbozlik janjalini bartaraf qilgandan keyin:

– Bolalar, endi navbat bedanabozlikka! – dedi.

Ammo bu o'yinga bolalarning ko'pchiligi rag'bat ko'rsatishmadi, chunki xalfa va Ahmad-dan boshqa bolalarning bedanalari yo'q edi.

– Bizda bedana bo'lmasa, nima bilan o'ynaymiz? – deyishdi bolalar.

Xalfa bo'lsa buning ham ilojini topdi:

– Bizning ikkalamiz bedanalarимизни urishtiramiz, sizlar «bolagarov» bog'langlar! – dedi.

– Durust, unday bo'lsa, biz uylаримизга borib pul yo danak keltiraylik, – deyishdi bolalar.

– Ma'qul! – dedi xalfa.

Bolalarning ko'pi ketdi, xalfa qolgan bolalar bilan titilgan bo'yralarni qaytadan joy-joyiga yoydilar, faqat hujraning o'rtasidagi katta oxurning o'rta belidan bir parcha yerni to'garak shaklida ochiq qoldirdilar.

Uylariga ketgan bolalar qaytib keldilar, bedanabozlik boshlandi.

Xalfa Ahmad bilan orasi ochiq qoldirilgan davra tevaragida bir-birovlariga qarama-qarshi o'tirdilar, ularning yonlarida boshqa bolalar ham davra qurib o'tirdilar. Davra tolgandan keyin qolgan bolalar ularning orqalarida tikka turdilar.

Xalfa bilan uning qarshisida o'tirgan Ahmad qo'ynilaridan bedanalarini chiqardilar, bedanalarining tumshuqlarini yaladilar, ularning oyoqlarini cho'zib qanotlariga tufuklarini suv o'rniда surkadilar, qanotlarini taglarigacha ho'lladilar. So'ngra xalfa Ahmadga qarab:

- Mening necham bilan sening nechang? – dedi.
- Mening yigirmam bilan sening yigirmang! – deya Ahmad javob berdi.
- Mening o'ttizim bilan sening o'ttizing! – deb xalfa orttirdi.

Oxirda o'yin «mening yuzim bilan sening yuzing»ga borib taqaldi. Bu shunday bo'ladiki, kimning bedanasi qochsa, qochirgan bedanining egasiga yuz dona danak to'laydi.

– Sizlar ham «bolagarov» bog'langlar! – dedi xalfa boshqa bolalarga qarab.

Boshqa bolalar ba'zilari xalfaning bedanasi ustidan «uning bedanasi zo'r chiqishini bahslashib», ba'zilari «Ahmadning bedanasi zo'rligiga» bahslashib, bir-birovlari bilan garov bog'ladilar. Ularning ham har qaysilari o'z hollaricha

sening o'ningga mening o'nim yo ortiqroq qili-shib: «bolagarov» qo'yishdilar.

Garovlar bog'lanib bo'lgandan so'ng ikki bedanani to'garak ichida (ma'rakada) bir-birov-lari bilan urishtirildi.

Ikkala bedana ham panjalarini yozib, patlارини hurpaytirib, bo'yinlarini cho'zib urishish-ga kirishdilar.

Birinchi bedana ikkinchisining bo'ynidan tishlab tortar, ikkinchisi birinchisining qu-log'idan tishlab tepar, biri pixi bilan o'z dushmanining ko'zini tirnar, ikkinchisi unisining bo'ynidan tutib yerga bosmoqchi bo'lar edi...

Oz vaqtda bedanalarning boshlari va yuzlari o'z qonlari bilan bo'yaldi, ammo hech biri ham qochmadi.

Bedana egalari ularni ajratib oldilar va u yoq bu yoqlarini qashidilar, bosh-oyoqlarini siladilar, qanot va tirnoqlarini ho'lladilar, bedanalar biroz dam olgandan keyin tag'in urishga qo'y-dilar. Ular yana urisha ketdilar...

Shu singari bir necha bor urishgandan keyin Ahmadning bedanasi «churq» dedi-da, urishni tashlab davradan qochdi va xalfaning bedanasi uni davrani aylantirib quvlay ketdi.

Bolalar qiyg'os chiqardilar: chapak, hush-tak, jirtak chalishlar boshlandi...

IX

Bedana urishtirish orqasidan qo'zg'algan shovqin-suron hali bitgancha yo'q edi, kutil-maganda domla kirib keldi, danak uchun uy-

lariga borgan bolalar hujraga kirganlarida, ehtiyyotsizlik qilib hujra eshigini ichkarisidan zanjirlamagan bo'lsalar kerak, domla eshikni taqillatishga ehtiyoj sezmay, to'g'ri hujraga kira oldi.

Bolalar shu darajada o'yin-kulgi va shovqinsuron bilan ovora edilarki, ular domlaning o'z joyiga o'tib uzun tayoqni olib, boshlariga kaltaklaguncha uning kelishidan hech bir bola xabardor bo'limgan edi.

Yolg'iz mengina o'yin to'polonidan chet-roqda turib, bir ko'zimni o'yinning borishiga tikkanim holda, ikkinchi ko'zimni mакtabxona eshididan uzmagan edim, shuning uchun domlaning echki soqoli ko'rinishi bilan tez, lekin sekingina o'z joyimga o'tib o'tirdim...

Domla hamma bolalarni birday savagandan so'ng, menga qarab:

– Sen aqlii bolasan! – dedi.

Bolalarning hammasi ham o'z o'rнiga o'tirgan va tinchlanishgan edi. Xalfa domlaning qarshisiga keldi. U bukun ham domla undan «gunohkorlar»ning nomlarini so'rар deb o'ylagan bo'lsa kerak, biroq uning o'yi yanglish chiqdi, domla hech narsa so'ramagani holda:

– Darrov bor-da, hovuzdan tunovi kungi suvga tashlanib qo'yilgan tayoqlarni olib kel! Ular yaxshi namlanib, sizlarga odob berish uchun sozlangan bo'lsa kerak, – dedi.

Xalfa boshini qashiy-qashiy hujradan chiqdi, bolalarning rang-qutlari o'chdi, a'zoyi ba-

danlari tol bargiday titradi. Yolg'iz mengina domlaning: «Sen aqlli bolasan», degan so'zi bilan tinchlangan edim.

Xalfa tayoqlarni keltirdi-da, domlaning oldiga tashladi. Domla ham hech so'roq va boshqasiz katta bolalarga qarab:

– Avval buning o'zini bosinglar! – deb xalfani ko'rsatdi.

Bir necha katta bolalar o'rinalidan irg'ib turib xalfani yerga bosdilar va domlaning ikkinchi «buyrug'i»ni kutmasdan, falloqni olib uning oyoqlariga o'radilar ham kaltaklashga boplab tutib turdilar. Uning oyog'ida esa tunovi kungi kaltakning yaralari qatqoqlanib ko'rinish turar edi.

– Ur! – deb buyurdi domla.

Bolalarning biri hovuzdan keltirilgan tayoqlarning birisini olib, u bilan xalfaning oyog'iga urdi, lekin tayoq bir urishdayoq sinib, uch bo'lak bo'lib tushdi. Bola ikkinchi tayoqni oldi,

U ham birinchi urishda sindi: shu tariqa xalfaning oyog'iga ozor bermasdan tayoqlarning barisi sinib bitdi.

Domla g'azablandi va singan tayoqlarning birini olib ko'zdan o'tkazdi.

– Men hovuzga tashlangan tayoqlarning barisi tut, bir kecha-kunduz suvda yotgandan keyin qayishlanib, hech sinmaydigan bo'lar edi. Bu fribgar u tayoqlarni keltirmasdan, tolning quruq xipchinlarini sindirib olib, hovuzda holab keltirgan, xolos, – dedi va bolalarning biringa qarab:

– Bor, hovuzdan o'z tayoqlarimni olib kel! – dedi.

Bola ketdi, xalfa tinchsizlanmadı va ko'zlari ni hujraning shipiga tikkan holda kulumsirab yotar edi...

– Hovuzda tayoq yo'q! – dedi qaytib kelib bola.

– Ma'lum bo'ladiki, – dedi domla, – bu tayoqlarni yashirgan. Xayr mayli, bundan keyin tut yog'ochi o'rniga anor yog'ochi ishlatarman, anor tut yog'ochidan ham zaharliroqdir, lekin hozir uning bu qilig'i uchun qanday o'ch olish yo'llini bilaman.

Domla devorga tirab qo'yilgan uzun tayoqni qo'liga olib: – Yuzini yerga qilib, chopon, ko'ylagini bo'yniga tortib bosinglar buni! – dedi bolalarga.

Bolalar xalfaning oyog'idan falloqni chiqarib oldilar-da, uning yuzini yerga qilib, orqasini yalang'ochlab bosdilar va domla uzun tayoq bilan uning yalang'och orqasiga ura boshladi...

Ammo tirsak va tizzalarini yerga tirab, belini ko'tarib turgan xalfa, domla urgan chog'ida o'zini tervatar, qimirlatar va kaltak zARBini ku-chsizlatar, pasaytar edi.

– Qo'l-oyoqlaridan tortib qorni bilan bosinglar! – dedi, kutganicha kaltaklayolmagan domla.

Ikki bola xalfaning ikki qo'llini, ikki bola uning ikki oyog'ini cho'zib tortganlari holda, boshqa bir bola uning yelkasiga minib yerga bosdi va xalfa ixtiyorsiz...

– Astaroq bosinglar! Bedana o'lmasin, – deb yubordi.

darsida «alif zabar a, zer ye, pesh u» deyish biron musiqa havasini boshlang'ichi sanalsa, bu darsdagi «alif du zabar, andu du zer, indu du pesh un» deyish u havoning «tushirma» taronasi hisoblansa bo'lar edi.

Lekin men bu saboqlarni ashula aytganday cho'zib, zavq va shavq bilan takrorlaganim holda, bulardan hech bir narsa tushunmas, savod chiqarish uchun bularning qanday aloqasi va kerakligi borligini bilmas edim. Endi o'ylaymanki, menga «muallimlik qilgan va saboq bergen domlaning o'zi ham bu darslarning savod chiqarish uchun qanday aloqlari borligini bilmas va tushunmas ekan. Aks holda u menga, «alif, du zabar, andu du zer, indu...» deb, bu yerda hech daxli bo'lma-gan «d» harfining sadosini qo'shib o'rgatmas edi.

Shunday qilib, qancha azob bilan bo'lsa ham men bu saboqni arab alifbosining oxirigacha yodladim.

Bu darsslarning har birida mening «ta'lim taxtacham» o'zgarar edi, lekin domla ularni boshqa bolalarga qilgani kabi menga o'zi yozib bermas va buni:

- Otang ta'nachi, injiq odam, u men yozgan narsalarni xushlamaydi, ayt, o'zi yozib bersin,
- deb, otanga havola qilar edi...

Men yil oxirida «Abjad» darsiga kirdim. Bu dars esa menga hech yoqmadi. Menga:

- Alif bo, be zabar ab, jim bo dol zabar jad, abjad degin, - deb o'rgatar edilar.

Bir tomondan, bu so'zlarni aytish qiyin bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu dars ohangsiz va ko'ngilga yoqmas edi.

Bir kun otam menga:

– Endi sen abjadxon bo'libsan, men senga abjad hisobini o'rgataman, – dedi. Abjad yozilgan taxtachani oldimga qo'ydi va taxtachadagi naqshlarni bitta-bitta menga ko'rsatib:

– Bu nima, bu nima?.. – deb so'ray boshladи.

Men otamning so'raganlariga javob berolmasdim, negaki men bu naqshlarning nima ekanliklarini bilmas edim va shu kungacha biron kishi ularning nima ekanliklarini menga ko'rsatib o'rgatmagan edi.

– Sen shu kunlar maktabda nima o'qib yotibsan axir? – deb otam menga jahllandи.

– Alif bo, be zabar b, jim bo dol, zabar jad, abjad... – darsdan olgan saboqlarimni yoddan aytib berdim.

– Ha... sen to'tiqushsan, – dedi otam, – sen bir narsani aytasan, lekin nima deganingni o'zing bilmaysan.

Otam mening jildimning ichini axtarib, undan «alif be, zabar...» yozilgan ikki taxtachani topib oldi va ularning har biridagi yozuvni menga birma-bir ko'rsatib:

– Bu nima, bu nima? – deb so'radi.

«Buni o'qi» deganida, taxtaga qaramasdan unga yozilgan narsalarni yodaki aytib berar edim.

– Sen to'tiqushsan, – dedi otam takroran, – ayb senda emas, ayb sening domlang va xal-

fangda, ular senga saboqni to'tiqushga o'rgatganday yodlatganlar xolos, ammo hech bir narsani o'rgatmaganlar yoki o'rgata olmaganlar.

Otam manglayini qashib, biroz jim turdi.

– U-ku savodsiz, ko'r bir odam edi, men ko'r-dan ko'rар ko'z talab qilibman. To'g'ridan ham o'zim ahmoq ekanman.

Otam yana o'ylab biroz jim turgandan keyin menga qarab:

– Sen ertaga mакtabga bormagin! – dedi.

Men bo'ssam behad quvondim, chunki abjad darsi ko'nglimga urgan, bundan yuragim bezgan edi.

XI

Otam bir kun xatibni ko'rib:

– Mening o'g'limni xotiningizda o'qiydigan qiz bolalar oldiga qabul qilishingizni so'rayman, – dedi. Xatib:

– Halvoyini ko'proq bersangiz, mayli, – dedi.

Men bu gapni eshitib xalfaning «xar murd» qildiruvchi qo'rqusidan butunlay qutulganim uchun terimga sig'mas darajada sevindim.

Ertasi kuni onam meni otinbibi maktabiga olib bordi.

Dasturxon uchun bir la'l barkash mayiz va kulcha, uning ustiga, menga niyat bilan tikib qo'yilgan bir ro'mol va do'ppi ham qo'yildi.

Otinbibi oq yuzli, qorni katta, semiz, o'rta yoshli bir xotin edi, uning semizligi shu qadar ediki, chordana qurib o'tirganda uning tizzalari

otam tomonidan yo'niladigan tegirmon charxining gupchagiday bo'lib ko'rinar edi.

Biz otinbibi oldiga kirganimizda, u uyning to'rida bir necha qavat ko'rpacha ustida chordana qurib o'tirar edi, uning tevaragida esa katta-kichik qiz bolalar kigiz ustida cho'kkalab o'tirar edilar. Ularning oldilariga o'g'il bolalar o'qiydigan maktabdagি tagsinch оrnida yostiqlar ikki qavat bukib qo'yilgan edi. Ular o'z kitoblarini shu yostiqlar ustiga qo'yib o'qir edilar.

Otinbibi onamni ochiq yuz bilan qabul qildi.

– O'g'lingizni (xatib domлага eringiz tomonidan va'da qilingan katta halvoysi uchun) qabul qilishga majbur bo'ldik, – dedi va qo'shimcha qildi: – Har qachon o'g'lingiz «tabbat»ga¹ o'tsa, bir tovoq shirguruch pishirib keltirishni unutmaysiz, chunki «tabbatga tovoq» deganlar.

– Xudo o'sha kunga yetkazsa, siz uchun bir tovoq palov keltiraman, – dedi onam unga javoban.

Otinbibi dasturxonni ochib non ushatdi va qizlarga ham mening «halvoyim»dan non berdi. Ammo domla singari nonni ushatib, ularning oldilarga otmay, o'z xalfasi bo'lgan kattaroq bir qiz bolaga nonni berdi va uni o'quvchi bolalarga bo'lib berishni buyurdi, bu qiz esa har bir talabaning qo'liga bir burdadan non berdi-da, kattaroq parchani o'ziga qoldirdi.

Dasturxonga fotiha o'qildi, otinbibi menga bismillo, azuibillo ayttirib saboq boshlatdi. Shu

¹ Qur'on suralaridan biri.

bilan mening ikkinchi dars boshlash marosim bitdi. Onam ketdi, men bo'ssam qizlar mакtabida qiz bolalar orasida qoldim.

Otinbibibi menga abjadning o'rtasidan saboq berdi, u bergen saboqni men machitdag'i maktabda o'qigan edim.

Otinbibining dars berish usuli domlanikiga qaraganda biroz boshqacharoq edi, u kardash-qalamday bir cho'pchani qo'liga olib, uning uchi bilan har bir harfni ko'rsatar, buning nomini ayttirar edi. Lekin otinbibibi ham mening u harfni tanish-tanimasligim bilan ishi yo'q edi.

Otinbibibi o'zining butun vaqtini saboq berishga sarf etar, har bir bolani navbat bilan o'z oldiga chaqirib dars berar va bu bilan bir kunlik o'qish o'tar edi.

Otinbibining bir kunlik dars vaqtini ertangi nonushtadan boshlab, to soat o'n ikkigacha edi, u bolalarni machitdag'i domladay ertadan kechgacha qamab qo'yib zeriktirmas edi. Uning shogirdlari erta bilan nonushtani o'z uylarida yeganlaridan keyin mакtabga kelardilar, saboq olish va olingan saboqni o'qish bilan shug'ullanar edilar.

Soat o'n ikki bolganda otinbibibi bolalarni nonxo'rakka chiqarar edi. Ammo bolalar non yejish uchun uylariga bormas edilar, balki o'zlar olib keltirgan nonlarini shu yerda yer edilar. Nonxo'rak boshlanganda har bir bola otinbibiga o'z nonining yarmisini berar edi.

Bu qoidadan xabarsiz bo'lganim uchun men birinchi kun mакtabga non olib bormagan-

dim. Bir qiz tomonidan berilgan nonni otinbibi menga berib:

– Bokun seni men ziyofat qilay, erta esa sen nonni ko'proq keltirib, meni ko'proq non bilan ziyofat qilarsan, – dedi.

Nonxo'rakdan keyin shogirdlar otinbibining uyi va hovli yuzlarini toza qilib supurib berar edilar.

Ba'zi kunlarda otinbibi qizlarga kir ham yuvdirar edi. Hatto meni ham kir yuvishga undab:

– Kir yuvishni o'rganib ol, katta bo'lib o'qish uchun Buxoro madrasalariga borganingda senga kerak bo'lajak, – der edi.

Otinbibi ham avvalgi domla singari bir necha uzun-qisqa tayoqlarni o'z orqasiga, devorga tirab qo'ygan edi. Lekin bu tayoqlar bilan otinbibining birorta o'quvchini urganini ko'rmadim. Agar biror qiz maktab «odobi»ga qarshi biror sho'xlik qilsa yoki saboqni o'rganishga harakat qilmasa, otinbibi uning betiga o'zining yengi bilan bir marta urar edi. Otinbibi kiyadirgan ko'ylagining engi o'sha zamondagi Buxoro xotinlarining engi kabi keng va uzun bo'lsa ham oq surp yoki nozik chitdan tikilgan bo'lganidan, uning zarbasi zaif bir shamolning zarbasidan ortiq ta'sir qilmas edi.

Mendan boshqa butun o'quvchilarning hammasi qizlar bo'lganidan, ular sho'xlik qilmas, yomon o'yinlar o'ynamas va bir-birlarini urmas edilar. Agar nonxo'rakdan keyin uy supurish yoki kir yuvish oralarida fursat topsalar qo'g'irchoq o'ynardilar. Ularning o'yinchoqlari o'z mahsulot-

lari bo'lgan qo'g'irchoqlar bo'lib, mening uchun har biri «o'g'ilcha» qo'g'irchoq yasab berishdi.

Ular singan sopollardan «qozon», «tovoq» yasab, to'y qilishar, mening qo'g'irchog'imni o'z qo'g'irchoqlariga kuyov qilar edilar. Mening qo'g'irchog'imdan bo'lak «er qo'g'irchoq» bo'lma-gani uchun uning yolg'iz o'ziga o'n-o'n ikki nafar «qiz» qo'g'irchoq kuyovga chiqar edi. To'g'risi, o'sha vaqtarda shu o'yin menga juda yoqar edi.

Ba'zi qizlar besh-o'ntalari bir yerga chiqayotgan o'z qo'g'irchoqlarini bir-birovlari bilan urishtirar edilar. «Kundoshlar» urishidan zerikkan mening qo'g'irchog'imni ularning ba'zilari ni qo'yishga (taloq qilishga) majbur qilar edilar. Bu hollardan mening ko'nglim biroz qoralanar, xafa bo'lar edim.

Keyinroq bizning mакtabga yana bir o'g'il bola kelib kirdi, biroq u «kuyovlik sharafiga» yetisha olmadi. U bir qadar dag'alroq bo'lganidan bo'lsa kerak, qizlar unga qo'g'irchoq yasab bermadilar (ajoyib sarguzashtlarni boshidan kechirgan bu bola hikoyasini boshqa bir vaqtda yozarman).

XII

Men otinbibi maktabida davom qilar edim. «Haftiyak»ni¹ tamom qildim, uning bir necha qisqa suralarini yodladim, Qur'онни ham boshdan oxirigacha o'qib chiqdim. Xo'ja Hofiz devonidan ham birmuncha o'qidim. Ammo hali ham otinbibi tomonidan o'qilgan narsalardan bo'lak

¹ Qur'onning qisqaroq suralaridan to'plangan yettitadan bir bo'lagi.

joylarini hech o'qiyolmas edim. Masalan, Hofiz devonidan maktabda o'qib o'tganim bir g'azalni qayerda va kimning qo'lyozmasi bolsa bo'sin o'qiy olar edim, ammo maktabda o'qimaganim biron baytni hatto kitobimda bolsa ham o'qiy olmas edim, ya'ni hali ham savodim chiqmagan edi. Xat yozish bolsa hech qo'lidan kelmas, biror harfni ham yozolmas edim.

Lekin abjadni o'rgandim, abjad rasmiy xat bilan yozilgan bo'lgani uchun Qur'onne ham sekin-sekin, shuningdek, abjad rasmiy xati bilan, ya'ni nasx xati bilan yozilgan har bir narsani ham turtilib bolsa-da, o'qiy olar edim.

Endi o'ylaymanki, buning sababi quyidagi-cha ekan:

Otam meni otinbibi maktabiga qo'ygan bo'lsa-da, uning o'zi menga abjad hisobini o'rgatishdan to'xtagani yo'q edi. U deyarli har kecha shomdan xuftonga qadar, ya'ni taxminan bir soat men bilan shug'ullanar edi.

Boshlab menga «abjad» so'zidan «A», «B», «J», «D», harflarini tanitdi, so'ngra bu harflarni bir-birlariga urishtirib va qanday o'qish yo'lini o'rgatdi, undan keyin «A», - bir, «B», - ikki, «J» - uch, «D» - to'rt deb bularning hisobini tushuntirdi... Shu yo'l bilan otam abjadni oxirigacha uning hisobi bilan birga o'rgatib chiqdi.

Shunday qilib, bir oyda men abjad harflarini o'rgandim va o'qiydirgan bo'dim, avval bir-bir orttirib o'ngacha, so'ngra o'n-o'n orttirib yuzgacha, undan keyin yuz-yuz orttirib minggacha chiqadigan abjad hisobini ham o'rgandim.

Bularni o'rganib bo'lganimdan keyin otam menga:

– Endi senga qiziq bir narsani o'rgataman, bu to'qqiz raqam va sifr (nol)dirki, uni hind ha-kimlari topib chiqarganlar. Bu to'qqiz raqam va sifr, ya'ni o'n shakl bilan butun dunyoni hisob-lash, bu raqamlarga jamlash mumkin, – dedi.

Men: «Bu qanday sehrli bir ish ekan», deb unga havas qildim.

«O'n shakl bilan butun dunyoning narsalari-ni hisoblash, haqiqatan ham o'rganarli bir ilm. Mening-ku, o'n barmog'im bor, men, axir, bular bilan hatto haftaning kunlarini yanglisha-yanglisha zo'rg'a sanab chiqaman...»

Men otamdan bu jodugarlarcha bo'lgan o'n shaklni tezroq o'rgatishini qat'iy ravishda talab qildim.

Otam o'rgatishni boshladi, avval menga to'q-qiz raqamni bir-bir yozib ko'rsatdi. Har kun bir raqamni tanitar, uning nechaligini o'rgatar edi. So'ngra sifr (nol)ni o'rgatdi. Undan keyin bir nol bilan «bir»ning «o'n» bo'lishini o'rgatdi va shu yo'l bilan to'qqiz raqamni nol bilan qo'shib anglatdi.

Bu dars menga u qadar qiyin bo'lindi, negaki, men abjad hisobida sanoqlarning qanday qilib bir-bir, o'n-o'n, yuz-yuz ortganlarini ko'rib o'tgan edim.

Bularni o'rganib bo'lganimdan keyin otam menga:

– Sen bizning qishloqdagi kishilarining bil-magan narsalarini bilding, abjad hisobini bo'lsa hatto sening ilgarigi domlang bo'lgan qishloq domlasi ham bilmaydi, – dedi.

Men bu kabi nodir ilmlarni o'rganish bilan faxrlanar edim.

Bu orada bir voqea yuz berdiki, abjad hisobi haqiqatan ham mening faxrlanishimga sabab bo'lgan. Voqea shu ravishda yuz berdi:

Bizning mozorda yangi yil (navro'z) sayli bo'ldi. Bu saylga qo'shni qishloqning aholisi ham yig'ildi. Saylda kurash boshlandi, to'plangan xalq ikkiga bo'linib, tarafma-taraf boldilar. Mening otam ma'rakaning ichidagi o'z taraflarimizning eng oldida o'tirgan va meni ham o'z yoniga o'tqazgan edi.

Har ikki tomondan polvonlar chiqib bir-birovlari bilan kurashar, kuchsizlarini yiqitar edilar. Shunday qilib, birinchi vaqtlar bizning qishloqliklar g'olib chiqdi, biznikilardan hech kim yiqilmas edi.

Bu orada bizning qishloqqa qarshi bo'lgan tarafdan, Buxoroda ilm tahsil qiladigan bir mullavachcha, o'zlari tarafdan birovni yiqitgan bizning bir yigitga talabgor bo'lib chiqdi. Bizning yigitimiz ham u bilan kurashmoqchi bo'lib, yana davraga chiqdi. Kurash boshlandi.

Biroz tortishuv va yoqalashuvdan keyin bizning yigitimiz yiqildi.

Bu yiqilishdan so'ng bizning tomondan yana bir yigit shu yiqitgan mullavachchaga talabgor bo'lib o'rtaga chiqdi.

Bu yigit mullaga o'zidan ko'ra kuchliroq ko'ringan bo'lsa kerakki, u:

– Men bu yigit bilan kurashmayman, – dedi.

– Nega bu bilan kurashmaysiz? – deb qichqirishdi bizning tomonliklar.

– Shuning uchunki, u chapani, men mulla, chapani mulla bilan kurashganda ulamonni

tahqir qilgan bo'ladi; – deb javob berdi mulla-vachcha.

Otam mullavachchadan bu javobni eshitgandan keyin meni yonboshiga olgani holda o'rnidan irg'ib turdi va kurash maydonining o'rtasiga borib mullavachchani o'z oldiga chaqirdi.

Mullavachcha o'rnidan turdi-da, otamning oldiga kelib:

– Nima deysiz? – dedi.

– Siz mullami, polvonmi? – deb so'radi mullavachchadan.

– Men polvon-mulla! – dedi u.

– Agar mulla bo'sangiz, – dedi otam, – mening sakkiz yashar shu o'g'lim bilan, uning yoshi va gavdasiga qaramasdan, munozara qiling. Xalq sizning mullaligingizni ko'rsin, agar polvon bo'sangiz o'zingizning tengdoshingiz bo'lgan, gavdasi ham sizning gavdangizdan katta bo'limgan anovi yigit bilan kurashing, xalq qaysi birovingizning zo'r ekanligingizni bilsin.

Otam u mullavachchadan hech bir javob eshitmagandan keyin:

– Keling, avval boshlab sizning mullaligingizni sinab ko'raylik, – dedi va menga qarab:

– Bu mulladan abjad hisobidan biror narsa so'ra, o'g'lim! – deb buyurdi.

Men ham hech bir o'yamasdan:

– «T» nechadir? – deb mulladan so'rading.

Bunga mullavachcha javob berolmagandan so'ng otam mendan so'radi.

– O'zing ayt, «T» nechadir?

– To'rt yuz, – dedim men.

Shunday qilib, otam bir necha harflarni bir-bir atab, haligi mullavachchadan: «Bu necha-

dir, bu nechadir?» deb so'radi, u javob berolma-gandan so'ng uning javobini mendan so'radi... va men javob qaytarar edim.

Bizning tomonliklar mullavachchani: «Uyat, uyat...» deya masxaraladilar. U uyaldi, qizardi, bo'zardi. Undan so'ng otam unga:

– Endi sizning mullaligingiz bitdi, sob bo'ldi, siz ham bir chapani kabi shu yigit bilan kurash tusha bering! – dedi.

Mullavachchaning haligi bizning tomon yigitni bilan kurashuvdan boshqa chorasi qolmagan edi. Mullavachcha bilan bizning yigit kurashga tushdilar, biroq kurash tushishgan hamon mullavachcha gumburlab yiqildi.

Tomoshabinlar o'rtasida guvillagan shovqin ko'tarildi, xalq hayqirib o'rnidan qo'zg'aldi. Xalq botirlarcha qadam tashlab, ma'rakani aylanib yurgan g'olib yigitni qo'llariga ko'tarishib, havoga otar va ilib olishar edi.

Shu bilan kurash tugadi. Bizning tomonning yigitlari otamga:

– U mullani haqiqatda sizning o'g'lingiz yiqitdi, negaki u munozarada mulzam bo'lib, uyalgani orqasida o'z kuchini to'plab kurashga berolmadi, – deyishdi.

Ularning bu so'zidan g'ururim tobora otar, xayolimda: «Haqiqatan ham men nodir ilmlarni o'rgangan ekanman», deb faxrlanar edim. Ammo haqiqatda esa hali xat-savodim chiqmagan edi.

MUNDARIJA

Navqiron avlod xizmatida. <i>Tahririyatdan</i>	3
Sudxo'rning o'limi	4
Eski maktab	187

Adabiy-badiiy nashr

SADRIDDIN AYNIY

ESKI MAKTAB

Qissalar

Muharrir

Feruza QUVONOVA

Badiiy muharrir

Dilfuza SALIXODJAYEVA

Sahifalovchi

Dildora JORABEKOVA

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 22.01.2020-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogi 7,5. Shartli bosma tobogi 12,6.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz'i.

Adadi 10000 (II zavod 3000) nusxa. Buyurtma № 27.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlod» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – (78) 147-00-14; (78) 129-09-72.

Marketing bo'limi – (98) 128-78-43; (93) 397-10-87.

Faks – (71) 273-00-14;

email: yangiasravlovi@mail.ru

«Men o‘z umrimda ko‘plab kitoblar yozdim, bularning barchasi bir mavzuga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘z hayotim materiallari asosida yuzaga keldi».

Sadriddin AYNTY

Men... Ayniyni doimo sevishim... oxonlar oldida e tui, so‘zsiz, nodir h... mat qilishimni, uni moqchiman. dir».

Aytmatov

Ayni... tulug‘ligi ham, teng... gi ham shundaki - u boshqa birovlar uddalay olishga aql bovar qilmaydigan ishlarni qoyillatib bajarishga qodir bilim va salohiyat sohibi edi. Ayniy ilm va ijod uchun tug‘ilganligini bilar, shuning uchun butun kuch-quvvati, mehnat qobiliyatini ilm-fan, adabiyot ravnaqiga bag‘ishlagandi».

**Ibrohim HAQQUL,
adabiyotshunos olim**



www.book.uz
Onlayn kitob do‘koni



ISBN 978-9943-27-562-1



9 789943 275621